<b>86-100 ball</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- talaba mashg‘ulotlarga doim tayyorlanib keladi, juda faol, dasturiy materiallarni yaxshi biladi, xulosa va qarorlar qabul qila oladi, ijodiy fikrlaydi, bilimlarni amaliyotda qo‘llay oladi.</li> <li>- talaba ijodiy masalalarni hal qilish mobaynida tegishli bilimlarni qo‘llash doirasini maqsadga muvofiq tanlab, yechimini topishga xizmat qiluvchi yangi usul va yo‘nalishlarni topa oladi, o‘quv materiali mohiyatini tushunadi.</li> <li>- talaba taqdim etilgan o‘quv masalalarini yechish yo‘llarini izlaydi, dasturiy materiallarni biladi va aytib bera oladi hamda tasavvurga ega bo‘ladi.</li> </ul>											
<b>71-85 ball</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- talaba o‘rganilayotgan hodisalar aloqadorligini bilish hamda obyektni tavsiflay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi bilan birgalikda, qo‘ylgan masalalarni sabab-oqibat aloqadorligini ochib bergen holda yecha oladi, o‘rganilayotgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lay oladi va mustaqil mushohada qila oladi.</li> <li>- bilim va ko‘nikmalar mazmunini tadbiq qila olish mahorati, bir tipdagи mashq va topshriqlarni yecha olish, yozib olish va eslab qolish qobiliyatiga ega, bilimlarini amalda qo‘llay oladi.</li> </ul>											
<b>55-70 ball</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- talabaning eshitganlari, ularga berilgan namunalar, taqdim etilgan ko‘rsatmalar asosida topshriqlarni bajara oladi, mohiyatni tushunadi.</li> </ul>											

		- talaba qator belgilar asosida ma'lum birliklarni farqlash bilan birga unga ta'rif bera oladi va o'quv materialini tushuntirib bera oladi.
	<b>0-54 ball</b>	- talaba fan mavzulari bo'yicha umumiylashtirishda emas. - talaba dastiriy materiallarni bilmaydi.

**Fanga doir video ma'ruzalar, videoroliklar:**

**Glossariylar:**

**Axborot resurs baza:**

## 2.9. Baholash mezonlari

**Ilova**

### Reyting nazoratlari va baholash mezonlari

#### Reyting nazorati jadvali

Nº	Reyting nazorati shakli/maksimal ballari	1-JB	2- JB	3- JB Mu-s-taqi l ish	4- JB Mus-taqil ish	ON	ON	YN	Ballar yig'in disi
1.	Максимал балл	10	10	10	10	15	15	30	
2.	Shakli	Og'-zaki	Og'-zaki	Og'-zaki	Og'-zaki	Yozma	Test	Yozma	100
3.	Muddati (haftalarda)	5	9	14	18	12	18	19	

### Asosiy qism

**1-modul. "Mutaxassislikka kirish" fanining o'r ganish obyekti, maqsad va vazifasi. Til murakkab mohiyat sifatida. Tilshunoslik fanining o'r ganish sohasi va mavzusi**

Mutaxassislikka kirish fanining maqsadi va vazifasi. Tilning murakkab mohiyat sifatidagi tafsifi. Tilning mohiyati haqidagi qarashlar. Til – insoniyatning eng muhim aloqa vositasi ekanligi. Fikr almashinuv (kommunikatsiya) va uning asosiy vositalari.

## **2-modul. Tilning paydo bo‘lishi**

Tilning paydo bo‘lishi haqidagi asosiy farazlar: tovushga taqlid, undovlar farazi, ijtimoiy kelishuvlar va mehnat chaqiriqlari farazi. Tilning paydo bo‘lishi haqidagi asosiy faraz. Tillarning o‘zaro ta’siri va rivojlanish qonuniyatları.

## **3-modul. Til va tafakkur munosabati**

Til va tafakkur. Tilning tafakkur bilan chambarchas bog‘liqligi. Til va mantiq birliklarining o‘zaro munosabati. Til va nutqiy faoliyat.

## **4-modul. Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan munosabati**

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi. Til taraqqiyoti jarayoni. Til taraqqiyotining ichki va tashqi qonuniyatları. Substrat va superstat hodisasi. Tilning strukturasi va sistemasi tushunchasi. Til sistemalar sistemasi sifatida. Til strukturasining elementlari.

## **5-modul. Yozuv haqida ma’lumot. Til va yozuv munosabati**

Yozuv va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati. Til va yozuv. Yozuvning paydo bo‘lishi. Yozuv tarixining piktografik, ideografik, fonografik bosqichlari. Grafika. Hozirgi o‘zbek alfaviti va lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosi. Alfavitning o‘zgarishiga sabab bo‘ladigan omillar. Orfografiya va uning prinsiplari. Fonetik prinsip. Morfologik prinsip. Tarixiy-traditsion prinsip. Maxsus yozuv turlari.

## **6-modul.Til va madaniyat munosabati**

Til va madaniyat tushunchasi. Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi. Madaniyatning tilda aks etishi. O‘zbek tiliga xos lingvokulturologik belgilar.

## **7-modul. Til - belgilar tizimi. Lingvistik belgi tuzilishi**

Til tizimdir. Tilning belgilar sistemasi ekanligi. Belgi haqidagi nazariyalar xususida. Lingvistlk belgi haqida. Lingvistik belgining ikki muhim xususiyati. Lingvistik belgining tuzilishi. Munosabat va ununi turlari.

## **8-modul. Tilshunoslik va uning bo‘limlari. Fonetika va fonologiya**

Nutq tovushlari tilning tabiiy materiali sifatida. Nutq tovushlarining akustikasi va artikulyatsiyasi. Nutq tovushlarining tasnifi. Vokalizm va konsonantizm. Unli tovushlarning tasnifi. Nutqning fonetik bo‘linishi: jumla (fraza), takt, bo‘g‘in, tovush. Enlitika va enkliza hodisasi. Proklitika va prokliza hodisasi. Bo‘g‘in va uning turlari. Intonatsiyaning vazifasi. Urg‘u va uning turlari. Nutq tovushlarining o‘zgarishi. Reduksiya. Nutq tovushlarining pozitsion va kombinator o‘zgarishlari. Fonema tushunchasi va uning tovushdan farqi.

## **9-modul. Fonetikaning to‘rt aspekti. Nutqning fonetik bo‘linishi**

Fonetikaning to‘rt aspekti: fizik-akustik, fiziologik, perzeptiv, lingvistik aspektlari. Nutqning fonetik bo‘linishi. Segment va supersegmet birliklar.

## **10-modul. Leksikologiya**

Leksikologiya. Leksikologiyada o‘rganiladigan muammolar. Leksikologiya sohalari. Semasiologiya, onomasiologiya, toponimika, etimologiya, frazeologiya va b. Leksema va uning semantik strukturasi. Leksema til birligi, so‘z forma nutq birligi sifatida. Til va nutq, uning birliklari haqida dastlabki ma’lumotlar. Leksik ma’no (denotat) va tushuncha (signifikat). Leksema va termin. So‘zning semantik strukturasi. Semema. Nomema. Sema turlari. Tilning

lug‘at tarkibi. Dialektizmlar. Arxaizmlar. Istorizmlar. Neologizmlar. Tabu va evfemizmlar. Jargon va argolar. Etimologiya va uning turlari. Leksikografiya. Lug‘at turlari: ensiklopedik va lingvistik lug‘atlar.

### **11-modul. Leksikografiya. Lug‘at turlari va tiplari**

Leksikografiya tilshunoslikning lug‘atchilik bilan shug‘ullanadigan sohasi ekanligi. Lug‘at turlari va tiplari. Qomusiy lug‘atlar, maxsus lug‘atlar. Lug‘at maqolalarining joylahtirilish sxemasi.

### **12-modul. Grammatika va uning bo‘limlari. Morfologiya.**

Grammatika va uning bo‘limlari: morfologiya va son kategoriysi, rod kategoriysi. Kelishik kategoriysi, shaxs-son kategoriysi. Grammatik ma’noning ifodalinish usullari: sintetik usul, analitik usul. Grammatik forma va kategoriylar. Grammatik kategoriyalarning turlari. Morfologiya. So‘z va morfemaning tuzilishi. Morfema tushunchasi. Morfemaning turlari. Affiksal morfemaning vazifasiga ko‘ra turlari. So‘z yasovchi affiksal morfemalar. Affiksal morfemaning o‘rniga ko‘ra turlari.

So‘zlarni turkumlarga ajratish prinsiplari. So‘z turkumlarining tasnifi: mustaqil so‘z turkumlari, yordamchi so‘z turkumlari, alohida guruhni tashkil etadigan so‘z turkumlari.

### **13-modul. Sintaksis haqida ma’lumot. Sintaksis qismlari**

Sintaksis qismlari: sodda gap sintaksi, qo‘shma gap sintaksi, murakkab qo‘shma gap sintaksi. Sintaktik munosabat turlari: predikativ va noprifikativ bog‘lanish. So‘z birikmasi. So‘z birikmasining qo‘shma so‘z va gapdan farqi. So‘z birikmasining turlari: otli birikma, fe’lli birikma, sifatli birikma, ravishli birikma. Gap. Gapning tasnifi, ifoda va maqsadiga ko‘ra turlari. Gapning aktual bo‘linishi.

### **14-modul. Dunyo tillarining tipologik tasnifi**

Dunyo tillarining xilma - xilligi. Tillar tasnifining asoslari. Tillar tasnifining turlari. Tipologik tasnif. Jahon tillarining geneologik tasnifi. Morfologik tipologiya.

### **15-modul. Xalqaro va sun’iy tillar**

Xalqaro va sun’iy tillar haqida ma’lumot. Halqaro va sun’iy tillarning o‘ziga xos xususiyatlari. Esperanto. Koyne tili.

### **16-modul. Lingvistika turlari va lingvistik metodlar haqida boshlang‘ich ma’lumotlar**

Lingvistika turlari haqida boshlang‘ich ma’lumotlar. Metod. Metodologiya. Diaxron tadqiqot metodlari. Sinxron tadqiqot metodlari. Lingvistik metodlar haqida boshlang‘ich ma’lumotlar. Ilmiy tadqiqot mavzusini va yo‘nalishini tanlash.

## **Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Ma’ruza mashg‘ulotlarda o‘rganilgan mavzular amaliy mashg‘ulotlarda mustahkamlanadi. Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar o‘zbek adabiy tili haqidagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Amaliy mashg‘ulotlar mavzularining muayyan rejasi va adabiyotlar ro‘yxati talabalarga taqdim qilinadi. Rejada ko‘rsatilgan masalalarni darslik yoki o‘quv

qo'llanma hamda ilmiy adabiyotlarga tayanib o'rganish tavsiya qilinadi. Talabalar hozirgi o'zbek adabiy tilining ma'lum bo'limlari bo'yicha olgan nazariy ma'lumotlariga doir tahlillar o'tkazishadi.

### **Amaliy mashg'ulot mavzulari**

1. Mutaxassislikka kirish fani, uning mundarijasi, maqsadi, vazifasi va ahamiyati. Tilning mohiyati. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi. Tilshunoslik fan sifatida. Tilshunoslikning o'rganish obyekti, muammolari, boshqa fanlar bilan aloqasi, uning mohiyati va materiali yuzasidan suhbat.
2. Til – insoniyatning eng muhim aloqa vositasi. Fikr almashinushi (kommunikatsiya) va uning asosiy vositalari. Tillarning o'zaro ta'siri va rivojlanish qonuniyatatlari. Til va jamiyat masalalarini o'rganish.
3. Tilning paydo bo'lishi. Tillarning o'zaro ta'siri va rivojlanish qonuniyatatlari. Substrat va superstat hodisalari.
4. Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan munosabati. Til taraqqiyotining ichki va tashqi qonuniyatatlari. Til strukturasi va sistemasi. Til - sistemalar sistemasi sifatida.
5. Fonetika va fonologiya. Tovush hosil qiluvchi organlarni aniqlash. Nutq tovushlarini o'rganish. Unli tovushlar tasnifi aks etgan jadvallar tuzish. Undosh tovushlar tasnifi aks etgan jadvallar tuzish. Nutqning fonetik bo'laklarini matn asosida belgilash. Fonetik o'zgarishlar: akkomodatsiya, assimilatsiya, metateza va boshqa fonetik hodisalarga matndan misol topish.
6. Leksikologiya va frazeologiya. Matndan ko'p ma'noli va bir ma'noli so'zlarni aniqlash. Til va nutq birliklari haqida dastlabki ma'lumotlar. So'z - til birligi, so'z forma - nutq birligi sifatida. So'z va leksema kabilar yuzasidan fikr bildirish, mashqlar bajarish
7. Leksik ma'noning taraqqiyot yo'llari. Leksemalar o'rtasidagi semantik munosabatlar. To'g'ri ma'no va ko'chma ma'no, differensial ma'no va integral ma'nolarni aniqlash. So'zning ma'no ko'chish yo'llari: metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksional ko'chishga matndan misollar topish. Sinonimiya va antonimiyaga matndan misollar topish.
8. Leksemalar o'rtasidagi shakl munosabatlari. Omonimiya, paronimiya. Omonim va paronimlarni matndan aniqlash.
9. Tilning lug'at tarkibi. Jargon va argolar. Istorizm, arxaizm, neologizm Tabu, evfemizim, jargon va argolar ishtirokida gaplar tuzish. Matndan frazeologik iboralarni aniqlash. Istorizm, arxaizm, neologizm ishtirok etgan gaplar tuzish yoki ularni matndan aniqlash. Lug'atlar ustida ishslash.
10. Grammatika. Grammatik ma'no ifodalovchi vositalarni matndan aniqlash. O'zbek va boshqa o'rganilayotgan tillarni grammatik ma'noning ifodalanishi nuqtai nazardan taqqoslash. So'z tarkibini tekshirish va morfemalarni aniqlash. Grammatik kategoriyalarni turli tillarda ifodalanishi bo'yicha mashqlar bajarish. Matndan turli so'z birikmalariga misollar aniqlash. Matn asosida gapning aktual bo'linishi bo'yicha mashqlar ishslash. Matndan so'z birikmalarini aniqlash.

Ularning tarkibini o'rganish. Matndagi sintaktik bog'lanish vositalarni aniqlash. Matn turlari bo'yicha mashqlar ishslash.

11. Til va yozuv. Yozuvning paydo bo'lishi. Yozuv tarixining piktografik, ideografik, fonografik bosqichlari. Yozuv qurollari va materiallari. Alfavit. Hozirgi o'zbek alfaviti va lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosi. Orfografiya va uning prinsiplari. Matndan turli prinsiplar asosida yozilgan so'zlarni aniqlash.

12. Jahon tillari xaritasi bilan tanishish. Jahon tillari xaritasidan turkiy tillar oilasiga mansub tillarda so'zlovchi mamlakat va shaharlarni aniqlash. Jahon tillari xaritasidan Hind-yevropa oilasiga mansub tillarning joylashishini aniqlash.

13. Lingvistika turlari. Lingvistik metodlar haqida boshlang'ich ma'lumotlarga ega bo'lish.

14. Metod. Metodologiya. Diaxron tadqiqot metodlari. Sinxron tadqiqot metodlari. Lingvistik metodlar haqida boshlang'ich ma'lumotlarga ega bo'lish. Ilmiy tadqiqot mavzusini va yo'nalishini tanlash.

### **Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi. Darslik va o'quv qo'llanmalarining boblari va mavzularini o'rganish. Bunday ish natijalari seminar, kollokviumlarda hamda referatlar, individual berilgan vazifalar bo'yicha tekshiriladi.

Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. Bunda o'qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo'ladi. Tarqatma materiallar hajmi har bir ma'ruza uchun 5-8 sahifa bo'lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.

O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishslash. Bu usul ma'ruza mashg'ulotlari hamda amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'llanishi mumkin.

Fanning boblari va mavzulari ustida ishslash. Bu maxsus va ilmiy adabiyot (monografiya, maqolalar) hisob-grafik ishlari, referatlar, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarini bajarish chog'ida amalga oshiriladi. Mustaqil tahsilning bu shakli barcha kurs talabalariga tavsiya etiladi. Uning natijalari ham reyting nazoratida aks etadi.

Mutaxassislikka kirish fanining nazariy qoidalarini mustahkamlash bo'yicha manbalarni o'rganish, ularni tahlil qilish. Bu ish barcha semestrlarda bajariladi va reyting tizimida baholanadi.

Fanlar bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, qo'shimcha adabiyotlar ustida ishslash hamda ularni o'rganish. Bu ish ham barcha semestrlarda amalga oshiriladi va reyting tizimida baholanadi.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqr o'rganish.

Masofaviy ta'lim.

## **Mustaqil ta’lim mavzulari:**

1. Tilshunoslik va mantiq.
2. Tilshunoslik va tabiiy fanlar.
3. Yozuv tarixi.
4. Kommunikativ tilshunoslik.
5. Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy kabi allomalarning tilga oid asarları bilan tanishish.
6. Tilning ijtimoiyligi.
7. Til – insoniyatning muhim aloqa-aratashuv vositasi, millat ruhiyati va ma’naviyati ko‘zgusi.
8. Tilning paydo bo‘lishi. Tillarning o‘zaro ta’siri, rivojlanish qonuniyatları.
9. Til taraqqiyotining ichki va tashqi qonuniyatları.
10. Til - belgilar tizimi. Lingvistik belgi tuzilishi.
11. Til va tafakkur munosabati.
12. Til va jamiyat, til va tarix munosabati.
13. Til birliklari o‘rtasidagi munosabatlar.
14. Til va nutq munosabati. Til va nutq birliklari.
15. Til sathlari va sathlarga ajratish tamoyillari.
16. Dunyo tillarining tasnifi.
17. Tillarning morfologik tasnifi.
18. Xalqaro va sun’iy tillar.
19. Til va yozuv munosabati.
20. Lingvistik tahlil metodlari.

## **Dasturning axborot-uslubiy ta’minoti Didaktik vositalar:**

Mutaxassislikka kirish fanidan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlari yangi pedagogik texnologiyalar asosida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (proyektor, kompyuter, elektron doska, va b.) foydalangan holda o‘tiladi. Darslarda mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda “Suhbat” metodi, “Aqliy hujum”, “Blis- so‘rov”, “Tushunchalar izohi”, “FSMU”, “Klaster” kabi interfaol metodlar qo‘llaniladi.

## **Foydalilanadigan adabiyotlar ro‘yxati Asosiy adabiyotlar:**

1. Yo‘ldoshev I. va boshqalar. Tilshunoslikka kirish (darslik). -Toshkent, 2013.
2. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish (o‘quv qo‘llanma). -Toshkent, 2009.
3. Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish (o‘quv qo‘lanma). –Toshkent, 2007.
4. Sharipova O‘., Yo‘ldoshev I. Tilshunoslikka kirish (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent, 2006.
5. Yo‘ldoshev I., Sharipova O‘. Tilshunoslikka kirish (o‘quv qo‘llanma). -Toshkent, 2007.

### **Qo ‘shimcha adabiyotlar**

1. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. -Toshkent: Akademnashr, 2013.
2. Nurmonov A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent, 2001.
3. Nurmonov A. va b. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. (o‘quv qo‘llanma). -Toshkent, 2001.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. - Toshkent, 2002.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (darslik). -Toshkent, 2006.

### **Internet saytlari**

- 1.<http://www.gov.uz/> Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU sayti.
- 2.<http://www.pedagog.uz/> Pedagogika muassasalari portali.

## MA’RUZA MATNI

### 1-§. “MUTAXASSISLIKKA KIRISH” FANINING O’RGANISH OBYEKTI, MAQSAD VA VAZIFASI. TIL MURAKKAB MOHIYAT SIFATIDA

#### Reja:

1. Tilshunoslik nazariyasi” mutaxassislik fani sifatida.
- 2.“Tilshunoslik nazariyasi” fanida o’rganiladigan asosiy masalalar.
- 3.Tilshunoslik nazariyasining fan sifatida rivojlanishidagi asosiy qarashlar.
- 4.Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati.

**Asosiy tushunchalar:** *tilshunoslik, tilshunoslik nazariyasi, til va jamiyat, umumiy tilshunoslik, xususiy tilshunoslik, fonetika, fonologiya, grammatika, morfologiya, sintaksis, qadimiy til, proto til, sinxroniya, diaxroniya.*

Tilshunoslik (grekcha *lingua-til, logos-fan* so‘zlaridan olingen bo‘lib, “lingvistika”), murakkab va ko‘p qirrali, boshqa ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tilni ilmiy va amaliy o‘rganuvchi fandir.

Til inson va xalqsiz, binobarin, jamiyatsiz bo‘lmaydi. Til jamiyat uchun xizmat qiladi va uning a’zolari muloqot qilishini ta’minlaydi.

Til jamiyat tarixidan darak beruvchi buyuk vosita bo‘lib, insonning ma’naviy va ma’rifiy shakllanishi va rivojlanishi uchun zarurdir. Til, inson va jamiyat bir-birisiz bo‘lmaydi. Til inson tafakkuri, rahiyyati, madaniyati, urf-odati va shaxsiy xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Tilshunoslik fani umumiy va xususiy bo‘lishi mumkin. Umumiyligi tilshunoslik jahon tillaridagi fonetik, fonologik, grammatik (morfologik va sintaktik), leksik- semantik, stilistik jihatlarini ilmiy o‘rganadi. Bu alomatlarning aniq bir tildagi izohini xususiy tilshunoslik o‘rganadi (masalan, o‘zbek tili yoki boshqa tillardagi izohi).

Tilshunoslik nazariyясини о‘рганишдан avval dastlabki til bilimiga tegishli bo‘lgan tilshunoslik debochasi, ya’ni tilshunoslikka kirish hisoblanadi. Bu “tilshunoslik fanining alifbosi” turli tillarni amaliy o‘rganuvchi va ilmiy tadqiq etuvchilar uchun zarurdir.

Tilshunoslik fanining mavzusi tildir. Tilni har tomonlama chuqr o‘rganish nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Shu sababli tilshunoslikni faqat nazariy fan deb emas, balki tatbiqiyligi (ingliz, applied) va amaliyot uchun kerakli, ya’ni insonlar muloqoti uchun zarur fan sifatida qaramoq darkor.

Tilshunoslik fanining asosiy vazifalari quyidagilardir:

tilning yozuvi va imlo qoidalarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslarini ko‘rsatib berish;

tilning talaffuz me’yorlarini belgilashning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish;

tilning fonetika va fonologiyasi, morfologiya va sintaksi, leksika va semantikasi (so‘zlarning yasalishi va ma’nolari), stilistikasini o‘rganish asoslarini belgilab berish;

til va jamiyat, til va tafakkur, til va madaniyat, til va psixologiya, til va semiotika (ramziy belgilarni o'rganuvchi fan) kabi tilga bog'liq masalalarni tadqiq qilish;

tilning nutq va nutq faoliyati bilan munosabatini o'rganish;

tarixiy yozma manbalarni ilmiy o'rganish asoslarini ishlab chiqish;

eng qadimiy til, proto til ("bobo til") va uning boshqa tillar va shevalarga munosabatini o'rganish;

tilning hozirgi (uni "sinxroniya" deyiladi) holati bilan tarixiy rivojlanish bosqichlarini (uni "dioxroniya" deyiladi) ilmiy tadqiq qilish;

qadimiy yozuvlarni o'rganish yo'li bilan eng qadimiy tillarni tiklash yoki ulardagi turli alomatlarni aniqlash.

Yuqoridagilardan ko'rindan, tilshunoslik fani avvalo nazariy va ikkinchi navbatda tatbiqiy-amaliy fandir. Bu fanning aniq chegarasi yo'q, u ko'p qamrovli, ko'p qirrali va har tomonlama boshqa fanlar va ularning sohalari bilan bog'liq bo'lgan fandir. Tilning o'zi esa juda murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, u belgilar tizimi sifatida insonlarning muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu o'rinda til va nutqni farqlash zarur bo'ladi. Nutq-bu tilning va undagi belgilarning barcha qo'llanish holatlarini qamrab oladi. Yozma shaklda o'qib berish uchun tayyorlangan roman, qissa, hikoya va h.k. nutqqa tegishlidir. Lekin ulardagi, ya'ni nutqda doimiy qo'llanuvchi va ustuvor bo'lib qolgan jamiyat a'zolari tomonidan e'tirof etilib qabul qilingan nutqdagi unsurlar majmui til deb yuritiladi. Til jamiyatimiz a'zolarining buyuk vositasi bo'lsa, nutq bu vositaning qo'llanishidir. Yozilgan yoki aytilgan nutqning bo'lagi matn deb yuritiladi. Yozma nutq va og'zaki nutq farqlanganidek, yozma matn va og'zaki (monolog, dialog kabi) matn ham farqlanadi. Tildagi jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan ustuvor bo'lgan xususiyatlar davr o'tishi bilan turli o'zgarishlarga duchor bo'lishi mumkin. Tildagi o'zgarishlar va tilning rivojlanishi murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Tildagi muammo va masalalarni sinxroniya va diaxroniyada (ya'ni hozirgi va tarixiy holati) ilmiy tadqiq etish zarur.

"Mutaxassislikka kirish" fani tilshunoslikning asosiy masalalarini, tilning paydo bo'lishi va til taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarni, til tavsifi borasigi muhim jihatlarni o'rganadi.

Til kishilar o'rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umuminsoniy manfaatlarga xizmat qiladi. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ekan, inson kamoloti haqida fikr yurituvchi barcha fanlarning o'rganish manbai tilga aloqador hisoblanadi .

Tilning tabiat, mohiyati kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi, strukturasi va bu strukturani tashkil etgan elementlarning o'zaro munosabati, uning ichki mexanizmi, ishlash prinsiplari kabi muhim masalalarni ilmiy o'rganishni, tilni har taraflama tadqiq qilishni talab qiladi.

*Til kishilik jamiyati mahsulidir. Tilsiz hech bir vogelik va hodisani, insonning tabiatda, jamiyatda tutgan o'rnini, jamiyat taraqqiyoti yo'llarini bilish, o'rganish mumkin emas.*

*Insoniyat tilida so‘zlar qandaydir ma’no anglatadi, ular obyektni,biror narsa-hodisaga ishora qiladi. So‘zlar ishora qilish xususiyatiga ega. Ammo ba’zi so‘zlarda uning shakli ma’nosiga to‘g‘ri kelmaydi. Nega it it deb ataladi? U hech qachon bizga o‘z nomini eslatmaydi yoki it so‘zi itning biror holatini anglatmaydi. Masalan, Venger tilida it kutya deb nomlanadi. Ba’zi so‘zlar uning tovushiga ishora qiladi. Ammo tovushga ishora qiluvchi so‘zlar ham barcha tillarda bir xil emas. Ingliz tilida viv-viv, bov-vov tarzida, venger tilida w tarzida talaffuz etiladi.*

*Nutqda ham til tovushlari muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq a’zolari inson uchun zaruriy a’zo bo‘lib, ular barcha tillarda tovushlarni hosil qilish uchun xizmat qiladi. Ammo bor fonetik imkoniyatlar bitta tilda namoyon bo‘lmaydi. Masalan, inglizlarda nutq tovushlarining 40ga yaqin muhim, turli xil ko‘rinishlari ishlataladi. Fonemalar, harflar shaklida moddiylashtiradi.*

*Til, avvalambor, kommunikativ sistemadir. Bu uning kommunikatsiyaga asoslangan tizim ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, mushukning xirillashi. Bu kompleks jarayon va anglanishi murakkab bo‘lgan holat ekanligini ko‘rish mumkin.<sup>1</sup>*

Tilshunoslik fanining asosiy muammolaridan biri tilning ushbu fanning predmeti sifatidagi ta’rifidir. Ma’lumki, tabiiy inson tili faqat tilshunoslikda emas, balki yana bir qator fanlar tomonidan o‘rganiladigan murakkab obyekt bo‘lib, har bir fanning tilga bergen ta’rifi ham turlicha bo‘lishi mumkin. Hattoki, tilshunoslik fanining o‘zida ham tilning yagona ta’rifi yo‘q. Tilning ta’rifi masalasi tilshunoslik fani tarixidagi eng muhim masalalardan biri bo‘lib, fan tarixida turlicha talqin qilingan va hozirgi kunda ham turli ilmiy maktablar va oqimlar orasida keskin bahslarga sabab bo‘lmoqda.

Darhaqiqat, tilshunoslikda mavjud bo‘lgan har bir nazariya, avvalo, tilni qanday tushunishga asoslanadi. Tilni qanday tushunishning til haqidagi nazariyani yaratishda ahamiyati katta. Tilshunoslik fanining obyekti, predmeti va tilni ilmiy o‘rganish metodlari kabi masalalar ma’lum darajada tilni qanday tushunishga bog‘liqdir. Tilshunoslik tarixida tilni turlicha ta’riflash fanning predmetini ham turlicha tasavvur qilishga sabab bo‘ldi. Shuning uchun bu masalaning tilshunoslik tarixi asosiy bosqichlarida qanday hal etilganligini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tilshunoslik fanining predmeti, o‘rganish manbai o‘z ichki qonuniyatlariga ega bo‘lgan murakkab tizim – tildir. Tilning o‘ziga xos xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini o‘rganish mazkur ijtimoiy hodisaga har tomonlama to‘liq ta’rif berish imkonini yaratadi. Til umumiyligi qonuniyatga bo‘ysunuvchi o‘ziga xos ramzlar tizimi bo‘lib, kishilik jamiyatidagi aloqa - munosabatning eng muhim quroli, fikr ifodasi hamda fikr yuritish asosi, voqelikni avloddan avlodga yetkazuvchi, insoniy kechinmalarni, his-tuyg‘ularni ifoda etuvchi vositadir. Tilshunoslik tarixida tilga turlicha yondashuvlarni kuzatish mumkin.

---

<sup>1</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.17

XX asrdan boshlab tilshunoslik fanining predmetini aniqlashda yangi davr boshlandi. Hozirgi zamon tilshunoslik fanining asoschisi mashhur shveysariyalik olim F. de Sossyur (1857-1913) nazariyası ta'sirida tilshunoslik fanining predmeti masalasi ham yangicha tus oldi. F. de Sossyurning fandagi asosiy xizmati shundan iboratki, u birinchilar qatori tilning murakkab hodisa ekanligini aniqlagan holda, yangi mukammal va aniq, shakllangan umumiyl tilshunoslik nazariyasini yaratib berdi.

Tilshunoslik fanining predmetini aniqlash va uni ta'riflashga intilgan F.de Sossyurning qarashlari tilshunoslik tarixidagi muhim masalalarni hal etishda sezilarli ta'sir ko'rsatdi. F.de Sossyur fikricha, til kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasiga ko'ra aloqa quroli, fikr ifodalash vositasidir; ijtimoiy tabiatni jihatidan til madaniy -tarixiy va ijtimoiy hodisa, ichki tuzilishiga ko'ra sofi belgi - ishoralar tizimidir .

Boshqa bir qator olimlar (A.Shleyxer, G. Paul, M. Myuller), tilshunoslik maktablari ("Yosh grammatikachilar" maktabi, Praga strukturalizmi, Kopengagen strukturalizmi, Amerika strukturalizmi) tilning asl mohiyatini ochib berish masalasiga o'z nuqtayi nazarlaridan yondashdilar. Ularning fikr - mulohazalar tilshunoslik sohasida erishilgan yutuqlardan hisoblansa-da, mazkur qarashlarning ba'zi jihatlari cheklangan edi.

Tilshunoslikning umumiyl va xususiy tilshunoslik, nazariy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik kabi qator bo'limlari mavjud bo'lib, tilning ayrim jihatlari asosida umumiyl qoidalar chiqariladi.

Til - ijtimoiy hodisa. Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan. Til - tabiiy, biologik hodisa emas; tilning mavjud bo'lishi va uning taraqqiyoti tabiat qonunlariga bo'ysunmaydi. Til butun jamiyat tarixi jarayonidagi tadrijiy davrlarning mahsuli sifatida umuminsoniy manfaatga xizmat qiladi.

Til kishilik jamiyatida yaratilgan bo'lib, aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Uning ijtimoiy tabiatni ayrim shaxsga emas, balki jamiyat uchun xizmat qilishda namoyon bo'ladi.

Til insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarini ifodalaydigan va avloddan avlodga meros qoladigan asosiy vositadir.

Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo'ladi ( boshqacha aytganda , «tug'iladi», «taraqqiy etadi», «o'sadi»), bir jamiyat yo'q bo'lishi bilan til ham asta -sekin iste'moldan chiqa boshlaydi va davrlar o'tishi bilan o'lik til bo'lib qoladi. Masalan, lotin, sug'd, qadimiy Xorazm tillari kabilar bunga misol. Biroq tilning paydo bo'lishi ("tug'ilishi") taraqqiy etishi ("o'sishi") va iste'mol qilinmay qolishi ("o'lishi") biologik jarayon emas, balki jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Shuning uchun til qonunlarini, uning taraqqiyot yo'llarini jamiyat tarixi bilan va shu tilni yaratgan xalqning tarixi bilan bog'liq holda o'rgangandagina masalani to'g'ri hal qilish mumkin.

Demak, jamiyatning eng muhim aloqa vositasi bo'lgan tilning bir butunligiga asoslanib, uni tirik organizmga o'xshatish noto'g'ridir. Til

o‘zining tuzilishi bilan, ayrim unsurlarining o‘zaro munosabati bilan butun bir tizimni tashkil etadi.

Tilshunoslik fani tarixida muhim o‘rin tutgan «Yosh grammatikachilar» maktabi vakillari tilning tarixiy hodisa ekanligini tilning eng asosiy xususiyati deb bildilar. Ularning fikricha, til, avvalo, uzoq tarixga ega bo‘lgan kishilik jamiyatni madaniyatining mahsuli bo‘lib, uni tarixiy jihatdan o‘rganish zarur. Shunga binoan, tilshunoslik tarixiy fan bo‘lib, tilning o‘ziga xos tabiatini, tilning o‘zgarish sabablarini o‘rganishi lozim. «Yosh grammatikachilar» maktabining eng yirik namoyandasini G. Paulning fikricha, tilshunoslik fani bilan til tarixi fani tushunchasi bir. «Yosh grammatikachilar» til hodisalarini ayrim (atomizm) holda o‘rganishni tavsiya qiladilar. Ular til va tafakkur, tillarning grammatik qurilishi turlicha bo‘lishi sabablari, tilning ijtimoiy tabiatni kabi masalalar bilan qiziqmadilar. Ular o‘sha davrda hukm surgan psixologik nazariyalarning ta’sirida bo‘lib, tildagi barcha hodisalarini individual psixologiya prinsiplari asosida hal qilishga intildilar.

*“Hech bir tilni uning butun lug‘at boyligini yoki gap qurilishini yod olish bilan o‘rganib bo‘lmaydi. Hattoki, biror kishi nazariy jihatdan shakllantirilgan hamma so‘zlarni o‘rgansa ham bu yetarli bo‘lmaydi. Ular o‘rganuvchilar nutq faoliyatining muqobil variantlari bilan tanishmasdan turib muloqotga kirisha olmaydi. Biz biror tilni o‘rganish imkoniyatini yaratadigan boshqa usullarni ko‘rib chiqishimiz lozim. Bu miya faoliyatining muayyan tilni o‘rganish mexanizmi bilan bog‘liq. Yana bir muhim ma’lumot sifatida shuni qayd etish zarurki, bolalar tilni tez va oson o‘rganishadi. Bola nutqi rivoji yoki til o‘rganish qobiliyati uni o‘rab turgan muhit ta’siriga bog‘liq.*

*Til o‘rganishning yana bir muhim usullaridan biri kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Fan-tehnika rivoji natijasida til o‘rgatish uchun maxsus kompyuter dasurlari yaratildi. Ularda fe’llar, zamonalr, modal fe’llar tavsifi va zaruriy gap qoliplari keltirilgan”.*<sup>2</sup>

Tilning ijtimoiy tabiatni uning ayrim shaxsda emas, balki jamiyatda mavjudligini taqozo etadi. Til jamiyat tomonidan yaratilgan bo‘lib, uning taqdiri ham jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog‘liqdir. Insонning butun hayoti til bilan bog‘liq bo‘lib, til yordamida kishilar obyektiv borliqni o‘rganadilar, o‘zaro fikr almashadilar, jamoa bo‘lib birlashadilar va mehnat qiladilar.

Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy-biologik va fizioligik xususiyatlari (ovqat yeyishi, nafas olishi, rivojlanishi va hokazo) tabiat qonunlariga muvofiq, jamiyatga bog‘liq bo‘lмаган holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so‘zlashish na fikrlash uchun kishilik jamiyatni (sotsial muhit) bo‘lishi shart. Chunki til kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish va fikr almashish ehtiyojlari natijasida paydo bo‘lgan. Shuning

---

<sup>2</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.19

uchun ham til tabiiy hodisalardan farqli o'laroq, kishilik jamiyatni tomonidan yaratilgan va unga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir.

Tilning boshqa ijtimoiy hodisalardan ajralib turadigan eng asosiy xususiyati shundan iboratki, til jamiyat faoliyatining barcha sohalariga xizmat qiladi. U kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan konkret-tarixiy norma sifatida jamiyat a'zolarining hammasiga teng xizmat qiladigan asosiy aloqa vositasidir. Shuning uchun ham til sinfiy xarakterga ega emas. So'zlovchi insoniyat jamoasi tomonidan yaratilgan tildan foydalanadi va ushbu tilning qonun-qoidalariga rioya qiladi. Shu bilan bir qatorda, har bir so'zlovchi ayniqsa adiblar, olimlar o'zlarining nutq faoliyati jarayonida tilning rivoji uchun ma'lum hissalarini qo'shadilar. Kishilar o'zaro aloqa qilish, fikrlashishda tildan boshqa vositalardan ham foydalanadilar. Bular ovozli va grafik shaklda bo'ladi va odadagi so'zlashuv nutqidan boshqa turli tovush signallari: zvonok, gudok kabilardan foydalaniladi.

### Savol va topshiriqlar

1. "Mutaxassislikka kirish" fanida o'rganiladigan asosiy masalalarni tavsiflang.
2. Til va jamiyat munosabatini yoriting.
3. Tilning ijtimoiy tabiatiga xos xususiyatlarni ayting.
4. Tilning ijtimoiy vazifalarini misollar asosida tushuntiring.
5. Tilning asl mazmunini yoritishdagi nazariy qarashlarni tushuntiring.
6. Til taraqqiyoti, o'lik tillar haqidagi tushunchangizni bayon eting.
7. Tilning tabiiy-biologik, fiziologik, ijtimoiy xususiyatlarini yoriting .
8. Til hodisalarini ayrim holda o'rganish haqidagi tushunchalarinenzni bayon eting.
9. Tilni tirik organizm sifatida qiyoslashga oid qarashlarga munosabat bildiring.

### Testlar

1. Tilning tarixiy taraqqiyotini, rivojlanish qonuniyatini, taqaqqiyot bosqichlariga xos xususiyatlarni o'rganish sohasi qanday nomlanadi?
  - A ) dialektika
  - B) dialektologiya
  - C) sinxroniya
  - D) diaxroniya
2. «Yosh grammatikachilar» maktabi vakillari tomonidan tilning eng asosiy xususiyati sifatida ajratilgan belgini ko'rsating.
  - A ) tilning tarixiylik belgisi
  - B) tilning mantiqiylik belgisi
  - C) tilning tadrijiylik belgisi
  - D) tilning aniqlik belgisi
3. Tilning hozirgi holati, tarkibiy xususiyatlarini o'rganish sohasi qanday nomlanadi?
  - A ) sinxroniya
  - B) dialektologiya

- C) dialektika  
 D) diaxroniya
4. Tilning asl mohiyatini nazariy jihatdan yoritishga hissa qo'shgan tilshunoslik maktablarini aniqlang.
- A ) Kopengagen strukturalizmi, arab tilshunosligi  
 B) Amerika strukturalizmi, hind tilshunosligi  
 C) Kopengagen strukturalizmi, Qozon tilshunosli maktabi  
 D) Praga strukturalizmi, Kopengagen tilshunoslik maktabi
5. Quyidagilardan qaysilari o'lik tilga mansub ?
- A) kreol , pijin  
 B) ispan, lotin  
 C) nautal, lotin  
 D) lotin, sanskrit
6. Tilning asl mohiyatini nazariy jihatdan yoritishga hissa qo'shgan olimlarni aniqlang.
- A ) F.de Sossyur , G.Blumfield, M. Myuller  
 B) F.de Sossyur , V. Gumboldt, M. Myuller  
 C) A.Shleyxer, F.de Sossyur , M. Myuller  
 D) A.Shleyxer, G. Paul, M. Myuller
7. Bir qator tillarning taraqqiyotiga asos bo'lgan qadimiy til qanday nomlanadi?
- A) kreol tillari  
 B) proto til  
 C) asos til  
 D) pijin tillari

### **Asosiy tushunchalar glossariysi**

**Tilshunoslik** – tilning jamiyatdagi o'rni, taraqqiyot xususiyatlari, rivojlanish qonuniyatları haqidagi fan.

**Tilshunoslik nazariyasi** – tilshunoslik taraqqiyotining eng umumiyligi qonuniyatları, tilning ichki qurilishi, til tizimi, til va nutq munosabatlari haqidagi fan.

**Fonetika** – tilshunoslikning nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, tiplari, tovushlar o'zgarishi, bo'g'inlar, ularning tuzilishi tiplari, strukturasi; urg'u, urg'u tiplari va intonatsiya haqidagi tarmog'idir.

**Grammatika** (yun.) – tilshunoslikning so'z shakllari (shakl yasalishi), so'z birikmalarining turlari, gap turlari (tilning grammatik qurilishi) haqidagi bo'limi.

**Morfologiya** (yun.) – grammatic ma'no so'z shakllari, so'z turkumlari haqidagi grammatic ta'limot.

**Umumiyligi tilshunoslik** – tilshunoslik uchun umumiyligi bo'lgan taraqqiyot qonununiyatlarini, tilshunoslik rivoji, taraqqiyot bosqichlari, tilshunoslik maktablari, nazariy ta'lilotlar tarixi, shakllanish jarayoni, til strukturasiga xos bo'lgan umumiyligi jihatlar haqidagi soha.

**Xususiy tilshunoslik** – muayyan tilning taraqqiyot xususiyatlari, tarkibiy qismlari, bo'limlari, sathlari, boshqa tillar bilan munosabati, til oilasida tutgan o'rni haqida bilim beruvchi soha.

**Proto til** – tillar uchun asos bo'lgan, qadimiy bobo til.

**Sinxroniya** – til taraqqiyotini muayyan davr nuqtai nazaridan tahlil qiladigan metod.

**Diaxroniya** – til taraqqiyotini tarixiylik nuqtai nazaridan qiyosiy aspektida tahlil qiluvchi metod.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.19
2. Abduazizov A.Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010.-Б.7-10
3. Ирискулов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.5-7
4. Rasulov R.Umumiyl tilshunoslik. -Toshkent, 2013.-Б.3-4.
5. Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи: Х. Дадабоев. – Тошкент, 2004.-Б.4-5
6. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007. -Б.3-5

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

- 1.Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание. - Тошкент, 2004.
- 2.Щитка Н.Н., Юсупова К.Н.Введение в языкознание. –Тошкент, 2006.
- 3.www. literature.uz
- 14.www. genhis philol.ru.

## **2-§. TILNING PAYDO BO'LISHI**

### **Reja:**

- 1.Tilning paydo bo'lishi haqidagi qarashlar.
- 2.Tillarning shakllanishiga doir nazariyalar.
- 3.Sharq ilmida tilning shakllanishiga oid qarashlar.
- 4.Tillarning shakllanish omillari.

**Asosiy tushunchalar:** *til va jamiyat, analogistlar, anomalistlar, tilning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalar, tovushga taqlid nazariyasi, undovlar nazariyasi, mehnat hayqiriqlari nazariyasi, ijtimoiy kelishuv nazariyasi, qabila tili, elat tili, xalq tili, milliy til.*

Til kishilar o'rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umuminsoniy manfaatlarni ifoda etadi. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi insoniyat jamiyatni bilan mustahkam bog'liq. Til insoniyat tarixi qadar qadimiydir. Xalq qardosh qabilalar ittifoqi sifatida shakllangan murakkab tarixiy uyushmadir. Xalqning asosiy belgilari: umumiy til , umumiy hudud, madaniyat va ma'naviyat muhitining umumiyligidir. Xalqning asosiy belgilaridan biri bo'lgan milliy til o'zaro farglanuvchi, yetakchi, iqtisodiy va madaniy markaz tili sifatida namoyon bo'ladi.

Tilning paydo bo'lishi masalasi insoniyatni qadimdanoq qiziqtirib keladi. Tilning paydo bo'lishi juda murakkabdir. Bu masala faqat tilshunoslikning emas, boshqa ko'p fanlarning: antropologiya, psixologiya va etnografiya kabi fanlarning ham o'rghanish obyektidir. Tilning paydo bo'lishi masalasi – til qachon va qayerda paydo bo'lgan, dastlab nechta til bo'lgan, u yoki bu tillar qanday tuzilishda bo'lgan va shu kabi savollarga hali ilmiy

asoslangan mukammal javob topilgan emas. Ba'zi olimlarning fikricha, til taxminan besh yuz ming yillar ilgari paydo bo'lgan.

Ma'lumki, til boshqa narsa va hodisalar singari o'zgaruvchandir. Shunday ekan, besh yuz ming yil ichida tillarda qanday o'zgarish sodir bo'lganini tasavvur qilish, uni ilmiy, ham amaliy, ham nazariy nuqtayi nazardan o'rganish mumkin emas. Til taraqqiyotining yozuv paydo bo'lishidan avvalgi holati biz uchun qorong'idir. Biz faqat yozuv paydo bo'lgandan keyingi davrda ro'y bergan til taraqqiyoti to'g'risida yozma yodgorliklardan foydalanib fikr yuritishimiz mumkin. Lekin yozuv tilni o'rganish, tilning paydo bo'lishi to'g'risidagi muammoni yoritishga to'liq imkon bermaydi. Shunday bo'lsa ham, ba'zi olimlar bu masalaga o'z munosabatlarini, fikrlarini bildirib o'tishgan.

Qadimgi Yunonistonda faylasuflar tilning qay tarzda kelib chiqqanligi ustida uzoq davr qizg'in bahs olib borganlar. Tilshunoslik tarixidan ma'lumki, bu masalada grek faylasuflari bir - biriga zid ikki xil farazni o'rta ga tashlashgan. Demokrit va boshgalar tilda narsa nomi bilan narsa orasida hech qanday bog'lanish yo'q, bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi odamlar tomonidan yaratilgan, demak, til inson tomonidan yaratilgan, degan fikrni ilgari surishgan. Bu guruh olimlari *anomalistiar* deb nom olgan. Platon boshliq boshqa bir guruh olimlari "narsa bilan uning nomi orasida muayyan bog'lanish bor. Bu bog'lanish narsalarning xususiyatlaridan, tabiatidan kelib chiqqan va bu bog'lanish ilohiy kuch tomonidan o'rnatilgan" degan fikrni ilgari surishgan. Tarixda bu oqim *analogistiar* deb nom olgan.

Hozirgi tilshunoslik nuqtayl nazaridan qaralsa, narsalar bilan ularning nomi orasida, umuman olganda hech qanday bog'lanish yo'q. Bu ko'pchilik olimlar tomonidan qayd etilgan. Chunki narsa bilan uning nomi orasida bog'liqlik bo'lganda tillarning soni 5000 dan ortib ketmasdi. Shuni aytib o'tish kerakki, ayrim tillarning kelib chiqishini, masalan o'zbek, rus, hind, tojik va boshqa tillarning qachon paydo bo'lganini, qanday tarkib topganligini aniq bilish mumkin. Ammo biror bir aniq tilning kelib chiqishi masalasini umuman tilning, insonlar nutqining paydo bodishi masalasi bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Hozir dunyoda mavjud bo'lgan jonli tillarning ham, ba'zi bir o'lik tillarning ham kelib chiqish tarixini o'rganish u qadar qiyin masala emas. Anchagina tillarning qachon paydo bo'lganligi, qachon tarkib topganligi aniqlangan. Biroq, yer yuzida umuman insoniyatga xos tilning qachon paydo bo'lganligi, dastlabki tillarda qanday so'zlar bo'lganligi, uning grammatik xususiyatlari nimalardan iborat ekanligi hal qilingan emas va hal qilinishi ham mumkin emas. Chunki bundan bir necha yuz ming yillar burun paydo bo'lib, keyinchalik nom-nishonsiz yo'qolib ketgan tillar ham bo'lgan.

Bundan bir necha yuz ming yil burun paydo bo'lgan tillarning fonetik tizimi, so'z boyligi, grammatikasi va boshqa muayyan xususiyatlaridan qat'iy nazar, umuman tilning kelib chiqishi o'rganilar ekan, eng avvalo, tilning kelib chiqishidagi shart-sharoitlarni tadqiq qilish, ya'ni insonlar qanday sharoitda

so‘zlay boshlaganliklarini o‘rganish va bu masalani umuman tilning kelib chiqishi masalasi bilan bog‘lagan holda tahlil qilib, xulosa chiqarish lozim.

Tilning kelib chiqishi masalasini aniqlashdagi qiyinchilik shundan iboratki, birinchidan, hozirgi til tarixi fani dunyoda umuman tilning qanday paydo bo‘lganligi to‘g‘risida hech qanday dalillarga ega emas. Chunki hozir bizga malumki, tillarning yozuv tarixi 10 – 15 ming yildan oshmaydi. Olimlarning faraz qilishicha, inson bundan bir necha yuz ming yil avval so‘zlasha boshlagan. Ammo o‘sha davrdagi tillar to‘g‘risida hozirgi vaqtida hech qanday ma’lumot yo‘q. Shuning uchun ham tilshunoslik fani bu masalani to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘rganish imkoniyatiga ega emas. Dunyoda eng avval paydo bo‘lgan tilning fonetik tuzilishi, so‘z boyligi qanday ekanligini, grammatik shakllari nimalardan iboratligini bilish mumkin emas.

*Til aloqa vositalarining hammasi ichida birinchisidir. Bu uning aloqa uchun xizmat qilishga ixtisoslashganligini bildiradi, ammo mushukning xirillagan ovozi-chi? Ko‘rib turganimizdek, bu kompleks hodisa va uni tushuntirib berish murakkab. Inson tilidagi so‘zlar qandaydir predmetni bildiradi, masalan, dunyodagi narsalar yoki hodisalar. So‘zlar asossiz. Belgining shakli bilan uning ma’nosi bog‘lanmagan. Nega kuchuk kuchuk deb ataladi? U hech qachon bizga ismini aytmagan. Kuchuk so‘zini ifodalovchi biror tovush yoki shu so‘zni ifodalashning boshqa yo‘li yo‘q. Vengerlarda kuchuk kutya deb ataladi. Ba’zi so‘zlar ularga o‘xshagan ovozlarni ifodalaydi. Ammo bu narsa barcha tillarda bir xil emas. Masalan, kuchuklar voov, voof yoki bov vov degan ovozlar chiqarishadi. Vengerlarda vau vau deyiladi. Tildagi nutq ovozlari tasodifyi to‘planadi garchi insonlarda ovoz hosil qiluvchi oraganlar umumiy bo‘lsa-da. Individual tillar bularning hammasidan foydalanmaydi. Masalan, ingliz tilida taxminan 40 ga yaqin ovozdan yoki fonemalardan foydalaniлади. Bular yozuvda asossiz tarzda ifodalaniлади. Ma’lumotlarga ko‘ra, [k] tovushini ifodalash uchun birdan ortiq harflardan foydalaniлади (k kite so‘zini ifodalashda yoki cut so‘zida c bilan) yoki ikki har xil tovush bo‘lgan [i] va [ai] bitta harf bilan ifodalaniлади ( dig so‘zida ham i; dine so‘zida ham i). Tovushlarning ayrim qarashlarda aytilganidek, so‘zlarga birlashishi ham asossiz, ammo tasodifyi emas. Bu hodisaning qanday sodir bo‘lishi tizimli chegaralangan. Fonemalar morfonemalarga birikishida texnik chegaralanadi deb ayta olishimiz mumkin. Biz taxi so‘zini taniy olamiz va bu ingliz yoki venger tilida txia tarzida kelmasligini oldindan ayta olamiz. Til qoliplangan va undan foydalanish prinsiplari mavjud garchi bu “qidalar” ni ta’riflab berolmasa ham. Ingliz tilida ham, venger tilida ham so‘zlarning boshlanishi tx bilan nima sababdan boshlanmasligini ko‘rsatib beruvchi qoidani belgilab berishga qodirmizmi?*<sup>3</sup>.

Umuman, tilning qanday sharoitlarda paydo bo‘lishi masalasini ilmiy farazlarga asoslanib o‘rganish mumkin bo‘ladi. Tilshunoslik ilmi bir-biriga yaqin bo‘lgan psixologiya, fiziologiya, etnografiya, arxeologiya , tarix va shunga

---

<sup>3</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-P.17

o‘xshah fanlarning dalillariga suyanib, tilning kelib chiqishi masalasiga yondashishi mumkin.

Turli nutq tovushlarini biriktirib, so‘zlar hosil qilish va so‘zlar vositasida gap tuzib, istak va maqsadni ifodalash kishilik jamiyatining boshlang‘ich davrlarida yashagan odamlarni o‘ylantirib kelgan. Shuning uchun tilning paydo bo‘lishi to‘g‘risida qadimgi kishilar turli rivoyatlarni to‘qiganlar. Bu rivoyatlarning ba’zilarida til ma’budlar, ba’zilarida Alloh tomonidan yaratilib, kishilarga taqdim qilinganligi, ayrimlarida esa tilni ajoyib bir donishmand yaratganligi talqin qilingan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, antik zamonlardan beri tilning kelib chiqishi to‘g‘risida bir qancha nazariyalar yaratilgan. Antik faylasuflar tilning kelib chiqishini bir-biriga qarama – qarshi bo‘lgan ikki xil nazariya bilan tushuntirishga harakat qilganlar. Ba’zi faylasuflar til tabiiy yo‘l bilan paydo bo‘lgan, ya’ni so‘z va predmetlar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri tabiiy bog‘lanish bo‘lganligi uchun kishilar predmet va narsalarni tabiiy holda bilib olishgan, deb isbotlamoqchi bo‘lganlar. Ba’zi faylasuflar esa til kishilarning bir-biri bilan o‘zaro kelishishi natijasida vujudga kelgan, deb hisoblaganlar. Ana shu bir-biriga qarama-qarshi ikki nazariyaning o‘zaro kurashi natijasida yana bir qancha nazariyalar vujudga kelgan.

Fanda tilning kelib chiqishi to‘g‘risida bir-biriga qarama-qarshi nazariyalar mavjud bolib, ular bir-biri bilan kurashib kelmoqda. Bu nazariyalarning ba’zilari til insonlarning bir-biri bilan munosabatda bo‘lishi ehtiyojj natijasida kelib chiqqan deb hisoblasa, boshqalari ayrim shaxslarning o‘z fikrini avval o‘zi uchun, keyin boshqalar uchun bildirishi natijasida kelib chiqqan, deb hisoblaydi. Shu tariqa tilning paydo bo‘lishi va shakllanishi haqida turlicha qarashlar, nazariyalar, farazlar yaratildi. Ushbu nazariyalar tanqidiy tahlil asosida o‘rganilishi lozim.

Bu nazariyalar asosan to‘rtta: *ovozga taqlid nazariyasi* kishilarning o‘z atrofidagi predmetlarning chiqargan ovoziga taqlid qilishi natijasida dastlabki so‘zlar, predmetlaming nomlari paydo bo‘lgan, deb hisoblaydi. Bu nazariya qadimgi Yunonistonda asoschilarining fikricha, ibridoiy odamlar hayvonlarning baqiriq - chaqiriqlarini o‘rganib, ular orqali o‘zlarining ichki kechinmalari, g‘am-alamlarini ifodalashgan: *oh, ah, joy, ing* kabi so‘zlar bunga misol qilib ko‘rsatiladi. Tildagi boshqa so‘zlar esa ana shunday so‘zlarning birikuvidan kelib chiqqan, deb tushuntiriladi. Taniqli faransuz olimi J.J.Russo ham shu fikrni quvvatlagan.

Dunyodagi barcha tillarda bunday birliklar mavjud, lekin bunday so‘zlarning miqdori shu qadar kamki, tildek murakkab hodisa ana shu yo‘l bilan paydo bo‘lgan, deyish bu masalani juda soddalashtirib yuborgan bo‘lar edi.

Ma’lumki, tilning asosiy vazifasi kishilar orasida fikr almashinuvini ta’minlashdir. Binobarin, mazkur nazariyani qabul qilish tilning asosiy vazifasini, tilning ijtimoiy hodisa ekanligini rad etishga olib keladi. Ichki kechinmalarni izhor qilish doimo ham jamiyatning bo‘lishini taqozo qilmaydi.

Tilning yashashi va rivojlanishi esa jamiyat bilan uzviy bog'liq: jamiyat bor joydagina til bor, til bor joyda jamiyat bor.

Demak, bu nazariya ham tilning kelib chiqishi masalasini to'g'ri yoritishga ojizlik qiladi.

*Mehnat hayqiriqlari nazariyasi* tarafidolari tildagi barcha so'zlar ibtidoiy kishilarning birgalashib mehnat qilish jarayonida mehnat qilishga undaydigan ixtiyorsiz qiyqirishlari natijasida paydo bo'lgan, deb da'vo qiladilar.

Bu nazariyani XIX asrning 70- yillarida fransuz faylasufi L. Nuare yaratdi. Uning qayd qilishicha, til instinkтив hayqiriqlardan paydo bo'lgan. Nemis olimi Karl Byuxer ham ushbu nazariyani quvvatlaydi. Bu nazariya bir qarashda haqiqatga birmuncha yaqin nazariyadek ko'rinsa ham, mantiq jihatdan asossizdir. Chunki mehnat qilishdagi qiyqiriqlar, hayqiriqlar mehnat jarayonidagi bir maromga, bir qolipga solish uchun bir vosita bo'lgan, xolos. *Uh, oh, voh, viq, oho, ehe* kabi hayqiriqlar kishilar o'rtasida aloqa vositasi bo'lganligi ehtimol.

Mehnat hayqiriqlari undov nazariyasiga o'xshab ketadi. Lekin bu nazariya ham tilning kelib chiqish sabablarini, tilning paydo bo'lishini jamiyatning paydo bolishi, so'zlash va fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lgan insoniyatning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'lay olmaydi.

*Ijtimoiy kelishuv nazariyasi.* Bu nazariya XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lib, uni ilgari suruvchi olimlar ba'zida bir-biriga zid xulosalarga kelishgan, ularning tilning kelib chigishi to'g'risidagi asosiy fikrlari bir xil. Bu nazariyaga asosan, narsalarni qanday atashni odamlarning o'zları kelishib olishgan. Biror narsani nomlashda kelishib olish uchun, tabiiyki, kelishuv vositasi, ya'ni til kerak bo'ladi. Usbbu nazariya tilning paydo bo'lishini emas, balki til rivojlanishining bir yo'nalishini yoritishi mumkin. Hozirgi vaqtga kelib u yoki bu fanga taalluqli atamalar yoki so'zlar o'zaro kelishib olinadi, lekin buning til shakllanishiga aloqasi yo'q.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan nazariyalarning hammasi ham tilning kelib chiqishi masalasini to'g'ri yoritishga ojizlik qiladi. Chunki bu nazariyalar tilning kelib chiqishi masalasini insoniyatning paydo bo'lishi, dastlabki kishilar jamoasining vujudga kelishi masalasidan ajratib olgan holda qaraydi.

Jamiyatdan tashqarida yashagan inson bolasi qancha umr ko'rmasin, u gapirmaydi. Chunki til nasldan naslga, avloddan avlodga o'tmaydi, ya'ni uni irsiyatga bog'lab qo'yish to'g'ri bo'lmaydi. Irsiyat qonuniga binoan, bolaning biologik, antropologik xususiyatlari avloddan avlodga o'tadi, lekin o'zbek oilasida tug'ilgan bola faqat o'zbek tilida gapirodi deyish noto'g'ridir. U qaysi tilda gapira boshlashi qaysi oila, qaysi ijtimoiy muhitda tarbiyalanishiga bog'liq.

Qayd etilgan nazariyalarda, birinchidan, til go'yo jamiyat tarixi taraqqiyotidan chetda, o'z holicha taraqqiy etadigan hodisa, deb qaralgan. Shuning uchun ham tilning kelib chiqishi masalasi ibtidoiy davrdagi kishilarning mehnat faoliyatidan ajratilgan holda qaralgan. Ikkinchidan, bu nazariyalarda tilning kelib chiqishi masalasi tafakkurning paydo bo'lish

masalasi bilan birgalikda, o‘zaro bog‘langan holda emas, balki ajratilgan holda talqin qilingan. Uchinchidan, odamning paydo bo‘lishi jarayonidagi barcha biologik asoslar hisobga olinmagan.

Sharq tilshunoshgida ham tilning paydo bo‘lishiga oid mulohazalar bildirilgan. Jumladan, Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug‘atayn" asari muqaddimasida o‘sha davr dunyoqarashiga mos bo‘lgan tilning paydo bo‘lishiga doir qarashlar bayon qilingan. Alisher Navoiy tilning paydo bo‘lishini Nuh alayhissalom avlodlariga bog‘laydi:

*"Mundin so‘ngra uch nav tildurkim, asil va mo‘tabardur va ul tillar iborati gavhari bila koyilining ( aytuvchi , so‘zlovchi) ajoyib zevar va har qaysining furuyi (shox , daraxtning shoxi ) bag‘oyat ko‘ptur. Ammo turkiy va forsiy va hindiy asl tillarning manshaidurki (bir narsaning chiqib kelgan manbayi, kelib chiqish joyi, boshlanishi), Nuh payg‘ambar... ning uch og‘ligtakim , Yofas va Som va Homdur, etishu . Va bu mujmal tafsili budurki , Nuh... toyon Jashviridin (to‘lqin , falokat) najot va aning mahlakasidin ( xavf - xatar joyi va vaqtin, halokat, xavf - xatar) hayot topti, olam ma‘murasida bashar jinsidin osor va inson navidin namudor qolmayduri erdi. Yofasni, tavorix ahli Abu - t - turk bitirlar, Xito mulkiga yibordi va Somniki, Abu - I - furs bitirlar, Eron va Turon mamolikining vasatida ( o‘rta , o‘rtaliq ) voliy (hokim , hukumkor, podshoh qildi va Homniki, Abu -I -hind depturiar, Hindiston bilodiq (shaharlar, mamlakatlar) uzatti . Va bu uch payg‘ambarzoda avlod va atbol (tobelar , fuqarolar, qaramlar, izdoshlar ) mazkur bolg‘an mamolikda yoyildilar va qalin bo‘ldilar. Va Yofas o‘g‘loniki, Abu -t - turkdur, tank ahli ittifoqi (bir fikrga kelish, hammasi degan ma‘noda deputurlarki, nubuvvat (payg‘ambarlik) toji bila sarafruz va risolat ( payg‘ambarlik , rasullik) mansabi bila qarindoshlaridin mumtoz (saralangan, ajratilganj bo‘ldi. Va uch tilki, turkiy va forsiy va hindiy bo‘lg‘ay . Bu uchovning avlod va atbol orasida shoe bo‘ldi . ("Muhokamat ul – lug‘atayn"dan).*

Olimlarning faraz qilishicha, mehnat, ibridoiy mehnat qurollarini yasash odamlar a’zolarini asta-sekin juda uzoq davrlar davomida takomillashtirib, til hamda tafakkurning rivoj topishida beqiyos rol o‘ynagan.

Demak, mehnat qilish, mehnat qurollarini yasash jarayonida odamlar borgan sari uyushib boradi, natijada kishilik jamiyati vujudga keladi. Hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan odamlarda jamoa bo‘lib mehnat qilish jarayonida bir-biriga nimadir deyish ehtiyoji tug‘iladi. Bu zaruriy ehtiyoj esa tilni yaratadi. Til bilan ayni bir vaqtida tafakkur paydo bo‘ladi . Mehnat bilan bir vaqtida muhim ehtiyoj talabi bilan til va tafakkurning paydo bo‘lishi natijasida bu uch omil bir-biriga ta’sir qilib, rivojlanish imkoniyati yazaga kelgan. Buning natijasida mehnat qilish yo‘llari , mehnat qurollari, til va miya asta-sekin takomillasha boshlaydi. Ilgari tosh hech qanday ahamiyatga ega kasb etmagan bo‘lsa, endi kishilar undan ioydalanishni o‘rgana boshlaydilar va uning xususiyatlarini bilib oladilar. Endi odam toshni yorib yoki sindirib, undan har xil shakldagi turli mehnat qurollari yasay boshlaydi va ana shu mehnat qurollaridan foydalanish jarayonida boshqa

narsalarning ham turli xususiyatlarini bila boradi. Bu esa narsalarni bir-biriga solishtirib, ularning xususiyatlarini aniqlashni o'rgatadi. Oqibatda tafakkurning rivoj topishiga imkoniyat tug'iladi.

Odamlar mehnat qilishni bilganlaridan keyin, oziq-ovqat topish uchun zarur narsalar haqida, yani mehnat qurollari tayyorlash, undan qanday foydalanish, qaysi tarafga borish, oziq-ovqat topish harakatini jamoa bo'lib bajarish va boshqalar to'g'risida ozmi-ko'pmi fikr yuritadigan bo'ladilar. Ular guruh-guruh bo'lib, birgalikda harakat qila boshlaydilar. Bu esa insonlar tili va tafakkurining borgan sari o'sishiga, ularda mavhum tushunchalarning paydo bo'lishiga asos bo'ladi.

Endigina mehnat qilish qobiliyatiga erisha boshlagan, eng ibtidoiy mehnat qurollarini yasashni o'rgana boshlagan odamlardan bir necha bosqich yuqori darajada yashayotgan qabila jamoasi holatidagi xalq tillarining so'z boyligi, grammatik tuzilishi hamda tafakkurining rivojlanish farqlari qiyoslab bo'lmaydigan darajada ekanligini, rivoj topganini faraz qilish mumkin. Shu tariqa Afrika, Amerika qit'alarida qabila bo'lib yashayotgan xalqlarning rivojlanish darjasini, so'z boyligi, grammatik tuzilishi, tafakkur qilish qobiliyati eng taraqqiy topgan ingliz, rus, nemis, arab kabi xalqlar tillarining so'z boyligi, grammatik tuzilishi va boshqa til hodisalaridan, tafakkur etish darajasidan juda katta farq qiladi. Yuqoridagi fikrlar til va tafakkurining rivojlanib borishi kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan uzviy bog'langanining yorqin dalilidir.

*Tillarning boshqa tillar bilan aloqasi natijasida ularning leksikasida, strukturasida o'zgarishlar bo'lishi tabiiy hol va bu aloqada tillar genetik bog'langan yoki bog'anmagan bo'ladi. Bu bir tomonidan genetik jihatdan bog'lanmagan bo'lsa-da, tillarning tarixiy taraqqiyotidagi o'zaro aloqalari natijasida o'xshashliklarga ega ekanligini ko'rish mumkin, boshqa tomonda esa genetik jihatdan o'zaro bog'langan tillarning vaqt o'tishi bilan ajralishi natijasida o'zlashtirishlarning turli darajada ekanligini, lug'at boyligi, strukturasidagi o'xshashliklarning rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. O'zaro bog'lanmagan va geografik jihatdan ma'lum bir masofada joylashgan joylashgan tillardagi o'zaro o'xshashliklar namoyon bo'lishi mumkin va bu tabiiy hol, chunki tillarning tanlovidagi sturtural ko'rsatkichlar sanoqli. Masalan, ega, kesim, to'ldiruvchining tartibi dunyoning juda ko'p tillarining qiyosida cheklangan tanlovdadadir, bu bir-biridan butunlay mustaqil bo'lgan tillar bir xil tartibga ega ekanligini bildiradi. Til tarixini qayta qurishda tarixan juda ehtiyyotkor bo'lish kerak. Tillarning dastlabki shaklida yozilgan matnlarni asoslash mas'uliyatli bo'lib, o'zaro aloqador bo'lgan tillarning yoki dialektlarning qiyosi, o'zlashtirilgan elementlarni o'rganish, tillarning bugungi kundagi alternatsiyalari tadqiqi, tillarda sodir bo'lgan o'xshash yoki o'xshash bo'lman holatlar haqidagi umumiyliliklardir<sup>4</sup>.*

<sup>4</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-P.89

Jamiyat tarixida tillarning keyingi taraqqiyoti milliy tillarning vujudga kelishi bilan bog‘liq. Milliy til mahalliy shevalar bilan o‘zaro bog‘langan holda taraqqiy qilib boradi. Bu jarayonda ba’zi shevalar milliy tilga qo‘shilib, uni boyitadi; ba’zi shevalarni esa milliy til asta-sekin siqib chiqaradi.

Milliy tilning yagonaligi shuni ko‘rsatadiki, til shu millatning barcha tabaqalar, guruhlariga tushunarli va teng xizmat qilib, ularning hammasi uchun birdan bir aloqa vositasi bo‘lib qoladi. Chunki til ayrim toifa, ayrim tabaqa, ayrim guruh tomonidan yaratilmagan, balki jamiyatning barcha a’zolari - umumxalq tomonidan yaratilgan.

Xullas, til birligi uning erkin rivojlanishi millatning asosiy belgilaridan biridir. Milliy tilning xalq tilidan farqi uning adabiy yozuv shakliga egaligidir. Milliy tilning bu shakli mazkur millatning har bir a’zosi, har bir sheva uchun umumiyyidir. Har bir milliatning madaniy merosi ana shu tilda o‘z aksini topadi.

### Savol va topshiriqlar

- 1.Tilning shakllanishi va rivojlanishi haqidagi mulohazalariningizni mustaqil ravishda bayon eting.
- 2.Tillarning paydo bo‘lishi haqidagi anomalistlar qarashlari mazmunini yoriting.
- 3.Tillarning paydo bo‘lishi haqidagi analogistlar qarashlari mazmunini yoriting.
- 4.Tilning paydo bo‘lishi haqidagi nazariyalarni ayting.
5. "Mehnat hayqiriqlari" nazariyasi asosini yoriting.
6. "Tovushga taqlid" nazariyasi asosini yoriting.
7. "Tovushga taqlid" nazariyasi asosini yoriting.
- 8.Sharq ilmidagi tilning paydo bo‘lishiga doir qarashlarni bayon eting.
- 9.Milliy tilning yuzaga kelish jarayoni haqida mulohazalariningizni bayon eting.
- 10.Tilning shakllanishi va rivojlanishida jamiyatning o‘rni.

### Testlar

1."Narsa bilan uning nomi orasida muayyan bog‘lanish bor. Bu bog‘lanish narsalarning xususiyatlaridan, tabiatidan kelib chiqadi va bu bog‘lanish ilohiy kuch tomonidan o‘rnatilgan" degan fikr tarafдорлари...

- A) analogistlar
- B) anomalistlar
- S) undov nazariyasi tarafдорлари
- D) ijtimiy kelishuv nazariyasi tarafдорлари

2. Tilda narsa nomi bilan narsa orasida hech qanday bog‘lanish yo‘q, bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi odamlar tomonidan yaratilgan, demak, til inson tomonidan yaratilgan, degan fikr tarafдорлари...

- A) analogistlar
- B) anomalistlar

S) undov nazariyasi tarafдорлари

D) ijtimoiy kelishuv nazariyasi tarafдорлари

3. Tilning shakllanishi va rivojlanishiga doir nazariyalarni belgilang.

A) mehnat hayqiriqlari, tovushga taqlid, ijtimoiy kelishuv nazariyalari

B) mehnat hayqiriqlari, undov, holatga taqlid, ijtimoiy kelishuv nazariyalari

S) mehnat hayqiriqlari, undov, tovushga taqlid, ijtimoiy vazifa nazariyalari

D) mehnat hayqiriqlari, undov, tovushga taqlid, ijtimoiy kelishuv nazariyalari

4. Milliy tilni boyituvchi ichki manbani ko'rsating.

A) terminlar, chetdan so'z olish, so'z yasalishi

B) shevalar, so'z o'zlashtirish, so'z yasalishi

S) shevalar, chetdan so'z olish, so'z yasalishi

D) shevalar, eski so'zlarni tiklash, so'z yasalishi

5. Milliy tilni boyituvchi tashqi manbani ko'rsating.

A) terminlar, chetdan so'z olish, so'z yasalishi

B) so'z o'zlashtirish, chetdan so'z olish

S) shevalar, chetdan so'z olish, so'z yasalishi

D) shevalar, chetdan o'tgan so'zdan so'z yasash, so'z yasalishi

6. Alisher Navoiy *asl tillarning manshaidurki...* deganda qaysi tillarni nazarda titgan?

A) turkiy, forsiy, hindiy

B) turkiy, arabiy, forsiy

S) turkiy, hindiy, arabiy

D) arabiy, forsiy, hindiy

7. Alisher Navoiy ma'lumotiga ko'ra Nuh alayhissalomning Abu - t - turk deb sifatlangan o'g'illari kim edi?

A) Xom

B) Som

S) Yofas

D) Yusuf

8. Alisher Navoiy ma'lumotiga ko'ra Nuh alayhissalomning Abu - l - furs deb sifatlangan o'g'illari kim edi?

A) Xom

B) Som

S) Yofas

D) Yusuf

9. Alisher Navoiy ma'lumotiga ko'ra Nuh alayhissalomning Abu - l - hind deb sifatlangan o'g'illari kim edi?

A) Xom

B) Som

S) Yofas

D) Yusuf

10. Demokrit tilning paydo bo'lishiga doir qarashiga ko'ra qaysi guruhga mansub bo'lgan?

A) analogislarga

- B) anomalistlarga
- S) undov nazariyasi tarafdarlariga
- D) ijtimoiy kelishuv nazariyasi tarafdarlariga

### **Asosiy tushunchalar glossariysi**

**Til va jamiyat** – o‘zaro ta’sir qilib, biri ikkinchisining taraqqiyotiga zamin yaratadigan ijtimoiy voqelik.

**Anologistlar** – “narsa bilan uning nomi orasida muayyan bog‘lanish bor. Bu bog‘lanish narsalarning xususiyatlaridan, tabiatidan kelib chiqadi va bu bog‘lanish ilohiy kuch tomonidan o‘rnatalgan” degan fikr tarafdarları.

**Anomalistlar** – tilda narsa nomi bilan narsa orasida hech ganday bog‘lanish yo‘q, bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi odamlar tomonidan yaratilgan, demak, til Inson tomonidan yaratilgan, degan fikr tarafdarları.

**Tovushga taqlid nazariyasi** – kishilarning o‘z atrofidagi predmetlarning chiqargan ovoziga taqlid qilishi natijasida dastlabki so‘zlar, predmetlarning nomlari paydo bo‘lgan, degan qarash.

**Undovlar nazariyasi** – tildagi barcha so‘zlar ibtidoiy kishilarning his-hayajon so‘zlari ta’sirida paydo bo‘lgan, degan qarash.

**Mehnat hayqiriqlari nazariyasi** – tildagi barcha so‘zlar ibtidoiy kishilarning birqalashib mehnat qilish jarayonida mehnat qilishga undaydigan ixtiyorsiz qiyqirishlari natijasida paydo bo‘lgan, degan qarash.

**Ijtimoiy kelishuv nazariyasi** – narsalarni qanday atashni odamlarning o‘zlari kelishib olishgan, degan qarash.

**Milliy til** – tillarning eng mukammal, taraqqiyot bosqichlarini o‘tgan, rivojlangan ko‘rinishi.

### **Asosiy adabiyotlar**

- 1.Abduaizov A.Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010. -Б.63-67
- 2.Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics. -Budapest, 2006. -P.17, 89
- 3.Rasulov R.Umumiyl tilshunoslik. -Toshkent, 2013.-Б.205-210.
- 4.Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи: Ҳ.Дадабоев. – Тошкент, 2004.-Б.5-7.
- 5.Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007. -Б.5-14

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

- 1.Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание.- Тошкент, 2004.-Б.4-9
- 2.Linguistics: The Scientific Study of Human Language. 2006. P.7
- 3.Ирисқұлов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.10-13
- 4.Рахматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. -Тошкент, 2007.-Б.37
- 5.Щитка Н.Н., Юсупова К.Н. Введение в языкознание. -Тошкент, 2006.-Б.9-12.
- 6.Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати.-Тошкент, 2002
- 7.www. literature.uz
- 8.www. genhis philol.ru.

### **3-§. TIL VA TAFAKKUR**

#### **Reja:**

1. Til va tafakkur aloqadorligining mantiqiy asoslari.
2. Til fikr ifodasi sifatida.
3. Til birlklari va tafakkur birlklari o‘rtasidagi munosabat.
4. So‘z-tushuncha munosabatida tafakkur omillari.

**Asosiy tushunchalar:** *mantiq, so‘z, tushuncha, idrok, hukm, kommunikatsiya, muloqot jarayoni, nutq situatsiyasi, signifikativ munosabat, denotaniv ma’no, konnotativ ma’no.*

Tilshunoslik mantiq fani bilan ham uzviy aloqadordir. Ularning aloqadorlik tamoni shundaki, har ikkisi ham tafakkur bilan bog‘lanadi. Chunki tilshunoslikning o‘rganish obyekti bo‘lgan til tafakkur bilan munosabatdadir. Til kishilarning olam haqidagi bilimlarini, fikrlarini boshqalarga yetkazuvchi va shakllantiruvchi vositadir. Til va tafakkur o‘zaro dialektik munosabatda ekan, ularni o‘rganuvchi tilshunoslik bilan mantiq o‘rtasida ham ana shunday aloqalar mavjud.

Mantiq – tafakkur shakllari qonunlari va usullarini o‘rganadi. U inson fikrining aniq, ravshan, ketma-ket va asosli bo‘lishini taminlaydi. Shunday ekan, mantiq tilshunoslikning grammatika bo‘limi bilan bevosita munosabatdadir. Chunki tushuncha so‘z va so‘z birikmalari orqali ifodalansa, fikr gap orqali ifodalanadi. Har bir kishi uchun grammatikani bilish qancha zarur bo‘lsa, mantiqning shakl va qonunlarini o‘zlashtirish ham shunchalik zarurdir.

Mantiq shakllari tushuncha, xulosalar hamma xalqlar uchun umuniy bo‘lsa, ularning turli tillarda ifodalinish shakllari turli-tumandir. Shuning uchun ham har bir til boshqasidan farq qiladigan o‘z grammatikasiga ega. Bu shuni ko‘rsatadiki, mantiq bilan grammatika bir-biri bilan bog‘liq, ular bir-birlarini to‘ldiradi.

*Tafakkur tili kommunikatsiyada eng muhim metod sifatida namoyon bo‘ladi, nafaqat, u metod, balki til tabiatini namoyon qiladi. Biz muloqot jarayonida so‘zlash bilan birqalikda imo-ishoralar, yuz ifodalari, qolaversa, tana harakatlaridan ham foydalanamiz, bular noverbal vositalardir.*

*Biror boshqa tilni o‘qitishda bular turli kommunikatsiyalar majmuaviy texnikasi sifatida namoyon bo‘ladi. Til tabiatini o‘rgatishda, ayniqsa, kommunikatsiya jarayonida mantiqiy fikrlashni shakllantirish inson psixologiyasini, uning fikrlash doirasining kengayishiga olib keladi va insonni jamiyatga kirishini tezlashtirish vazifasini bajaradi.<sup>5</sup>*

Tilshunoslikni u yoki bu fanlar sinfiga kiritishda bu fan o‘rganadigan obyektining tabiatini asos qilib olinadi.

---

<sup>5</sup>Vrabel T.T. Lectures in theoretical phonetics of the english language and method-guides for seminars, poliprint ungvár, 2009.-P.12

Til kishilarning eng muhim aloqa vositasi, bilimlarni saqlovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi vositadir. Ana shu vazifalarini e`tiborga olganda, til ijtimoiy hodisadir. Chunki u jamiyat uchun xizmat qiladi. Ikkinchidan, ijtimoiy xarakterga ega bo`lgan til muayyan fizik va fiziologik jarayonlar asosida moddiylashadi. Uchinchidan, til va tafakkur o`zaro ajralmasdir. Til fikrni, shakllantiruvchi va ifodalovchi moddiy vositadir. Bu jihatdan til va tafakkur muayyan shaklni o`zida namoyon etadi. Tilshunoslikni ana shu jihatdan mantiq, psixologiya fanlari tizimiga kiritish mumkin bo`ladi. To`rtinchidan, til uzlusiz rivojlanib, takomillashib boruvchi hodisadir. Bu jihatdan u jonli organizmga o`xshaydi. Ana shu xususiyatlarini o`rganish jihatidan tilshunoslik biologiya fani bilan umumiy belgilarga ega ekanligini isbotlaydi.

Kishilar odatda bir-birlari bilan til orqali munosabatda bo`ladi. Demak, til va tafakkur chambarchas bog`liq bo`lib, tilsiz fikrni ifodalab bo`lmaganidek, tafakkursiz til o`z ifodasini shakllantira olmaydi.

Fikr tilda voqelashadi, tilda mavjud bo`ladi. Ongingizda paydo bo`ladigan fikrning mohiyatini, mazmunini tashkil etadigan har qanday idrok yoki tasavvur ham faqat so`zlar vositasi orqali voqe bo`ladi.

Til faqat kishilarga xos bo`lganidek, tafakkur ham kishilarga xos bo`lib, bosh miyaning moddiyligi va fiziologik vazifasi bilan bog`liqdir.

Lekin tafakkur bilan tilni aynan bir xil, bir-biriga o`xshash narsa deb tushunish xatodir. Tafakkur – tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishining eng yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni so`zlar, so`z birikmalari va jumlalar orqali ifolaydi. Til qonunlari bilan tafakkur qonunlari bir-biriga teng kelmaydi. Shuning uchun ham til grammatikaning o`rganish obyekti hisoblansa, tafakkur mantiq ilmining o`rganish obyektidir.

Til fikr ifodalashning muhim vositasidir. Taffakkur bilan tilning munosabati murakkab jarayondir. Til fikr ifodasi sifatida mavjud, o`z navbatida fikr til asosida yuzaga keladigan murakkab jarayon. Til ham, tafakkur ham mehnat jarayonida, kishilik jamiyatida shakllangan.

Til birliklari - fonema, morfema, so`z, gap bir butun holda, mantiqiy tushunchalar (his-sezgi, idrok, hukm) bilan uzviy bog`liqdir.

Til va tafakkur munosabatida qaysi birining ahamiyatligi, muhimligi, birlamchi ekanligi haqida savol tug`iladi.


*Qaysi biri birinchi yuzaga kelgan? Qaysi biri avval paydo bo`lgan?*

*Qiziqarli savol tug`iladi, borliq barcha uchun bir xil, biroq til barcha insonlar tomonidan turlicha foydalaniladi, ya`ni turli tillardan foydalanadilar. Bu haqida Amerikada 1950-yillarda mantiq maktabining a`zosi Sepir-Vorfning qarashlari (gipotezalari) ma'lumot beradi. Unda til qaysidir holatda borliqqa ta`sir etadi, degan qarash mavjud. Bu fikr ko`plab isbotlangan va isbotlanmagan fikrlarga sabab bo`lgan. Shunga qaramay, ushbu muammoga hali ham qiziqish yuqori: nima deb o`ylaysiz, til tafakkurning shaklimi yoki tafakkur tilda shaklga kiradimi? Tilshunoslikda tilni o`rganishda yoki tarjima jarayonida ushbu savolga qayta-qayta duch kelinadi. Tillar borliqdan farqli ravishda shaxs har bir tilda dunyonni*

*anglashda o‘z dunyoqarashi va til imkoniyatiga tayanadi. Ba’zi tillar so‘zlashuvchilarida predmetlar turli xususiyatlari yoritiladi. Italian tilini olaylik, bu tilda pasta (makaron)ning turlari mavjud va ularning nomlari ham bor. Masalan, macaroni, spaghetti, orzo, penne. Bu ularning hayot tarzi bilan bog‘liq va boshqa tillar mana shu so‘zlarni shu holda olish bilan kifoyalanadilar. Bu so‘zlar ingliz va venger tillarida mavjud emas va bu so‘zlarni italyan tilidan o‘zlashtirilgan. Hozirda, ingliz va venger tillarida penne so‘zidan foydalaniladi. Kuzatish mumkinki, bu hodisa tufayli dunyoqarash kengaygan.*<sup>6</sup>

So‘zning leksik-semantik xususiyatlari uning leksik, grammatik va semantik jihatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Chunki so‘zlar tilning lug‘at tarkibini shundaygina tashkil etmay, umuman, tilning sistema va strukturasidagi barcha bog‘lanishlarni taqozo etadi.

Ko‘pincha so‘zning ma’nosi haqida gapirganda, uning narsa va tushuncha bilan aloqasi va tilda qanday ifodalanishi ko‘zda tutiladi. Biroq qadimiy tilshunoslikda so‘z va nom o‘rtasida moslik bor deb qarash ham mavjud edi. Ba’zi tilshunoslardan so‘zning faqat aytishiga e’tibor bergen edilar. So‘zning aytishiga uning moddiy tomoni, ya’ni tovushlarning birikuvi yoki bir tovush ekanligini ko‘rsatadi. Tinglovchi va so‘zlovchi uchun so‘zning aytishiga obyektiv haqiqatdir. Biroq so‘zning faqat aytishiga uni izohlay olmaydi. So‘z aytishiga bilan narsa yoki hodisa o‘rtasidagi bog‘lanish uning ma’nosini yuzaga chiqaradi. Bu aloqa, odatda, uchburchak shaklida ko‘rsatiladi:



Mazkur qarash, albatta, barcha so‘zlar uchun shunday tartibda tuzilgan, degan noto‘g‘ri xulosaga olib kelishi mumkin. Chunki so‘zning ma’nosi bizga boshqa bir narsa yoki hodisani eslatganidek, o‘z navbatida biror narsa ham boshqa narsani kishi ko‘z oldiga keltirishi mumkin. Chunki so‘zning ma’nosi uchun uning aytishiga bilan so‘zdan tashqarida bo‘lgan tushuncha o‘rtasidagi bog‘lanish zarur deb hisoblansa, har xil tushunchalar tilda bir xil tuzilgan degan xulosaga kelish mumkin.

Aslida esa so‘zlar turli struktura tuzilishiga egadir. Shu tufayli so‘zning narsa va tushuncha bilan bog‘lanishini shartli ravishda qaramoq zarur. Chunki barcha so‘zlar ham narsa, hodisa yoki belgining nomini atamaydi, ya’ni hamma so‘zlar atama funksiyasiga ega emas. So‘zlar ichida otlar (narsa), fe'l- lar (harakat), sifatlar (narsa belgisi) va ravishlar (harakat belgisi) atama funksiya bajaradi.

Yordamchi so‘zlar ham nominativ funksiya bajarmaydi. Bir mustaqil so‘zning nominativ funksiyasi doimo faqat bir narsa yoki tushuncha, harakat yoki belgiga qaratilavermaydi. Ba’zan esa aksincha, bir narsa bir qancha nomlar bilan atalishi mumkin. Masalan, gul so‘zi gulning barcha turlarini

<sup>6</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.132

ifodalaydi. Biroq Braziliyadagi oborogenlar tilida to‘tiqushning har bir turi o‘z nomiga ega. O‘zbek tilidagi "bo‘sh vaqt" tushunchasi ingliz tilida spare time, free time, leisure so‘zları bilan ifoda etiladi. Ingliz tilida bu so‘zlar ma’nosiga ko‘ra turlicha ishlatiladi.

*Spare time* kechqurun ishdan keyin yoki haftaning dam olish kunlaridagi bo‘sh vaqtini ifodalaydi.

*Free time* kun davomida ish yoki o‘qishdan xolis bo‘lgan bo‘sh vaqtini bildiradi.


Leisure so‘zi dam olish vaqtini ko‘rsatadi. Ingliz tilida dam olish, tanaffus qilish, madaniy hordiq chiqarish ma’nolarini ifodalagan yana bir qancha so‘zlar, jumladan, recreation, rest, relaxation, amusement, entertainment kabilar mavjud. Bu so‘zlar ham qo‘llanishiga ko‘ra farq qiladi.

So‘zlarning nutq jarayonida yoki matnda ishlatilish o‘rni kontekst deb ataladi. So‘zlarning ma’nosini kontekst yordamida oydinlashadi. Tildagi barcha birliklar (fonema, morfema, so‘z, so‘z birikmasi, gap) umumlashtiruvchilik xarakteriga ega. So‘zning mavhum tabiatini uning bir qancha narsa, hodisa va belgilarga tegishli ekanligi bilan izohlanadi.

Biroq so‘z ma’lum nutq situatsiyasida yoki kontekstda o‘zining aniq shaklida namoyon bo‘ladi. Har bir so‘zning ma’nosini uning material – tovush jihatdan shakllanib, ma’lum ma’noni ifodalashga qaratilgan odam ongidagi harakat rivojlanishining natijasidir.

So‘z ifoda va mazmun jihatlariga ega bo‘lib, uning alohida ma’nolari nutq situatsiyasida yoki kontekstda aniqroq ochiladi. Bu munosabatni quyidagi uchburchak shaklida ko‘rsatish mumkin:

Ifoda jihatni so‘z



Nutq situatsiyasi Mazmun jihatni (tushunchasi, (konteksti) narsa va ma’no aloqalari).

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan so‘z aytilish va ma’noning birligidan iborat. Biroq so‘zning narsa va tushunchalar bilan bog‘lanishi hisobga olinsa, u borliqdagi biror narsaning odam ongidagi in’ikosi bo‘lib, bu in’ikos tafakkur yordamida til orqali amalga oshiriladi. Shu sababli so‘z biror tushunchasi, narsa, hodisa yoki belgini ifodalay oladi. Lekin so‘z tushunchasi va narsaning aynan o‘ziga hech vaqt to‘g‘ri kelmaydi. So‘z biror narsaning nomini atash orqali shu tildagi barcha narsalarga tegishlidir. Masalan, paxta so‘zi uning barcha tur va navlariga tegishlidir, ya’ni umumlashtirish xarakteriga ega. Biroq bu so‘z boshqa so‘zlar bilan birikib yoki ma’lum affiks qo‘shilishi bilan aniq ma’noni ifodalay oladi. Bu o‘rinda so‘zlarning aniq ma’noga ega bo‘lishida grammatika katta ahamiyatga ega.

Demak, so‘zning leksik ma'nosi bilan grammatic ma'nosini farqlamoq zarur. Ayrim olingan so‘zga tegishli bo‘lib, boshqa so‘zlardan farqlay oluvchi ma'no shu so‘zning leksik ma'nosi deb yuritiladi.

So‘zning leksik ma'nosi birinchi navbatda o‘sha so‘z o‘zagining ma'nosi bilan bog‘liq bo‘ladi va har qanday affiks qo‘shilganda ham saqlanib qoladi. Masalan, yaxshi, yaxshilik, yaxshilikcha kabi so‘z formalarining barchasi "yaxshi" ma'nosini ifoda etgan. Bu o‘rinda yaxshi so‘zining leksik ma'nosi uni boshqa so‘zlardan (masalan, yomon so‘zidan) farqlashga xizmat qiladi.

Nutqda har qanday mustaqil so‘z shakli leksik ma'nodan tashqari, grammatic ma'noga ega bo‘ladi. Masalan, ishimizdan, keltirdi so‘zlaridagi ish va kel so‘zleri o‘z leksik ma'nosidan tashqari narsa va harakat ma'nolarini ifoda qiladi. Bu ularning grammatic ma'nosidir. Bu so‘zlardagi -imiz, -dan, -tir, -di affikslari turli grammatic ma'nolarni ifodalaydi. Grammatic ma'no so‘zning leksik ma'nosiga orttirilgan qo‘shimcha ma'nodir. So‘zning grammatic ma'nolari grammaticada o‘rganiladi.

So‘zlar o‘zlarining leksik va grammatic ma'nolari bilan farq qiladi. Atoqli va turdosh otlar nutqda qo‘llanishiga ko‘ra farqlanadi. Turdosh otlar narsa va hodisani atashdan tashqari, ularni biror guruh yoki turga kirishini ham ifodalaydi. Atoqli otlar esa ma'lum shaxs, shahar, qishloq va boshqa narsalarni shu turdagilari ichidan ajratib ko‘rsatish, ularni alohida o‘ziga xos xususiyatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu sababli, odatda, ikki bir xil ismli shaxsni aralashtirib yubormaslik uchun katta Mahmud va kichik Mahmud iboralari ham qo‘llaniladi. Bu jihatdan til faqatgina tushunchalarni umumlashtiruvchi vosita bo‘lmay, ularni farqlash vositasi sifatida insonning amaliy faoliyatida juda katta ahamiyatga ega. Barcha so‘zlar o‘z aytilishi, ya'ni tovushlar birikmasi yoki bir tovushdan iborat bo‘lgan material tomoniga ega. So‘zning material tomoni u ifoda etgan narsaning belgisi deb ataladi. Til esa shunday belgilarning alohida sistemasi deb qaraladi.

Tildagi belgililar hayotdagi boshqa belgilardan, jumladan, ko‘cha qatnoviga oid belgililar va signallardan tubdan farq qiladi. Chunki bu belgililar shartli qabul qilingan bo‘lib, tez o‘zgarishi mumkin.

So‘zning aytilishi esa shartli emas, u odamlarning xohishi bilan paydo bo‘limgan. So‘zning talaffuzidagi o‘zgarishlar tilning tarixiy rivojlanish qonuniyatları va odamlar nutqida ishlatalish xususiyatlari asosida ro‘y beradi.

So‘z ma'nosining narsaga aloqasi denotativ aloqa, so‘z atayotgan narsa denotat yoki referent deb ataladi (lotincha *denotatum* – ko‘rsatuvchi, inglizcha *refer* – aloqador). So‘z ma'nosining tushunchaga munosabati signifikativ aloqa (lotincha *significatum* – "belgi"), tushunchaning o‘zi signifikat deb yuritiladi. Bir so‘z ma'nosining boshqa so‘zning ma'nosiga munosabati struktural aloqa deyiladi. Bunday aloqa natijasida turli so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlar, ularning o‘xshash va farqli tomonlari aniqlanadi va so‘zlar har xil guruh va tiplarga ajratiladi.

So‘z ma'nosiga doir yuqoridagi ma'lumotlarni sxemalar yordamida quyidagicha ko‘rsatish mumkin.

So‘z ma'nosining asosiy funksiyalari. Ma'noi – narsai (yoki ma'no – narsa) – denotativ funksiya; ma'noi –tushunchai (yoki ma'no – tushuncha:) – signifikativ funksiya; ma'noi – ma'no (yoki ma'no–ma'noi) – struktural funksiya.

*Bilimlarni tilda ifodalash bilan birgalikda ma’noni imo-ishora yoki belgilar bilan ifodalanadi, bunda aytilgan yoki ko’rsatilgan gap aniqroq tushuniladi, tinglovchi tafakkurida yana ham ravon gavdalanadi. Qayd etish zarurki, bir turdag'i tilda, ya’ni surdo tilida fikrlar yoki yetkazilayotgan xabarlar imo-ishora / visual harakatlarga asoslanadi. Agar insonlarda ko‘proq tovush orqali muloqot yuzaga kelsa, surdo tilida belgi tili muhim ahamiyat kasb etadi.*

*Lingvistik bilimlar so‘zlovchi ongida namoyon bo‘ladi va u garammatika deb ataladi. Lingvistik nazariya so‘zlovchilarining ongida mavjud bilim va aqliy shakl bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi va keyin til nazariyasi yuzaga keladi. Biror grammatik bilim umumlashtirilsa hamda unda mantiqiy izchillik bo‘lsa, u holda bu bilimlar tilning umumiyl nazariyasiga kiradi, keyinroq grammatik nazariya sifatida shakllanadi. Bu grammatika bir tildagi barcha shakllarni: leksik qatlamni (so‘zlar yoki lug‘at), morfologiysi (so‘zlarning strukturasi), sintaksisi (so‘z birikmasi, gap shakllari va strukturasi), semantikasi (so‘z va gaplar ma’nolari), fonetika va fonologiya (tovushlar va tovush tizimi) o‘zida aks ettiradi. Ushbu grammatika tarkibida o‘ziga xos hamda universal komponentlar mavjud bo‘ladi.<sup>7</sup>*

Tilning mazmun jihatida so‘zning asosiy ma'nosi semema termini bilan ataladi, ifoda jihatida esa leksema deb yuritiladi. Tilning ifoda va mazmun jihatlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq holatda qaraladi. So‘zning ma'nosi uning bir qancha aniq ma'nolarining yig‘indisidan, ya’ni sememalardan tashkil topadi. Masalan, bormoq, yurmoq, chopmoq, kelmoq, qadam bosmoq so‘zlar turli leksemalar bo‘lib, "harakat qilmoq"ni ko‘rsatuvchi bir sememaga birlashadi. Ammo bu so‘zlarning har biri alohida semasiga ega. Semalar bir so‘zning ma'nosini boshqa so‘zlardan farqlash uchun xizmat qiladi. Semalar narsa va hodisalarga tegishli bo‘lgan tashqi va ichki belgilar yordamida aniqlanadi va ular nutq situatsiyasida oydinlashadi. Ba’zan bir so‘z ma'no jihatidan turlichay variantlarga ega bo‘lishi mumkin. Bunda so‘zning o‘zagi, uning morfemik tarkibi ham variantlashadi va bu leksik-semantik hamda stilistik farqlanishga olib keladi. Masalan, kurs so‘zi (I–V kurs talabalari) nazariy yoki amaliy kurs (dars) ma'nolarida variantlashadi va ular ba’zan aloleksemalar deb yuritiladi. Bunday so‘z variantlarining ma'nolari nutq situatsiyasi bilan bog‘liq bo‘ladi. So‘zning leksik ma'nosi doirasiga uning konnotativ (lotincha *con* – "birga", *notatio* – "ko‘rsatish") ma'nosi, ya’ni qo‘sishimcha ma'nosi ham kiradi va u so‘zga emotsional-ekspressiv bo‘yoq va stilistik sifat beruvchi ma’noni anglatadi. Masalan, chehrasi ochiq. Basharasini ko‘rmay. Bu gaplarda chehra va bashara so‘zlar o‘zlarining leksik ma'nosi (yuz, bet) dan tashqari

---

<sup>7</sup> Linguistics: The Scientific Study of Human Language. 2006. P.7

konnotativ ma'no (ijobiy va salbiy munosabat) ham ifoda qilayapti. Kalla va tabassum so'zlari ham mana shunday xususiyatga ega.

So'zlarning konnotativ ma'nolari tilshunoslikning stilistika bo'limida, aniqrog'i, leksik stilistikada o'r ganiladi.<sup>8</sup>

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Til va tafakkur bog'liqligini misollar asosida tushuntiring.
2. Til va tafakkur birliklari aloqadorligini asoslang.
3. So'z va tushuncha munosabatida mantiqning o'rnini ko'rsating.
4. Nutq situatsiyasi, fikr almashish, axborot uzatish jarayoninig mantiqi asoslarini misollar asosida tushuntiring.
5. Tilning kommunikativ funksiyasida mantiqiy tushunchalarning o'rnini ko'rsating.
6. Leksemalarning o'z va ko'cma ma'nosini ralashuvida tafakkurning ahamiyatli o'rnini yoriting.
7. So'zlarning konnotativ ma'nolarida asoalaniladigan mantiqiy omillar haqida ma'lumot bering.
8. Idrokning muhim belgilarini, ong mahsuli sifatidagi ahamiyatini tavsiflang.
9. Bir obyektning turli yoshdag'i, turli saviyadagi yoshlar tomonidan bir xil idrok etilmasligi sabablarini aytинг.

### **Testlar**

1. Til birliklariga qaysilari kiradi ?  
A) fonema, morfema, leksema, model  
B) bo'g'in, fon, leksema,  
S) matn, so'z birikmasi, gap  
D) affiks, so'z , gap
2. Lotincha "ko'rsatuvchi" degan ma'noni ifodalovchi termini belgilang.  
A) denotativ  
B) referent  
S) reduksiya  
D) konnotatsiya
- 3.Tafakkur birliklarini ko'rsating.  
A) his-sezgi , idrok , aql,ong  
B) mantiq, idrok , aql,ong  
S) tafakkur , idrok , ong  
D) his-sezgi , idrok , hukm
- 4.Denotat termini mazmuniga qaysi termin mos keladi?  
A) diaxroniya  
B) referent

---

<sup>8</sup> Abduazizov A.Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010.-Б. 63-67

S) reduksiya

D) konnotatsiya

5.Signifikativ munosabat to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang.

A) So‘z ma’nosining predmetga munosabati

B) So‘z ma’nosining so‘zga munosabati

S) So‘z ma’nosining tushunchaga munosabati

D) So‘z ma’nosining fikrga munosabati

6. Referent nimani bildiradi?

A) so‘zning ma’nosini

B) so‘zning ifoda jihatini

S) so‘z ning mazmun jihatini

D) so‘z atayotgan narsani

7. Inglizcha “aloqador” degan ma’nodagi termini belgilang.

A) denotativ

B) referent

S) reduksiya

D) konnotatsiya

8.To‘g‘ri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan qanday nomlanadi?

A) tilshunoslik

B) falsafa

S) mantiq

D) psixologiya

9. Erishish, fahmlash, ong, tushuncha, tashqi dunyo, voqeа-hodisa, bilish, tushunish qobiliyati, zehn, fahm-farosatni ifodalovchi atamani belgilang.

A) hukm

B) idrok

S) tushuncha

D) tafakkur

10.Narsa va uning belgisi haqidagi tasdiq yoki inkor...

A) hukmdir

B) idrokdir

S) tushunchadir

D) tafakkurdir

### **Asosiy tushunchalar glossariysi:**

**Denotaniv ma’no** – lotincha denotatum – ko‘rsatuvchi, so‘z atayotgan narsa, predmet, voqelik, hodisa.

**Kommunikatsiya** – lot.communikatio<commununicare –umumiyl qilmoq, bog‘lamoq. Fikr almashuv, aloqa.

**Leksema** (yun.) – tilning lug‘at tarkibiga xos birlik; til qurilishining lug‘aviy ma’no anglatuvchi birligi.

**Leksik ma’no** – lug‘aviy ma’no. So‘zning material qismi (leksema) bildiradigan ma’no.

**Nutq situatsiyasi** – til birliklaridan foydalanish imkoniyati, so‘zlash, muloqot jarayoni.

**Mantiq** – a.nutq, til; sozlash, logika. To‘g‘ri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan.

**Idrok** – a. erishish, fahmlash, ong, tushuncha, tashqi dunyo, voqeahodisa, bilish, tushunish qobiliyati, zehn, fahm-farosat.

**Konnotativ ma’no** – lotincha *con* – "birga", *notatio* – "ko‘rsatish". So‘zning leksik ma'nosini doirasiga kiruvchi, so‘zga emotsiyal-ekspressiv bo‘yoq va stilistik sifat beruvchi qo‘srimcha ma'no.

**Muloqot jarayoni** – a. uchrashish, ko‘rishish, qabul qilish jarayoni.

**Referent** – inglizcha refer –aloqador. ko‘rsatuvchi, so‘z atayotgan narsa, predmet, voqelik, hodisa.

**Signifikat** – tushuncha.

**Signifikativ munosabat** – lotincha significatum "belgi", so‘z ma'nosining tushunchaga munosabati .

**Hukm** –hukmronlik, hokimiyat, boshqarish, tuzum, qaror, to‘xtam, buyruq; fikr, tushuncha.Narsa va uning belgisi haqidagi tasdiq yoki inkor

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Abduazizov A.Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010.-Б.63-67
2. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-В.132
3. Rasulov R.Umumiyl tilshunoslik. -Toshkent, 2013.-Б.3-4.
4. Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи: Ҳ. Дадабоев. – Тошкент, 2004.-Б.5-7.
5. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007. -Б.40-42

### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

1. Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание.- Тошкент, 2004.-Б.4-9
2. Vrabel T.T. Lectures in theoretical phonetics of the english language and method-guides for seminars, poliprint ungvár, 2009.-Р.12
3. 3.Linguistics: The Scientific Study of Human Language. 2006. Р.7
4. Ирисқұлов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.241-246
5. Раҳматуллаев Ш.Систем тилшунослик асослари. -Тошкент, 2007.-Б.37
6. Щитка Н.Н., Юсупова К.Н.Введение в языкознание. -Тошкент, 2006.-Б.9-12.
- 7.Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати.-Тошкент, 2002.-Б.14-32.
8. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
9. [www.genhis.philol.ru](http://www.genhis.philol.ru).

## 4-§. TIL TARAQQIYOTINING JAMIYAT TARAQQIYOTI BILAN MUNOSABATI

### Reja:

1. Sotsiolingvistika -til va jamiyat munosabatlari haqidagi fan.
2. Tilning jamiyatdagi ko`rinishlari.
3. Tilning ijtimoiy vazifalari.

**Asosiy tushunchalar:** *integratsiya, differensiatsiya, tarixiylik, hayotiylik, me'yoriylik, hududiylik, qadimiy tillar, me'yorlashtirilgan tillar, kreol tillari, pijn tillari, tilning ijtimoiy vazifalari, kommunikativ funksiya, emotsiyal-ekspressiv funksiya.*

Til va jamiyatning o`zaro uzviy munosabatini sotsiolingvistika fani o`rganadi. Tilning paydo bo`lishi va rivojlanishi insoniyat jamiyati bilan mustahkam bog`liq. Til insoniyat tarixi qadar qadimiyyidir.

Umumiy til tushunchasining shevadan farqi bor: til butun bir xalqqa xizmat qiladi, sheva esa xalqning bir guruhibagina taalluqlidir. Til ko`p vazifali, hamma uchun umumiy bo`lgan aloqa-munosabat vositasidir; sheva esa, vazifa nuqtai nazaridan chegaralangan bo`lib, tilning nutqiy ko`rinishini tashkil etadi.

Masalan, o`zbek tiliga qarluq-chigil-uyg`ur dialekti asos bo`lgan. Bu sheva Farg`ona, Toshkent, Samarqand-Buxoro shevalarini o`z ichiga oladi. O`zbek tili—ko`p dialektli til. Bu hol o`zbek tilining o`ziga xos murakkab tarixiy rivojlanish sharoiti va o`zbek millatining o`tmishdagi xilma-xil etnik tarkibi bilan izohlanadi.

Ta`kidlanganidek, til jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanadi, tilning grammatik qurilishi takomillasha boradi. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog`langan. Kishilik tarixidan shu narsa ma`lumki, avval urug`dosh tili, keyin qabila tili, elat, xalq va millat tili shakllangan.

Dialektlar urug`chilik davridan boshlab, jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichiga qadar son jihatdan ko`payib boradi. Bu qabilalarning yashash tarzi bilan bog`liq. Avval bir qabila ittifoqiga kirgan tillar markazdan uzoqlashgan sari ulardagi dialektal farq orta boradi va bu dialektal farqlar oxir-oqibatda yangi til paydo bo`lishi uchun asos bo`ladi. Dialektlar sonining ko`payishi va ular asosida yangi-yangi tillarning vujudga kelishi til taraqqiyotining **differensiatsiya** jarayonini tashkil qiladi. Differensiatsiya tillarning dialektlarga parchalanishidir.

Har bir millat o`z adabiy tilining mustahkamlanishi uchun harakat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida dialektlar kamayib, adabiy tilga yaqinlasha borishi kuzatiladi. Buni adabiy til ta`sirining kengayishi bilan izohlash mumkin. Til taraqqiyotidagi bu jarayon **integratsiya** deb yuritiladi. Integratsiya bir tilga mansub shevalarning adabiy til me`yorlariga yaqinlashuvlidir. Bunday jarayonlar tasodifan yuz bermaydi, balki jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy hayotning taraqqiyot jarayonlariga bog`liq tarzda sodir bo`ladi.

Til va jamiyat o`rtasidagi munosabatlarni, tilning falsafa, ijtimoiy psixologiya, etnografiya bilan bog`liq jihatlarini o`rganuvchi soha

*sotsiolingvistka* (ijtimoiy tilshunoslik) dir. Sotsiolingvistika quyidagi masalalarini o`rganadi:

- 1) jamiyat va til o`zaro bog`liq, mutanosib tarixiy jarayon, hodisadir.
- 2) jamiyat taraqqiy eta borgan sari tilning ijtimoiy vazifalari ham takomillashib boradi.
- 3) adabiy tilning, shevalarning lug`at boyligi kengayadi, ortib boradi.
- 4) yashash muhiti yaqin, turmush tarzi o`xhash hamda o`zaro iqtisodiy munosabatlari shakllangan xalqlarning tillari bir-biriga ta`sir ko`satadi. Tillar leksik jihatdangina emas, balki grammatic jihatlariga ko`ra ham ta`sirlashadi.

Dunyo tillarining, ma`lum ma`noda, o`ziga xosligini yorituvchi, muayyan tilning boshqa tillardan farqli jihatlarini ko`rsatuvchi tadqiqotlar yaratilgan. Mazkur tadqiqotlarning bosh masalasi til va jamiyat munosabati talqinidir. Tilning jamiyat bilan bog`liq tomonlarini o`rganish tilning o`ziga xos ichki qurilishi, imkoniyatlarini yoritishda ahamiyatlidir.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida aloqa-munosabat vositasi bo`lgan tilning jamiyatga bo`lgan nisbatini turlicha izohlashgan. Har xil fikrlar, turli nazariyalar vujudga kelgan. Ba`zi guruhlar tilni tirik organizm sifatida tushunishgan. Ba`zilari o`zgarmas voqelik sifatida qarashgan. Bunday qarashlarni tanqidiy-tahliliy ravishda o`rganib, quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Til tabiiy-biologik hodisa emas.
2. Tilning mavjud bo`lishi va uning taraqqiyoti tabiat qonunlariga bog`liq emas.
3. Til kishilarning tabiatiga, irqiga, nasliga aloqador emas.
4. Jamiyat bo`lib uyushgan kishilargina aloqa-munosabat vositasi bo`lgan tilga ega. Til kishilik jamiyatining asrlar davomidagi tarixiy-ijtimoiy tajribasi asosida yuzaga kelgan ijtimoiy hodisadir. Til va jamiyat taraqqiyoti uzviy bog`liqdir. Jamiyatda ro`y beradigan har qanday voqelik, ma`lum ma`noda tilda o`z ifodasini topadi. Tilning ijtimoiy tabiatini uning jamiyatda mavjud bo`lishi hamda jamiyat manfaatlariga xizmat qilishida namoyon bo`ladi.

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini tahlil qiluvchi asosiy soha hisoblanadi. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini yoritishda ***tarixiylik, hayotiylik, me`yoriylik, hududiylik*** kabi qator mezonlarga amal qiladi.

Avvalo, til voqelik sifatida mavjud bo`lishi uchun muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichini o`tishi kerak. Tilning paydo bo`lishi, yaxlit tizim tarzida shakllanishi, ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligi uning ***tarixiyligi*** bilan bog`liq.

Tilning ***hayotiyligi*** uning aloqa-munosabat vositasi sifatida mavjuligidir. Til hayotiyligini yo`qotsa, o`lik tilga aylanadi. Til hayotiy bo`lishi uchun shu tildan foydalanadigan jamiyat zarur bo`ladi. Ba`zan o`lik tillar qaytadan tirik tilga aylanishi mumkin, degan fikr ham mavjud va buning isboti sifatida ivrit tilini misol qilib keltirish mumkin. Bu qarashni nisbiy deb baholash kerak. Negaki, til aloqa munosabat vositasi sifatidagi ahamiyatini yo`qotdimi, uni sun`iy ravishda tiklab bo`lmaydi.

Sotsiolingvistikadagi ***me`yoriylik*** mezoni deyilganda tilning muayyan me`yorlar asosida muvofiqlashtiriluvi tushuniladi. Til grammaticasiga oid qonun-qoidalarning yaratilishi me`yorlashtirishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Me`yorlashtirilgan til muayyan jamiyatning ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, muayyan qonun-qoidalar asosida muvofiqlashtirilgan milliy-adabiy tildir.

**Hududiylig** tilning ma`lum hudud bilan bog`liqligini ifoda etadi. Hududiylig millat, elatga xos urf-odat, an`analar, tarixiy-etnik birlik va yagona davlat tizimining shakllanganligi bilan bog`liq. Millatning, hududning, tarixiy-etnik asos va taraqqiyotning boshqa-boshqaligi tillar o`rtasidagi farqlar uchun asos bo`ladi. Millat va etnik asosning bir xil bo`lishi hududning farq qilishidan qat`i nazar, aloqa-munosabat vositasining bir xil bo`lishini ta`minlaydi. Masalan, o`zbek va tojik tillarida har bir tilning o`ziga xosligi ko`zga tashlanadi. Bir xil etnik asosga ega bo`lgan o`zbek va qirg`iz tillari o`rtasida fonetik, leksik, grammatik farqlar bor. Adabiy til va shevalar o`rtasida ham tilning ichki tuzilishi bilan bog`liq farqlar kuzatiladi.

Ijtimoiy tabiatni va o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tillarni quyidagicha guruhash mumkin.

**Me`yorlashtirilgan tillar** adabiy til me`yoriga ega bo`lgan tillardir. Bunday tillarga adabiy shakliga ega bo`lgan barcha tillar kiradi. Adabiy til tarixiy taraqqiyot jarayonida takomillashib, o`zgarib boradi.

**Qadimiy tillar** tillarning dastlabki taraqqiyoti davrida shakllangan, takomiliga yetgan, eng qadimiy madaniy-ma`naviy yodgorliklar yaratilgan tillardir. Bu tillar keyingi davrlarda shakllangan bir qator tillar uchun asos bo`lib xizmat qilgan. Qadimiy tillar kishilik jamiyatining umumiylara taraqqiyoti uchun katta ahamiyat kasb etgan. Ma`lum davrda aloqa-munosabat vositasi sifatida mavjud bo`lib, keyingi davrlarda iste`moldan chiqa borgan. Natijada o`lik tilga aylangan. Lotin tili qadimiy tilning yaqqol namunasidir.

**Mahalliy tillar** kam sonli aholiga xizmat qiladigan tillardir. Mahalliy tillar o`z yozuviga ega emas. Bunday tillar faqat og`zaki shaklda mavjud bo`lib, aholining kundalik aloqa-munosabat ehtiyoji uchun xizmat qiladi.

**Kreol tillar** Yevropa mustamlakachilarining afrikaliklar, Sharq mamlakatlari xalqlari va Amerika hindulari bilan muloqoti natijasida mahalliy aholi tillariga Yevropa tillari (fransuz, ingliz, portugal) xususiyatlarining singishidan hosil bo`lgan tillardir. Masalan, Amerikadagi Gaiti oroli mahalliy aholisi tilining fransuz tili bilan aralashuvi natijasida *giti-kreol*, Lotin Amerikasidagi mahalliy aholi tili bilan ispan tilining aralashuvidan *ispan-nauatal* kreol tili hosil bo`lgan. Kreol tillarning har biri o`ziga xos xususiyatlarga ega. Ularda birdan ortiq tilning o`ziga xos xususiyatlari yaxlit holda namoyon bo`ladi.

**Pijin tillar** ham Yevropa tillari bilan mahalliy tillarning aralashuvidan yuzaga keladi. Lekin pijin tillarida so`zlashadigan jamiyat yo`q (kreol til jamiyat uchun aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qiladi). Pijin tillardan port shaharlarida ikkinchi til sifatida foydalilanildi.

Shunday qilib, til guruhi va tabaqalardan qat`i nazar, butun jamiyatga xizmat qiladi.

Til fikr ifodalashning muhim vositasidir. Tafakkur bilan tilning munosabati murakkab jarayondir. Til fikr ifodasi sifatida mavjud, o`z navbatida fikr til asosida

yuzaga keladigan murakkab jarayon. Til ham tafakkur ham mehnat jarayonida kishilik jamiyatida shakllangan.

Til birliklari – fonema, morfema, so`z, gap bir butun holda, mantiqiy tushunchalar (his-tuyg`u, idrok, tafakkur) bilan uzviy bog`liqdir.

Til alohida tizim sifatida quidagi vazifalarni bajaradi :

1. *Aloqa – munosabat vazifasi*. Tilning mazkur vazifasi jamiyatda aloqa – munosabat vositasi sifatida xizmat qilishdan iborat. Bu tilning asosiy ijtimoiy vazifasi hisoblanadi. Til belgilari uni aloqa - munosabatning boshqa vositalaridan farqlash, tilni ijtimoiy hodisa sifatida talqin etish imkonini beradi . Til aloqa – munosabatning muhim vositasi sifatida jamiyat bilan, uning madaniyati, turmush tarzi va mehnat faoliyatidagi har bir jarayon bilan muntazam bog`liq. Kishilar o`z fikrlarini, sezgi va ruhiy kechinmalarini ifoda qilib, bir – birlariga ta`sir ko`rsatadilar.

2. *Tilning hissiy ta`sir vazifasi*. Tilning muayyan ma`lumotni ifoda etib, tinglovchiga ta`sir ko`rsatishi uning hissiy - ta`siriy vazifasi hisoblanadi . Xabar, sezgi va hayajon, xohish ifoda qilish hissiy ta`sir vazifasining asosini tashkil etadi. Bunda turli tasviriy til vositalaridan, jumladan, modal so`zlar, javob talab qilmaydigan so`roq, tartibni o`zgartirish kabilardan foydalaniladi.

3. *Tilning to`plash vazifasi*. Til aloqa – munosabat vositasi, hissiy ta`sir ifodasi bo`lib qolmay , to`plash vazifasini bajaruvchi muhim manba hamdir . Til millatlararo aloqa - munosabat vositasi, to`plangan bilim va tajribalarni avloddan avlodga yetkazish vositasi hisoblanadi. Tilning ushbu vazifasi bilish jarayonidagi asosiy vositalardan hisoblanadi . Bevosita aloqa - munosabat davomida tilning nomlash va fikr ifodalash vazifalari namoyon bo`ladi. Mustaqil so`zlar, qo`shma nomlar , iboralar ,atama nomlovchi birliklar hisoblansa, turli gap ko`rinishlari fikr fodalovchi birlik hisoblanadi.

Tilning kishilik jamiyatidagi o`rnini , madaniy – ma`naviy soha taraqqiyotidagi ahamiyatini belgilash tilning asosiy vazifalarini to`g`ri ta`riflashga asoslanadi .

Bevosita aloqa – munosabat davomida tilning nomlash va fikr ifodalash vazifalari namoyon bo`ladi.

Tillarni bir-biriga muqoyasa qilib, taqqoslab o`rganish shuni ko`rsatadiki, ba`zi tillardagi so`zlarning ma`nolari, shakllari, grammatik xususiyatlari bir-biridan juda katta farq qiladi. Albatta, bunday tillar bir-biriga yaqin, qardosh tillar bo`la olmaydi. Ammo ba`zi tillarning tuzilishi, grammatik xususiyatlari, shu tillardagi so`zlarning paydo bo`lish manbai, so`z shakllari va ma`nolari bir-biriga ancha yaqin bo`ladi. Bunday tillar bir umumiyl o`zakli tildan kelib chiqqan bo`lib, **qardosh tillar** deyiladi. Grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo`lgan tillar guruhi **til oilasi** deb ataladi. Chunonchi, o`zbek, uyg`ur, qozoq, qirg`iz, tatar, boshqird, ozorbayjon, yoqt, turkman, qoraqalpoq, turk, chuvash tillari kabilar turkiy tillar oilasiga kiradi. Bu qardosh tillardagi o`xshashlik, yaqinlik ularning so`z boyligi, grammatik qurilishi va nutq tovushlarida ifodalanadi.

Shuni ham ko'rsatib o'tish kerakki, qardosh bo'lмаган ба'зи tillarning so'z boyligida alohida so'zlarning ma'no jihatidan o'xhashlik hodisalari uchrashi mumkin. Bunday hodisa bir tilga qarindosh bo'lмаган boshqa bir tildan kirgan so'zlarda uchraydi. **Masalan**, o'zbek tiliga arab tilidan: *oila, mактаб, lug'at, kitob* singari, rus tilidan *sамовар, машина, стол, стул, чойнак* kabi anchagina so'zlar o'zlashgan. Lekin bunday so'zlar o'zbek tilining arab tili yoki rus tili bilan qardosh til ekanligiga asos bo'lmaydi, chunki birinchidan, bunday tillarning qarindosh ekanligini isbot qilish uchun faqat so'zning o'zi asos bo'la olmaydi. Ikkinchidan, har bir tilning so'z boyligida boshqa tildan kirgan so'zlar juda ozchilikni tashkil etadi va ularning grammatik xususiyatlari butunlay boshqacha bo'ladi. Uchinchidan, tarixiy taraqqiyot jarayonida turli munosabatlar tufayli boshqa tillardan kirib qolgan bunday tasodifiy so'zlar tillarning tarixini solishtirib, taqqlaslab o'rganishda material bo'la olmaydi, chunki bunday tillarning tuzilishi bir-biriga to'g'ri kelmaydi.

Rus, bulg'or, chek, polyak tillari ham bir oiladagi qardosh tillarga qarashli bo'lganligi uchun bu tillarda so'z ma'nolari, grammatik tuzilishlari jihatidan birmuncha o'xhashlik, yaqinlik bor.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, qardosh tillarda so'z o'zaklari grammatik vositalar jihatidan farq qilsa ham, ularning manbai bir bo'lib, ular bir o'zak tildan kelib chiqqan. Biror so'z yoki grammatik vositalardagi tovush o'zgarishlari ma'lum bir fonetik qonuniyat asosida yuz bergen. Bir qardosh tilga, bir tovushga ikkinchi bir qardosh tildagi shunga muvofiq tovush to'g'ri keladi. Masalan, o'zbek tilidagi **g** tovushiga qozoq tilidagi **v(w)** tovushi muvofiq keladi: **bog - bav (baw), tog - tau (taw)** : o'zbek tilidagi **t** tovushiga ozarbayjon tilidagi **d** tovushi muvofiq keladi: **temir-demir, til-dil**; Qardosh tillardagi tovushlarning bir-biriga muvofiq kelishi fonetik qonunga asoslangandir hamda qardosh tillardagi so'zlarining ma'nolari va grammatik qurilishi bilan bog'liq.

Demak, qardosh tillar oilasiga kiradigan tillarda ba'zi tovushlar bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qilsa ham, grammatik vositalar, so'zlarining ma'nolari o'zaro yaqin bo'ladi.

Tilning boyligi irqning oq yoki sariq ekanligiga bog'liq emas. Shunday qilib, geneologik tasnif qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir o'zak tilidan tarqalganligini va ularning o'zaro munosabatini, so'z ma'nolari va grammatik shakllarini, nutq tovushlarining bir-biriga yaqinligini, o'xhashligini nazarda tutib, tillarni guruhlarga ajratadi.

Hozirgi vaqtida tarixi o'rganilib, bir-biri bilan qardosh ekanligi aniqlangan tillar oilasi quyidagilardan iborat.

1. ***Hind-yevropa tillari oilasi.***
2. ***Xom-som tillari oilasi.***
3. ***Turk tillari oilasi.***
4. ***Ugor-fin tillari oilasi.***
5. ***Kavkaz tillari oilasi.***
6. ***Xitoy-tibet tillari oilasi.***
7. ***Dravid tillari oilasi.***

## **8. Indonez tillari oilasi kabilar.**

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Til oilalari haqida ma'lumot bering.
2. Qardosh tillarning xususiyatlarini ayting.
3. Qardosh tillarning farqli jihatlarini misollar orqali tushuntiring.
4. Turkiy tillar oilasi haqida fikrlaringizni bering.
5. Turkiy til oilasiga kiruvchi tillar haqida ma'lumot bering.
6. Hozirda mavjud til oilalari haqidagi fikrlaringizni misollar bilan tushuntiring.

#### **Testlar**

1. *oila, maktab, lug'at, kitob* kabi so'zlar o'zbek tiliga qaysi tildan o'zlashgan?  
A) arab  
B) fors  
S) rus  
D) bu so'zlar aslida o'zbekcha
2. *samovar, mashina, stol, stul, choynak* so'zları o'zbek tiliga qaysi tildan o'zlashgan?  
A) arab  
B) fors  
S) rus  
D) bu so'zlar aslida o'zbekcha
3. Turkiy tillar oilasiga qaysi tillar kiradi?  
A) chuvash, boshqird, o'zbek  
B) yoqut, xazar, rus  
S) ozarbayjon, qirg'iz, tojik  
D) tatar, rus, boshqird
4. Quyida keltirilgan qaysi tillar bir oilaga mansub?  
A) rus, bulg'or, chech, polyak  
B) tojik, turkman, qirg'iz  
S) o'zbek, ozarbayjon, tojik  
D) chech, polyak, tatar
5. O'zbek tilidagi **g** tovushiga qozoq tilidagi qaysi tovushga muvofiq keladi?  
A) g tovushiga  
B) h tovushiga  
S) v(w) tovushiga  
D) y tovushiga
6. O'zbek tilidagi **t** tovushiga qaysi tildagi **d** tovushi muvofiq keladi?  
A) ozarbayjon  
B) qirg'iz  
S) rus  
D) tojik

7. Qaysi tillar oilasiga kiradigan tillarda ba'zi tovushlar bir-biridan ozmiko'pmi farq qilsa ham, grammatic vositalar, so'zlarning ma'nolari o'zaro yaqin bo'ladi?
- A) qarindosh tillar
  - B) qarindosh bo'lмаган tillar
  - C) bunday holat kuzatilmaydi
  - D) forsiy tilda
8. Qardosh bo'lмаган til oilasini belgilang?
- A) hind-yevropa tillar oilasi
  - B) dravid tillari oilasi
  - C) turkiy tillar oilasi
  - D) rus tillari oilasi
9. Qaysi tasnifda qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir o'zak tilidan tarqalganligini va ularning o'xshashligini nazarda tutib, tillarni guruhlarga ajratadi?
- A) geneologik tasnif
  - B) tipologik tasnif
  - C) differensial tasnif
  - D) notipologik tasnif
10. Grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo'lgan tillar guruhi nima deyiladi?
- A) til oilasi
  - B) tillar
  - C) tillar guruhi
  - D) bir xil tillar

### **Asosiy tushunchalar glossariysi**

**Qardosh tillar** – tuzilishi, grammatic xususiyatlari, shu tillardagi so'zlarning paydo bo'lish manbai, so'z shakllari va ma'nolari bir-biriga ancha yaqin tillardir. Bunday tillar bir umumiyl o'zakli tildan kelib chiqqan.

**Til oilasi** – grammatic tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo'lgan tillar guruhi.

**Turkiy tillar oilasi** – qardosh tillardagi o'xshashlik, yaqinlik ularning so'z boyligi, grammatic qurilishi va nutq tovushlarida ifodalanadi. O'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, ozorbayjon, yoqut, turkman, qoraqalpoq, turk, chuvash tillari turkiy tillar oilasiga kiradi.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Abduazizov A.Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010.-164-б
2. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.17-19
3. Ирисқұлов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.163-170
4. Rasulov R.Umumiyl tilshunoslik. -Toshkent, 2013.-Б.3-4.
5. Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи: Ҳ. Дадабоев. – Тошкент, 2004.-Б.5-7.
6. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007. -Б.22-29

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкоznание.- Ташкент, 2004.-Б.4-9
2. Шайкевич А.Я., Абдуазизов А.А., Гурджиева Е.А. Введение в языкоznание. -Ташкент: Уқитувчи,1989.-С.5-9.
3. Щитка Н.Н., Юсупова К.Н.Введение в языкоznание. -Ташкент, 2006.-Б.38.
4. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати.-Ташкент, 2002.
5. www. literature.uz
6. www. genhis philol.ru.

### **5-§. YOZUV HAQIDA MA'LUMOT. TIL VA YOZUV MUNOSABATI**

#### **Reja:**

- 1.Yozuvning tarixiy ahamiyati.
- 2.Yozuv turlari.
3. Yozuvning tarixiy ko'rinishlari.

**Asosiy tushunchalar:** *yozuv, yozuv turlari, piktografik yozuv, ideografik (logografik)yozuv, ieroglifik yozuv, fonetik yozuv, bo'g'in yozuvi*

Tilning butun imkoniyatlari nutqda ifodasini topadi. Nutqning og'zaki va yozma shakli bo'lib, yozma nutq yozuv orqali namoyon bo'ladi. Yozuv ma'lum bir tarixiy jarayon mobaynida aloqa-munosabatning muhim vositasi bo'lib shakllanadi. Yozuvning tarixiy ahamiyati quyidagilarda aks etgan.

1.Yozuv ma'lum tarixiy jarayon natijasida shaklanadi va kishilar orasidagi bavosita aloqa-munosabat vositasi sifatida ijtimoiy manfaatlar uchun xizmat qiladi.

2. Kishilik jamiyati erishgan barcha ma'naviy yutuqlar yozuv orqali avloddan avlodga yetkaziladi.

3. Yozuv uchun masofa va vaqt ahamiyatsizdir.

4. Yozuvning xabar yetkazish imkoniyati tufayli turli masofadagi axborotlar umumiy ma'lumotga aylanadi.

5. Yozuv kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichlarini, xalq tarixi, etnografiyasini adabiyot va san'at tarixini, tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvsiz tilning va xalqning tadrijiy taraqqiyotini o'rganib bo'lmaydi.

Dunyodagi aksariyat tillar o'z yozuviga ega. Yozuvning hozirgi ko'rinishlari dastlabki shakllarning takomillashib borishi natijasida paydo bo'ldi. Tadqiqotlardan ma'lumki,yozuvning dastlabki ko'rinishlari ramziy ifodalar tarzida yuzaga kelgan. Fanda piktografik, logografik, ieroglifik, fonografik kabi yozuv turlari bor.

**Piktografik yozuv.** Voqeа-hodisalar haqidagi tafakkur ma'lumotlari jonli va jonsiz vositalar orqali ifodalangan yozuv piktografik yozuv hisoblanadi. Bu atama "chizilgan" va "yozaman"degan ma'nolardagi so'zlardan tuzilgan. Yozuvning bu

turi ma'lumotlarning dastlabki qaydlarini yetkaza oladi va mavhum tushunchalarni ifodalash imkoniyatiga ega emas.

Insoniyat bundan besh ming yil avval ixtiro qilgan yozuv jamiyatning rivojlanishi, unung tarixi, madaniyati, urf-odati va umumanjahon sivilizatsiyasidan darak beruvchi eng nodir kashfiyotdir. Tilshunoslikning yozuvni o'rganuvchi sohasi "grammatalogiya" (grekcha -grammat - to'g'ri yozaman, logos - fan) deyiladi. Eramizdan taxminan 120 asr oldin turli rasmlar, skulptura va grafikaga tegishli belgilar shartli ravishda narsalar, tushunchalar va biror jumlanifodalash uchun qo'llangan va bu piktografik (loticha pictum - rasm, pingochizaman) yozuv ning hosil bo'lishiga asos bo'lgan.

Turli chizma grafik vositalar yordamida axborot yetkazib berish bundan bir necha yuz yil avval ham keng qo'llangan. Afrikadagi Togo mamlakatidagi eve elati piktogrammalar yordamida maqollarni ifodalaganlar. Ignaga ip taqilgan 1-rasm (piktogramma) "Igna qayerga borsa, ip ham o'sha joyga boradi" degan maqolni ifodalaydi. Boshqa maqol: "Kichik narsalar buyuk ishlarni bajara oladi" yoki "Igna katta yirtiqni yamay oladi" 2-rasmida ifodalangan. Ikkita odamning rasmi (3) "Ikkita dushmanga uzoq bas kelish qiyin" maqolini ifodalaydi. Ikki kishining birining qo'lida yoy (o'ngda) va ikkinchisida kamon (chapda) bor. O'ngdag'i kishining qo'li ko'ksida - "meniki" ma'nosini bildiradi. Ikkinchisida qo'lida o'ljasini ushlab turibdi. "Dunyo bepayon va keng" maqolini ifodalash uchun daraxt va aylana o'rtasidagi odamning qo'lini ochib turgani (5) chizilgan. Buning asl mazmuni: "O'limdan qochib qutulib bo'lmaydi" maqolini (6) eslatadi. Uzun bo'yli kishi to'g'ri chiziq va qa notli hayvon - o'limni anglatadi.(Rasmga qarang).

Piktogrammalar o'zlarining axborot berish vazifasini to'la bajarmay, ba'zi g'oyalarni ifodalasa, ular ideogrammalar deyiladi (grekcha idea - g'oya) va ularni biriktirish vositasida biror axborot berish mumkin bo'ladi. Xitoy yozuvidagi bir necha yuzta ideogrammalar aslida narsalarni ifodalovchi rasmlardan kelib chiqqan. Bunday ideografik yozuvga shumer (keyinchalik akkad) yozuvi (eramizdan avvalgi IV—I asrlar), elam yozuvi (eramizdan avvalgi XXIII—IV asrlar), misr yozuvi (eramizdan avvalgi XXX—V asrlar), xet yozuvi (asrimizdan avval XV—XII asr), maya yozuvi (IV—XVI asrlar) va atstek yozuvi (XVI asrgacha) ham kiradi. Xitoy yozuvidagi ideogrammalardan ba'zilari narsalarning tasviriga o'xshash alomatlarga ega: -quyosh, -maydon, -oy, -yoy va nishon va h.k.

Piktrogramma va ideogramma O'rta yer dengizining janubiy-sharqiy qirg'og'ida va Fors ko'rfazi hududlarida qo'llanmay qoldi va ular o'rniga aniq so'zlarni ifodalovchi belgilar - logo grammalar (grekcha logos - so'z, nutq) kashf etildi. Bu yozuv grafik vositalar yordamida so'zlarning ma'nolarini ifodalagan. Qadimiy shumer piktrogrammalari va ideogrammalarining rivojlanishi natijasida mixsimon logogrammalar hosil bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan ba'zi grafik belgilar so'zlarning ma'nosini emas, balki ularning ma'nosiz qismlarini, ya'ni bo'g'irlarni ham ifoda qilgan. Mixsimon yozuvni shumerlardan Mesopotamiyaga kelgan akkadlar, ya'ni vavilonlilar va ossiriylarning vorislari qo'llaganlar. Tovush elementlarining grafik belgilari (ularni fonogrammalar deyiladi - grekcha fon —

tovush, nutq) ossiriy- vavilon mixsimon yozuvida qo'llaniladi va uni sillabogrammalar (grekcha syllabal — bo‘g‘in) deb ataladi. Fonografik va sillabografik yozuvlarda qo‘llangan grafemalar unli va undosh tovushlarni ham ifodalagan. Bu keyincha (grekcha konsonant "undosh") yozuvining paydo bo‘lishiga olib keladi. Konsonant yozuvning rivojlanishi natijasida grek yozuvi va undan keyin lotin (Rim) yozuvi paydo bo‘ldi. Grek va lotin yozuvlari Bolqon va O‘rta yer dengizi bo‘yidagi xalqlarga tarqaldi va eramizdan avvalgi II asrdan boshlab xristian dini tarqalishi natijasida IV asrda gotlar (sharqiyan germanlar), VI-V asrlarda efioplar, armanilar va gruzinlarga yetib keldi. Qadimiy Vizantiya davlatidagi Saloniki shahrida yashovchi aka-uka Konstantin Kiril va Mefodiy grek yozuvi asosida slavyan yozuvini (863— 869-yillar) kashf etdilar. Bundan yuz yil keyin slavyan xristian madaniyati yozuvi Rossiyaga tarqaldi. Hozirgi rus tilida qo‘llanayotgan kirillitsa yozuvi aslida o‘scha aka-uka Kiril va Mefodiylar taklif etgan alifboning qayta ishlangan nusxasidir.

Shunday qilib, yozuvlarni asosan ikki turga bo‘lish mumkin: 1) ideografik (piktogramma, logogramma, sillabogramma) va 2) fonetik (grek, lotin, kirillitsa va h.k.) yozuvlar. Bu fonetik yozuvlar tarixiga nazar solsak, finiikiy (eramizdan avvalgi XX asrdan boshlab Suriya va Falastinda tarqalgan), oramiy (Yaqin Sharqda eramizdan oldin VIII asr) va undan kelib chiqqan qadimgi hind yozuvlari brahma (eramizdan avval III asr) va devanagari (eramizdan avvalgi VII asrdan boshlab) yozuvlari mavjud. Devanagari yozuvi qadimiy sanskrit tilida qo‘llangan va keyincha boshqa hindiy tillarida, jumladan, hindi, marathi, nepali, gondi, munda tillarida ishlatilgan. Hind alifbosi boshqa mamlakatlardagi tibet, kxmer, mon, birma, tai, loas, yaran va h.k. tillarda qo‘llanadi.

Finikiy, grek, lotin va kirillitsa yozuvlari rivojlanishidagi alomatlarni quyidagi qiyoslashdan bilish mumkin:<sup>9</sup>

		Grek alifbosi	Lotin alifbosi		Kirillitsa alifbosi
A	A	A	A	K	M
B	B	B	B	N	H
T	r	C	r		C
A	a	D		O	O
E	E	E	E	r	n
Y		F	V	K	K
I	Z	Z	z	p	p
B	H	H	N	i	c
©	e			T	T
I	I	I		<D	®
K	K	K	K	X	X
L	A	L	A		

<sup>9</sup> Абдуазизов А. Тилшунослик назариясига кириш.-Тошкент,2010, 157-161.

Piktografik yozuvning takomillashib borishi natijasida *ideografik* (grekcha “idea-tushuncha”, “grafo-yozaman”) yozuv paydo bo’ldi. Yozuvning burturi *logografik yozuv* deb ham yuritiladi. (“logos-so‘z”, “grafo- yozaman”). Negaki, bunday yozuvdagi ramzlar narsa- buyumlarni aks ettirib qolmay, tildagi so‘zlarni ham ifodalaydi.

Ushbu yozuvda ma’lumot ma’nosini shakllar bilan aks ettirish qiyin bo‘lgan logogrammalar orqali yetkaziladi.

Logografik yozuvning piktografik yozuvdan quyidagi afzallikkleri bor.

a) logografik yozuv xabar qilinishi lozim bo‘lgan mazmunni ancha mufassal aks ettiradi.

b)piktografik yozuvda so‘z tartibi va so‘zshakllari noaniq, logografik yozuvda esa aniq bo‘ladi.

v)piktografik yozuvda subyektivlikka, ixtiyoriylikka yo‘l qo‘yiladi, logografik yozuv esa barqaror logogrammalardan tashkil topgan.

Logografik yozuvning bir oz mukammallahgan shakli *ieroglyphik yozuvdir*. Ieroglyph grekcha “ierogliv” so‘zidan olingan bo‘lib, “muqaddas yozuv “ degan tushunchani anglatadi. Bu yozuvdan qadimgi Arabistonda keng foydalanilgan. Ushbu yozuvlar ifoda etilayotgan narsa-buyum xususiyatlarini imkon qadar aks ettiradi. Ieroglyphik yozuv mavhum tushunchalarni ifodalay olishi bilan o‘zidan oldingi yozuvlardan farqlanadi.

Yozuvning yuqorida qayd etilgan turlari ancha murakkab. Ularda fikr va ma’lumot ifodalash imkoniyati juda tor. Shuning natijasi o‘laroq, yozuvni oson, qulay shaklga keltirish ehtiyoji tug‘uladi. Yozuvni soddalashtirish quyidagi yo‘llar orqali amalga oshirildi.

1.Tushunchani yangi shakllar bilan berish o‘rniga, mavjud logogrammalar yoki ierogliflar majmuasi orqali ifodash.

2. Logografik yozuvni soddalashtirishning ikkinchi yo‘li so‘zlarining grammatik shakllariga taalluqlidir. Masalan, logogrammalarni o‘zak sifatida qoldirib, grammatik ma’nolar uchun yangi logogrammalar o‘ylab topish, ularni o‘zak logogrammalar ma’nosiga qarab qo‘sish.

3. Yozuvni soddalashtirishning eng unumli va ma’qul usuli fonografik yozuvga o‘tish edi. Bunday yozuv tilning grammatik qurilishini ifodalab qolmay, uning fonetik tuzilishini, ya’ni so‘zning tovush tarkibini ham aks ettiradi.

Yozuvning dastlabki ko‘rinishlari bo‘lgan piktografik, ideografik, ieroglyphik yozuvlardan keyin yozuvning yangi bosqichi –*fonografik* (yun. «phane» – *tovush*, «graphe» – *yozaman*) yozuvga – avvalo, ayrim bo‘g‘inlarni, keyinroq ayrim tovushlarni biror belgi bilan ifodalash usuliga o‘tildi. Fonetik yozuvning kelib chiqishi qadimgi Finikiya yozuvi bilan bog‘liq.

**Fonetik yozuv.** Yozuvning bu turi bir necha ko‘rinishlarga ega. Shulardan biri *bo‘g‘in yozuvidir*. Bu yozuvda ierogliflar bo‘g‘inlarni ifodalaydi. Yozuv tarixida bo‘g‘inli yozuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bo‘g‘inli yozuvda bir bo‘g‘inni, bir so‘zni, bir tovushni ifodalaydigan belgilarni qo‘llangan. Ossuriya va Vavilon mix (qoziq) yozuvi ana shunday yozuvlardan hisoblangan. Bu yozuvda ayrim belgilarni bir tovushni, butun bir bo‘g‘inni, ba’zi belgilarni esa butun bir so‘zni

ifodalagan. Eronliklar Vavilonni bosib olganlaridan keyin Ossuriya va Vavilon mix yozuvidan foydalanib, fonetik (tovushli) yozuvni, ya’ni har qaysi belgi bir tovushni ifodalaydigan yozuvni ixtiro etganlar. Dunyodagi aksar tillarning fonetik yozuvini ifodalovchi alifbe, ya’ni fonetik yozuvlar finikiyaliklar yozuvi asosida shakllangan.

*Inson tili juda ko‘p avlodlarni qamrab olgani uchun biror inson bolasi o‘zi yashab o‘sayotgan muhitning tilini o‘rganmasdan ulg‘aya olmaydi. Ammo birorta bola ham o‘qish yoki yozishni shunchaki kuzatish orqali o‘rgana olmaydi: buning uchun batafsil ta’lim zarur bo‘ladi.*

*Ingliz tilidagi o‘tgan zamon morfemasi sharqli “t” va “d” allomorflariga ega. Har bir tilda ma’lum fonemalar borki, ular boshqa tillardan o‘zlashgan bo‘ladi. Har bir morfema fonemalar bilan ifodalanadi; nutqning har bir birligi morfemalardan, morfemalar esa fonemalardan tashkil topadi.*

*Yozuv og‘zaki tildan bir qancha belgilarga ko‘ra farq qiladi. Birinchidan, yozuv tizimlari tillardan farqli o‘laroq, turlichcha qo‘llanadi. Turli yozuv tizimlari tovush tizimlariga turlichcha bog‘langan.*

*Ikkinchidan, Amerika strukturalistlari yozuvni tilning subtuzimi (subsistema) sifatida talqin qilishga urinsalar-da, yozuv tizimlari til tizimi kabi ishlamaydi: masalan, grafema fonemani aks ettiradi, deb qaralsa-da, aksariyat alfavitlar bosh harf va kichik harfdan foydalanadi. Mohiyatan olganda “A” grafemasi va “a” bitta fonemani aks ettiradigan allograf hisoblanadi.*

*Uchinchidan, til doimo o‘zgarib turadi, yozuv esa an’analarga rioya qiladi.*

*To‘rtinchidan, yozuv tizimlari rahbarlar tomonidan o‘zgartirilishi mumkin. Kamol Otaturk Turkiyaning ozchilikni tashkil etuvchi aholisiga o‘z tillarida gapirishni to‘xtatib, faqat turk tilida so‘zlashishni buyura olmasdi. Ammo u 1928 yilning 3 noyabridan boshlab turk tili arab emas, roman alfavitida yozilishini belgilab berdi. Nux Vebstr amerikaliklarga infinitylarni qo‘shmasdan so‘zlashni ayta olmadi, ammo u “colour” kabi so‘zlarda “u”ni tushirib goldirishni tavsiya qildi.*

*Yozuv tizimlari ularning o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib tahlil qilinishi lozim. Asrlar osha ularda ro‘y bergen o‘zgarish juda ko‘plab tadqiqotchilarini jalg etgan va ular bo‘yicha tarixiy hujjatlar mavjud. Ayni o‘rinda yozuvning kelib chiqishi va grafik shakllarning fonologik shakllar bilan aloqasiga e’tibor qaratiladi.*

*Odatda, yozuv tizimlarining uch xil ko‘rinishi farqlanadi: logografik, bo‘g‘inli (sillabari), alfavit. Bu ketma-ketlik yozuv tizimlarining rivojlanish tarixini ham aks ettiradi. Barcha yozuv tizimlari oxiri alfavit bosqichida tugaydi, chunki alfavit yozuvi “eng yaxshi” hisoblanadi.*

*Ammo Finikiya tili va boshqa shioliy-g‘arbiy semit tillari bo‘g‘inni aks ettiradi, degan qarash bo‘lsa-da, finikiya tili aynan bo‘g‘inni ifodalalamaydi. Bo‘g‘inlarni ifodalovchi Hindu va Efiopik yozuvlari esa aslida alfavit yozuvidan “o‘sib chiqqan”. Shimoliy-G‘arbiy Semit yozuvlarini bo‘g‘inli yozuvlar*

*deyishning o‘zi noto‘g‘ri va bitta yozuvning rivojlanishiga qarab tarixiy prinsip haqida gapirish o‘rinsizdir.*

*Buning yechimi shundaki, uch tarkibli tipologiyani olti tarkibli tipologiya bilan almashitirish kerak. Abigudani (abiguda undosh va unli ketma-ketligi bitta birlik sifatida ifodalanadigan yozuv) sillabarilardan (bo‘g‘inli yozuvdan) alohida tip sifatida tan olinsa, 6 ta bosqichni ajratish mumkin bo‘ladi va alfabitli yozuvni boshqalaridan afzal deb qarashga barham berish kerak.*<sup>10</sup>

Yozuv nutqni ma’lum shakllar orqali ifodalash vositasidir. Yozuv ijtimoiy ehtiyoj asosida kishilik tarixining muayyan davrida paydo bo‘lgan va jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda mukammallasha borgan. Yozuv tildan keyin jamiyat tomonidan qo‘lga kiritilgan eng katta madaniy yutuqlardan biri hmsoblanadi. Yozuvning kelib chiqishi va taraqqityoi jamiyat taraqqiyoti bilan, madaniyat darajasi, siyosiy-huquqiy, estetik tuyg‘ularni qayd qilish hamda keyingi davrga qoldirish ehtiyoji bilan belgilanadi. Yozuvning asosiy vazifasi nutqni uzoq masofaga yetkazish, keyingi avlodlarga qoldirishga xizmat qilishdan iborat.

Yozma nutq kommunikativ, emotsiyal-ekspressiv, akkumulyativ funksiya bajaradi. Yozuv orqali kishilar o‘z fikrlarini bir-birlariga bildiradilar, avlodlarga qoldiradilar, minglab yillar oldin o‘tgan voqeа-hodisalar, shaxslar, urf-odat va dunyoqarash to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Yozuv orqali tarixiy ma’lumotlarni, ijtimoiy voqelik tasvirini, madaniy yodgorliklar hamda ma’naviy merosni keyingi avlodga yetkazish imkoniyati kengaydi. Grafik belgilar yozuvning asosiy ifoda shaklidir.

Ana shunday qiymatga ega bo‘lgan yozuv o‘z rivojlanish tarixiga ega.

Xalqlar fonetik yozuvning turli – lotin, arman, gruzin, slavyan, arab yozuvlarini yaratganlar. Qadimgi yozuvlar tosh, suyak, yog‘och, qamish kabi qattiq jismlarga, keyinchalik pergament va qog‘ozga yozilgan. Yozuvlar o‘ngdan chapga, chapdan o‘ngga yoki yuqorida pastga qarab o‘qilishi mumkin bo‘lgan.

Til va yozuvning o‘zaro aloqadorligini tadqiq qilish tilshunoslik fanining muhim nazariy muammozi hisoblanib, hozirgi tilshunoslikda tovushlarni, tilning fonologik sistemasini o‘rganuvchi “Fonetika va fonologiya” hamda yozuv, alfavitlarning turli ko‘rinishlari, yozuv tarixi masalalari bilan shug‘ullanuvchi “Grammotologiya” yoki “Grafik lingvistika” deb nomlanadigan ikki lingvistik yo‘nalish ajralib chiqdi.

Dunyoda 5000dan ortiq til mavjud bo‘lib, bu tillarning barchasi ham o‘z yozuviga ega emas. Ko‘pgina tillar ifodasi sifatida bir necha yozuv ko‘rinishlaridan foydalanilgan. Yozuvning o‘zgarishi jamiyat taraqqiyotiga turli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Yozuvning o‘zgarishi obyektiv va subyektiv omillar bilan belgilanadi.

---

<sup>10</sup> Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68.

O'rta Osiyoda eng qadimgi davrlarda yashagan qabilalar, ularning madaniy hayoti, tili, yozuvi haqidagi ma'lumotlar grek, eron, xitoy tarixchilari asarlari, toshlarda bitilgan matnlar orqali yetib kelgan.

Turk xoqonligining Buyuk ipak yo'li ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari markazida joylashgani bir tomondan, turkiy xalqlarni ilg'or madaniy an'analar bilan tanishtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, turli xalqlarning madaniy jihatdan yaqinlashuvida asosiy vosita sifatida xizmat qildi. Ana shu madaniyat an'analarining muhim qirrasi Markaziy Osiyo xalqlarining yozuv madaniyatidir. Markaziy Osiyo hududlari qadimdan jahon yozuv madaniyati tarixida o'ziga xos ma'rifiy markaz sifatida qarab kelingan. Markaziy Osiyo xalqlari Uzoq Sharqning ieroglisini yozuvlari izidan bormay, yozuvning yuksak bosqichiga xos alifboli, ya'ni har bir shartli harf belgisi inson nutqining ayrim olingan tovush birligini ifoda etadigan fonetik yozuv usulini tanladilar. Fonetik yozuv har qanday yozuvning ibridoib turlaridan taraqqiyot mahsuli sifatida ajralib turadi. Fonetik yozuv yo'lini tanlash ajdodlarimizning inson nutqini ilmiy va amaliy jihatdan chuqr tushunganliklaridan, yuksak darajadagi filologik bilimlaridan dalolat beradi.

Klinopis, misr va semmit yozuvlari qadimgi Yaqin Sharqning dastlabki, asosiy yozuvlari sifatida qaralgan. Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda O'rta Osiyoning Eronga yaqin hududlarida rasmiy yozuv sifatida klinopis, ya'ni mix yozuvi ishlatilgan.

Semmit yozuvi nafaqat hind yozuviga, Markaziy Osiyoda keng yoyilgan oromiy yozuviga ham asos bo'ldi. Oromiy yozuvidan, asosan, forslarning idora hujjatlarini yozishda foydalanilgan. Ayrim joylarda xalqaro diplomatik munosabatlarda oromiy yozuvi qo'llangan. Oromiy yozuvi klinopisdan sodda va qulayroq edi.

Turli yodgorliklarda qayd etilishicha, eramizdan oldingi III-I asrlarda oromiy yozuvi bilan bir qatorda yunon va karoshta yozuvlari ham ishlatilgan.

XVII asr oxirlari va XVIII asr boshlarida Sharqiy Turkiston qazilmalari orqali bir qator turli (diniy-mistik) yo'nalishdagi yozuv namunalari topilgan. Ayrim ro'zg'or buyumlarida toxar yozuvi, bu yozuv asosida shakllangan pahlaviy yozuviga oid namunalar ma'lum bo'ldi.

1956 yilda mo'g'ul arxeologi Dorj Suren Mo'g'ulistondagi Arxangay aymog'iga qarashli Bug'ut qishlog'i yaqinida katta toshlavhaga bitilgan qabr bitigini topdi. Mo'g'ul olimi B.Rinchen bu lavhadagi yozuvni uyg'urcha, deb taxmin qildi. Lekin Dorj Suren yuborgan fotonusxalar, keyinchalik S.Klyashtorniy tomonidan ko'chirilgan nusxalar asosida V.A.Livshis bug'ut yozuvining sug'dcha ekanligini asosladi.

Sug'dlar va turklar o'rtasidagi aloqalar VI asrdan boshlangan, deyiladi. Lekin Bug'ut bitigtoshi turk-sug'd munosabatlari yanada qadimdan boshlanganidan dalolatdir. Sug'd yozuvi namunalarini, asosan, hujjatlar matnida saqlanib qolgan.

Eramizning II asridan boshlab sug'd yozuvi qo'llangan. Bu yozuv taxminan VI asrgacha davom etdi.

II asr oxiri III asr boshlarida Xorazm shohi xorazm yozuvida pullar chiqargan. Xorazm shohi tamg‘asida xorazm yozuvidagi bitiglar aks etgan. Xorazm yozuvi O‘rta Osiyoda ancha keng tarqalgan bo‘lib, oromiy yozuviga yaqin edi.

Turkiy tillarga mansub o‘zbek tili yozuv tarixi ham ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan belgilanadi.

### Savol va topshiriqlar

1. Yozuvning paydo bo‘lishi haqidagi ma’lumotlarni ayting.
2. Yozuvning takomillashish jarayoni haqida fikrlaringizni bildiring.
3. Piktografik yozuv tabiatiga xos xususiyatlarni ayting.
4. Ideografik yozuvning oziga xos xususiyatlariga to‘xtaling.
5. Piktografik yozuv hamda ideografik yozuvning bir-biridan farqli jihatlarini tushuntiring.
6. Ieroglifik yozuv haqida ma’lumot bering.
7. Bo‘g‘in yozuviga oid fikrlaringizni misollar bilan asoslang.
8. Yozuvning soddalashtirish yo‘llari haqida ma’lumot bering.

### Testlar

1. Nutqning qanday shakllari mavjud?  
A) og‘zaki  
B) yozma  
S) og‘zaki va yozma  
D) matn
2. Nima kishilik jamiyatni taraqqiyotining muayyan bosqichlarini, xalq tarixi, etnografiyasini adabiyot va san‘at tarixini, tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi?  
A) so‘z  
B) matn  
S) yozuv  
D) nutq
3. Piktografik yozuvning takomillashib borishi natijasida qaysi yozv shakllangan?  
A) ideografik yozuv  
B) fonetik yozuv  
S) bo‘g‘in yozuvi  
D) ieroglifik yozuv
4. Qaysi yozuvda xabar qilinishi lozim bo‘lgan mazmunni ancha mufassal aks etadi?  
A) logografik yozuvda  
B) fonetik yozuvda  
S) bo‘g‘in yozuvida  
D) ieroglifik yozuvda
5. Qaysi yozuvda so‘z tartibi va so‘zshakllari noaniq?  
A) logografik yozuvda

- B) piktografik yozuvda  
 S) bo‘g‘in yozuvda  
 D) ieroglifik yozuvda
6. Qaysi yozuv barqaror logogrammalardan tashkil topgan?  
 A) logografik yozuv  
 B) piktografik yozuv  
 S) bo‘g‘in yozuv  
 D) ieroglifik yozuv
7. Qaysi yozuvda subyektivlikka, ixtiyoriylikka yo‘l qo‘yiladi?  
 A) logografik yozuvda  
 B) piktografik yozuvda  
 S) bo‘g‘in yozuvda  
 D) ieroglifik yozuvda
8. Qaysi yozuvda ierogliflar bo‘g‘inlarni ifodalaydi?  
 A) bo‘g‘in yozuvda  
 B) logografik yozuvda  
 S) piktografik yozuvda  
 D) ieroglifik yozuvda
9. Qaysi yozuv “muqaddas yozuv “ degan tushunchani anglatadi?  
 A) logografik yozuv  
 B) piktografik yozuv  
 S) bo‘g‘in yozuv  
 D) ieroglifik yozuv
10. Ossuriya va Vavilon mix (qoziq) yozuvi qanday yozuvlardan hisoblangan?  
 A) logografik yozuv  
 B) piktografik yozuv  
 S) bo‘g‘in yozuv  
 D) ieroglifik yozuv

### **Asosiy tushunchalar glossariysi**

**Yozuv** – ma’lum bir tarixiy jarayon mobaynida aloqa-munosabatning muhim vositasi bo‘lib, u ma’lum tarixiy jarayon natijasida shaklanadi va kishilar orasidagi bavosita aloqa-munosabat vositasi sifatida ijtimoiy manfaatlar uchun xizmat qiladi.

**Piktografik yozuv** – voqeа-hodisalar haqidagi tafakkur ma’lumotlari jonli va jonsiz vositalar orqali ifodalangan yozuv hisoblanadi.

**Ideografik(logografik) yozuv** – bunday yozuvda ramzlar narsa-buyumlarni aks ettirib qolmay, tildagi so‘zlarni ham ifodalaydi. Ushbu yozuvda ma’lumot ma’nosini shakllar bilan aks ettirish qiyin bo‘lgan logogrammalar orqali yetkaziladi.

**Ieroglifik yozuv** – ifoda etilayotgan narsa-buyum xususiyatlarini imkon qadar aks ettiradi. Ieroglifik yozuv mavhum tushunchalarni ifodalay olishi bilan o‘zidan oldingi yozuvlardan farqlanadi. Bu yozuvdan qadimgi Arabistonda keng foydalilanigan.

**Bo‘g‘in yozuvi** –ieroglyphlar bo‘g‘inlarni ifodalaydi. Bo‘g‘inli yozuvda bir bo‘g‘inni, bir so‘zni, bir tovushni ifodalaydigan belgilar qo‘llangan.

### **Asosiy adabiyotlar**

- 1.Abduaazizov A.Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010.-157-161 б.
- 2.Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68.
- 3.Ирисқұлов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.220-226 б.
- 4.Rasulov R.Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 2013. -Б.-196-204; 205-210.
- 5.Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007. -Б.86-89

### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

- 6.Исхоков М.,Содиков К.,Омонов К.Мангу битиглар.-Тошкент, 2009.-Б.4-17
- 7.Nurmonov A. va boshqalar.Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-Toshkent, 2011.-Б.57-61
- 8.Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси.-Тошкент: Университет, 2002.
- 9.Рахматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. -Тошкент: Mumtoz so‘z, 2011.-Б.56-68
- 10.Хамидов З. Эски ўзбек тили ва ёзуви (қўлланма). -Тошкент, 2002.
- 11.www. literature.uz
- 12.www. genhis philol.ru.

## **6-§. TIL VA MADANIYAT MUNOSABATI**

### **Reja:**

1. Tilning akkumulyativ funksiyasi.
2. Leksemalar semantik taraqqiyotida madaniy munosabatlar ifodasi.
3. Nutqiy faoliyatda madanit munosabatlar ifodasi.

**Asosiy tushunchalar:** *til, madaniyat, nutqiy faoliyat, fonema, morfema, leksema, modelumumiylilik, xususiylik, imkoniyat, voqelik, tayyorlik, hosilalilik.*

Tilshunoslik boshqa fanlardan ajralib, o‘zicha a`lohida mustaqil fan deb tanilgan davrdayoq, til va nutqni fariqlashga e`tibor berilgan edi. Ammo fan taraqqiyoti tarixi davomida hamma sohada ham til va nutq bir-biridan farqlanavermaydi. Shuning uchun, ko‘pincha nutqqa xos hodisalar til hodisasi sifatida talqin qilinib keldi.

Keyingi davrlarda til bilan nutqni farqlab yondashish o‘zbek tili tadqiqotlari uchun asos qilib olina boshlagani nutq tovushi va fonema, fonetik va fonematik o‘zgarishlar, leksema, leksik va situativ nominatsiya, qurilma va ularning yuzaga chiqishi, lug‘aviy birlıklarning makro va mikro tekstdagi xususiyatlarini, o‘zbek tili sintaksi sathida mohiyat va hodisa kabi masalalarni atroflicha chuqrur tadqiq etish imkonini yaratmoqda.

Til va nutq tushunchalarining tarixiy taraqqiyotdagi madaniy xizmati cheksiz. Biroq, tilning ifoda imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo‘lmas ekan, tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi.

Лексемалар тил тараққиёти давомида муайян семантик ўзгаришларга учрайди. Маъно торайиши, маъно кенгайиши ҳодисалари юз беради. Лексема семантик структурасидаги ўзгаришлар янги лексик бирликларнинг юзага келишига ҳам замин яратади. Семантик ўзгаришлар тилнинг ички тараққиёти, тил тизимидағи жараёнлар, ўз навбатида, ташқи омиллар билан белгиланади. Лексеманинг семантик структураси, сўзда лисоний-маданий қарашлар, урф-одат, анъаналар ифодасини кўз лексемаси ва ундан шаклланган луғавий бирликлар семантикаси мисолида кузатамиз.

Кўз – кўриш аъзоси. Адабиётларда кўр феъли кўз сўзидан фонетик ўзгариш асосида ясалган, деб маълумот берилади, *p* фонемасининг Зфонемасига ўзгаришидан юзага келганлиги таъкидланади.<sup>11</sup> Туркий тилларнинг қиёсий-тариҳий грамматикасига оид материаллардан маълум бўладики, кўз сўзининг асоси *кў-* бўлиб з кўпликни билдирувчи грамматик шаклдир. Бу қўшимча кўпроқ иккилик миқдорини англатиш учун қўлланади: қадимги туркий тилда: *гөз* “кўз”, *икиз* “эгиз”, *тиз* “тизза”, *омуз*”елка”, тат. *мёғэз* “шох”<sup>12</sup>. Тува тилида *семир* сўзининг бирлиқдаги от, *семиз* сўзининг кўпликдаги от шаклида қўлланиши ҳам фикримизни тасдиқлайди. Тил тараққиёти давомида кўз сўзи семантикасида ўзгаришлар юзага келди. Маъно кўчиши ҳодисаси асосида бир қатор лексик бирликлар шаклланди. Кўз лексемасидан кўз *косаси*, кўз *оқи*, кўз *гавҳари* (кўз қорачиғи остида икки томони қавариқ линза шаклидаги тиниқ танача) тиббий терминлари, кўз *қорачиғи*, кўз *нурибириқмалари* шаклланган. Кўз қуйидагисифатловчилар билан ёнма-ён қўлланади: *кора* кўз, кўк кўз, *хумор* кўз. Кўз лексемасидан бир қатор иборалар шаклланган: *Аяган* кўзга чўп тушар. Бу барқарор бирикмада кўз лексемасидаги “нозиклик” семаси ифодаланган. *Қарға* қарғанинг кўзини чўқимас. Бу мақолда кўз асосий аъзо сифатида келтирилган. Қарғанинг ҳаракати, бошқа жонзотларнинг кўзини чўқишига нисбат берилган. Барқарор бирикма “бир гурухга, бир тоифага мансуб шахслар қусурларини кўрмайдилар, бир-бирларига қарши бормайдилар” мазмунини ифодалайди. Кўз *қўрқоқ-қўл ботир*, деганда кўз семантикаси кенг тушунчани - ҳам “одам”, ҳам “имкониятсизлик”, ҳам “қобилиятсизлик” семаларини намоён қилган. Бу мақолнинг юзага келиши кўз аъзосининг сезувчанлиги, таъсирчанлигига асосланган. Кўз *кўриб*, қулоқ эшишмаган ибораси бутунлай номаълум нарса ҳақида гапирилганда ишлатилади. Бунда кўз синекдоҳа усулидаги маъно кўчиши асосида нафақат “муайян шахс”, балки “инсоният” маъносини ифодалайди. Кўз *олди*, кўз ўнги кўз кўриб турган, кўриниб турган, майдон, фазони англатади. Кўз *тиқмоқ* “интиқлик билан кутмоқ”, “умид билан

<sup>11</sup> Шоабдураҳмонов ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили.-Тошкент, 1980.-Б.171.

<sup>12</sup> Серебренников Б., Гаджиева Н. Сравнительная историческая грамматика тюркских языков.-Баку,1979.-С.90.

қарамоқ”, күз узмаслик “тиклиб қарамоқ”, “диққатни бир нұқтага жамламоқ”, күз тұтмоқ “интиқлик билан күтмоқ” маңноларини билдиради. Күз уриштирмоқ “маңноли қарамоқ, бирор режани амалға оширишни мақсад құлмоқ”, күз югуртирмоқ “эътиборсиз ҳолда, шунчаки қарамоқ” тушунчасини англатади. Күзга ташланмоқда қараң ҳаракатини бажарувчи фаоллиги эмас, балки нарса-буюмнинг атрофидагилардан ажралиб туриши, күзга ташланиши назарда тутилган. Күздан кечирмоқ “назорат құлмоқ”, күздан қочирмоқ “диққатни сусайтириш оқибатида қараб турған объектидан чалғимоқ”, күзи тушиromoқ “бехосдан күриб қолиш”, күздан қолмоқ “күриш имкониятидан маҳрум бўлмоқ” тушунчаларини ифодалаш учун қўлланади. Кўзни яшнатмоқ объектнинг, нарса-ҳодисанинг жозибадорлиги, кўзга яққол ташланишини билдиради. Кўзни олди моддий ҳолатдаги кўз қамашишидан келиб чиқсан, предмет, нарса-ҳодисанинг нурга йўғрилганлигини ёки нурмонанд жилвакорлигини акс эттиради. Бошга тушганини кўз кўрар мақолида тана аъзолари семантик кўчиш асосида турли маънони ифодалаган. Ишнинг кўзини билмоқдакўз сўзининг “нозиклик” семаси дастлабки эътиборда бўлади. Кўз бўямоқнарса-ҳодисанийзгача рангда, моҳиятининг аслига номувофиқ ҳолатда кўринишига сабаб бўлмоқ, ҳақиқий воқеликдан чалғитмоқ” маңноларини ифодалайди; кўз бўямачи ўз фойдаси учун маълумотларни, бўлган воқеа-ҳодисларни бузиб, нотўғри кўрсатувчи, бошқаларни алдовчи, алдоқчи (ЎТИЛ, 2, 447). Кўз олайтирмоқ ҳам аслида кўз ҳолатининг одатдагидан бошқача қарашига асосланган (кўзнинг олайиши). Кейинчалик салбий маъно касб этиб, “бирор объекtni, нарса-ҳодисани ўзиники қилиб олишга ҳаракат құлмоқ” тушунчасини ифодалаган. Кўз остига олмоқ “бирор объекtni ёки нарсани ўзиники қилиб олишга мўлжалламоқ” тушунчасини ифодалайди. Кўз очиб кўрган ибораси биринчи қараганда кўрган, кўзга кўринган объект, тушунчани сифатлаш учун ишлатилган. Кейинчалик нарса-ҳодисанинг “илк, дастлабки” сифатига эга эканлигини билдира бошлаган. Кўз очирмасликибораси ҳам денотатив маънодан шаклланган. Шамол кўз очирмайди бириқуvida табиий ҳодисанинг кўзни жисмонан очирмаслиги назарда тутилган. Бу эркин бирикма турғун бирикмага айланган ва барқарорлашган ҳолда “тинчлик бермаслик, ҳолижонига қўймаслик” маңноларини ифодалашга хизмат қилади. Кўзга ишонмаслик кўрган нарса-ҳодиса, воқеликка шубҳа билан қараши билдиради. Кўзга суртмоқ “эъзозламоқ”, “азиз құлмоқ” тушунчаларини англатади. Кўзига чўп солмоқ “озор бермок”, мажозий маънода “алдамоқ”, “панд бермок” маңноларини англатади. Мазкур иборанинг шаклланишида кўзнинг “нозиклик” семаси асос бўлган. Шу билан бир қаторда кўзнинг инсон ҳаётида муҳим ўрин тутиши, воқелик ҳақида маълумот олишдаги

асосий аъзолиги назарда тутилган. *Кўзга яқин* ибораси жозибадор, таъсирчан, дикқатни жалб этадиган нарса-ходиса, объектларга нисбатан қўлланади. *Кўзда тутмоқ* “назарда тутмоқ, нарса-ходисанинг кўзга ташланадиган, кўринадиган жиҳатини эътиборга олмоқ” тушунчасини билдиради. *Кўзи етмоқ* кўзнинг чамалаш, ўлчаш омилидан келиб чиқсан. *Кўзи ёримоқ* иборасида фарзанд туғилганидан кейин кўзнинг ёришиши, дардан халос бўлиб, енгиллашиши назарда тутилган. *Ёришмоқ* сўзи ёримоқ тарихий асос ҳолида сақланиб қолган. *Кўзи илинмоқ* “енгил уйкуга кетмоқ”, *кўзи мошдек очилмоқ* “оқ-қорани танимоқ, билмоқ”, *кўзи очиқкетмоқ* кўзни юма олмаслик, хотиржам бўлмаслик, безовталик, нимадандир (ёки кимдандир) умид уза олмаслик ҳолатларини ифода этади; *кўзи пишмоқ* “кўравериб, кўнишиб қолмоқ”, *кўзи тинмоқ* “холсизланмоқ, кўриш қобилиятини қисман йўқотмоқ” тушунчаларини билдиради; *кўзи тор* руҳий ҳолатни ифодалайди, инсон сиқилганда, руҳан изтироб чекканда қўп нарсага қараб туриб ҳам уларни қўрмаслик, ҳис қилмаслик ҳолати назарда тутилган; *кўзи тўрт бўйлоқ* ниҳоятда интиқлик билан кутмоқни билдиради, кўзнинг “тўртта” деб келтирилиши дикқат билан қарашга иккита кўзнинг камлик қилиши, бошқа аъзоларнинг ҳам кўзга айланганини таъкидлаш, услубий бўёқдорликни ифода этган; *кўзи ўйнамоқ*, даставвал, кўзнинг бежо ҳаракатидан шаклланган, бу ҳолат руҳият ифодаси бўлиб, нотинч одамнинг бирор мақсадни кўзлаган бежо ҳаракат-ҳолатини билдиради; *кўз қиймаслик* “истамаслик”, “арзитмаслик”. “тeng қўрмаслик”ни ифода этади; *кўзга иссиқ кўринмоқ* иссиқ сўзининг “яқин” маъносидан шаклланган; *кўзини ёғ босмоқ* денотатив маънодан шаклланган. Кўзни ёғ босиши натижасида кўриш қобилияти қийинлашади. Бу иборанинг маъноси коннотативликка асосланган бўлиб, кибрланиш, ҳаволаниш оқибатида назарга илмаслик ҳолатини ифода этади. *Кўзини шамгалат қилиб* нигоҳдан четга қочиш ёки дикқат-эътиборни сусайтиришга эришиш тушунчасини ифодалайди. Кўзининг оқу қораси кўз қисмларининг кўриш фаолиятини амалга оширишда бирдек зарурлигидан келиб чиқсан. *Кўзининг пахтаси* салбий маънода айтилган бўлиб, кўз оқининг ёқимсиз кўринишини ҳам ифода этади. *Қош қўяман деб кўз чиқарма* бирор ишни бажаришдаги ноаниқлик, мўлжални аниқ белгиламаслик тушунчасини, ношудлик билан қилинган хатти-ҳаракатни билдиради.

Эски ўзбек тилида шундай сўзлар борки, таркибида кўз лексемаси иштирок этмаса-да, бевосита шу денотатга алоқадор воқеликни акс эттиради. *Тўтиё, сурма* шулар жумласидандир.

*Тўтиё* форсча-тоҷикча сўз бўлиб, туркий халқларнинг эроний халқлар билан муайян ижтимоий мұхитда яшаган, маданий-маънавий муносабатда бўлган даврларига бўлиб тақалади. Кейинчалик, бу сўз фаол қўлланиб,

маъно кенгайишига учраган. *Тўтиё* изоҳли луғатда шундай тавсифланган: *Тўтиё* “мис зангидан ҳосил бўлган кристалл”ни билдиради. 1. Мис купороси (тиник қўй йирик кристаллардан иборат модда, мис сульфат). 2. Эски вақтларда кўз оғриғига қарши ёки кўзни равшан қилиш учун кўзга суртиладиган дори (ЎТИЛ, 4, 248). Маълумки, ўз қатлам сўзлари семантикасида даврлар оша тилнинг ички қонуниятлари ҳамда ташқи омиллар таъсирида ўзгаришлар юзага келади. Бу ҳолат ўзлашган қатлам сўзлари семантикасида ҳам кузатилади. Ўзлашган сўзлар ўзбек тили луғат фондига киргач, шу тил бирлиги сифатида истифода этилади. Ўзлашган сўзлар муайян тилнинг луғат фондида фаол қўллана бошлагач, семантик ўзгаришлар юзага келади. Муайян даврларда *тўтиё* кўзга суртиладиган сургини ифодалаган. Кейинчалик, “кўзга суриш” семасига асосан *кўзга тўтиё*, *тўтиё қилмоқ* бирликлари шаклланди. *Кўзга тўтиё* жуда азиз, муқаддас ёки ноёб нарса ҳақида айтилган. *Тўтиё қилмоқ* Тўтиёдек кўзга суртмоқ, эъзозламоқ (ЎТИЛ, 4, 248). Бу ўринда тўтиёнинг ноёблиги ҳам назарда тутилган. Тўтиё малҳам сифатида суртилар экан, унинг танқис бўлиши табиий ҳол. Кейинчалик, сўз семантикасида “кўзга суриш” семасидан “ноёб, камёб” семалари шаклланди. *Кўзга дори* жуда қадрли ва кам топиладиган нарса ҳақида ишлатиладиган ибора (ЎТИЛ, 2, 446). Бу семадан шаклланган *кўзга суртмоқ* феъли “азиз қилмоқ, эъзозламоқ” маъносини билдиради. *Кўзга суртмоқ* ортиқ даражада қадрламоқ, эъзозламоқ (ЎТИЛ, 2, 446). Нон ушоғининг кўзга суртилиши, муқаддас китобни тавоф қилиш анъанаши шу семантик хусусият билан боғланади.

Кўринадики, тўтиё, даставвал, кўзга малҳам бўладиган сургини ифодалаган, денотатив маънода қўлланган. Муайян даврдан сўнг лексема семантикасида “кўзга суртиш” асосий эътибор нуқтасига кўтарилиган. “Кўзга суртмоқ” маъносидаги *тўтиё қилмоқ* кўшма феъли шаклланган. *Тўтиё* лексемасида “кўй ранг”, “кукун”, “малҳам”, “сурги” семалари мавжуд бўлган. Семантик кенгайиш натижасида “азиз қилмоқ”, “эъзозламоқ” семалари юзага келган, *тўтиё қилмоқти* пидагиянги лексема юзага келган. Бу феъл мумтоз лирикада кўп учрайди. Жумладан, Алишер Навоий ижодида бу бирлик фаол қўлланган. Масалан:

*Неча оқғай кўз ёшим, еткур губорин,*

Эй, насим, Фарзи айн эрур ешорур кўзга солмоқ *тўтиё*<sup>13</sup> (12). Бу байтда *тўтиё* луғавий бирлигининг денотатив маъноси ифодаланган. Шоир руҳий ситам оқибатида кўз ёши тўkkани вакўз ёшини тўхтатиш мақсадида унга малҳам бўлувчи губорни юборишини шамолдан сўрайди. Бу ўринда губор сўзининг “кукун”, “чанг” маъноси назарда тутилмоқда. Шоир фикрига мисол келтиради ва тамсил санъати асосида таъсиран ифода ҳосил қиласи, ёшарур, яъни ёшланадиган (табиийки, кўзниң ёшланиши ундаги жароҳатдан ёки носиҳатликдан далолатdir) кўзга малҳам сифатида тўтиёни суришларини эслатади, мисол қилиб келтиради”. Губор арабча “гард”“чанг”, “тўзон” маъноларини билдиради. Чанг, тўзон кабилардан ҳавода сақланган ёки нарса

<sup>13</sup> Алишер Навоий. Топмадим.-Тошкент:Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.-Б.12.

сатҳига инган майда зарралар, гард; умуман, тиниқлик, равшанликни бузувчи, хира қилувчи (хиралаширувчи) зарралар; кўчма маънода: киши руҳиятини бузувчи ҳолат, доғ, хиралик тушунчаларини ифодалайди (ЎТИЛ, 5, 456). Навоий ғуборни кўз ёшини тўхтатувчи малҳам сифатида кўллади, бу ўринда ғубор агрегат ҳолатининг тўтиё агрегат ҳолатига монандлигидан маҳорат билан фойдаланган.

*Онча даврон бирла кўрдим аҳли даврондин жафо*

*Ким, кўзимга тўтидек бўлди жонондин жафо (30).* Бу байтда лирик қаҳрамон жононнинг жафосини ҳам азиз билиши, кўзга тўтиё қилиши айтилади.

*Nutqning jamiyatdagi ko‘rinishlari turlichadir. Regional variatsiya. Quyida britaniya television kanali orqali efirga uzatilgan diologni keltiramiz:*

*Bir kishi benzin quyish shaxobchasiغا kirdi.*

*Xizmat ko‘rsatuvchi: Bizda o‘z-o‘ziga xizmat.*

*Xaridor: Rahmat, menga benzin (petrol) kerak emas.*

*Xizmat ko‘rsatuvchi: Juda soz! Bizda undan qolmagan, faqat benzin (gas) bor.*

*Ushbu kichik suhbat qiziq tuyulyaptimi? Chunki ularning har ikkisi ham bir narsani – benzinni nazarda tutdilar. Britaniyalik ingliz xaridor benzin so‘zini petrol so‘zi bilan ifodalasa, amerikalik xizmat ko‘ratuvchi benzin so‘zini gas so‘zi bilan ifodalagan. Shunga o‘xshash misollarni keltiramiz:*

*Britaniyaliklar shim (trousers) kiyadilar, xonodon(flat)da yashaydilar, do‘konlarga (shops) shirinliklar (sweets) xarid qilishga boradilar.*

*Amerikaliklar esa shim (pants) kiyadilar, xonadonda (apartments) yashaydilar, do‘konlarga (stores) shirinliklar (candies) xarid qilishga boradilar.*

*Mamlakatlarning joylashuviga ko‘ra, inglizlar o‘z ona tillarida gaplashadilar.*

*Britaniyadagi ingliz tili (ingliz, irland, shotland) tillari Amerika, Kanadiya, Avstraliya ingliz tiisidan farqlanadi, biroq bularning o‘z ichida ham ko‘plab lahjalar mavjud. Bir qancha mamlakatlar, jumladan, ingliz koloniyalari borib qolgan davlatlarda, masalan, Hindiston yoki Gongkon (Osiyo) va Nigeriya yoki Keniya (Afrika)da ingliz tili rasman ikkinchi til hisoblanib, mahalliy aholi o‘z ona tilisi bilan birligida bu tildan ham foydalananadi. Ushbu variatsiyalar fonetik-fonologik, leksik, leksikografik, grammatik jihatlarga ko‘ra bir-biridan farqlanadi.*<sup>14</sup>

*Britaniyada eng mashhur ingliz taomi biri – baliq va qovurilgan kartoshka (fish and chips). Biroq qovurilgan kartoshka (chips) Amerika restoranlaridek tayyorlanmaydi. Qovurilgan kartoshkaning xohlagan turidan foydalanish mumkin. Amerikada ushbu taom fransuzcha qovurdoq (French fries) deb nomланади. Unda foydalaniladigan kartoshka juda nozik va yumaloq qilib kesiladi va qarsildoq qilib qovuriladi. Bunday qovurilgan kartoshkani*

<sup>14</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.99

*Britaniyada qarsildoq kartoshka (crisps) deb nomlanadi. Qovurilgan kartoshkaning **chips**, **French fries** va **crisps** variantlari leksik farqlanishlarga misol bo‘ladi.*

*Grammatik jihatdan ham tilda Amerika ingliz tilisi hamda Britaniya ingliz tili bir-biridan farqlanadi. Masalan ko‘plikda Britaniya ingliz tilisida *the police* ko‘plikni anglatса, Amerika ingliz tildida esa *the police* birlikni ifodalaydi. Yoki bo‘lmasa, shifoxonada so‘zi Britaniya ingliz tilisida *predlogsiz ishlatilsa* (*in hospital*), Amerika ingliz tilisida aniq artikl bilan *ishlatiladi* (*in the hospital*).*

*Fonologik farqlanishlar ham kuzatiladi. Masalan, Britaniya ingliz tilisida r tovushi unlidan so‘ng (**father**, **fair**), qolaversa, undoshlardan oldin kelganda (**herb**, **Barbie**) talaffuz etilmaydi, Amerika ingliz tilisida esa bu holat yanada ravshan namoyon bo‘ladi.*

*Orfografik ham da orfoepik farqliklar ham kuzatiladi. Masalan, Britaniya ingliz tildida *neighbour* bo‘lsa, Amerika ingliz tilisida *neighbor* tarzida qo‘llaniladi. Ushbu farqli jihatlar Britaniya, Irland, Amerika ingliz tillarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Ingliz tilining hududiy variantlari yagona ingliz tilini tashkil qiladi.*

*Leksik, grammatik, fonologik farqliklar bir davlatda yoki hududda ham bo‘ladi. Hududiy variantlar yoki shevalar asosiy birlik bo‘lib, shevalar dialektologiyada o‘rganiladi.*

*Talaffuzda *father* and *farther* so‘zlari bir-biridan farqlanadi. Ko‘plab ingliz tili o‘rganuvchilari r tovushini talaffuz qiladilar, biroq inglizlar bu so‘zning talaffuzuda r tovushini talaffuz qilmaydilar, chunki ushbu tovush uzoq talaffuzga ega emas. Aksincha, amerikaliklar *farther* so‘zi tarkibidagi r tovushini talaffuz etadilar va nutqda shu tovushdan foydalanadilar. Ushbu holat regional variatsiyaning mavjudligini ko‘rsatadi. R tovushi Janubiy Angliyada talaffuz etilmasa, shimoliy hududda, ya`ni Irlandiya va Shotlandiyada talaffuz qilinadi.*

*Xuddi shunday, Amerikaning ko‘pgina shtatlarida r tovushi talaffuz qilinadi, biroq Boston va Nyu-Yorkda r tovushi talaffuz qilinmaydi.*

*Shevadagi farqliklarni ifodalovchi so‘zlarga quyidagilar misol bo‘ladi: *heavy rain*, *downpour*, *shower* yoki *toad frog strangler* (ushbu so‘zlarning barchasi kuchli yomg‘ir, jala ma`nosini bildiradi) so‘zlari Amerikaning o‘rta va janubiy shtat qirg‘oqlarida yashovchi aholi tilida uchraydi. Ba`zi shunday variantlar (xuddi so‘nggi misoldagi kabi) janubiy hududlarda mavjud.*

*Grammatikada ko‘plab qiziqarli farqlanishlarni kuzatish mumkin, ular tilda “g‘alatiroq” tuyuladi. Masalan, irlandiyalik kishi sizga *yous* (bir necha kishi bo‘lsa) olmoshini qo‘llaydi, aslida adabiy tilda ko‘plik *shaklda you* olmoshidan foydalaniladi. Amerika janubida (masalan, Georgiya shtatida) y‘all (you+all) qisqartmasidan foydalaniladi. Ingliz tili standartlarida *you* olmoshining birlik hamda ko‘plik *shaklli* farqlanmaydi.<sup>15</sup>*

*Kishilar turli hissiyotlarini shevalarda hamda talaffuzda bildiradilar. Agar bu o‘rinda tilde ko‘pchilikni tashkil etadigan fenomen (so‘zlar, grammatik*

<sup>15</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.100

*xususiyatlar, talaffuz turlichaligi) bir hududda mavjud bo‘lsa, buni sheva deb yuritiladi. Shunday ekan, sheva “mamlakat tili” yoki ajodolar qo‘llagan tilning bir variant emas, balki sheva tilning ma’lum hududdagi ko‘rinishidir.*

*Barchamiz shevadan foydalanamiz. Sheva adabiy til normalariga to‘g‘ri kelmaydi va undan farqlanadi.<sup>16</sup>*

Til ham, fikr ham hayotning ongimizdagи ko‘rinishi va nutq yordamida boshqalarga ma’lum qilinuvchi voqelikdir. Tilni xalq yaratadi, shuning uchun u umumxalq bahosi va xususiyatiga ega bo‘ladi; nutq esa ayrim shaxsga oid bo‘ladi. Har kim o‘z qobiliyati, so‘z boyligi, savodi hamda nutq a‘zolariga qarab gap tuzadi. *Til* - aloqa quroli, u vosita. *Nutq* esa shu aloqa jarayonini amalga oshirishga xizmat qiladi. Tilning umri uni yaratgan xalqning o‘zidek uzoq bo‘ladi. Nutqning umri esa qisqa. Og‘izdan so‘z yoki gap chiqdimi – uni qaytarib bo‘lmaydi. Shuning uchun nutq oldiga nihoyatda ulug‘ bir talab qo‘yiladi: o‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir.

Tana, ta’m-maza, ko‘rish, eshitish kabi sezgi a‘zolari orqali olamni bilish barcha jonzotlarga xos xususiyatdir. Inson jonzotlarning eng oliy shakli sifatida ularga nisbatan yana bir qo‘srimcha bilish vositasiga – nutq orqali bilish qobiliyatiga ega. Birinchi bilish vositalarini mashhur ruhshunos Pavlov *birinchi signal sistemasi*, keyingisini esa *ikkinci signal sistemasi* deb nomlagan. Inson ikkinchi signal sistemasiga egaligi bilan boshqa jonzotlardan ajralib turadi, shuning uchun ham hazrat Alisher Navoiy barcha maxluqtlarning zoti sharifi inson ekanligini ta’kidlaydi.

Tilning xizmat doirasi juda keng, hajmi o‘lchovsiz bo‘ladi. Nutq esa aniq hajmli, shaklli bo‘ladi. Nutq yakka shaxs (monolog) yoki bir necha shaxslar orasida (diolog) yuz beradi. Tilning qonun-qoidalari uzoq yillar davomida saqlanib qoladi, silliqlashadi va boyib boradi. Nutq esa doim o‘zgarishda bo‘ladi; vaziyatga yoki nutq a‘zolari faoliyatiga qarab so‘zning tovush tomoni o‘zgaradi. Til-umumiyl, nutq esa xususiy hodisadir. Nutq so‘zlovchining saviyasiga, uslubiga, o‘rin va mavqeyiga qarab har xil bo‘ladi. Nutq ikki shaklda bo‘ladi: og‘zaki va yozma. Og‘zaki nutq o‘zaro muomala tilidir, undan o‘zaro suhbatlarda, ma’ruzalarda, radioda, telefonda, uy-oila muomalasida foydalaniladi. Har ikki nutq shakli oldiga bir xil talablar qo‘yiladi. Fikrning aniq va tushunarli bo‘lishi, jumlaning to‘g‘ri, ravon hamda ta’sirli tuzilishi har qanday nutqning bosh fazilatidir. So‘zni to‘g‘ri qo‘llash, undagi tovushlarni to‘g‘ri va aniq talaffuz qilish, gapda so‘zlarini tartib bilan joylash kabilar vositasida fikrning tushunarli bo‘lishiga erishamiz. Aniqlik, to‘g‘rilik, ravonlik, soddalik, tozalik, joziba (ta’sirli so‘zlash) kuchi har qanday nutqning eng muhim belgilaridir.

So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi axborot uzatish va axborotni qabul qilish faoliyati nutqiy faoliyat sanaladi. Nutqiy faoliyat muayyan jamiyatning aloqa vositasi hisoblanuvchi til yordamida yuzaga chiqadi. Ana shuni e’tiborga olgan holda mashhur Shveysariya olimi Ferdinand de Sossyur nutqiy faoliyatning til va nutq zidlanishi asosida amalga oshishini ta’kidlaydi hamda tilshunoslikda til va nutq tushunchalarini farqlaydi. Nutq faollashgan, bevosita yuzaga chiqqan til

<sup>16</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.101

sanaladi. Hali voqelanmagan imkoniyat tarzidagi, ma'lum jamiyat a'zolari uchun barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasi – til, shu tilning muayyan shaxs nutqiy faoliyatida bevosita namoyon bo'lishi, voqelanishi – nutqdir. Og'zaki nutq bevosita, yozma nutq bavosita amalga oshiriladi.

Til va nutq umumiylilik – xususiylik, imkoniyat – voqelik, mohiyat-hodisa qarama-qarshiligidini o'zida namoyon etib, bir-biriga zidlanadi, bunday zidlanish har bir til sathlariga xos birliklarning nomlanishida ham o'z ifodasini topadi. Tilning fonologik (fonetik) sathi birligi fonema bo'lsa, fonemaning real talaffuz qilingan, qulq bilan eshitilgan ko'rinishi *fon* (*allofon*) yoki *tovush* hisoblanadi.

Tarixan tarkib topgan, qat'iy me'yordarga bo'ysunuvchi, so'zlashuvchilarning qaysi hududda yashashidan qat'i nazar barchasi uchun umumiyligi bo'lgan til *adabiy til* sanaladi. Faqat muayyan bir hududga xos ayrim belgilarni o'zida namoyon qilgan til shakli ***mahalliy shevalar*** hisoblanadi. Harflar vositasida yozma ravishda bayon qilinuvchi adabiy til ***yozma adabiy tildir***. Masalan, gazeta-jurnallar, ish qog'ozlari tili va boshqalar. Tovushlar vositasida og'zaki ravishda bayon qilinuvchi adabiy til shakliga ***og'zaki adabiy til*** deyiladi.

### Savol va topshiriqlar

- 1.Til va nutq munosabatlari haqidagi fikringizni bayon eting.
- 2.Til birliklari va nutq birliklari o'rtasidagi munosabat masalasida o'z fikrlaringizni bayon eting.
- 3.Nutqning og'zaki va yozma ko'rinishlarini tavsiflang.
- 4.Til va nutq sifatlarini bayon eting.
- 5.Tilning umumiyligi, nutqning xususiyligi namoyon bo'ladigan jihatlar haqida ma'lumot bering.
- 6.Til imkoniyat, nutq voqyelik ekanligini asoslang.
- 7.Tilning mohiyat, nutqning hodisa ekanligini misollar asosida tushuntiring.
- 8.Turli tillardagi nutqiy xususiyatlar haqida mulohazalaringizni aytинг.
- 9.Nutqni ifoda etish va qabul qilish jarayoni.
- 10.Til va nutqning farqlanishiga oid fikrlar haqida bilganlaringizni umumlashtiring.

### Testlar

- 1.Fonetik jihatdan nutq qanday qismlarga ajraladi ?  
A) jumla ,takt , bo'g'in ,tovush  
B)takt, harf, tovush, matn  
C)matn, bo'g'in, yozuv, fonema  
D)fonema, bo'g'in, matn, tovush
- 2.Qaysi birlik nutqning eng katta fonetik birligi bo'lib, ikki tomondan pauza bilan chegaralanib, o'ziga xos ohanga ega bo'ladi?  
A)ibora  
B) fonema  
C) fraza  
D) gap

3.Til birliklariga qaysilari kiradi ?

- A) fonema, morfema, leksema, model
- B) bo‘g‘in, fon, leksema,
- S) matn, so‘z birikmasi, gap
- D) affiks, so‘z, gap

4.Nutq birliklariga qaysilar kiradi ?

- A) fonema, morfema, leksema
- B) tovush, bo‘g‘in affiks, morf, so‘z birikmasi
- S) tovush, gap, so‘z birikmasi
- D) fonema, morfema, leksema

5.Fonologik nuqtayi nazardan bo‘g‘in nima deb yuritiladi ?

- A) sillabika
- B) sillabema
- S) fonetika
- D) fonologiya

6.Fraza nima?

- A) Nutqning eng katta fonetik birligi.
- B) Nutqning eng kichik birligi.
- S) leksik atama
- D) morfologik birlik

7. Takt nimalardan tashkil topadi?

- A) Tovushlardan.
- B) Unlilardan.
- S) Bo‘g‘inlardan
- D)gapdan

8. Tilning eng kichik ma`no anglatmaydigan birligi qanday nomlanadi?

- A) Orpoepiya
- B) Etimologiya
- S) Leksikologiya
- D)Fonema.

9. Assimilyatsiya so‘zining ma`nosi?

- A) “O‘xshashlik”
- B) “Moslashuv”
- S) “O‘xshamaslik”
- D) “Metonimiya”

10. Assimiyatlasiya, dissimilyatsiya, gaplogiya, diereza, metateza kabilar qanday o‘zgarishlarga misol bo‘ladi?

- A) Kombinator.
- V) Perpeksiv.
- S)Distant.
- D) Tarixiy

## Asosiy tushunchalar glossariysi

**Morfema** (yun.) — tilning ma'noli, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan eng kichik birligi. Morfema ikki xil bo'ladi: 1) o'zak (so'z) morfema; 2) affiksal morfema (qo'shimcha morfema).

**So'z** — nutqning ma'no anlatuvchi qismi. Tub so'z — yolg'iz o'zakdan hosil bo'ladi: *kitob, kalom, ona*. Yasama so'z — bir yasovchi qo'shimchaning so'z o'zagiga qo'shilishidan hosil bo'lgan so'z: *kitobxon, ishchi, bog'bon*. Juft so'z — ma'nosini bir-biriga yaqin ikki o'zakdan tuziladi: *qozon-tovoq, o'rik-olma, keldiketdi*. Qo'shma so'z — ikki va undan ortiq so'zlarning qo'shib, bitta ma'no ifodalashi: *Oltiariq, kelib ketdi, gultojixo'roz*.

**Artikulatsiya** — tovushlarning paydo bo'lishidagi nutq a'zolarining holati va harakati.

**Assimilatsiya** — bir tovushning yon tovushga moslashishi, singishi. Progressiv assimilatsiya — oldingi tovushning ta'sirida keyingi tovushning o'zgarishi: *ottan (otdan), yurakka (yurakga)*. Regressiv assimilatsiya: keyingi tovushning ta'sirida oldingi tovushning o'zgarishi: *tussiz (tuzsiz), yossin (tozsin)*.

**Bo'g'in** — so'zlarning talaffuzida havo oqimining bo'linishi.

**Dissimilyatsiya** — ikki xil o'xhash tovushning o'zaro ta'sirida boshqa shu turdagisi tovush kelib chiqadi. Progressiv dissimilyatsiya — oldingi tovushning ta'sirida keyingi tovush o'zgaradi: *zaral (zarar), sallot (soldat)*. Regressiv dissimilyatsiya — keyingi tovushning ta'sirida oldingi tovushning o'zgarishi: *ushta (uchta), maxtanchoq (maqtanchoq)*.

**Fonema** — ma'no anglatishda ishtirok etgan nutqning eng kichik qismi (unsuri): *qil, qol, qo'l*.

**Fonetika** — tovushlarning paydo bo'lishi va ularning akustik xususiyatini o'rjanuvchi tilshunoslik bo'limi.

**Gap** — ma'lum fikr ifodalagan, grammatik jihatdan shakllangan so'z va so'zlar birikmasidir. Darak gap — ma'lum bir voqeа, hodisa, narsalar to'g'risida xabar beruvchi gaplardir:

**Harf** — fonemalarning yozuvdagi shakli. Bosh harf — shaxs, joy, idora, mukofot, asarga qo'yilgan atoqli otlarning birinchi harfi.

**Metateza** — yonma-yon kelgan tovushlarning o'rin almashishi: *Sayram-Saryam, daryo-dayro, tuproq- turpoq*.

**Qo'shimcha** — so'zning asos qismisiz qo'llanmaydigan, faqat asosga qo'shib unga yangi yoki qo'shimcha ma'no beradigan, shuningdek, so'zlarni bog'lash uchun xizmat qiladigan qism.

## Asosiy adabiyotlar

1. Abduazizov A.Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010.-75-80 б.
2. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.99-100
3. Ирисқұлов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.19-30 б.
4. Rasulov R.Umumiyl tilshunoslik. -Toshkent, 2013.-Б.180-191; 217-238.
5. Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи: Х. Дадабоев. – Тошкент, 2004.-Б.5-7.

6. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007. -Б.36-40

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

- 1.Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание.- Ташкент, 2004.-Б.17
- 2.Бушай А.М., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. - Ташкент: Фан, 2007.-Б.7-9.
- 3.Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ.-Ташкент, 1993.-Б.10-25.
- 4.Щитка Н.Н., Юсупова К.Н. Введение в языкознание. -Ташкент, 2006.-Б.27-30.
- 5.Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати.-Ташкент, 2002.
6. www. literature.uz
7. www. genhis philol.ru.

**7-§. TIL - BELGILAR TIZIMI. LINGVISTIK BELGI  
TUZILISHI**

**Reja:**

1. Til sathlarining tizim sifatidagi mohiyati.
2. Tilning belgilar tizimi. Tilning semiotik tabiat.
3. Tilning fonetik-fonologik, grammatik sathlari. Tilning lug'at sathi.

**Asosiy tushunchalar:** *til tizimi, ramz, fonologiya, fonema, kvaziomonimlar, etimologiya, leksikografiya, semasiologiya, morfema, so'z birikmasi, gap, murakkab sintaktik (birlik) butunlik, abzas va matn, lison, nutq.*

Har qanday til fonetik tuzilish, grammatik qurilish va lug'at tarkibidan tashkil topadi. Tilning ushbu tarkibiy qismlari muayyan qonuniyatlar asosida o'zaro bog'lanib, butun bir tilni hosil qiladi, til mazkur birikmalar negizida uzviy bog'langan tizimni tashkil etadi. Tilning rivojlanishi, ichki qurilishi, tilning murakkab tizim ekanligi I . A . Boduen de Kurtene , H . B . Krushevskiy, F . F . Fortunatov, V. A. Bogoroditskiy , A .A . Potebnya , A.A. Shaxmatov , S .P. Obnorskiy , V .V . Vinogradov ,A . M . Peshkovskiy , L. V. Sherba kabi tilshunoslarning asarlarida yoritilgan . Ichki qurilishi jihatidan til ma'lum miqdordagi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan til birliklarining yig'indisi va ana shu birliliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab tizimdir.

Til inson hayotida muhim rol o'ynaydigan hodisadir. Kishining butun hayoti til bilan bog'langan bo'lib, til yordamida kishilar o'zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, inson tili nihoyat darajada murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan hodisadir. Til kishilik jamiyatida eng muhim aloqa quroli bo'lib, insoniyatning uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarni saqlaydigan va avloddan avlodga yetkazib beradigan asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Tilning tabiat, mohiyati, kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi kabi muhim masalalar ilmiy o'rghanishni talab qiladi.

Tilshunoslik fanining tarixida tilning tabiat, ijtimoiy mohiyati kabi eng muhim masalalarni o'rganishda turli nazariyalar va oqimlar mavjud bo'lgan. A.Shleyxer tilning tabiat, tilning biologik tabiat to'g'risida, G.Paul til faqat individga xos hodisa ekanligi haqida, Vundt xalq psixologiyasi bilan til o'rtasidagi munosat to'g'risida ilmiy ishlar olib borishgan va bir qancha asarlar yozishgan.

Tilning belgilari uni aloqaning boshqa vositalardan farqlash, tilni ijtimoiy hodisa sifatida xarakterlash imkonini beradi. Umuman, til kishilik aloqa-munosabatining eng muhim vositasi sifatida jamiyat bilan uning madaniyati, turmush va mehnat faoliyatida tildan keng va har tomonlama foydalanib kelayotgan barcha a'zolari bilan uzviy aloqada bo'lib kelmoqda. Tilning jamiyatdagi bu vazifasini uning jamiyat, kishi ongi va fikrlash qobiliyati bilan aloqasini aniqlamay turib, til sistemasi, uning birliklari va kategoriyalarini chuqur anglab bo'lmaydi. Kishilar o'zaro aloqada o'z fikrlarini, istaklarini, sezgi va ruhiy kechinmalarini ifoda qilib, bir-birlariga ta'sir qiladilar, bir-birlarini tushunadilar. Tilning jamiyatda aloqa quroli vazifasini bajarishi uning kommunikativ funksiyasidir. Bundan tashqari til ekspressiv va akkumulyativ funksiya bajaradi.

Til boshqa kishilar bilan muomala qilish ehtiyoji tufayli paydo bo'lgan. Bu ehtiyojning kishilar jamiyat sohalari va inson faoliyatida yuz beradigan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi tilda, birinchi navbatda, tilning lug'at qismida o'z aksini topadi. Demak, til tabiiy va biologik hodisa emas, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi tabiat qonunlariga bo'ysunmaydi.

Tilning ijtimoiy tabiati uning ayrim shaxsda emas, balki jamiyatda mayjudligini taqozo etadi. Til jamiyat tomonidan yaratilgan bo'lib, uning taqdiri ham jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog'liq.

Til ijimoiy hodisadir. Ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy-biologik va fiziologik xususiyatlari(ovqat yeyishi, nafas olishi, rivojlanisi va hokazo) tabiat qonunlariga muvofiq, jamiyatga bog'liq bo'lмаган holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so'zlashish va fikrlashish uchun kishilik jamiyat bo'lishi shart. Shuning uchun ham til tabiiy hodisalardan farqli o'laroq, kishilik jamiyat tomonidan yaratilgan va unga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir.

Ko'rinaridiki, til o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir.

Tilshunoslik fanining asosiy muammolaridan biri tilning ichki qurilishini o'rganishdir. Har qanday til fonetik tuzilishi, grammatik qurilish va lug'at tarkibidan tashkil topadi. Tilning ushbu tarkibiy qismlari muayyan qonuniyatlar asosida o'zaro bog'lanib, butun tilni hosil qiladi, til mazkur birikmalar negizida uzviy bog'langan tizimni tashkil etadi. Ichki qurilishi jihatidan til ma'lum miqdordagi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan til birliklarining yig'indisi va ana shu birlikkaldan foydalanish qoidalardan tashkil topgan murakkab tizimdir. Til tizimini tashkil etuvchi birliliklarning o'zaro munosabati va bog'lanish qonuniyatları murakkab hamda ko'p qirralidir. Garchi til yaxlit tizim bo'lsa-da, bu tizim o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan, til tizimining tarkibiy qismlari hisoblangan sathlar birligan iborat. Har bir sathning o'z birliklari va tushunchalari bo'lib, ular bir-biridan farqlanib turadi. Masalan, fonetik-fonologik sath lug'at sathidan, lug'at

sathi grammatik sathdan farqlanadi. Ammo, ushbu sathlar o‘zaro bog‘liq ravishda butun til tizimini tashkil etadi. Til tizimini tashkil etgan asosiy sathlar quyidagilar:

1. Fonetik-fonologik sath.
2. Lug‘at sathi.
3. Grammatik sath.

### **Fonetik-fonologik sath.**

Tilning bu sathi til tizimidagi nutq tovushlarini o‘rganadi. Fikr almashish uchun foydalaniladigan so‘zlar va gaplar, albatta, tovush lar tizimida o‘z ifodasini topadi. Tilning tovush tizimini turli tomondan o‘rganish mumkin, chunki nutq tovushlari o‘z tabiatiga va til tizimida bajaradigan funksiyasiga ko‘ra murakkab hodisadir. Inson nutqining tovushlari fizik xususiyatlariga ko‘ra tabiatda paydo bo‘ladigan tovushlarning bir turidir. Shuning uchun tovushlar tizimini o‘rganishda akustik nuqtayi nazardan ham yondashiladi. Ammo, inson foydolanadigan tovushlar, tabiatdagi boshqa tovushlardan farqli o‘laroq, kishining nerv sistemasi tomonidan boshqarilib turadigan nutq organlari mahsulidir. Shuning uchun, tovushlar fiziologik nuqtayi nazardan ham o‘rganiladi. Nihoyat, tovushlarni tildagi bajaradigan funksiyasi nuqtayi nazaridan ham o‘rganish mumkin, chunki tovushlar tilda o‘z holicha mavjud bo‘lmaydi. Ular so‘zлarni yasashda va fikr almashish vositasini ta`minlab berishda muhim rol o‘ynaydi. Tovushlarning fizik va biologik xususiyatlarini fonetika fani o‘rganadi. Tovushlarning til tizimida bajaradigan funksiyalarini esa fonologiya o‘rganadi. Fonetikaning bir necha ko‘rinishlari bor: ***nazariy fonetika, amaliy fonetika, segmental, supersegmental fonetika va fonologiya.***

Fonetikaning to‘rtinchi asosiy sohasi hisoblanmish fonologiya alohida fan sifatida qaraladi.

Fonetika tilning boshqa qismlari va sathlari bo‘lgan morfologiya va sintaksis, leksika va uslubiyat bilan uzviy bog‘liqidir. Nutq fonetik jihatdan ***fraz***, ***takt***, ***bo‘g‘in va nutq tovushlariga*** ajraladi. ***Fraza*** nutqning eng katta fonetik birligi bo‘lib, ikki tomondan pauza bilan chegaralanib, o‘ziga xos ohangga ega bo‘ladi. Frazalar taktdan tashkil topgan bo‘ladi. Frazaning ikki kichik pauza orasiga joylashgan va yagona urg‘u bilan talaffuz qilinadigan bir yoki bir nechta bo‘g‘inning yig‘indisiga ***takt*** deyiladi. Frazada nechta urg‘u bo‘lsa shuncha takt bo‘ladi.

Takt bo‘g‘inlardan tashkil topadi. ***Bo‘g‘in*** bir yoki bir nechta tovushdan tashkil topib, bir zarb bilan talaffuz qilinadigan fonetik birlikdir. Bo‘g‘in ta‘rifiga aloqador bir qancha nazariya mavjud. Shulardan ikkitasi: ***fonologik bo‘g‘in nazariyasi va fonetik bo‘g‘in*** nazariyasi keng tarqalgan. Tovushlar fonetika birligi sifatida o‘rganilganda “nutq tovushlari” yoki “fonlar” deb yuritiladi. “Fon” hozirgi tilshunoslikda keng tarqalgan atama bo‘lib, nutqning eng kichik, ma`no anglatmaydigan birligidir.

Nutq tovushlarining o‘rganilishidagi aspektlardan biri ***fonologiya*** deb yuritiladi. Nutq tovushlarining vazifaviy qiymatini fonologiya o‘rganadi. Fonologiyaning o‘rganish manbai fonemadir. ***Fonema*** so‘z, so‘z shakllari va morfemalarni tashkil etuvchi, ma`no farqlash uchun xizmat qiluvchi eng kichik,

boshqa bo‘laklarga bo‘linmaydigan til birligidir. Masalan, *tup-tub*; *quy-qo* ‘y; *sut-sud* so‘zлari fonemalar yordamida farqlanadi. Tarkibidagi birgina fonema bilan farq qiluvchi so‘zлar ***kvaziomonimlar*** deb yuritiladi. Tildagi barcha fonemalar bir-biriga nisbatan ma`lum ko‘lamda bo‘ladi. Fonemalarning bog‘lanishi, o‘zaro munosabati fonologik tizimni tashkil etadi.

*Fonologiya tovushlar bilan bog‘langan, biroq u ma`noga ta`sir etmaydigan kichik farqlanishlarni kuzatmaydi. Quyida ikki so‘zlovchi nutqini kuzatamiz: bir so‘zlovchining “Ssh!”(Jim bo‘ling ma`nosida) va boshqa so‘zlovchining ayni “Ssh!”ni boshqacha talaffuz qilishi fonolog olimni qiziqtirmaydi.*

*Barcha tovushlar farqlanadi, xuddi odamlarning qo‘l yozuvlaridek. Fonologiya bunday farqlanishlarni kuzatmaydi. Fonologiya “sh” (shoe so‘zidagidek) va “s” (Sue so‘zidagidek) tovushlari orasidagi farqlanishlarga e`tibor qaratadi. Fonologianing birligi – fonema.<sup>17</sup>*

*Vengr tilida talaffuz qilish juda oson, chunki bir harf bitta tovushga to‘g‘ri keladi. Istisnoli holatlar venger tilida ham kuzatiladi. –sd bilan tugovchi vengr so‘zлari, masalan, mosd, lásd, nevesd, üsd so‘zлari “sh” tovushiga o‘xshab, ya`ni “zh” tarzida talaffuz qilinadi: mozsd, lázsd, nevezsd, üzsd.<sup>18</sup>*

*Vengr tilidagi mozsd so‘zini tovush jihatidan tahlilga tortamiz. Bunda eng so‘nggi tovush “sh” talaffuz etilmaydi. Chunki undoshdan so‘ng yana bir undosh kelib qo‘silgan mos+d, shuning uchun ikkinchi undoshni talaffuz etish imkoniyati yo‘q. Bunda (/S/) tovushi ham, (/D/) tovushi ham shovqinli tovush hisoblanadi, shuning uchun vengr tilida bu tovushlar yonma-yon kelganda /Z/ tarzida talaffuz etiladi.*

*Bunday holat inglliz tili uchun ham xosdir. Masalan, biror /sh/ tovushi bilan tugagan so‘zni olaylik, aytaylik wash (yuvmoq) so‘zi bo‘lsin. Uning o‘tgan zamondagi shaklini hosil qilish uchun /ed/ shaklidan foydalaniladi (washed - yuvdim). Bunda talaffuzda qiyinchiliklar yuzaga keladi, ya`ni /sh/ tovushi shovqinli, /d/ esa ovozdor tovushdir. Ingliz tili ona tilisi hisoblangan inglizlar wazhed yoki washt tarzida talaffuz qilinadi.*

*Ingliz tilida R`s tovush birikmasi talaffuzi vengr tilidan farqlanadi. Buning ajablanarli joyi yo‘q, chunki, bu tovushlar nemis hamda fransuz tillarida ham boshqacha talaffuz qilinadi. Ingliz tilining ba`zi shevalarida esa umuman talaffuz qilinmaydi. Agar hip-hop musiqani sotib olsangiz (internet orqali) yoki musiqaning nomiga qarasangiz, albatta, brotha, sista, ganxta kabi so‘zлarni ko‘rasiz, ushbu so‘zлar brother, sister va gangster so‘zлarining alternative talaffuzidir. Yoki singers so‘zini singaz tarzida talaffuz etishadi, ya`ni so‘z oxiridagi r`s talaffuz qilinmaydi. Bu holat barcha ingliz dialektlari uchun xos emas. Fikrni isbotlash uchun tajriba o‘tkazamiz.*

*Quyida misollarga e`tibor bering:*

*Four. Four people. Four animals.(To‘rt, to‘rt odam, to‘rt hayvon)*

<sup>17</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.26

<sup>18</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.28

*Agar Angliyaning janubida yashaydigan odamdan shu gaplarni talaffuz qilib berishini so‘rasangiz, /r/ tovushini faqat oxirgi gapda talaffuz qilinganini payqaysiz. R tovushi, odatda, undoshlar oldidan talaffuz qilinmaydi, unlilar oldidan talaffuz qilinganda /Q/ tovushiga o‘xhash tovush eshitiladi.*

*Aksinchal, Amerika Qo‘shma shtatlarida istiqomat qiluvchi kishilar esa har uchala gapda ham r tovushini talaffuz etadilar. Umuman, amerikaliklar har bir r tovushini talaffuz etadilar.<sup>19</sup>*

*Venger tilida ba`zi so‘zlar –ban qo‘s Shimchasi, ba`zilari esa –ben bilan tugaydi: HázBAN, lekin kézBEN; hóbAN, biroq vízBEN, lekin kínBAN va hídBAN. (-kin va –híd so‘zları bundan mustasno).*

*Qoidaga ko‘ra, “é”, “e” va “i” tovushlaridan so‘ng –ben qo‘s Shimchasi, “u”, “o” va “a” tovushlaridan so‘ng esa -ban tarzida qo‘s Shimcha qo‘s Shiladi. Tovush va fonemalar unli va undosh tovushlarning belgisi sifatida gavdalananadi.<sup>20</sup>*

### *Lug‘at sathi*

Tilning lug‘at sathi tilda mavjud bo‘lgan so‘zlearning yig‘indisidan iborat. Lug‘at sathi tilning fonetik-fonologik va grammatik sathlaridan har doim o‘zgarib va rivojlanib turishi bilan ajralib, farqlanib turadi. Fan, texnika, madaniyatning rivojlanish jarayoni lug‘at sathining doimiy o‘zgarib turishini taqozo etadi. Shunga ko‘ra, tilning lug‘at sathi paydo bo‘lishi va qo‘llanilishi doirasi jihatdan bir-biridan farqlanadigan bir necha qatlamlardan tashkil topadi. Lug‘at sathining asosiy birligi hisoblangan so‘z yordamida kishilar predmet va hodisalarni ifodalaydilar; gapda esa so‘zlar o‘zaro birikib fikr ifodalash imkoniyatini yaratib beradi. Lug‘at sathini leksikologiya o‘rganadi. So‘zning ta’rifி, so‘z va predmet, so‘z va tushuncha, lug‘atning o‘zgarishi, so‘zlearning bir-biri bilan munosabati, lug‘atning qatlamlari kabi muammolar leksikologiya o‘rganadigan asosiy masalalar hisoblanadi. So‘zlearning boshlang‘ich ma‘nosi va shaklida bo‘lgan o‘zgarishlarni *etimologiya*, lug‘at va uning tuzilishini *leksikografiya*, so‘zning ma‘nosi va uning taraqqiyotini *semasiologiya* o‘rganadi. Frazeologizmlar leksikologiya bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.

Tilning lug‘at tarkibi bir nechta nuqtayi nazaridan o‘rganilishi mumkin. Tilning lug‘at qatlamin tarixiylik nuqtayi nazaridan o‘z va o‘zlashgan so‘zlarga ajratish mumkin. Har bir tilda o‘z qatlam so‘zleri bilan bir qatorda o‘zlashgan qatlam so‘zleri ham uchraydiki, bu tilning mavqeyi, ijtimoiy-tarixiy jarayon, xalqlar va tillar o‘rtasidagi turli munosabatlar ta’siri bilan izohlanadi. Lug‘at qatlaming ma‘lum qismi sheva so‘zleridan iborat. Sheva so‘zleri asosiy aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qiladi. Sheva so‘zlarining adabiy til lug‘atini boyitishda alohida o‘rni bor. Tilning lug‘at tarkibi iste‘mol darajasi nuqtayi nazaridan ham turlichadir. Bu jihatdan faol va kam ishlatiladigan so‘zlar farqlanadi. Bu borada quyiroqda, “Tilshunoslik va uning bo‘limlari” da (o‘zbek tili misolida) batafsil to‘xtalamiz.

<sup>19</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.29-30

<sup>20</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.30

Tilning lug‘at boyligini oshiruvchi asosiy manba so‘z yasalishi, shevalardan so‘z olish, so‘zning ma`no taraqqiyotidagi o‘zgarishlar va ma`no ko‘chirishlar hisoblanadi.

*Lug‘avyi sathda so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari ham qayd etiladi. Sinonimlar. Gaplar tarkibida ma`nosi bir-biriga o‘xshash so‘zlar ishlatiladi. Bunday so‘zlar sinonimlar deyiladi. Misol uchun ikkita gap keltiramiz:*

*Sue has bought a book. // Sue has purchased a book.*

*Buy (sotib olmoq) va purchase (xarid qilmoq) so‘zleri sinonimdir. Biroq har doim ham emas, ba`zi sinonimlarda boshqa sinonim izohlagan ma`no bo‘imasligi mumkin. Bu uning kognitiv ma`nosidan kelib chiqadi.*

*Turlichcha sinonimlik birliklar kuzatiladi:*

*Birinchidan, bir so‘z ibora bilan sinonimlik hosil qilishi mumkin. Masalan, look (qaramoq) fe`li take a look (qaramoq) frazasi bilan sinonimlikni hosil qiladi.*

*Ikkinchidan, birikmali holatda sinonim bo‘lishi mumkin. Masalan, buy into a company birikmasi (kompaniyaning bir qism ulushini sotib olmoq, ya`ni hissador bo‘lmoq) birikmasi purchase the shares of a company birikmasi bilan sinonimlikni hosil qiladi. Buy fe`lining yana “ishonmoq” ma`nosi ham mavjud, biroq bu o‘rinda u purchase fe`li bilan sinonim bo‘la olmaydi, chunki purchase fe`li ma`nosida ishonmoq ma`nosi yo‘q. qolaversa, have a bought it iborasi ma`nosi “o‘ldirilmoq” bo‘lib, bu o‘rinda ham have purchased it iborasi bilan sinonimlik hosil qila olmaydi. Ingliz kishisi uyga kelgan holatda I’ve purchased*

*the beer, darling! (Azizam, pivo olib keldim!) deb, purchase fe`lidan foydalanadi, buy fe`li olib kelmoq ma`nosida qo‘llanilmaydi.*

*Venger tilida ham kutya–eb, kukorica–tengeri so‘zleri o‘zaro sinonim hisoblanadi. Sinonimlar ma`no bo‘yoqlarida biroz faqlansa-da, ayni bir ma`noni bildiradi.*

*Antonimlar va bir-birini to‘ldiruvchilar. Tilda bir-biriga zid bo‘lgan mavjud va ular tilde antonimlar va bir-birini to‘ldiruvchi so‘zlar deb nomlanadi. Manage (uddalay olmoq) so‘zi fail (muvaqqiyatsizlikka uchramoq) so‘zi bilan antonimlik hosil qiladi.*

*Antonimlar darajalanish tabiatiga ega: big – small,(katta – kichik) hot – cold(issiq – sovuq) misol sifatida keltiramiz. Antonimlar muvofiq ravishda bigger – smaller (kattaroq - kichikroq) kabi darajalanadi. Antonimlar ikki qarama –qarshi holatni izohlaydi.*

*Oddiy daraja qiyosiy daraja bilan qo‘llanilishi ham zidlikni yuzga keltiradi. Masalan: A big mouse is smaller than a small elephant!(Katta sichqon kichik fildan kichikroqdir.)<sup>21</sup>*

*Qarama-qarshilikni bildiruvchi yana bir turdagи antonym turi (bir-birini to‘ldiruvchi) mavjud bo‘lib, ular darajalanmaydi, chunki hech bir holatda uning darajalanishiga ehtiyoj yo‘q. Bunday so‘zlarga misol qilib, quyidagi qarama-*

<sup>21</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.68

*qarshi so‘zlarni keltiramiz: open – closed (ochiq – yopiq), dead – alive (o‘lik – tirk).*<sup>22</sup>

*Omonimlar va polisemik so‘zlar. Shunday so‘zlar mavjudki, bu so‘zlarning ma`nosi 2 ta bo‘ladi. Bunday so‘zlar ambiguity termini bilan yuritiladi. Ambiguitlarga quyidagilar misol bo‘ladi. Masalan, string (tor) so‘zi ikki xil ma`noda qo‘llanadi: “ecclesiastical building” (cherkovga oid binolar) hamda “people of the same religion” (bir dindagi odamlar jamoasi). Mouse so‘zi ham ikki xil ma`noda, ya`ni “animal” (hayvon) va “computer accessory” (kompyuterning yordamchi qismi) ma`nolarida qo‘llanadi. Biroq talaffuz jihatdan bir xil bo‘lgan, yozuvda farqlanadigan so‘zlar, ya`ni now (hozir) va know(bilmoq); weak(zaif) va week (hafta) kabilar ambiguit bo‘la olmaydi.*

*Omonimlar shakli bir xil, ma`nosi har xil so‘zlardir. Masalan, venger tilida szerelem (ot) – szerelem (fe'l); követ (ot) – követ (fe'l) – követ (fe'l) so‘zlari omonimlar hisoblanadi.*<sup>23</sup>

### **Grammatik sath**

Har bir tilning grammatik sathi so‘zlarning grammatik formasi, so‘z birikmalarini va gaplardan tashkil topadi. Tilning boshqa sathlari kabi grammatikaning ham o‘z birliklari bor. Eng kichik grammatik birlik **morfema** bo‘lib, morfemalardan **so‘zlar** yasaladi, so‘zlar esa o‘z navbatida so‘z birikmalarini va gaplar qurilishida qatnashadi. **Gap** grammatikaning yirik va mustaqil birligidir. Gapdan katta birliklar ham mavjud: **murakkab sintaktik (birlik) butunlik, abzas va matn.**

Til grammatik strukturasining o‘ziga xos xususiyatlari bor.

**Birinchidan**, tilning grammatik qurilishi: so‘zning strukturasi, tuslanish va turlanish qoidalari, so‘z birikmalarini va grammatikaning turlari tarixiy taraqqiyotining mahsuli sifatida juda sekin o‘zgaradi.

**Ikkinchidan**, grammatika umumlashtirish xususiyatiga egadir. Masalan, arava, *maktab*, *tosh*, *bola* kabi so‘zlarning o‘z leksik ma`nosi bor, ammo, grammatik nuqtayi nazardan bu so‘zlar predmetlik tushunchasini ifoda qilib, ot turkumini tashkil qiladi. Bu so‘zlarni ularning leksik ma`nosi emas, grammatik ma`nosi umumlashtiradi. Tilning grammatik strukturasini morfologiya va sintaksis o‘rganadi. Morfologiya so‘zning turkumlari va ularning grammatik formalarini tekshiradi. Sintaksis esa nutqning grammatik strukturasini o‘rganadi. Bunda gap asosiy birlikdir. Gapdan katta birliklar ham sintaksisda o‘rganiladi.

Til tizimi til birliklari - fonema, morfema, so‘z, gap va til sathlarining bir butunligidan iborat. Yuqoridaqilardan ko‘rinadiki, aloqa-munosat vositasi bo‘lgan tilning fonetik, leksik, grammatik jihatlari muayyan ichki qonuniyat asosida o‘zaro mutanosiblikni tashkil etuvchi tizimdir. Tizimni tashkil qiluvchi mutanosiblik o‘ziga xos bo‘lgan alohida qoidalarda namoyon bo‘ladi. Muayyan tildagi gaplar so‘zlardan, so‘zlar bo‘g‘inlarning birikuvidan, bo‘g‘inlar nutq tovushlaridan hosil bo‘ladi. Jumiani, gapni tashkil etuvchi so‘zlar o‘zaro til qonuniyatlarini asosida birikadi. Istalgan har qanday so‘zlar yig‘indisi gap bo‘la olmaydi. Tartibsiz suratda

<sup>22</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.69

<sup>23</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.69

yig‘ilgan so‘zlar mazmun ifodalash uchun xizmat qilmaydi. So‘zlarning ketma-ketligi ma’lum tartib va umumiyligini qoidaga muvofiq bo‘lishi talab etiladi. Shu holatning o‘ziyoq tilning tizim ekanligini ko‘rsatadi. Ma’lum bir tilga xos tovushlar shu tilning fonetik tizimini, so‘zlar leksik tizimini tashkil etadi. Bir tildan ikkinchi tilga o‘zlashgan so‘z shu tilning fonetik tizimiga-talaffuz me`yorlariga bo‘ysunadi. Masalan: o‘zbek tiliga rus tilidan kirgan ayrim so‘zlar o‘zbek tili talaffuz me`yorlariga moslashadi: *чайник-choynak*, *поднос-patnis*. Aksincha o‘zbek tilidan rus tiliga o‘zlashgan so‘zlar rus tilining talaffuz me`yorlariga bo‘ysungan: *qorovul-караул*, *karvon-караван*, *bozor-базар*.

Umuman, tilda tovushlar, lug‘at tarkibi, grammatick tartib birikib, tizim sifatida bir butunlikni tashkil etadi. Til tizimini tashkil etuvchi sathlar o‘zaro mutanosib holda bir-birini taqozo qiladi. Ular orasidagi bog‘liqlik tilning umumiyligini qoyidalari va qonuniyatlariga asoslangan.

*Morfologiya. Ingliz tilida ko‘plikni bildirish uchun ko‘plikni bildiruvchi “s” qo‘shilishi bilan birga uning oldidan sonlarni qo‘yish yoki son o‘rnida qo‘llaniluvchi so‘zlar (many, a lot of) qo‘llaniladi. Masalan,*

*One apple, two apples, three apples, four ... (bitta olma, 2ta olmalar, 3ta olmalar, 4ta...)*

*Quyida uning formulasi keltiriladi: 1 apple // 2 apple + s.*

*Yoki bo‘lmasa, ko‘plikni berishda o‘zak o‘zgarishini kuzatish mumkin. Masalan,*

*One mouse, two mice, three mice, four mice. (bitta sichqon, 2ta sichqonlar, 3 ta sichqonlar, 4 ta sichqonlar)*

*Quyida uning formulasi keltiriladi: 1 mouse // 2 mouses mice.*

*Har doim ham “s” ko‘plik shakli shu holatda qo‘silmaydi. “s” ko‘plik bilan yasaluvchi ko‘plik shakl to‘g‘ri turlanuvchi otlar (Regular plural), o‘zak o‘zgarishi bilan hosil qilinadigan otlar esa noto‘g‘ri turlanuvchi otlar (Irregular plural)ga bo‘linadi. Shakli quyidagicha:*

*Regular plural = singular + (e)s book//books*

*Irregular plural = ??? [har xil] mouse//mice*

*Noto‘g‘ri turlanuvchi otlarga quyidagilar misol bo‘ladi:*

*Child (bola) – children (bolalar);*

*Criterion (mezon) – criteria (mezonlar);*

*Foot (oyoq) – feet (oyoqlar)...(36-bet)*

*Bundan tashqari, fe’llar va sifatlarda ham to‘g‘ri va noto‘g‘ri turlanish/tuslanish mavjud. Har xil va o‘zakdagi o‘zgarishlar to‘gri va noto‘g‘ri fe’llar tuslanishida ko‘rish mumkin. Masalan:*

*Go (bormoq) – went (bordi);*

*Cut (kesmoq) – cut (kesdi)...*

*Cut fe’li o‘tgan zamonda o‘zak o‘zgarishiga uchramasa-da, lekin -ed qo‘sishmasini olmaydi.*

*Sifatlarda ham noto‘g‘ri turlanish mavjud. Masalan:*

*Good (yaxshi) –better (yaxshiroq) – best (juda yaxshi) misolida oddiy turlanishdan farqlanadi.<sup>24</sup>*

*So‘z va qo‘srimcha morfemalar. Ma`noli qismlar, ya`ni apple (olma) va -s (-lar) qo‘srimchasi morfema deyiladi. Quyidagi so‘zda 3 ta ma`noli qism mavjud: un + employ + ment. Bular dan employ (xizmat) qismi mustaqil (so‘z) morfema va u o‘zi ham qo‘llana oladi. Un- va –ment qismlari esa yakka holda qo‘llana olmaydi, shuning uchun ham ular qo‘srimcha morfemalar hisoblanadi.*

*Un- qismi prefix (old qo‘srimcha) hisoblanadi, -ment qismi esa o‘zakdan so‘ng keladi va bu qism suffix (o‘zakdan so‘ng keluvchi morfema) deyiladi. Employ esa o‘zak (root)dir.*

*Un- prefiksi bilan boshlanuvchi so‘zlarga misollar keltiramiz: un+happy(baxtsiz), un+real(g‘ayritabiyy), un+able(imkonsiz), un+conscious(hushsiz).*

*Ushbu morfem ko‘pincha sifatlar oldidan keladi: un + adjective. Un-morfemasi qo‘silgandan so‘ng ham sifat hosil bo‘ladi. Happy(baxtli)/ unhappy (baxtsiz.) qolaversa, un-(-siz) morfemasi o‘rnida not (emas, yo‘q) so‘zi ham qo‘llanishi mumkin, ma`noda o‘zgarish bo‘lmaydi. Masalan: Unhappy(baxtsiz) = not happy(baxtli emas).*

*-ment suffiksiga misollar quyidagicha: govern+ment(hokimiyat), retire+ment(nafaqa), argu+ment(munozara).*

*Ba‘zi qo‘srimchalar, xususan, -er morfemasi ot yasash va darajlash uchun xizmat qiladi. Read+er(kitobxon), teach+er(o‘qituvchi), learn+er(o‘rganuvchi), writ+er(yozuvchi), walk+er(yo‘lovchi). bunda fe`llardan ushbu morfema orqali ot yasalgan.*

*Sifatning qiyosiy darajasini hosil qiluvchi –er morfemasi fe`ldan ot yasovchi –er morfemasi bilan bir xil emas, ya`ni ular funksiyasiga ko‘ra, bir-biridan farqlanadi. Sifatning qiyosiy darajasini hosil qiluvchi –er morfemasiga misollar quyidagicha: quicker(tezroq), slower(sekinroq), nicer(yaxshiroq), uglier(xunukroq), smaller (kichikroq) kabi.*

*Ed is quick, but Liz is quicker.(Ed tez, biroq Liza tezroq.) gapida quicker so‘zi qiyosiy morfemasidan foydalanilgan.*

*Quicker(tezroq) va reader(kitobxon) so‘zlaridagi –er morfemasi funksiyasiga ko‘ra bir-biridan butkul farqlanadi.<sup>25</sup>*

*So‘zlarni turkumlarga ajratamiz:*

- *Ot (umbrella – soyabon)*
- *Fe`l (leksik) (arrive – yetib bormoq)*
- *Sifat (big – katta)*
- *Ravish (soon – tezda)*
- *Predlog (in, at, with, under)*
- *Olmoshlar (her, all, what)*
- *Yordamchi fe`llar (can – qila olmoq, has – bor)*
- *Aniqlovchilar (an, every)*

<sup>24</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.36

<sup>25</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.37

• **Bog‘lovchilar (and - va, because – chunki)**

• **Undov so‘zlar (Oops, Ouch)**

*An`anaviy grammatikaga ko‘ra, so‘zlar manosiga qarab aniqlanadi. Morfologiya uchun shakl juda muhim o‘rin egallaydi (vengr tilida shakl “Alaktan” deb ataladi). Shuning uchun ma`nodan ko‘ra shakily asosga ko‘ra guruhlarga bo‘linadi. Fikrimizni izohlashning oson yo‘li lug‘atlardagi so‘zlarga e`tibor berishdir: arrive (yetib kelmoq) - fe`l, should (maslahat ma`nosida asosiy fe`ldan oldin ishlatiladi) – yordamchi fe`l, after (keyin) – predlog.*<sup>26</sup>

Til muayyan birliklarning tizimidan iborat murakkab tizim hisoblanadi. Til birliklarining o‘ziga xos tabiatini professor Sh. Rahmatullayevning ”Til qurilishining asosiy birliklari” qo‘llanmasida izchil bayon etilgan:

Til - tabiiy yo‘sinda vujudga kelgan murrakkab ijtimoiy hodisa. Tilshunoslik ana shu murrakkab ijtimoiy hodisani o‘rganadi va o‘rgatadi.

Tilshunoslik oldida turgan eng birinchi masala **til** so‘zini qanday tushunishdan boshlanadi. Til kishilar orasidagi eng muhum aloqa-aratashuv quroli deyiladi. Bu ta`rif-lingvistik ta`rif emas, falsafiy ta`rif. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilsa, **til** so‘zini ikki xil mundarija bilan ishlatish mavjudligi ko‘rinadi: 1) Ijtimoiy hodisa bir butun holda tushuniladi, 2) Ijtimoiy hodisaning nutqqa zid qo‘yiladigan holatigina tushuniladi. Demak **til** deganda butunni ham (nutqni qamrab olgan holda), qismni ham (nutqni qamrab olmagan holda) tushunish mavjud. **Til** so‘zini bunday ikki xil mundarija bilan ishlatish bir qancha milliy tilshunosliklarda mavjud va uni bartaraf qilish harakati bor. Masalan, **til** so‘zini butunning nomi sifatida saqlab, nutqqa zidlanuvchi hodisani **lison** deb atash mumkin.

**Lison** – kishining miyasida, miyaning til xotirasi qismida mavjud hodisalar va ularni ishlatish qoidalari.

**Nutq** – miyada, til xotirasida mavjud hodisalardan va ularni ishlatish qoidalari foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi (Nutq jarayonining hosilasi tekst – matn deb yuritiladi). Demak, til hodisalariga ikki nuqtayi nazaridan – lison nuqtayi nazaridan va nutq nuqtayi nazaridan baho beriladi, shu asosda til birliklari lisoniy birliklar va nutqiy birliklar deb farqlanadi.

**Lison** – tilning kishi miyasidagi til xotirasi markazida mavjud birliklardan va ulardan foydalanish qoidalari iborat boylik. **Nutq** esa ana shu boylikdan foydalanish jarayoni va shunday jarayonning hosilasi. Lison kishi miyasida mavjud mavhum hodisa bo‘lib, uni aql bilan idrok qilamiz; nutq esa ana shu mavhum hodisadan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan moddiy hodisa bo‘lib, uni talaffuz birliklari sifatida eshitamiz. Lisonga mansub, ya`ni til xotirasida mavjud hodisalarga **lisoniy birliklar** deyiladi; lisoniy birlikning nutqda moddiy shakl olgan holatiga nutqiy birlik deyiladi. Demak, har bir kishining miyasida lisoniy birliklarning ramzlaridan va ulardan foydalanish qoidalari iborat boylik bor, har bir kishi ehtiyojiga qarab bu boylikdan foydalanib nutq hosil qiladi. Inson tili asosini tovush tashkil qiladi: tilda bor hodisalar tovushlarda reallashadi. Tovush til birligi sifatida boshqa til birliklari uchun qurilish birligi bo‘lib xizmat qiladi.

<sup>26</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.41

Shunga ko‘ra til tovushi til birliklarining birlamchi ifoda jihatni deyiladi. Til tovushi lisoniy birlik sifatida miyadagi til xotirasi markazida ma`lum bir ramz sifatida aks etadi. Ana shu ramzda til tovushiga xos belgi-xususiyatlar haqida axborot bo‘ladi. Masalan, **u** tovushi haqida ”ovozdan iborat”, ”og‘iz bo‘shlig‘i tor holatda”, ”tovush hosil bo‘lish oralig‘i til sathining orqa qismida”, ”lablar aktiv qatnashadi degan axborot bor. Inson faoliyatini, shu jumladan til faoliyatini ham boshqaruvchi miya markazidan **u** tovushini aytish haqida ”ko‘rsatma”(impuls) berilsa, shu tovushning ramzida mujassamlashgan axborotga binoan tovush hosil qilish a’zolari harakatga kelib, ko‘rsatmaga binoan ma`lum holat egallaydi va o‘pkadan chiqayotgan havo ma`lum nutq tovushi sifatida, nutqiy birlik sifatida namoyon bo‘ladi”.

### Savol va topshiriqlar

1. Tilni tizim sifatida ta`riflang.
2. Tilning rivojlanishi, ichki qurilishini til birliklari yordamida asoslang.
3. Til tabiatini o‘rganishga doir nazariyalar va oqimlarni ayting.
5. Til fonetik-fonologik sathini misollar asosida tushuntiring.
6. Fonetika tilning boshqa qismlari va sathlari bo‘lgan morfologiya va sintaksis, leksika va uslubiyat bilan uzviy bog‘liqligini tushuntiring.
7. Tilning lug‘at sathini tavsiflang.
8. Tilning grammatik sathini tavsiflang.
9. Tilning murakkab ijtimoiy hodisa ekanligi haqida o‘z fikrlaringizni bayon eting.
10. Lison va nutqni bir-biridan farqlang.

### Testlar

1. Til tizimini tashkil etuvchi asosiy sathlar qaysilar?  
A) fonetik, etimologik, lug‘at  
B) fonologik, morfemik, grammatik  
C) fonetik-fonologik, lug‘at, grammatik  
D) sintaktik, leksik, etimologik
2. Nutqning eng katta fonetik birligi bo‘lib, ikki tomonidan pauza bilan chegaralanib, o‘ziga xos ohangga ega fonetik birlik qaysi?  
A) takt  
B) fraza  
C) nutq tovushlari  
D) bo‘g‘in
3. Lisonga mansub, ya`ni til xotirasida mavjud hodisalarga nima deyiladi ?  
A) lisoniy birliklar  
B) fonetik birliklar  
C) leksik birliklar  
D) grammatik birliklar
4. O‘zbek tiliga rus tilidan kirgan qaysi so‘z o‘zbek tili talaffuz meyorlariga moslashgan?  
A) karvon-караван

B) bozor-базар

S) чайник-choynak

D) qorovul-караул

5. Grammatikaning yirik va mustaqil birligi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) gap

B) so‘z birikmasi

S) so‘z qo‘shilmasi

D) so‘z

6. Shakli bir xil, ma`nosi har xil bo‘lgan so‘zlar tilshunoslikda qanday ataladi?

A) omonim

B) antonim

S) sinonim

D) paronim

7. *Quyulmoq-quyilmoq* tarzidagi so‘zlar shakl va munosabatga ko‘ra qanday so‘zlar sirasiga kiradi?

A) antonim

B) sinonim

S) paronim

D) omonim

8. *Qiziq-g‘alati-ajoyib-alomat-antiqa-yaxshi-durust-tuzuk* sinonimik qatoridagi qaysi sinonim so‘zlar belgini kuchsiz darajada ifodalagan?

A) ajoyib, tuzuk

B) alomat, qiziq

S) durust, tuzuk

D) antiqa, yaxshi

9. *Kuz shamoli-kuzgi shamol* sinonimlari qanday sinonimlar sirasiga kiradi?

A) grammatik sinonimlar

B) lug‘aviy sinonimlar

S) frazeologik sinonimlar

D) bular sinonim emas

10. *Doston-poema* sinonimlar qanday sinonimlar?

A) ma’noviy sinonimlar

B) to‘liq sinonimlar

S) frazeologik sinonimlar

D) grammatik sinonimlar

### **Asosiy tushunchalar glossariysi**

**Til tizimi** – til birliklari: fonema, morfema, so‘z, gap va til sathlarining bir butunligidan iborat bo‘lib, tizim sifatida uning birliklari bir-birini taqozo etadi va boshqa bir belgisiga ko‘ra bir-biriga zidlanadi.

**Ramz** – belgi bo‘lib, til belgilari tizimidir.

**Fonologiya** – nutq tovushlarining vazifaviy qiymatini o‘rganadi. Fonologiyaning o‘rganish manbai fonemadir.

**Fonema** – so‘z, so‘z shakllari va morfemalarni tashkil etuvchi, ma`no farqlash uchun xizmat qiluvchi eng kichik, boshqa bo‘laklarga bo‘linmaydigan til birligi.

**Kvaziomonim** – tarkibidagi birgina fonema bilan farq qiluvchi so‘zlar.

**Etimologiya** – so‘zlarning boshlang‘ich ma`nosini va shaklida bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlaydi, o‘rganadi.

**Leksikografiya** – lug‘at va uning tuzilishini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi.

**Semasiologiya** – so‘zning ma`nosini va uning taraqqiyotini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi.

**Lison** – kishining miyasida, miyaning til xotirasi qismida mavjud hodisalar va ularni ishlatish qoidalari.

**Nutq** – miyada, til xotirasida mavjud hodisalardan va ularni ishlatish qoidalaridan foydalanish jarayoni.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010.-71-72 б.
2. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.26-69
3. Ирисқұлов И. Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.109-114 б.
4. Rasulov R.Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 2013. -Б.-196-204; 205-210.
5. Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи: Х. Дадабоев. – Тошкент, 2004.-Б.5-7.
6. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007. -Б.29-36

### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

1. Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание.- Ташкент, 2004.-Б.19
2. Бушуй А.М., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. - Ташкент: Фан, 2007.-Б.9-12.
3. Щитка Н.Н., Юсупова К.Н. Введение в языкознание. -Ташкент, 2006.-Б.31-33
7. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.-Ташкент, 2002.
4. www. literature.uz
5. www. genhis philol.ru.

## **8-§. TILSHUNOSLIK VA UNING BO`LIMLARI. FONETIKA VA FONOLOGIYA**

### **Reja:**

1. Tilshunoslik bo`limlari.
2. Fonetika haqida ma`lumot.
3. Fonologiya haqida ma`lumot.

**Asosiy tushunchalar:** *til tizimi, ramz, fonologiya, fonema, kvaziomonimlar, morfema, murakkab sintaktik (birlik) butunlik, abzas va matn, lison, nutq, fonetika, orfoepiya, orfografiya, grafika, leksikologiya, frazeologiya, so‘z yasalishi,*

*etimologiya, grammatika, morfologiya, morfemika, sintaksis, punktuatsiya, stilistika (uslubiyat), dialektologiya, leksikografiya*

Dunyoda 5 ming xil til mavjud. Bu tillar ma’um xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratilgan.

O‘zbek tili mansub bo‘lgan turkiy tillar guruhi o‘ttizga yaqin tilni o‘z ichiga oladi. O‘zbek tili qardosh tillar bilan bir asosga ega. Shu bilan bir qatorda mazkur tilning keyingi taraqqiyot bosqichlarida shakllangan o‘ziga xos jihatlari mavjud.

Til o‘z ichki tuzilishiga ega. Tilning ana shu ichki tuzilishidan qaysi birini o‘rganishga ko‘ra tilshunoslik fani ham bir necha bo‘limlarga ajratiladi. Og‘zaki nutqning tovush tizimini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi *fonetika*, yozma nutqning harflar tizimini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi esa *grafika* deyiladi. So‘z va uning ma‘nolari *leksikologiya* bo‘limida, so‘z turkumlari *morfologiya* bo‘limida, gap va gapda so‘zlarning bog‘lanishi *sintaksis* bo‘limida o‘rganiladi. Tilshunoslik *fonetika* (*grafika*), *leksikologiya*, *morfologiya* va *sintaksis* bo‘limlarining uzviy bog‘liqligidan iboratdir. Bu bo‘limlar - **mazmuniga** ko‘ra: *fonetika*, *leksika*, *morfologiya*, *sintaksis*; **qo‘llanishiga** ko‘ra: *alifbo*, *imlo*, *talaffuz*, *tinish belgilari*, *uslubiyat* kabilarga ajratiladi.

«Fonetika» grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, «tovush» ma’nosini anglatadi, ya’ni «tovush haqidagi bo‘lim» demakdir. Nutq tovushlari fonetikada o‘rganiladi. Nutq a’zolari harakati jarayonida hosil bo‘lgan tovushlar **nutq tovushlari** deyiladi.

Nutq a’zolarining jami nutq apparati deyiladi.

Nutq a’zolari nutq tovushlarini hosil qilishdagi ishtirokiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: 1. **Faol (aktiv) nutq a’zolari**: 1) til; 2) ovoz (un, tovush) paychalari; 3) yumshoq tanglay; 4) lablar; 5) pastgi jag‘. 2. **Nofaol (passiv) nutq a’zolari**: 1) o‘pka; 2) kekirdak; 3) qattiq tanglay; 4) burun bo‘shlig`i; 5) tish.

Nutq tovushlarining uch tomoni mavjud: a) akustik, b) talaffuz (fiziologiya) v) vazifaviy tomonlari. Birinchidan, har qanday tovush havoning tebranishi natijasida hosil bo‘ladi. Shuning uchun ularning hammasi ma’lum sifat belgisiga: balandlik, kuch (yoki tezlik), miqdor (yoki uzunlik) va tembr belgilariga ega bo`ladi. Tovushlarning bu tomoni akustik tomoni deyiladi va u fizika fani bilan aloqadorlikda o‘rganiladi. Ikkinchidan, nutq tovushlari insonning nutq a’zolari harakati natijasida maydonga keladi. Nutq tovushlarining bu tomoni uning talaffuz (fiziologik) belgisi hisoblanadi va u fiziologiya fani bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganiladi. Uchinchidan, nutq tovushlari ma’lum maqsadda talaffuz etiladi. Tovushlarning ketma-ket talaffuz qilinishi natijasida ma’lum axborot uzatiladi. Demak, tovushlar ma’noli birliklar tarkibida ularni moddiy tomonidan shakllantirish va ma’nosini bir-biridan farqlash vazifasini bajaradi. Masalan, *soli* bilan *sholi* so‘zleri birinchi tovushlari bilan, *sot* bilan *soch* so‘zleri oxirgi tovushlari bilan, *sot* bilan *sut* so‘zleri o‘rtasidagi tovushlari bilan farqlanadi. Tovushlarning bunday belgilari ularning vazifaviy belgisi sanaladi va u faqat inson tovushlarigagina xos belgi hisoblanadi. Har qaysi nutq tovushini tavsif qilishda ana shu uch tomon e‘tiborga olinadi. Masalan, *k* tovushi til o‘rtasining yuqori tanglayga tegishi va havoning bu to‘siqdan portlab chiqishi natijasida hosil

bo‘ladi. Nutq a‘zolarining qayerida va qanday yo‘l bilan hosil bo‘lishi tovushning talaffuz (fiziologik) tomoni sanaladi. Uning sof shovqindan iborat ekanligi, jarangsizligi akustik belgisi, *k* ning *g* dan va boshqa tovushlardan farqlanishi esa vazifaviy belgisi hisoblanadi. Tilshunoslik fani uchun tovushning vazifaviy tomoni muhim sanaladi. Shuning uchun vazifaviy belgi *lingvistik (tilshunoslikka oid)* belgi deb ham yuritiladi. Nutq tovushlari akustik va artikulyatsion (talaffuz) belgilariga ega bo‘ladi. Bu belgilarning barchasi fonetika uchun muhim sanaladi, chunki bu belgilarni to‘la hisobga olgandagina u yoki bu tovushning xususiyatiga to‘g‘ri javob berilgan bo‘ladi, lekin fonologiya uchun yuqoridagi belgilarning ko‘pi muhim sanalmaydi. Fonologiya uchun faqat bir tovushni ikkinchi tovushga taqqoslaganda ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilarigina ahamiyatli bo‘ladi. Zidlanayotgan ikki birlikni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilar *farqlovchi belgilar*, ularning har ikkisida takrorlanadigan, ikkisi uchun ham umumiy bo‘lgan belgilar *birlashtiruvchi belgilar* sanaladi. Masalan, *t* va *d* tovushlari: birinchi tovush til oldilik, portlovchilik, jarangsizlik belgilariga; ikkinchisi esa til oldilik, portlovchilik, jaranglilik belgilariga ega. Bu ikki tovushning yuqoridagi belgilarini bir-biriga qiyoslasak, dastlabki ikki belgi (til oldilik, portlovchilik belgilar) har ikkisida takrorlanadi. Uchinchi belgi (jarangli-jarangsizlik belgisi) bilan esa ular bir-biridan farqlanadi. Shunga ko‘ra, birinchi va ikkinchi belgilar ular o‘rtasidagi birlashtiruvchi belgilar, uchinchi belgi esa farqlovchi belgi hisoblanadi. Fonemalarni belgilashda yaqin, o‘zaro o‘xshash tovushlarni bir-biriga zidlash, ular o‘rtasidagi farqlovchi va birlashtiruvchi belgilarni aniqlash katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

**Tovush va fonema.** Tilshunoslik fanida tovush va fonema tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Bu farqlanish fan uchun juda muhim bo‘lgan xususiylik va umumiylig munosabatining aks etishidir. *Bilan, tilim, sira* so‘zлari tarkibida i bilinar-bilinmas aytildi. *Qiliq, qiziq* kabi so‘zlar tarkibida til orqa tovushi ta’sirida *o‘* ga yaqin talaffuz etiladi. Ularning hammasida takrorlanadigan umumiy jihatlar bor. U ham bo‘lsa, torlik belgisi va lablanmaganlik belgisi. Nutq jarayonida real talaffuz qilingan, qulog‘imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan nutq bo‘lagi *tovush* sanaladi. Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so‘z va uning ma’noli birliklarini shakllantirish hamda farqlash vazifasini bajarishga xoslangan, ketma-ketlik jihatdan boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan eng kichik til birligi *fonemadir*. Masalan, *tosh-tom* so‘zlarini *sh* va *m* farqlaydi. Demak, *sh* va *m* alohida-alohida fonemalardir. Yoki *tosh-tesh* zidligida *o* va *e*; *tosh-qosh* zidligida *t* va *q* ma’noni farqlash uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ular ham mustaqil fonemalar sanaladi. Fonemalarni xilma-xil tartibda joylashtirish orqali cheksiz so‘zlar hosil qilinadi: *sut, tus, ust*. Demak, *nutq tovushlarining asosiy vazifasi so‘zlarning ma’nolarini farqlashdir*.

Nutq tovushlari ikki xil: unli va undosh tovushlar.

**Unli tovush** - o‘pkadan chiqayotgan havo oqimining og‘iz bo‘shlig‘ida hech qanday to‘siqqa uchramay chiqishidan hosil bo‘ladigan tovush. Unli tovushlar oltita: *a, i, e, u, o‘, o*.

Unlilar lab ishtirokiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1.Lablangan unlilar: *o, u, o'*

2.Lablanmagan unlilar: *a, i, e.*

Unli tovushlar og`izning ochilish darajasiga (tilning ko`tarilish darajasiga) ko`ra uch xil:

1.Tor unlilar (til o`rtasining tanglayga tomon ko`tarilishi natijasida hosil bo`ladi. Shu bois yuqori ko`tarilish yoki yuqori tor unlilar ham deyiladi): *u, i.*

2.O`rta keng unlilar: *e, o'.*

3.Keng unlilar: *a, o*

**Undosh tovush** -o`pkadan chiqayotgan havo oqimining og`iz bo`shlig`ida yoki bo`g`izda to`sinqqa uchrashidan hosil bo`lgan tovushlar. Tilimizda 23 ta undosh tovush bor: *b, v, g, d, z, j, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h, ng.*

### **UNDOSH TOVUSHLAR TASNIFI**

Ovoz shovqinning ishtirokiga ko`ra	va	Hosil bo`lish usuliga ko`ra	Hosil bo`lish o`rniga ko`ra							
			Lab tovushlari		Til tovushlari					
			lab- lab	lab- tish	Til oldi	Til o`rta	til orqa			
							sayoz	Chuqur		
	Jarangli	Portlovchilar	b		d		g			
	Jarangsiz		p		t		k	q		
	Jarangli	Sirg`aluvchilar	v	v	z,j	y		g'		
	Jarangsiz			f	s,j			x	h	
	Jarangli	Qorishiq tovushlar			j					
	Jarangsiz				ch					
	Jarangli	Burun tovushlari	m		n		n(ng)			
		Yon tovush			l					
		Titroq tovush			r					

### **Savol va topshiriqlar**

1.Tilning fonetik-fonologik sathi haqida so`zlang.

2.Nutq tovushlarining vazifaviy tomoni haqida mulohazalariningizni bayon eting.

3.Fonemaning tovushdan farqini asoslang.

4.Fonema va paronimlar munosabatini misollar asosida yoriting.

5.Tilning ramzlar tizimida sathlarning tutgan o`rni haqida ma'lumot bering.

- 6.Nutqning fonetik bo‘linishini misollar asosida yoriting.
- 7.Til va nutq munosabatlarini izohlang.
8. Lison va uning til hamda nutqqa munosabatini yoriting.
- 9.Til tizimida birliklarning tutgan o‘rni.
- 10.Fonetika va fonologiya munosabatini yoriting.

### Testlar

- 1.Tinish belgilari haqidagi bo‘limni ko‘rsating.  
A) orfoepiya B) orfografiya S) punktuatsiya D) stilistika
- 2.Omonimlar qaysi bo‘limda o‘rganiladi?  
A) morfologiya B) fonetika S) orfografiya D) leksikologiya
- 3.Qaysi qatordagi so‘zda harf va tovushlar soni teng emas?  
A) mardlik B) tengsiz S) tuyg‘u D) ezgulik
- 4.Shovqin va ovozning ishtirokiga ko‘ra b hamda p undoshlariga to‘g‘ri tavsif berilgan qatorni toping.  
A) **b** – lab undoshi, lab-lab, **p** – lab undoshi, lab-lab  
B) **b** – jarangli undosh, **p** – jarangsiz undosh  
S) **b** – jarangli undoshning jarangsiz jufti **p** –undoshi  
D) B va S javoblar
- 5.Qaysi qatorda faol nutq a’zolari berilgan?  
A) qattiq tanglay, kichik til, til, lab  
B) pastki jag‘, ovoz paychalari, til, lab  
S) pastki jag‘, burun, til, lab, tanglay, tish  
D) A va B
- 6.Qaysi qatordagi so‘zlarda qorishiq **j** undoshi berilgan?  
A) jazo, mujda, janr, juft, jahon  
B) jiyda, jarima, jannat, jurnal  
S) jang, kajraftor, juma, jur’at  
D) boj, sajda, ajdar, rivoj, jaket
- 7.Iboralar qaysi bo‘limda o‘rganiladi?  
A) leksikologiya B) frazeologiya  
S) punktuatsiya D) stilistika

### Asosiy tushunchalar glossariysi

Tilshunoslik fani quyidagi bo‘limlardan iborat.

**Fonetika** – nutq tovushlari, bo‘g‘in va urg‘u haqidagi bo‘lim.

**Orfoepiya** –adabiy tilning to‘g‘ri talaffuz qoidalari haqidagi bo‘lim.

**Orfografiya** – to‘g‘ri yozish yoki imlo qoidalari o‘rganadi.

**Grafika** – tovush va harf munosabati, alifbo tizimi, yozuv va uning turlarini o‘rganadi.

**Leksikologiya** – so‘z va uning lug‘aviy ma’nosi, lug‘aviy ma’noning taraqqiyot yo‘llari, so‘zning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari haqidagi bo‘lim.

**Frazeologiya**–iboralarni (frazeologizmlarni) o‘rganadi.

**So‘z yasalishi** –so‘z yasash usullari haqidagi bo‘lim.

**Etimologiya** – so‘zning kelib chiqishi, shakllanish tarixi haqidagi bo‘lim.

**Grammatika** – tilning ichki qurilishini o‘rganadi. Grammatika ikki qismdan iborat: morfologiya va sintaksis.

**Morfologiya** – so‘z tarkumlari, grammatic ma‘no, grammatic shakl haqidagi bo‘lim.

**Morfemika** – morfema, ya’ni so‘zning ma’noli qismi haqidagi bo‘lim.

**Sintaksis** – so‘z birikmasi, gap va uning turlari haqidagi bo‘lim.

**Punktuatsiya** –tinish belgilarini o‘rganadi.

**Stilistika (uslubiyat)**–nutq uslublarini o‘rganadi.

**Dialektologiya** – shevalar, lahjalar haqidagi bo‘lim.

**Leksikografiya** – lug‘at va uning turlarini o‘rganadi.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Abduazizov A.Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010.-157-161 б.
2. Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68.
3. Ирисқұлов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.220-226 б.
4. Rasulov R.Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 2013. -Б.-196-204; 205-210.
5. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007. -Б.86-89

### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

- 1.Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание.- Ташкент, 2004.-Б.4-9
- 2.Ирисқұлов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.241-246
- 3.Щитка Н.Н., Юсупова К.Н.Введение в языкознание. -Тошкент, 2006.-Б.21-27.
- 4.Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изохли луғати.-Тошкент, 2002.-Б.14-32.
- 5.Қ. Махмудов. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси.-Тошкент,1992.
- 6.www. literature.uz
- 7.www. genhis philol.ru.

## **9-§. FONETIKANING TO‘RT ASPEKTI. NUTQNING FONETIK BO`LINISHI**

**Reja:**

- 1.Fonetika aspektlari.
- 2.Til taraqqiyotidagi tarixiy-fonetik o‘zgarishlar.
- 3.Til taraqqiyotidagi fonetik o‘zgarishlarni tahlil etuvchi fonetik-fonologik qonuniyatlar.

**Asosiy tushunchalar:** *qiyosiy-tarixiy fonetika, qiyosiy-tipologik fonetika, fonetik-fonologik qonuniyatlar, umumiy fonetik qonuniyatlar, xususiy fonetik qonuniyatlar, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlilik, kinoya.*

Til taraqqiyoti va rivoji ma'lum qonuniyatlar asosida yuzaga keladi. Til murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, undagi birliklar barcha jihatdan uzbek bog'langan. Ushbu birliklarga aloqador qonuniyatlar ham o'zaro bog'liq hisoblanadi. Tildagi tarixiy fonetik o'zgarishlar ma'lum tarixiy fonetik qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Fonetik – fonologik o'zgarishlar tilning ichki qonuniyatları bilan bog'liq hodisadir. Tildagi tarixiy- fonetik o'zgarishlarni o'rganuvchi qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sohasi qiyosiy-tarixiy fonetikadir. Qardosh tillardagi (slavyan, german, roman tillari, turkiy tillar) tarixiy fonetik o'zgarishlar natijasida so'zlardagi etimologik va geneologik, ya'ni kelib chiqish jihatdan o'xhashlik va farqli tomonlarini qiyosiy – fonetika aniqlab beradi. Qardosh va qardosh bo'limgan tillardagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni tahlil qilish natijasida tipologik, qiyosiy –tipologik fonetika, fonologiya sohalari shakllandi.

Til taraqqiyotidagi fonetik o'zgarishlarni tahlil etuvchi fonetik-fonologik qonuniyatlar quyidagilar:

1. Umumiyligining qonuniyatlar barcha tillarga xos umumiyligining holdagi tartib va qoidalarni tilning boshqa qonuniyatları bilan bog'liqlikda aks ettiradi. Masalan, singarmonizm(tovushlarning uyg'unlashuvi) turkiy tillarga xos umumiyligining qonuniyatdir.

2. Xususiy qonuniyatlar muayyan til uchun xos bo'lgan qonuniyatlarini ifodalaydi. Masalan, turkiy tillarga mansub o'zbek tilining keyingi taraqqiyotidagi ichki o'zgarishlar hamda yondosh tillar ta'sirida yuzaga kelgan hodisalar shu tilning o'ziga xos rivojlanish omillari bilan bog'liqdir.

Fonetik qonuniyatlar davriy nuqtayi nazardan ikkiga bo'linadi.

1) tarixiy fonetik qonuniyatlar tillar yoki muayyan bir tilning tarixiy taraqqiyotida yuzaga kelgan tarixiy-fonologik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Til tarixinining tarixiy tovush o'zgarishlarini o'rganuvchi bo'limi tarixiy fonetika va fonologiya deb yuritiladi.

2) davriy fonetik qonuniyatlar muayyan til doirasida hozirgi davrda sodir bo'layotgan fonetik o'zgarishlarni izohlaydi.

Tarixiy-fonetik va fonologik o'zgarishlar turli murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Fonetik va fonologik o'zgarishlar natijasida tildagi fonemalar soni kamayishi yoki ko'payishi mumkin, bunda ikki hodisa ro'y beradi.

1. Ikki fonemaning yaxlit bir fonema sifatida birlashishi konvergensiya deyiladi. O'zbek tili tarixida ma'lum bo'lgan til oldi va til orqa, qisqa va cho'ziq fonemalar keyinchalik birlashib, o'rta cho'ziqlikka ega bo'lgan 6 ta unli fonemani hosil qilgan.

2. Bir fonemaning ikki mustaqil fonemaga ajralishi divergensiya deyiladi. Masalan, qadimgi turkiy tilda bitta a fonemasi keyinchalik ikki fonemaga ajralgan: a va o.

Fonetik qonuniyatlarga tovushlarning kombinator va pozitsion o'zgarishlari ham kiradi. Umuman, fonetik qonuniyatlarni boshqa yondosh hodisalar ta'sirida o'rganish tilshunoslik fani uchun ilmiy qiymatga ega.

*XIX asrda paydo bo'lgan yangi maktab "Yosh grammatikachilar" deb atalib, ular birinchi marta tillarda doimiy o'zgarishlar bo'lib turishini kashf etganlar. Ular tovush o'zgarishlarining ma'lum turi tasodifiy emasligini qayd etishadi, ammo bu o'zgarishlar juda ko'p so'zlarda namoyon bo'ladi ( masalan, /p/ > /f/). Shuningdek, bugungi kundagi ayrim shakllarni til taraqqiyotining ma'lum bir davridagi tovush*

*o‘zgarishlarini aniqlash orqali dastlabki holatidan ajratib olish mumkin. “Yosh grammatikachilar” tomonidan analogiya konsepsiysi ishlab chiqiladi: tilar doimiyligiga yordam beruvchi va undagi tartibsizliklarni chetlashtiruvchi jarayon – juda muhim mexanizm bo‘lib, biz tildagi odatiy tovush o‘zgarishlari bilan noodatiy (morphologiyada qayd etilgan) tovush o‘zgarishlarini bilishimiz kerak. Yosh grammatikachilar tovush o‘zgarishlarini tabiat qonunlariga ko‘ra qiyoslaydilar va istisno holatlar uchun izoh topishga harakat qilganlar.*

*Keyinchalik ba’zi tilshunoslar tilni o‘zgaruvchanligini izohlashning boshqa yo‘llarini topadilar. Tilshunoslikning strukturalizm maktabi (XX asr boshlari) tildagi barcha elementlarni o‘z o‘rnida sistema holatida o‘rganishni boshlab beradilar. Tildagi bir elementning o‘zgarishi butun sistemaga ham ta’sir qiladi.*

*Strukturalistlarni til sistemasida sodir bo‘ladigan alternativ o‘zgarishlar ko‘proq qiziqtirgan. Shunday tovush o‘zgarishlaridan biri ikki fonemaning bir fonemaga o‘tishi yoki bir fonemaning xuddi shunday o‘zgarish bilan tilda mavjud bo‘lgan boshqa fonemaga o‘tishi kabilar. Masalan, wh (which) tovush kombinatsiyasi ingliz tilida /hw/ tovushini ifodalashga xizmat qiladi va w/w/(witch) tovushi talaffuzidan farq qiladi? Ammo yozuvda ikki tovush bilan ifodalanadi. Jiddiy o‘zgarishlar kommunikativ muammolar tufayli ham ro‘y berishi mumkin va u boshqa fonemalardagi o‘zgarishlarni ham boshlab beradi<sup>27</sup> (90 -bet).*

*Generativ tarmoq. Tilning generativ nazariyasi (XX asrning 2-yarmida kashf etilgan) tildagi o‘zgarishlarni uning gramatikasida o‘zgarishlar sifatida baholaydilar. Grammatika bu qonuniyatlarning o‘rnatalishi, tilda ma’lum bir o‘zgarishlarning sodir bo‘lishi va qonuniyatlarning o‘zgarishidir: mavjud qonuniyatlar ma’lum bir yo‘l bilan o‘zgaradi, yangi qoidalar grammatikaga qo‘shiladi, ba’zilarining jarayonda yo‘q bo‘lishi sodir bo‘ladi.<sup>28</sup>*

Nutqdagi turli faktorlar natijasida tovushlar bir-biriga ta’sir qiladi. Bunday faktorlardan biri tovushning o‘rni, uning boshqa tovushga qo‘shni holatda bo‘lishi, tovushlarning birikuvi va urg‘uning tabiatiga bog‘liq. Tovushlarning pozitsion va kombinator o‘zgarishlari farqlanadi.

Ma’lum holatda ro‘y beruvchi tovushlarning o‘zgarishi pozitsion o‘zgarishshlar deb ataladi. Pozitsion o‘zgarishlar uch turga ega: 1) urg‘uga nisbatan urg‘uli va urg‘usiz unlilar farqlanadi; 2) bo‘g‘in va uning tabiatiga ko‘ra ochiq va yopiq hamda berkitilgan va berkitilmagan bo‘g‘inlar farqlanadi; 3) so‘zdagi o‘rniga ko‘ra so‘z boshi, o‘rtasi va oxiridagi tovushlar va ularning birikmalari farqlanadi.

Unli tovushlarning urg‘usiz bo‘g‘inlarda kuchsizlanishi yoki o‘zgarishi reduksiya deyiladi. Odatda sifat va miqdor reduksiyasi farqlanadi. Urg‘usiz yopiq bo‘g‘inlarda unlilar cho‘ziqligining qisqarishi va kuchli artikulatsiya qilinishining yo‘qolishi miqdor reduksiya deb ataladi. Masalan, sanash so‘zining boshidagi urg‘usiz /a/, oxiridagi /a/ ga qaraganda ancha kuchsiz va qisqa talaffuz etiladi.

Akkomodatsiya tovushlarning hosil bo‘lishi o‘rni va usuli, labning holati va tovush psychalarining tebranishi va yaxshi tebranmasligiga ko‘ra moslashuv orqali amalga oshiriladi. Nutqdagi barcha tovushlar bir-biri bilan artikulatsiya fazalari orqali bog‘lanadi

<sup>27</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-P.90

<sup>28</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-P.91

va bu artikulatsiya strukturasini tashkil etadi. Tovushlar o'rtasidagi bog'lanishning artikulatsiya strukturasini chuqur o'rganish yordamida fonetik hodisalar oydinlashadi.

Assimilatsiya hodisasi ham talaffuzini iqtisod qilishning bir turi hisoblanadi. Assimilatsiya natijasida so'zlar qisqarishi, undagi tovushlarning artikulatsiyasi o'xshash bo'lib qolishi talaffuzni osonlashtirishga yordam beradi. Turli tillarda assimilatsiyaning tabiatи o'ziga xos xususiyatlariga ega. Xususan, nemis tilida jaranglilik belgisi bo'yicha assimilatsiya uchramaydi. Bunday assimilatsiya rus va o'zbek tillariga xosdir.

Distant assimilatsiya ko'proq unlilarning o'zaro ta'siri natijasida ro'y beradi va turkiy, fin-ugor, ba'zi german tillarida uchraydi. Masalan, nemis tilida otlarning ko'plik qo'shim- chasidagi unli so'z o'zagidagi unliga o'xshash belgilariga ega bo'ladi. Bu hodisani umlaut deyiladi: Buch "kitob" - Biicher "kitoblar", Sohn "o'g'il" - Sohne "o'g'illar" kabi.

Progressiv assimilatsiyaning yana bir turi singarmonizm yoki unlilarning uyg'unlashuvi deb atalib, u so'zlarda (o'zak va affiks- da) unlilarning o'xshash artikulyasion-akustik belgilarga ega bo'lishi bilan izohlanadi. Ba'zi afrika tillarida unlilar bir so'z yoki so'zlar birikmasi doirasida uyg'unlashadi. Ko'pgina urol va oltoy tillarida unlilar til oldi va til orqa, hamda lablangan- lablanmagan belgilari bo'yicha uyg'unlashadi. Masalan, turkiy tillarda, xususan, turkman, qozoq, qirg'iz, turk, qoraqalpoq tillaridagi so'zlarda til oldi yoki til orqa, lablangan yoki lablanmagan unlilar o'xshash holatda uchraydi. Bunda so'z o'zagidagi unli bilan uning affiksidiagi unli uyg'unlashadi. Masalan, turkman tilida: galamlar - "qalamlar", gelinlar - "kelinlar" qozoq tilida: bashtar - "boshlar", koldor - "qo'llar", turk tilida: gol- lar - "qo'llar", gozlar - "ko'zlar" kabi.

Singarmonizm urg'u bilan ham bog'liq bo'lib, ularning har ikkisi so'zning fonetik belgisi hisoblanadi. Nihoyat, assimilatsiya sinxronik (yangi paydo bo'lgan) va diaxronik (tarixiy shakllan- gan) bo'lishi mumkin. Yuqorida ko'rsatilgan umlaut va singarmonizm hodisalari tovushlarning tarixiy assimilatsiyasi natijasida kelib chiqqan.

Assimilatsiya natijasida nutq tovushlari o'rtasidagi farqlar yo'qolib, ular bir yoki bir necha belgilari bilan o'xshash bo'ladi yoki uyg'unlashadi. Biroq bu hodisaga aksincha bo'lgan tovushlarning o'zaro ta'siri ham borki, bunda tovushlarning o'xshashlik xususiyati yo'qoladi. Agar so'zdagi ikki bir-biriga o'xshash tovushlardan biri o'zgarib, natijada ular biror artikulyatsion- akustik belgisi yoki bir necha belgilari bilan farqlanib qolsa, dissimilatsiya (lotincha dissimilatio - "o'xshamaslik") deyiladi. Masalan, rus va o'zbek og'zaki nutqida dissimilatsiya ko'p uchraydi: tumba (tunba), Tambov (tansov), tramvay (tranvay), kombayn (konbayn), djemper (djenper), ambar (anbar)<sup>29</sup>. Ingliz tilida marble - "mramor" so'zi fransuz tilidagi marbre — so'zidan kelib chiqqan bo'lib, so'z oxiridagi (r) tovushi dissimilatsiya natijasida (1) ga ko'chgan.

Metateza (yoki inversiya) hodisasi tovushlar yoki bo'g'inlarning so'z tarkibida o'zaro o'rin almashishi bilan izohlanadi. Ba'zan so'zda yonma-yon kelgan tovushlarning o'zaro o'rin almashinuvi inversiya deb, aksincha, bir-biridan uzoq bo'lgan tovushlarning

---

Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68

o‘zaro almashinuvi metateza deb yuritiladi. Bu hodisa ko‘proq og‘zaki nutqda uchraydi: mramor (marmar), tuproq (turpoq), yomg‘ir (yog‘mir), tuxfa (tufxa), supra (surpa) kabi.

Diereza (yoki tushurib qoldirmoq) hodisasi undosh tovushlarni talaffuzdan tushurib qoldirish bilan izohlanadi: (Toshkent shevasida) go‘sht (go‘sh), rost (ros), surtmoq (surmoq), tandir (tanir) kabi.

Agar bir xil yoki o‘xhash bo‘g‘inlardan biri tushurib qoldirilsa, gaplogiya deyiladi. Masalan, morfonologiya so‘zi o‘rnida morfonologiya, sarig‘ yog‘ o‘rnida saryog‘ kabi.

So‘zga tovushni qo‘shib aytish epenteza deyiladi: *ishqiboz* kabi.

So‘zning boshlang‘ich qismiga tovushlar qo‘shib aytilsa, proteza deyiladi. Turkiy tillarda, xususan o‘zbek tilida (og‘zaki nutqda) rus tilidan kirgan so‘z boshida kelgan undosh tovushlar birikmasi oldidan (i), (u) unlilarini qo‘shib aytish protezaga misoldir: ctol (ustol), stul (ustul).

Chet tilidan kirgan so‘zlardagi tovushlarni ona tilidagi tovushlar bilan almashtirib talaffuz qilish substitutsiya deyiladi. Odatda, ona tilida bo‘limgan chet tilidagi tovushni ko‘proq almashtiriladi. Biroq chet tilidagi tovushga o‘xhashroq tovush ona tilida bo‘lishiga qaramay, uni almashtirish hollari ko‘p uchraydi. Chunki har bir til o‘zining alohida tovush sistemasiga ega va undagi tovushlar boshqa tilda qaytarilishi mumkin emas. Bunday tovushlar substitutsiyasi hodisasi atoqli otlarda juda ko‘p uchraydi: nemischa: Webster - Uebster, Isaak - Isaak, lotincha: Theodor - Feodor (Fyodr), inglizcha: Thomas – Tomas kabilar.

Yuqoridagi tovushlar almashuvi ikki yoki undan ortiq tillarda uchraydi. Bir tildagi so‘zlarning har xil formalarida ham tovushlar almashuvi ro‘y beradi. Bunday tovushlar almashuvi alternatsiya deb ham yuritiladi. Almashinuvchi tovushlarni esa, alternantlar deyiladi. Tovushlar almashinuvining turli morfe- malardagi xususiyatlarini morfonologiya o‘rganadi. Tovushlarning almashinuvi ikki xil bo‘ladi: fonetik (pozitsion) va tarixiy.

Fonetik almashuv deb tilning hozirgi talaffuz normasiga asosan ro‘y beruvchi alternatsiyaga aytildi. Bunday almashuv tovushlarning o‘rniga bog‘liq bo‘lib, ma'lum holatda uchraydi.

Masalan: sez - seskanmoq, uyqu - uyg‘onmoq, sariq - sarg‘aymoq, bilak - bilagi kabi.

Tovushlar almashuvi slavyan tillarida, ayniqsa rus tilida juda ko‘p uchraydi. Masalan, rus tilidagi *ot* prefaksi sakkiz xil talaffuz qilinadi: **отпуск** (otpusk),  **отзыв** (odzif), **отхот** (atxot), **опрана** (axrana), adgadat (adgadat). Ularning har biri fonetik holatiga bog‘liq: yumshoq undosh (t’), (d’) undoshlaridan oldin keladi: affrikatlar (s) dan oldin, (o) urg‘uli holatda, (a) urg‘usiz holatda va hokazo. Ingliz tilida ham yuqoridagiga o‘xhash tovushlar almashuvi kuzatiladi. Masalan, otlardagi ko‘plik qo‘srimchasi -s otning birlik shaklida u tamomlangan undosh yoki unli tovushning artikulyatsion-akustik xususiyatiga ko‘ra har xil talaffuz etiladi: jarangsiz undoshdan keyin /s/, sirg‘aluvchi undoshlardan keyin /-iz/ va jarangli tovushga tugagan so‘zlarda /z/ talaffuz etiladi; maps /maeps/ - "xaritalar", box /boksiz/ - "qutilar", beds /bedz/ "krovatlar" kabi. Bu tovush almashinuvlarida assimilatsiya muhim ahamiyatga ega.

Ba'zi tovushlar almashinuvi tarixiy faktlar asosida tasdiqla-nishi mumkin. Shu sababli ularni tarixiy tovush almashinuvlari deyiladi. O'zbek tilidagi ba'zi affikslar tarixiy jihatdan har xil bo'lgan: -gil, -g'il, -qil, -kil, -gali, -g'ali, -kali, -qali shaklida yozilgan va shunday talaffuz etilgan g-k-q tovushlari almashinuvi ana shunday tarixiy jihatdan shakllangan alternatsiyaga kiradi.

Ingliz tilida so'zlarning o'zagida kelgan unlilarning almashuvi birqancha fe'l shakllarini yasashda qo'llanadi va tarixiy assimilatsiyaga misol bo'la oladi: /i: /e/ e/ — feed, fed, fed — "boqmoq", /i: /A/ /A/ — win, won, won — "yutmoq (o'yinni)" kabi.

Tovushlar almashuvi natijasida so'z turkumlari, so'zlarning grammatik shakllari va boshqalarni farqlash mumkin. Tovushlar almashuvi faqat adabiy tilga xos bo'lmay, balki shevalarda juda ko'p uchraydi. Xususan, a/ e, i /e tovushlar almashuvi turkiy tillar shevalarida otlarning ko'plik affikslarida uchraydi. O'zbek tili va uning shevalarida bunday tovush almashuvi quyidagicha bo'ladi: adabiy tilda: otlar — itlar; o'zbek shevalarida: atlar — iytlar / iytler, atlar — itlar /itler, etler; qozoq tilida: attar — iyt- ter.

Fonetik va tarixiy almashuvlari o'rtasidagi o'xshashlik ularning har ikkisi ham morfologik funksiyani bajarishida ko'rindi. Biroq fonetik tovush almashuvi tilning hozirgi talaffuz normasi bilan bog'liq bo'lsa, tarixiy tovush almashuvi bunday xususiyatga ega emas.

Til asta-sekin va mustaqil rivojlanib boradi. Tilning takomillashuvi va rivojlanishi ma'lum qonuniyatlar asosida bo'ladi va boshqa ba'zi qonuniyatlardan, xususan tabiat qonun- laridan farq qiladi.

Til murakkab va ko'pqirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, undagi barcha elementlar bir-biri bilan uzviy ravishda bog'langan. Shu sababli tildagi qonuniyatlar ham bir-biri bilan bog'lanadi. Chunonchi, tildagi tarixiy-fonetik o'zgarishlar ma'lum fonetik- fonologik qonuniyatlar asosida ro'y beradi va bu esa o'z navbatida, grammatik va leksik o'zgarishlarga ham ta'sir etadi. Tildagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni qandaydir fiziologik yoki fizik qonunlar asosida tushuntirish mumkin emas. Fonetik- fonologik qonuniyatlar tilning ichki qonunlari hisoblanadi va faqat tilshunoslik jihatdan ilmiy tadqiq qilish borasida izohlanadi. Tildagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni o'rganuvchi qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning sohasi qiyosiy-tarixiy fonetika deb ataladi.

Tillardagi, ko'pincha qarindosh tillardagi (slavyan, german, roman, turkiy tillari kabi) tarixiy-fonetik o'zgarishlar natijasida so'zlardagi etimologik va geneologik, ya'ni kelib chiqishi jihatdan o'xshashlik va farqlarni qiyosiy-tarixiy fonetika aniqlab beradi. Keyinchalik qardosh va qardosh bo'lмаган tillardagi tarixiy- fonetik o'zgarishlarni va hozirgi fonetik-fonologik o'xshashlik va farqli alomatlarni o'rganish natijasida tipologik va qiyosiy- tipologik fonetika hamda fonologiya sohalari vujudga keldi. Umuman tildagi rivojlanish qonuniyatları singari, tarixiy-fonetik va fonologik o'zgarishlarni o'rganishdagi fonetik va fonologik qonuniyatlar ham quyidagicha turlarga bo'linishi mumkin:

1) Umumiyligi qonuniyatlar - barcha tillarga xos bo'lgan universal holdagi tartib va qoidalarni belgilab beradi va ular tilning boshqa bosqichlarida ro'y beruvchi umumiyligi hodi-salar bilan ham bog'lanadi. Masalan, barcha turkiy tillarida jarangsiz undoshlar ikki unli tovush oralig'ida jaranglilashishi mumkin. Barcha turkiy tillarda singarmonizm (unlilarning uyg'unlashuvi yoki unlilar garmoniyasi) qonuniyati mavjud

bo‘lib (o‘zbek tili bundan qisman mustasno hisoblanadi), u so‘z o‘zagidagi unlining uning affiksidiagi unli bilan uyg‘unlashuvida ko‘rinadi. Bunday singarmonizm hodisasi unlilarning til va labning holatiga ko‘ra uyg‘unlashuvi bilan izohlanadi. Masalan, qozoq tilida: *attar*, *bashtar*; turkman tilida: *barar*, *dashar*; *qirg‘iz tilida*: *ottuz*, *moyun*, *tundu* kabilar.

2) Alovida fonetik qonuniyatlar -ayrim tillar uchun xos bo‘lgan hodisalarni izohlaydi. Masalan, boshqa turkiy tillariga xos bo‘lgan singarmonizm o‘zbek tili tarixida ham bor bo‘lib, unli fonemalar bu tilda 8—9 ta bo‘lgan. Tarixiy-fonetik o‘zgarishlar o‘zbek tilining ichki alovida fonetik qonuniyatları va tashqi ta’sir natijasida, ya’ni boshqa tillar bilan aloqasi borasida ko‘rsatilgan xususiyatlar o‘zgarishlarga uchragan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida oltita unli fonema bo‘lib, ular tilning ko‘tarilishi (yuqori, o‘rta, quyi) va labning holatiga ko‘ra fonologik oppo-zitsiyani tashkil qiladi: i - u e - o‘ a - o

Bu fonetik va fonologik alomatlar boshqa turkiy tillar uchun xos emas.

Fonetik va fonologik qonuniyatlar tildagi ichki va boshqa tillar bilan aloqa natijasida bo‘luvchi - tashqi faktorlar ta’sirida bo‘lishi mumkin. Ba’zan esa har ikki faktor ham bir yo‘la ta’sir qilishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilida /o/ fonemasining hosil bo‘lishida ikki fikr mavjud. O‘zbek tilidagi ichki fonetik faktorga asoslangan qarash /o/ fonemasi /a/ onemasining lab va chuqur til orqa undoshlaridan keyin kelib, /o/ -lashganini ko‘rsatadi. Boshqa tashqi faktorga asoslangan qarash o‘zbek tilidagi /o/ fonemasi forstojik tilining ta’siri ostida hosil bo‘lgan deb hisoblaydi. Shevalar orfoepik, grammatik va leksik normalardan tashqarida bo‘lgani tufayli ularda turli o‘zgarishlar saqlanib qoladi va asta-sekin adabiy tilga ham ko‘chadi.

Fonetik qonuniyatlar xronologik (davr) jihatdan ikki turli bo‘ladi:

1) Diaxronik fonetik qonuniyatlar -bir guruh tillar yoki aynan bir tilning tarixida ro‘y bergan tarixiy-fonetik va fonologik o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Bu tarixiy hodisalarni o‘rganuvchi til tarixining bir bo‘limi diaxronik (tarixiy) fonetika va fonoliya deb yuritiladi, yuqorida ko‘rsatilgan tarixiy tovush o‘zgarishlari ana shunday diaxronik fonetikaga oid xususiyatlar hisoblanadi.

2) Sinxronik fonetik qonuniyatlar - hozirgi davrda bo‘la- yotgan bir qancha tillardagi yoki ma'lum bir tildagi tovush o‘zgarishlari va urg‘uning tabiatiga oid xususiyatlarni ko‘rsatib beradi. Bunda hozirgi tillardagi yangi talaffuz tendensiyalari ham o‘rganiladi. Masalan, hozirgi o‘zbek tilida unlilar til oldi undoshlaridan keyin til oldi va til orqa undoshlardan keyin til orqa variantlarga ega bo‘ladi.

Tarixiy-fonetik va fonologik o‘zgarishlar turli hodisa va jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, turkiy tillari va shevalariga xos bo‘lgan o-lashish, y-lashish, j-lashish, yo-lashish kabi hodisalar, german tillari tarixidagi umlaut, ya’ni til orqa lablangan unlilarning va keyingi bo‘g‘indagi /)/ tovushi ta’sirida til oldi holatiga o‘tishi, ablaut, ya’ni ichki fleksiyadagi tovush almashinuvi kabilar ana shunday hodisalarga kiradi.

Fonetik va fonologik o‘zgarishlar natijasida tildagi fonemalar soni kamayishi yoki ko‘payishi mumkin. Bunda ikki hodisa ro‘y beradi: Agar tilda bo‘lgan ikki fonema bir fonemaga birlashsa, konvergensiya deyiladi. O‘zbek tili tarixida bo‘lgan til oldi va til orqa, qisqa va cho‘ziq unli fonemalar keyinchalik birlashib, o‘rta cho‘ziqlikka ega bo‘lgan olti unli fonemani hosil qilgan.

Agar bir fonema ikki fonemaga ajralsa, divergensiya deyiladi. Masalan, qadimiy turkiy tillarida bo‘lgan /a/ fonemasi keyinchalik ikki fonemaga ajralgan: /a/ va /o/. Bu hodisa divergensiya jarayoni natijasida bo‘lgan.

Fonetik qonuniyatlariga tovushlarning kombinator va pozitsion o‘zgarishlari ham kiradi. Chunki tovushlar turli holatlarda har xil o‘zgarishlarga uchraydi. Chunonchi, unlilar ochiq urg‘uli bo‘g‘inda cho‘ziq va yopiq urg‘usiz bo‘g‘inda esa qisqa talaffuz etilishi mumkin. Bunday holat ham ko‘pgina tarixiy va hozirgi tovush o‘zgarishlarini keltirib chiqaradi. Fonetik va fonologik qonuniyatlarini tilning boshqa bosqichidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda o‘rganish chuqur ilmiy natijalarini keltirib chiqarishi mumkin.

Til birlklari ichida so‘z alohida o‘rin egallaydi. Uning bu xususiyati, ayniqsa, grammatik jihatdan qaralganda ko‘rinadi. Tilning eng kichik ma’noli birligi hisoblangan morfema oralig‘ida so‘zning ma’noli qismlari: o‘zak, suffiks va hokazolar qaralsa, mustaqil so‘z shaklidagi gaplar (masalan, nominativ gaplar: Qish, Sovuq, Qorong‘i kabi) sintaktik jihatdan alohida gap turlari sifatida izohlanadi. Bu esa so‘zning grammatik (morphologik va sintaktik) xususiyatlarini ko‘rsata olsa ham, uning ta’rifida morfema yoki gapga asoslanish mumkin emasligini ko‘rsatadi. Chunki so‘z strukturasi semantik jihatdan ma’noli qismlarga bo‘linish xususiyatiga egadir. To‘g‘ri, bir morfemadan tashkil topgan so‘zlar boshqa qismlarga bo‘linmaydi. Masalan, u, tosh, bosh, yo‘l kabi. Biroq tildagi ko‘pgina so‘zlar ma’noli qismlarga bo‘lina oladi va ular bir necha morfemalarning ulanishidan tashkil topadi. Masalan, toshloq, boshliq, boychechak, gulsafsar, qoidalikabilar. Bunday bir morfemali va ko‘p morfemali so‘zlarning o‘zagi mustaqil ma’noga ega bo‘ladi. Demak, so‘z mustaqil ma’noga ega bo‘lgan birlikdir. Lekin bunday qarash hamma tillarga ham to‘g‘ri kelavermasligini yuqorida aytib o‘tdik. O‘zbek, rus, ingliz, nemis, fransuz, ispan va boshqa ko‘p tillarda so‘z mustaqil birlik hisoblanadi. Uning mustaqilligi alohida olinganda ham, turli ma’nolarni ifodalashida va ba’zan fikr ifodalovchi gap holida kelishida ko‘rinadi.

So‘z butun birlik sifatida so‘z birikmalaridan farq qiladi. So‘z zanjirsimon ulanib ketgan qismlar - o‘zak, suffiks va hokazolardan tashkil topadi. So‘z birikmalar esa ayrim komponentlardan tashkil topib, umumiylar ma’noga ega bo‘lgan, ya’ni leksik va grammatik jihatdan shakllangan birliklardir. Masalan, kinoga bormoq, dars tayyorlash, kitob o‘qish, yoshlar klubi kabi. So‘z birikmalarining biror komponentini almashtirish mumkin (Qiyoslang: kinoga/ teatrga/ o‘qishga/ magazinga/ bormoq kabi). Qo‘shma so‘zlar ba’zan tuzilishi jihatdan so‘z birikmalariga o‘xshasa ham, ular yaxlit ma’nosini bilan ajralib turadi: temir yo‘l, gultojixo‘roz, chinni gul, qo‘lyozma kabi. Ba’zan so‘zga fonetik jihatdan bir urg‘u ostiga birlashgan bir qancha tovushlarning birikmasi deb ta’rif beriladi. Bu tamoman noto‘g‘ridir. Chunki ba’zi ko‘p morfemali uzun so‘zlar va qo‘shma so‘zlar bir necha urg‘uga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, gultojixo‘roz.

So‘z shakli (tovush formasi) va mazmun birligiga ega bo‘lib, semantik va grammatik yaxlitlikni o‘zida mujassamlashtiruvchi birlikdir. U til strukturasida formal va ma’no jihatli bilan to‘rt bosqichda ilmiy tadqiq etiladi:

fonologik jihatdan so‘zning fonemalar tarkibi va uning aksent (urg‘u) strukturasini o‘rganiladi;

morfologik jihatdan so‘zning morfemik tuzilishi ilmiy tahlil qilinadi;

leksik jihatdan so‘zning atama birlik ekanligi, ya’ni nom qo‘yish bilan bog‘liq tomoni qaraladi;

semantik jihatdan so‘zning turli ma’no tomonlari tadqiq etiladi.

Bunday o‘rganishda so‘zning 1- va 2-, ya’ni fonologik va morfologik tomonlari formal jihatini, 3- va 4- leksik va semantik tomonlari mazmun jihatini o‘zida aks ettiradi. Biroq ulardan birortasini alohida olib tekshirish so‘zning formal va mazmun jihatlarining uzilib qolishiga olib keladi. Shu tufayli ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda tekshirilishi zarur. Demak, so‘z til strukturasining barcha sohalari bilan bog‘likdir.

So‘zning tashqi, ya’ni shakl tomoni fonetika va fonologiya hamda grammatickada kengroq o‘rganiladi. Quyida so‘zning ichki, ya’ni mazmun jihatidagi asosiy masalalari ko‘rib o‘tiladi.

### Savol va topshiriqlar

- 1.Til taraqqiyotidagi qonuniyatlar haqida atroflicha ma’lumot bering.
2. Fonetik – fonologik o‘zgarishlar tilning ichki qonuniyatları bilan bog‘liq hodisa ekanligini tushuntiring.
3. Til taraqqiyotidagi fonetik o‘zgarishlarni tahlil etuvchi fonetik-fonologik qonuniyatlar o‘ziga xos xususiyatlarini ayting.
- 5.Umumiylar qonuniyatlar haqida ma’lumot bering.
- 6.Xususiy fonetik qonuniyatlar haqida ma’lumot bering.

### Testlar

1. Qardosh va qardosh bo‘lmagan tillardagi tarixiy-fonetik o‘zgarishlarni tahlil qilish natijasida tilshunoslikning qaysi sohalari shakllandi?

Til tizimini tashkil etuvchi asosiy sathlar qaysilar?

- A) tipologik, qiyosiy-tipologik fonetika, fonologiya
- B) fonologiya, morfemika, grammatica
- C) fonetik-fonologik, lug‘at, grammatica
- D) sintaktika, leksika, etimologiya

2. Fonetik qonuniyatlar davriy nuqtayi nazardan nechaga bo‘linadi

- A) uchga
- B) ikkiga
- C) to‘rtga
- D) beshga

3. Ikki fonemaning yaxlit bir fonema sifatida birlashishi nima deb yuritiladi?

- A) divergensiya
- B) konvergensiya
- C) assonans
- D) alliteratsiya

4. Bir fonemaning ikki mustaqil fonemaga ajralishi divergensiya deyiladi?

- A) assonans
- B) divergensiya
- C) alliteratsiya
- D) konvergensiya

5. *Adashgan it kabi Furqat* birikmasida qanday ma’no ko‘chishi mavjud?

- A) metonimiya
- B) sinekdoxa
- S) metafora
- D) kinoya

6. Metaforani hosil qilishning nechta usuli bor?

- A) ikki usuli
- B) uch usuli
- S) to‘rt usuli
- D) besh usuli

7. *Qishloq chetida samovar ochildi* gapida ma’no ko‘chishining qaysi turi mavjud?

- A) metonimiya
- B) sinekdoxa
- S) metafora
- D) kinoya

8. *Shu bitta tuyoq bilan olti bolani boqdim* gapida ma’no ko‘chishining qaysi turi mavjud?

- A) metonimiya
- B) sinekdoxa
- S) metafora
- D) kinoya

9. *Besh qo‘lini og‘ziga tiqdi* gapida ma’no ko‘chishining qanday turi ishtirok etgan?

- A) metonimiya
- B) sinekdoxa
- S) metafora
- D) kinoya

10. Ma’no ko‘chishining qaysi turida so‘zlar qo‘shtirnoq ichida yoziladi?

- A) metonimiya
- B) sinekdoxa
- S) metafora
- D) kinoya

### Asosiy tushunchalar glossariysi

**Qiyosiy-tarixiy fonetika** – tildagi tarixiy fonetik o‘zgarishlar ma’lum tarixiy fonetik qonuniyatlar asosida ro‘y beradi. Fonetik – fonologik o‘zgarishlar tilning ichki qonuniyatları bilan bog‘liq hodisadir. Tildagi tarixiy-fonetik o‘zgarishlarni o‘rganuvchi qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sohasi. Qardosh tillardagi(slavyan, german, roman tillari, turkiy tillar)tarixiy fonetik o‘zgarishlar natijasida so‘zlardagi etimologik va geneologik, ya’ni kelib chiqish jihatdan o‘xshashlik va farqli tomonlarini qiyosiy-fonetika aniqlab beradi.

**Qiyosiy-tipologik fonetika** – qardosh va qardosh bo‘lmagan tillardagi tarixiy-fonetik o‘zgarishlarni tahlil qiladi. Tilshunoslik taraqqiyotining eng

umumiylar, tilning ichki qurilishi, til tizimi, til va nutq munosabatlari haqidagi fan.

**Fonetik-fonologik qonuniyatlar** – til taraqqiyotidagi fonetik o‘zgarishlarni tahlil etuvchi qonuniyatlarlardir.

**Umumiylar** – barcha tillarga xos umumiylar holdagi tartib va qoidalarni tilning boshqa qonuniyatlar bilan bog‘liqlikda aks ettiradi.

**Xususiy fonetik qonuniyatlar** – muayyan til uchun xos bo‘lgan qonuniyatlarni ifodalaydi.

**Metafora** – “o‘xhashlik” asosidagi ma’no ko‘chishi. Bunda ma’no ko‘chishi o‘xhashlik asosida ro‘y beradi.

**Metonimiya** – “aloqadorlik” asosidagi ma’no ko‘chishidir. Bunda narsa-buyum o‘ziga aloqador boshqa nom bilan ataladi.

**Sinekdoxa** – butunning nomi bilan qismini atash, qismning nomini atash.

**Vazifadoshlik (funksiyadoshlik)** – vazifa asosida ma’no ko‘chishi. Bunda so‘z ma’nosini vazifaga ko‘ra ko‘chadi.

**Kinoya** – qochiriq, kesatiq ma’nolarida aytilgan o‘zgalar “gapi”, “so‘zi”. Kinoya bilan aytilgan so‘z qo‘shtirnoqqa olinadi. Kinoya bilan aytilgan so‘z teskari ma’noda tushuniladi.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Abduazizov A.Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010.-157-161 б.
2. Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68.
3. Ирисқұлов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.220-226 б.
4. Rasulov R.Umumiylar. -Toshkent, 2013. -Б.-196-204; 205-210.
5. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007. -Б.86-89

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

- 1.Абдуаизов А., Шереметова А. Общее языкознание.- Ташкент, 2004.-Б.4-9
- 2.Ирисқұлов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.241-246
- 3.Щитка Н.Н., Юсупова К.Н.Введение в языкознание. -Тошкент, 2006.-Б.21-27.
- 4.Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати.-Тошкент, 2002.-Б.14-32.
- 5.Қ. Махмудов. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси.-Тошкент,1992.
- 6.www. literature.uz
- 7.www. genhis philol.ru.

## 10-§. LEKSIKOLOGIYA

**Reja:**

1. Leksikologiya bo'limi haqida ma'lumot.
2. Lug`aviy birliklar.
3. Bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik.

**Asosiy tushunchalar:** *leksika, leksikologiya, o'z ma'no, ko'chma ma'no, denotativ ma'no, konnotativ ma'no, tag ma'no, omonim, sinonim, antonim, paronim, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik*

Leksikologiya «so'z» va «ta'limot» birliklaridan olingan. So'z va uning ma'nolarini o'rghanuvchi tilshunoslik bo'limiga leksikologiya deyiladi. Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi so'z sanaladi. Odatda, leksik va grammatic ma'nolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlikka nisbatan so'z atamasi qo'llaniladi. So'zlar esa leksema va grammatic qo'shimchalarga bo'linadi. So'zning grammatic ma'no bildiruvchi qo'shimchalarsiz qismi leksema sanaladi. Lug'atlarda bosh so'z sifatida leksemalar beriladi. Bunday vaqtida so'z morfologiya birligi sifatida, leksema esa leksikologiya birligi sifatida bir-biridan farqlanadi.

Leksikologiya so'z va uning lug'aviy ma'nosi haqidagi bo'lim. So'z va uning lug'aviy ma'nosi bilan bog'liq hodisalar: o'z ma'no va ko'chma ma'no, bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik, so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari (sinonim, omonim, antonim, paronim) leksikologiyada o'rGANILADI. So'z lug'aviy ma'no va grammatic ma'noga ega bo'ladi. So'zning obyektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilar haqidagi ma'lumoti *leksik* (*lug'aviy*) ma'no deyiladi. Lug'aviy ma'no so'z anglatgan tushunchadir. Grammatic ma'no grammatic shakllar (qo'shimchalar) orqali ifodalangan ma'nodir. Masalan, qalam: a) lug'aviy ma'nosi - o'quv quroli; b) grammatic ma'nosi: ot, turdosh ot, birlikda, turlanmagan.

Mustaqil so'zlar ham lug'aviy, ham grammatic ma'no ifodalaydi; yordamchi so'zlar esa faqat grammatic ma'no bildiradi.

So'zning lug'aviy ma'nosini leksikologiya, grammatic ma'nosini morfologiya o'rGANADI.

Lug'aviy ma'no anglatuvchi til birliklari lug'aviy birliklar deyiladi. Lug'aviy birliklar quyidagicha: 1) so'z; 2) ibora; 3) termin (atama); 4) qo'shma so'z; 5) tasviriy ifoda.

**So'zning atash ma'nosi.** So'zlarning borliqdagi narsa-hodisalar, belgi xususiyatlar, harakat-holatlarni bildirishi uning atash ma'nosi sanaladi. Faqat mustaqil so'zlarga atash ma'nosiga ega bo'ladi. Olmoshlar bundan mustasno. Ular atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlarga ishora qiladi.

**Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar.** So'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarga bo'linadi. Bir ma'nolilik hodisasi *monosemiya* deyiladi. Bir ma'noli so'zlar *monosemantik* so'zlar hisoblanadi. O'n, Toshkent, Mirzacho'l, oshpaz,

*pazanda, sa'va, odam, chumchuq, ravish, tuya..* singari aniq bir ma'noni ifodalash uchun qo'llanilgan so'zlar bir ma'noli so'zlar sanaladi.

Nutqiy jarayonda ikki va undan ortiq ma'noda qo'llanuvchi so'zlar ko'p ma'noli so'zlar deyiladi. Birdan ortiq (bir necha) ma'nolarda keladigan so'zlar ko'p ma'noli so'zlar deyiladi. Ko'p ma'noli so'zlar *polisemantik* so'zlar deyiladi.

Ko'p ma'noli so'zlarda bosh (asosiy) va ko'chma ma'no bo'ladi.

	Odamning ko'zi	ko'yak yoqasi
<b>ko'z</b>	uzuk ko'zi	yo'l yoqasi
	yog'och ko'zi	tog' yoqasi
	oynaning ko'zi	daryo yoqasi

***So'zning o'z ma'no va ko'chma ma'nolari.*** So'z ma'nosi ko'chishi natijasida o'z va kochma ma'no hosil bo'ladi. So'zlarning nutq jarayoniga bog'liq bo'limgan atash ma'nosi *o'z ma'no* («denotativ», «bosh», «atash» ma'nosi) sanaladi. So'zning nutqdagi boshqa so'zlarga bog'lanib hosil qilinadigan yondosh ma'nosi *ko'chma ma'no* (*konnotativ ma'no*) hisoblanadi. Masalan: *odamning qulog'i* – o'z ma'noda, *qozonning qulog'i* – ko'chma ma'noda.

<i>O'z ma'no</i>	<i>Ko'chma</i>
qora qalam	qora sovuq
temir idish	temir intizom
oltin uzuk	oltin kuz

So'z ma'nolarining kengayishi, o'zgarishi, bir so'zning kontekstga qarab bir necha ma'no ifodalashi *polisemiya* deyiladi. Polisemiya ommabop va adabiy uslub uchun vosita bo'ladi va lug'atni ham uslubni ham boyitadi. *Ishning ko'zini biladi, ko'z ilg'amas, qaro ko'zim, ko'z-ko'z qilmoq, ko'z ostiga olish, ko'zmunchoq, ko'zimning nuri, ko'z boylog'ichlar* va boshqa iboralarda *ko'z so'zi turli ma'noda qo'llangan. Qo'l, til, yurak, ona, bosh* kabi so'zlar ham ko'p ma'nolarni ifodalashi mumkin. Ma'nosi ko'chgan so'z ikkinchi bir so'z bilan yaxlit qo'llansa, har ikkisining o'rniga bir so'z (sinonim) qo'yish mumkin. Masalan: *ovi yurgan* - omadli; *dili pora* - xafa.

So'z ma'nosi ma'lum xususiyatlarga ko'ra ko'chadi. Lug'aviy ma'noning asosiy taraqqiyot yo'llari (ko'chish usullari) quyidagicha: metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik (vazifadoshlik), kinoya.

Metafora (grekcha «ko'chirish»)- bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chishidir. *Metafora* - «o'xshashlik» asosidagi ma'no ko'chishi: *oltin kuz, kumush choyshab, fan cho'qqilari, litsey qaldirg'ochlari*. *Po'lat qilichingni ko'rganman o'tda. Quyoshning oltin qalami nur taratar edi.* Metaforalarga juda yaqin bir vosita - o'xshatishlar bo'lib, ular yordamida shaxs-pradmetlar bir-biriga o'xshatiladi, qiyos qilinadi. Unda *-dek, -day, go'yo, yanglig'*, *singari, xuddi* (va b.) kabi shakl va so'zlardan ham foydalaniladi: *Bahor kelinchakdek yasanib keldi. Ulug'bek - misoli oftob. Adashgan it kabi Furqat Qayon borgum bilolmasman. G'oz singari qo'nar ko'llarda*.

Metonimiya grekcha «qayta nomlash» demakdir. Narsa va hodisalar o'rtasida makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida biri nomining ikkinchisiga

ko‘chishi metonimiya hisoblanadi. *Metonimiya* - «aloqadorlik» asosidagi ma’no ko‘chishidir: *Qishloq chetida samovar ochildi* (samovar-choyxona); *Osmonga tikildi million juft ko‘zlar* (ko‘z-odam); *Fuzuliyni oldim qo‘limga* (Fuzuliynikitobini). *Osmonga tikilar million juft ko‘zlar...* (U) *Osmon fonarini ham yoqdi shu onda. Zal oyoqqa turdi. Auditoriya sukutda.*

Sinekdoxa grekcha «birgalikda angash» so‘zidan olingan bo‘lib, bo‘lak orqali butunni yoki butun orqali bo‘lakni ifodalashni bildiradi. *Sinekdoxa* - butunning nomi bilan qismini, qismning nomi bilan butunni atash. Masalan: *Besh qo‘l barobar emas* (qo‘l «- «barmoq»); *O‘n qo‘li hunar* (qo‘l → barmoq»). *Besh qo‘lini og‘ziga tiqdi* (qo‘l - «barmoq»); *Shu bitta tuyaq bilan olti bolani boqdim* (tuyoq - «sigir»); *Tirnoqqa zor o‘tdi* (tirnoq - »farzand»). *Besh qo‘l barobar emas. Dunyoda o‘zimizdan keyin qoldiradigan tuyog‘imiz ... faqat shul Otabekdir, deb yozdi Yusufbek Hoji.*

Vazifadoshlik (funksiyadoshlik) - vazifa asosida ma’no ko‘chishi. Narsa va hodisalar o‘rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalanishi vazifadoshlik asosidagi ma’no ko‘chishi deyiladi: *o‘q kotib, pero, qalam, qanot, chiroq* so‘zlarida ham vazifaga ko‘ra ma’no ko‘chishi ro‘y bergen.

Kinoya - qochiriq, kesatiq ma’nolarida aytilgan o‘zgalar «gapi», «so‘zi». Kinoya bilan aytilgan so‘z qo‘shtirnoqqa olinadi. Kinoya bilan aytilgan so‘z teskari ma’noda tushuniladi: *Muxtor «a’lochi» o‘quvchi* (ikkichi). «*Matematik* sinfdoshimning bir nozi algebrani «Suv qilib ichmoqqa» yo`lladi. *Bizni «homiy» lardan himoya qilg`il, degan sharq xalqida piching - duo bor. Xo`sh janobi olivlari, qaysi sho`rlik xalq Sizning «himoyangiz»ga qolmish intizor.*

**Tag ma’no.** ifodalangan gapning ko‘chma - tag ma’nosи ham bo‘ladi. *Xotin:* *Sizga tekkuncha alvastiga tegsam bo‘lmasmidi?!* Er: *Afsuski, yaqin qarindoshlar orasida nikoh man qilingan.* So‘zning har bir ko‘chma ma’nosи qo‘srimcha uslubiy (modal) ma’no ifodalaydi.

### **So‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari**

So‘zlar shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra to‘rt xil: omonim, sinonim, antonim, paronim.

**Omonimlar** (*shakldosh so‘zlar*). Aytilishi va yozilishi bir xil bo‘lib, turli atash ma’nolarini bildirgan so‘zlarga **shakldosh so‘zlar** deyiladi: (*yoz, o‘t, ol, yon, bor, til, soch, tut, tik, yosh, qo‘y, ko‘k va b.*).

*Omonim.* Ikki yoki undan ortiq so‘zning bir xil yozilishi va bir xil talaffuz etilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi. Omonimlar quyidagicha hosil bo‘ladi:

1.Boshqa tillardan o‘tgan so‘zlarning o‘zbek tilidagi so‘zlar bilan bir xil shakl hosil qilishi natijasida: *atlas-atlas, etik-etik, tok-tok*.

2.Ko‘p ma’noli so‘z ma’nolari o‘rtasidagi bog‘lanishning yo‘qolishi natijasida: *dam (hordiq), dam (bosqon), dam (nafas); gap (til birligi), gap (yig‘in)*.

Omonimlik hodisasi bir turkum doirasida yoki bir necha turkum doirasida sodir bo‘ladi. Bir turkum doirasidagi omonimlarga grammatik shakllar qo‘shilganda ham omonimligini saqlab qoladi: *Biz yoqqan o‘tlarimizni o‘chirdik. Biz ekkan o‘tlarimizni o‘rdik.*

Shakli bir xil, ma’nosi har xil bo‘lgan bu so‘zlar ko‘proq badiiy uslubda modal, uslubiy ma`nolarni anglatishda vosita bo‘ladi.

La’lidin jonimg‘a o‘tlar ***yoqilur***,  
Men vafosi va’dasidin shodmen,  
Qoshi qaddimni jafodin ***yo qilur***,  
Ul vafo, bilmanki, qilmas ***yo qilur***

Yana bir misol:

Charxi kajraftor elidin ***yozamen***,  
Chiqmadir hijron qishidin ***yoza men***.  
Bir meni yorliq bilan yod etmas ul,  
Har necha ul shahga qulluq ***yozamen***.

Omonim so‘zlar yordamida shoirlar adabiy uslubda tuyuq janrini yaratadilar. Ikkinchidan, ular og‘zaki so‘zlashuv nutqida askiya janri uchun katta material beradi.

*Polisemiya* va *omonim* bir-biriga shaklan o‘xshaydi.

Ko‘p ma’noli so‘zlar omonim so‘zlardan quyidagicha farqlanadi:

1.Ko‘p ma’noli so‘z bir so‘zning bir necha ko‘chma ma’noda kelishidir. Omonim esa bir xil shaklga ega bo‘lgan birdan ortiq (bir necha) so‘zdir. Masalan, *o’t* (olov), *o’t* (o’simlik), *o’t* (harakat), *o’t* (inson a’zosi).

2.Ko‘p ma’noli so‘zning ma’nolari o‘rtasida bog‘lanish seziladi. Omonim so‘zlar ma’nolari o‘rtasida yaqinlik sezilmaydi.

Omonim (shakldosh so‘z)lar:

rang I – unvon rang II – bo‘yoq  
salla I – boshga o‘raladigan mato salsa II – o‘rama pishiriq nomi  
rasta I – do‘kon peshtaxtasi rasta II – balog‘atga yetgan, o‘spirin  
banda I – quyl banda II – inson, banda III –to‘da  
savag‘ich I – savash mogslamasi savag‘ich II – o‘simlik  
nota I – shartnomal nota II – musiqa matni

***Sinonimlar (ma’nodosh so‘zlar)***. Bir umumiy ma’noni ifodalovchi ikki va undan ortiq so‘zlarga ma’nodosh so‘zlar deyiladi. O‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lgan so‘z va qo‘sishimchalar ***sinonimlar uyasi yoki sinonimlar qatori*** deyiladi: *dastur-reja, botir-mard - jasur - qahramon, ota- padar, o‘qituvchi- muallim, bitik -kitob, et - go‘sht, el - yurt - diyor - vatan, chiroy - husn, chiroyli - go‘zal, katta - buyuk, tug‘ilmoq - tavallud topmoq* va b.

So‘z maqomidagi sinonimlar lug‘aviy (leksik) sinonimlar, qo‘sishimcha maqomidagi sinonimlar esa ***affiksal sinonimlar*** sanaladi.

Har qanday uslubiy xoslanish va so‘zlovchining bahosidan xoli bo‘lgan sinonimlar qatori a’zosi *dominant* (uslubiy xoslanish va baho bildirishga ko‘ra neytral) sanaladi.

Ma’nodosh so‘zlar bir ma’noni xilma-xil so‘zlar orqali turli nozik ma’no qirralari bilan ifodalashda, so‘z sehrini namoyish etishda, nutqni bezashda, ta’sirchanligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Sinonim belgi, predmet, shaxs, voqeanning bir necha nomlar bilan aytilishidir: *odam, inson, kishi, bashar; yel, bo‘ron, sabo, nasim; katta, buyuk, ulug‘; gapirdi, aytdi, so‘zladi, dedi, uqtirdi,*

*bayon etdi* va b. Sinonimlar til boyligi bo‘lib, avvalo shaxs va predmetlarning eng nozik ma’no bo‘yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: *Gulshanda gullarni tebratar sabo, Adashgan yo‘lchiday daydib yurar yel. Men buyuk yurt o‘g‘lidirman, Men bashar farzandiman.*

Sinonimlar gapdag'i takrorga yo‘l qo‘ymaydi. O‘rinsiz takror nutqqa zarar yetkazadi. Sinonimlar badiiy uslub vositasi bo‘lib, adabiy tilni boyitish manbalaridandir. Ona tili imkoniyatlarimizdan (*bet-yuz*) va boshqa tillardan so‘zlar olish yo‘li bilan sinonimlik qatorlar kengayaveradi: Sinonimlar, asosan, boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish natijasida yuzaga keladi: *sevgi* (*o‘zbek*) - *muhabbat* (*arab*); *kuch* (*o‘zbek*) - *qudrat* (*arab*); *buyruq* (*o‘zbek*) - *amr* (*arab*) - *farmon* (*tojik*); *ot* (*o‘zbek*) - *ism* (*arab*); *yozuvchi* (*o‘zbek*) - *adib* (*arab*); *manglay* (*o‘zbek*) - *peshana* (*tojik*); *ko‘klam* (*o‘zbek*) - *bahor* (*tojik*); *qo‘sishin* (*o‘zbek*) - *armiya* (*rus*); *yurak* (*o‘zbek*) - *dil* (*tojik*) - *qalb* (*arab*).

Sinonimlar nutqni ravon va ta’sirchan qiladi: *Erur bas chu husn-u malohat senga, Yasanmoq, bezanmoq ne hojat senga. Shu qadar chiroyli, shu qadar go‘zal! Minglab gulistonidan afzaldur bu joy. Minglab gulistonga, minglab chamanga Bu huzur ko‘rk bo‘lur undagi chiroy.*

Ma’noni kuchaytirish va ta’kidlash uchun sinonimlar ketma-ketlikda qo‘llanadi. *Ul-oyki, kula-kula yig‘latdi meni, yig‘latdi meni demayki, siqtatdi meni. Falakdan, osmondan, ko‘kdan oshqay faxr etib boshim ...* (Habibiy) *Ajoyib husndor, go‘zal fasl bu! Sadoqatli, qadrdon, oshno-yu, do‘st-u yorim bor.* (Habibiy).

Tilimizda shartli sinonimlar ham uchraydi. H.Olimjon Ofeliyaning chiroyini bo‘rttirish uchun *chiroy* so‘zi bilan qanoatlanmay, *o‘t* so‘zidan ham foydalandi: *Nega kerak edi, shu chiroy, shu o‘t? Shu yoniq yulduzni ko‘zga yashirmoq?*

Ma’nodosh so‘zlar bir umumiyligi ma’noni ifodalasa ham, shu umumiyligi ma’noni qanday ifodalash nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi. Masalan: *shivirlamoq, gapirmoq, baqirmoq, bo‘kirmaq* so‘zlari so‘zlash umumiyligi ma’nosiga bilan bir xil bo‘lsa ham, ovozning baland-pastligiga ko‘ra farq qiladi. Shuningdek, *to‘ng‘illamoq, ming‘irlamoq, vaysamoq, javramoq* so‘zlari ham so‘zlash umumiyligi ma’nosiga bilan yuqoridagi so‘zlar bilan birlashadi, lekin ulardan salbiy bahoga egaligi bilan farq qiladi. *Irod etmoq, bayon etmoq* singari so‘zlar kitobiy uslubga xoslanishi bilan farqlanadi; *bashar, siyna* poetik (badiiy) uslubda: *bahor, quyosh* so‘zlari ilmiy uslubda qo‘llanadi. Bunday sinonimlar uslubiy sinonimlar deyiladi.

Bir ma’noni maqsadga muvofiq bo‘lgan bir necha so‘zlardan bittasini tanlash orqali ifodalish mumkin. Bu bilan nutqning ta’sirchanligini oshirish orqali so‘z sehrini namoyon qilishga erishiladi.

Sinonimik qatordagi so‘zlar ma’noni qay darajada ifodalashi jihatidan ham farqlanadi. Masalan, *qiziq-g‘alati-ajoyib-alomat-antiqa* sinonimik qatorida *qiziq* belgini neytral holda; *ajoyib-alomat-antiqa* so‘zlari belgini kuchli darajada; *yaxshi-durust-tuzuk* sinonimik qatorida *durust*, *tuzuk* so‘zlari belgini kuchsiz darajada ifodalaydi. Ayrim sinonimlarda sinonimik qatordagi so‘zlar nozik ma’nosiga bilan farqlanadi. Bunday sinonimlarni (har doim ham) birining o‘rnida boshqasini

qo‘llab bo‘lmaydi; *ho‘l-shalabbo*; *tiqillatdi-taqillatdi*, *dukillatdi-gursillatdi*; *kulmoq-jilmaymoq-irshaymoq-tirjaymoq*.

Ba’zi sinonimlar ma’nosi va ishlatalishi jihatidan farq qilmaydi: *tilshunoslik-lingvistika*; *respublika-jumhuriyat*; *doston-poema*; *kosmos-fazo*.

Sinonimiya – bir ma’nodagi so‘z, ibora, gaplarni turlicha shaklda ifodalash usuli bo‘lib, uslubiyatning bir turidir. Sinonimianing quyidagi turlari mavjud:

1. Leksik sinonimiya.
2. Morfologik sinonimiya.
3. Sintaktik sinonimiya.

Bir tushunchani ayrim hollarda, ayniqsa, badiiy uslubda ikki va undan ortiq so‘z bilan ifodalash mumkin. Bular frazeologik sinonimlar deyiladi: *qulog soldi*, *ko‘zingi yog‘ bosibdi*, *qo‘l uchida (so‘rashmoq)*, *tilini uzun qildi*.

O‘zlashma so‘zlar faqat o‘zbekcha so‘zlar bilangina emas, o‘zaro ham sinonim bo‘lishi mumkin: *hujum-ataka-hamla*; *josus-agent*; *mavzu-tema*; *muallif-avtor*; *sozanda-muzikant*; *muharrir-redaktor*; *aktyor-artist*; *shtraf-jarima*.

**Antonimlar (zid ma’noli so‘zlar).** Lug‘atning yana bir boy manbayi antonimlar bo‘lib, inson faoliyatidagi eng muhim siyosiy, axloqiy qarashlar umumlashmasini aynan ifodalashda qulay usul sanaladi. Qarama-qarshi ma’noli so‘zlarga **zid ma’noli so‘zlar** deyiladi. Zid ma’noli so‘zlar doimo ikki qarama-qarshi a’zodan iborat bo‘ladi. Birini aytsak, ikkinchisi xayolimizga keladi. Masalan: *achchiq* deyishimiz bilan *shirin* esimizga tushadi. *Yaxshi topib so‘zlar*, *yomon qopib so‘zlar*. *Yaxshi bilan yursang*, *yetarsan murodga*, *yomon bilan yursang*, *qolarsan uyatga*. *Yaxshidan bog‘ qoladi*, *yomondan dog‘*. *Dono so‘ziga bino qo‘yadi*, *nodon - o‘ziga*. Antonimlar ko‘proq badiiy uslubda qo‘llanib, qarama-qarshi tushuncha (tazod) uslubini yaratish uchun xizmat qiladi: *Meni kim ko‘rsa, farq etmas Xazon birla bahorimdan*. *Charxi kajroftorning bir shevasidan dog‘man*, *Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadir*. (Furqat). *Kunduzni tun deb o‘ylab, sarhadga keldi o‘g‘ri*, *Ko‘rshapalak oxiri otashga keldi to‘g‘ri*, *Dushmanning tepasidan yozib po‘lat qulochin* (H.O.).

Qarama-qarshi ma’noli so‘zlar juft holda kelganda, ular orasiga chiziqcha qo‘yiladi: *kecha-kunduz*, *katta-kichik*.

Agar antonimlar orasida va bog‘lovchisi kelsa, chiziqcha ishlatilmaydi. Agar -u, -yu yuklamalari qo‘shilsa, chiziqcha bilan yoziladi: *Bunda yondosh shodlik va qayg‘u. Yer-u osmon, kecha-yu kunduz*. (E.V.)

Zid ma’noli so‘zlar birgalikda qo‘llanib, yangi ma’no ifodalashi mumkin. Masalan: *yosh-u qari – bari (hamma)*; *achchiq-chuchuk – ovqat turi, uzoq-yaqindan – hamma yoqdan* kabi.

So‘z maqomidagi antonimlar *luqaviy (leksik)* antonimlar, qo‘shimcha maqomidagi antonimlar esa *affiksal* antonimlar sanaladi.

**Paronimlar.** Faqat bir tovushi bilan farqlanuvchi bir xil talaffuz qilinadigan so‘zlarga **paronim** deyiladi. Talaffuzi yaqin bo‘lganligi uchun bunday so‘zlarni bir-biri bilan almashtirib qo‘yish ehtimoli bor. Ayttilishi (talaffuzi) bir-biriga o‘xshash, ammo yozilishi va ma’nosi har xil bo‘lgan so‘zlar paronimlardir: *yuvindi-yuvundi*, *fakt-pakt*, *abzal-afzal*, *yoriq-yorug‘*, *quyulmoq-quyilmoq*, *arch-*

*art, otalik-otaliq, yonilg‘i-yoqilg‘i, matal-ma’tal (mahtal), jodi-jodu, yondosh-yondash, bob-bop, tub-tup, tanbur-tambur, daha-daho, sada-sado, juda-judo, qism-qisim, adl-adil, ahl-ahil, asr-asir, quyilmoq-quyulmoq, tuyilmoq-tuyulmoq, kift-kaft, yod-yot, darz-dars, ramz-razm, qarz-qars, qayd-qayt, naq-naqd, o’tkazmoq-o’tqazmoq.* Bir so‘zning ikki xil yozilishi paronim hisoblanmaydi: *podsho-podshoh, gadoy-gado, kabutar-kaptar, nabira-nevara.*

### **Emotsional-ekspressivlik jihatdan o‘zbek tili leksikasi**

Emotsional-ekspressivlik his-tuyg‘u, munosabat ifodalash demakdir. O‘zbek tilidagi ba’zi so‘zlar so‘zlovchining munosabatini ham ifodalaydi, ba’zilarida munosabat sezilmaydi. Shu jihatdan so‘zlar ikki xil bo‘ladi: emotсional-ekspressiv bo‘yoqsiz so‘zlar; 2) emotсional-ekspressiv bo‘yoqdoр so‘zlar. Bo‘yoqsiz so‘zlarda faqat tushuncha, ma’no ifodalanadi. So‘zlovchining munosabati sezilmaydi. Bunday so‘zlar bo‘yoqsiz yoki *neytral*, uslubiy *betaraf* so‘zlar deb yuritiladi. Bo‘yoqdoр so‘zlarda so‘zlovchining munosabati ham ifodalanadi. Munosabatning xarakteriga ko‘ra bo‘yoqdoр so‘zlar ikki xil bo‘ladi: a) ijobjiy bo‘yoqdoр so‘zlar: *chehra, jamol*. b) salbiy bo‘yoqdoр so‘zlar: *badbashara, badburush, naynov, qiltiriq, kampirdahan*.

So‘z ko‘chma ma‘nosining shakl va ma’no munosabatini ifodalovchi turlari - *sinonimlar, omonimlar, polisemija, metafora, epitet, metonimiya, sinekdoxa* va boshqalar uslubiy vosita bo‘lib, turli qo‘sishimcha ma’no, mazmunni ifodalashga xizmat qiladi.

*Sifatlash* ham tilning boy tasviriyl vositalaridan biri bo‘lib, narsa, voqeа, hodisalarни yorqin ifodalashga xizmat qiladi.

**Uyadosh so‘zlar.** Bir mazmuniy uyaga (guruhga) mansub bo‘lgan so‘zlar **uyadosh** so‘zlar deyiladi. Tilimizdagи barcha so‘zlar ongimizda ma’lum mazmuniy uyalarga birlashgan holda saqlanadi. Bu esa so‘zlarning xotirada oson saqlanish va nutqiy jarayonda ulardan oson foydalanish imkonini beradi.

**So‘z etimologiyasi.** *Dehqon* so‘zi yer ochib, ekin o‘stiruvchi qishloq odamlarini anglatadi. Lekin uning uzoq tarixi bor, o‘zi tojikcha so‘z bo‘lib, *deh* - qishloq, qoon yoki *xon* - hokim degani. Qadimda mayda yer egalarini *dehqon* deyishgan. Keyinchalik bu so‘z ekadigan-tikadigan odam ma’nosida qo‘llana boshladi. Arabcha *vatan* so‘zi tug‘ilgan joy ma’nosini bildirgan. Endi uning mazmun doirasi katta bir mamlakat darajasiga yetdi. *Basir* so‘zi ko‘rish va bilish tushunchalarini ifodalagan. Endilikda - *ko‘r* (ko‘rmaslik) ma’nosida qo‘llanadi. *Ziyo* - nur, agar *zim-ziyo* desak, qorong‘i degani bo‘ladi.

### **Kalit so`zlar glossariysi**

**Metafora** - (grekcha «ko‘chirish»)- bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o‘rtasidagi ma’lum o‘xshashlik asosida ko‘chishidir.

**Metonimiya** - grekcha «qayta nomlash» demakdir. Narsa va hodisalar o‘rtasida makon va zamondagi o‘zaro aloqadorlik asosida biri nomining ikkinchisiga ko‘chishi metonimiya hisoblanadi. **Metonimiya** - «aloqadorlik» asosidagi ma’no ko‘chishidir.

**Sinekdoxa** - grekcha «birgalikda angash» so‘zidan olingan bo‘lib, bo‘lak orqali butunni yoki butun orqali bo‘lakni ifodalashni bildiradi. *Sinekdoxa* - butunning nomi bilan qismini, qismning nomi bilan butunni atash.

**Vazifadoshlik** (*funksiyadoshlik*) - vazifa asosida ma’no ko‘chishi. Narsa va hodisalar o`rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalaniishi vazifadoshlik asosidagi ma’no ko‘chishi deyiladi.

**Kinoya** - qochiriq, kesatiq ma’nolarida aytilgan o‘zgalar «gapi», «so‘zi». Kinoya bilan aytilgan so‘z qo‘shtirnoqqa olinadi. Kinoya bilan aytilgan so‘z teskari ma’noda tushuniladi.

**Tag ma’no** - ifodalangan gapning ko‘chma - tag ma`nosi ham bo‘ladi. So‘zning har bir ko‘chma ma’nosi qo‘shimcha uslubiy (modal) ma’no ifodalaydi.

### Savol va topshiriqlar

- 1.So‘z va leksemaning o‘zaro farqini tushuntiring.
- 2.So‘z ma'nosi, o‘z va ko‘chma ma'nolar haqida ma'lumot bering.
- 3.So‘zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko‘ra turlarini izohlang.
- 5.Ma'no ko‘chishining asosiy yo‘llarini aytинг.
- 7.Tag ma'noni misollar asosida tushuntiring.

### Testlar

- 1.Sinonimlar qatori berilgan javobni ko‘rsating.  
A) afsus-afsuslanmoq-pushaymon-attang B) belgi-nishon-alomat-ajoyib  
S) yaxshi-durust-tuzuk-ma’qul D) yuz-aft-bashara-chehra-husn
- 2.Qaysi qatorda omonim(shakldosh) so‘zlar berilgan?  
A) tuz, gul, kul, yot, bot, bo‘l, asar, ish, yoqa  
B) sir, tuz, kul, qo‘y, yosh, to‘p, sana, tor  
S) quloq, soz, olma, o‘t, tomir, suzma, surma  
D) o‘t, kul, qo‘y, xona, xo‘r, tut, osh, uch, eshik
3. «*Yog‘li*» ko‘p ma’noli so‘zi qaysi qatordagi so‘z bilan sinonim bo‘la oladi?  
A) yog‘siz B) serdaromad S) to‘kin D) mo‘l
- 4.Qaysi qatordagi juftlik antonim emas?  
A) yaxshi-yomon  
B) uzun-qisqa  
S) erta-kech  
D) oldi-olmadi
5. «*Uxlamoq*» so‘zining lug‘aviy ma’nosi qaysi qatorda ko‘rsatilgan?  
A) fe‘l B) noaniq shakl S) holat D) bo‘lishli
- 6.Lug‘aviy birliklar qaysi qatorda berilgan?  
A) sotib olmoq B) boshga ko‘tarmoq(ibora)  
S) oppoq paxta D) A va V
- 7.Lug‘aviy birlik hisoblanmaydigan javobni ko‘rsating?  
A) so‘z B) ibora S) termin D) so‘z birikmasi
- 8.Leksikologiya bo‘limida nima o‘rganiladi?  
A) so‘zning grammatik ma’nosi B) so‘zning lug‘aviy ma’nosi  
S) so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari D) B, S

9.»Daraxt» so‘zining lug‘aviy m’nosi qaysi qatorda berilgan?

A) o‘simlik B) ot S) jamlovchi ot D) A va B

10.Polisemantik so‘zlar qaysi qatorda berilgan?

A) qulqoq, ish, odam, fe‘l, tezlanish

B) ish, yo‘l, yoqa, qulqoq, qo‘l, ko‘z

S) chittak, yaproq, ko‘z, ravish, bosh, ko‘z

D) barcha qatorda

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Abduazizov A.Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010.-157-161 б.
2. Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68.
3. Ирисқұлов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.220-226 б.
4. Rasulov R.Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 2013. -Б.-196-204; 205-210.
5. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007. -Б.86-89
- 6.Миртоҗиев М. Ўзбек тили семасиологияси.-Т.,2010.
- 7.Nurmonov A. Lingvistik tahlil metodlari va metodologiyasi.-Т., 2010
- 8.Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари.-Т.: Фан, 1988. -98 б.
9. Hakimova M. Semasiologiya. –Т., 2008.

### **Qo‘s himcha adabiyotlar**

- 1.Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание.- Ташкент, 2004.-Б.4-9
- 2.Ирисқұлов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.241-246
- 3.Щитка Н.Н., Юсупова К.Н.Введение в языкознание. -Тошкент, 2006.-Б.21-27.
- 4.Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати.-Тошкент, 2002.-Б.14-32.
- 5.Қ. Маҳмудов. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси.-Тошкент,1992.
- 6.www. literature.uz
- 7.www. genhis philol.ru.
8. Искандарова Ш. Ономасиология муаммолари ва ўзбек тили лексикасини майдон сифатида ўрганиш// Ўзбек тили ва адабиёти.-1998.-№3.-Б.29-30.
9. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати.-Т., 2002.

## **11-§. LEKSIKOGRAFIYA. LUGAT TURLARI VA TIPLARI Reja:**

1.Leksikografiya haqida ma’lumot.

2. Lug`atchilik tarixi.

3. Lug`at turlari.

**Kalit so`zlar:** лексикография, энциклопедик қомус, филологик лугатлар, izohli lug‘at, imlo lug‘ati, orfoepik lug‘at, morfem lug‘at, chastotali lug‘at, ters (chappa, teskari) lug‘at, o‘zlashma so‘zlar lug‘ati

Tilimizdagি so‘zlarning alifbo tartibida joylashtirilishiga lug‘at, lug‘at tuzish qoidalarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasiga esa lug‘atshunoslik (leksikografiya) deyiladi. **Leksikografiya** lotincha «chizmoq», «yozmoq» so‘zlaridan olingan bo‘lib, lug‘at tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslik bo‘limidir.

Avvalo, luqatlar ikki turli bo‘ladi: 1) ensiklopedik (qomusiy) luqatlar; 2) filologik (lingvistik) lug‘atlar. Bu ikki turdagи lug‘atlar birliklarining nimaga qaratilgani bilan farqlanadi. Lug‘atga kiritilayotgan birliklar barcha tushunchalarni o‘z ichiga olsa, *ensiklopedik (qomusiy)* lug‘at; ma’lum bir tildagi so‘zlarni o‘z ichiga olsa, *filologik (lingvistik)* lug‘at hisoblanadi. Ensiklopedik (qomusiy) lug‘atda turli xil tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, ilmiy tushunchalar va boshqalar o‘z ifodasini topadi.

Umuman, ensiklopedik lug‘atlar ma’lum bir xalqning madaniy-ma’naviy, ilmiy-amaliy, siyosiy-iqtisodiy hayotiga doir barcha tushunchalarni qamrab oladi va bu tushunchalar unda o‘z izohini topadi.

O‘zbek leksikografiyasida 14 jildlik qomusiy lug‘at, besh jildlik izohli lug‘at, 5 jildlik ruscha-o‘zbekcha lug‘at, o‘nlab atama lug‘atlari, 2 jildlik akademik grammatika, bir necha tilli lug‘atlar, dialektologik lug‘at va to‘plamlar nashr qilindi. Orfoepik va orfografik lug‘atlar bosib chiqarildi.

Tildagi so‘zlarni izohlashga qaratilgan lug‘atlar *izohli* lug‘at, muayyan tildagi so‘zlarning ikkinchi tilga tarjimasini berishga qaratilgan (bir tildagi so‘z ikkinchi tilda qanday so‘zga teng kelishini ko‘rsatuvchi) lug‘atlar esa *tarjima* lug‘at sanaladi. Izohli lug‘atlar so‘zlikning tanlanishiga ko‘ra *umumi*y va *tarmoq* lug‘atlarga bo‘linadi. Tilning barcha so‘zlarini izohlashga qaratilgan lug‘atlar *umumi*y *izohli* lug‘atlar, ma’lum bir tarmoqqa doir so‘zlarnigina tanlab, ularni bir tartibda joylashtirib izohlashni maqsad qilgan lug‘atlar *tarmoq* lug‘at hisoblanadi (masalan, kasb-hunarga doir lug‘atlar, ma’lum fan sohasi bo‘yicha atamalar lug‘ati va boshqalar).

Filologik lug‘atlarning doirasi keng bo‘lib, unga yana ma’lum fan va texnikaga oid atama lug‘atlari, frazeologik, idiomatik lug‘atlar, sinonim so‘zlar lug‘ati, imlo va to‘g‘ri talaffuz lug‘atlari, sheva, kasb-hunar, tarixiy, toponimik va boshqa lug‘atlar kiradi hamda har qaysisi o‘z sohasidagi so‘zlarni izohlab beradi. So‘zlarning to‘g‘ri yozilishini ko‘rsatuvchi lug‘atga imlo lug‘ati deyiladi.

Lug‘at oldiga qo‘yilgan maqsadiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi: izohli lug‘at, tarjima lug‘ati, imlo lug‘ati va boshqalar.

Tildagi so‘zlarning kelib chiqish tarixini o‘z ichiga olgan lug‘atlar *etimologik* lug‘atlar sanaladi. Prof. Sh. Rahmatullayevning ko‘p yillik samarali mehnatlari tufayli o‘zbek tilida ham dastlabki etimologik lug‘at paydo bo‘ldi.

O‘zbek tili so‘zlarga boy. Alisher Navoiy asarlari bo‘yicha E.F.Fozilov rahbarligida tuzilgan lug‘atda **70000**ga yaqin so‘z, P.Shamsiyev va S.Ibrohimovlar tuzgan lug‘atda **60000**ga yaqin so‘z qo‘llangani ko‘rsatilgan. Agar Abdulla Qodiriy, Oybek, A.Qahhor asarlarining lug‘atlari tuzilsa, so‘zlarning miqdori bundan kam bo‘lmaydi. Aslida o‘zbek tilidagi so‘zlarning barchasi to‘plansa, **100-**

**120** mingdan ortib ketadi. O'zbekiston hukumatining qarori bilan ko'p jildli «*O'zbek tilining izohli lug'ati*» va «*O'zbek milliy ensiklopediyasi*» tuzildi.

Ilmning ham, axloqning ham, hissiyotning ham kaliti tildir. Til insonning yuksak madaniyatini, chuqur bilimini, hissiyotini namoyish qiluvchi vositadir. Shuning uchun til qoidalarini mukammal bilish va unga amal qilish zarur. Tilning nozik tasviriy vositalarini o'zlashtirish, uning rang-barang uslub jilolaridan foydalana bilish inson uchun muhim ahamiyatga ega.

So'zligining bir til yoki bir necha tildan iborat bo'lishiga ko'ra *tarjima lug'atlari* va *bir tilli lug'atlar* farqlanadi.

I.Tarjima lug'atlarida bir tilning lug'aviy birligiga boshqa tildagi mos birlik beriladi. Masalan, «O'zbekcha-ruscha lug'at».

II.Bir tilli lug'atlar (o'z til lug'atlari)ning so'zligi bir tilda bo'ladi. Bir tilli lug'atlarning quyidagi turlari bor.

1.**Izohli lug'atda** lug'aviy birliklarning (so'z yoki iboralarning) ma'nosi izohlanadi. Lug'aviy birlik ko'p ma'noli bo'lsa, uning barcha ma'nolari keltiriladi va izohlanadi. «O'zbek tilining izohli lug'ati» 1981 yilda ikki jild holida e'lon qilingan bo'lib, oltmis besh mingga yaqin so'z izohlangan. Izohli lug'at 2006-2008 yillarda besh jild holida nashr etildi.

2.**Imlo lug'ati** so'zlarning imlo qoidalariga binoan qanday yozilishini qayd etadi. Imlo lug'ati (orfografik lug'at) so'zlarning to'g'ri yozilishini ko'rsatadi. Katta hajmli imlo lug'ati 1976 yilda nashr etilgan, unda 65 ming so'zning to'g'ri yozilishi qayd qilingan. O'quvchilar uchun chiqarilgan maxsus imlo lug'atida 17 ming so'zning to'g'ri yozilishi berilgan.

3. **Orfoepik lug'atda** so'zlarning adabiy talaffuzi qayd etiladi.

4.**Morfem lug'atda** so'zlarning morfem tuzilishi, ma'noli qismlari beriladi. Ular lingvistik maqsadlarda tuziladi.

**Morfemika**-so`zning ma'noli qismlari haqidagi ta'limot. Morfemika-morfemalar haqidagi bo`lim. So`zning ma'noli qismlari *morfemalar* deyiladi. Morfema so`zning bo`linmas, eng kichik ma'noli qismidir. Morfemalar ikki xil bo`ladi: *o`zak morfema* va *affiksal morfema*.

1. **O`zak morfema:** so`zda albatta ishtirok etadigan, leksik (lug'aviy) ma`no ifodalay oladigan morfemadir. O`zak morfema so`z yasalishi uchun ham, shakl (forma) yasalishi uchun ham asos bo`ladi: *gulchilarimizni*: o`zak morfema-*gul*

2. **Affiksal morfema:** (qo'shimcha morfema) mustaqil leksik (lug'aviy) ma`no ifodalay olmaydigan, so`zning leksik yoki grammatik ma'nolari shakllanishida xizmat qiladigan morfemadir. Affiksal morfema so`z tarkibida hamma vaqt ham ishtirok etavermaydi. Affiksal morfemalar (qo'shimchalar) vazifasiga ko`ra 3 xil bo`ladi:

1. *So`z yasovchi affikslar* yangi so`z hosil qiladi, so`zning leksik (lug'aviy) ma'nosi shakllanishida ishtirok etadi. Ot, sifat, fe'l, ravish yasovchi barcha affikslar so`z yasovchi hisoblanadi: gulla

2. So`z *shaklini hosil qiluvchi* (forma yasovchi) affikslar so`z ma`nosiga ta`sir etib, uni bir oz o`zgartiradigan, ammo yangi so`z hosil qilmaydigan qo`shimchalardir. Sonlardagi -ta, -tacha, otlardagi kichraytish-erkalash qo`shimchalari (-cha, -jon, -xon, -loq...); qarashlilikni bildiruvchi qo`shimcha (-niki); -dek, -day qo`shimchalari, ko`plik qo`shimchasi (-lar), fe`l nisbatlari, fe`l mayllari qo`shimchalari, sifat darajalari qo`shimchalari shakl yasovchi hisoblanadi.

3. So`z *o`zgartiruvchi* qo`shimchalar so`zning ma`nosiga umuman ta`sir etmaydi. So`z *o`zgartiruvchi* qo`shimchalar sintaktik munosabat (so`zlarni o`zaro biriktirish) uchun xizmat qiladi. So`z *o`zgartiruvchi* qo`shimchalarga *kelishik, egalik, shaxs-son* qo`shimchalari kiradi.

Ba`zi adabiyotlarda qo`shimchalarning vazifasiga ko`ra turlari ikki xil deb ko`rsatiladi. Bunda so`z *o`zgartiruvchi* qo`shimchalar shakl yasovchi qo`shimchalar guruhida beriladi.

Qo`shimchalar tuzilishiga ko`ra sodda va murakkab (qo`shma) bo`ladi.

1. *Sodda affikslar*: -chi,-la,-lik,-lar...

2. *Murakkab (qo`shma) affikslar*: -chilik,-garchilik,-lan,-lash, larcha: *yo`qchilik, yog`ingarchilik, otlan, salomlash, o`rtoqlarcha*.

*Qulinqchin, yuksal, yuksak, qattiq, kunda, chindan* so`zlari ma`noli qismlarga ajralmaydi.

Demak, o`zak va qo`shimchalar so`zning ma`noli qismlari hisoblanadi.

5. **Chastotali lug`at** so`zlarning qo`llanish miqdori va foizi haqida ma'lumot beradi.

6. **Ters** (chappa, teskari) lug`atda so`zlar qaysi harf bilan tugashiga qarab joylashtiriladi.

7. **O`zlashma so`zlar lug`atida** boshqa tillardan o`zlashgan so`zlar izohlanadi.

8. **O`zbek tilining izohli frazeologik lug`atida** frazeologik birliklar (iboralar) izohlanadi.

9. **Sinonimlar** lug`atida sinonimlar izohlanadi.

10. **Omonimlar** lug`atida omonimlar izohlanadi.

11. **Antonimlar** lug`atida antonimlar (qarama-qarshi ma`noli so`zlar) beriladi.

12. **Paronimlar** lug`atida paronimlarning ma`nolari keltiriladi.

13. **Dialektal lug`atda** o`zbek tilining dialekt va shevalariga xos bo`lgan so`zlar qayd etiladi.

14. **Terminologik lug`atda** terminlar izohlanadi.

15. **Etimologik lug`atda** so`zlarning kelib chiqishi, shakllanish tarixi yoritiladi. «O`zbek tilining etimologik lug`ati» 2000 yilda prof. Sh. Rahmatullayev tomonidan yaratildi.

Etimologiya so`zlarning kelib chiqishi, shakllanish tarixini o`rganuvchi bo`lim. So`zlarning kelib chiqishini o`rganish quyidagilarda ahamiyatli:

1) so`zlarning lug`aviy ma`no ko`lamini yoritishda.

2) so`z o`zagini aniqlashda.

3) tilning tarixiy taraqqiyoti davomidagi o`zgarishlarni tahlil qilishda.

Masalan: *dehqon* so`zi yer ochib, ekin o`stiruvchi qishloq odamini bildiradi. Bu so`z asli tojikcha bo`lib, *deh-* “*qishloq*”, *qon-* *xon-hokim* degan ma`nolarni bildiradi. Qadimda mayda yer egalarini dehqon deyishgan. Hozirda ”*ekin-tikin* ishlari bilan shug`ullanadigan odam” tushunchasini beradi. Mehnat so`zi mumtoz adabiyotda “*mashaqqat*”, “*zahmat*”, “*azob-uqubat*” ma`nolarida qo`llangan:

Yod etmas emish kishini g`urbatda kishi,

Shod etmas emish ko`ngulni *mehnatda* kishi.

Mehnat hozirda jismoniy va aqliy ko`rinishdagi faoliyatni anglatadi: *Mehnat-mehnatning tagi rohat*.

Vatan so`zi aslida “*tug`ilgan joy*” ma`nosini anglatadi. Keyinchalik, *vatan* so`zining ma`no doirasi kengaya borib, “*mamlakat*”, “*yurt*” tushunchasiga teng kelib qolgan.

Etimologik kuzatishlar, turkiy tillar etimologiyasiga bog`liq fikrlar muayyan til, jumladan, o`zbek tili tabiatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turkiy so`zlar etimologiyasiga oid quyidagi xulosalar o`quvchi bilimini boyitishga xizmat qiladi.

1. O`zbek tilidagi turkiy so`zlar asosan ikki bo`g`inli, qisman bir va uch bo`g`inli bo`lib, to`rt va undan ortiq bo`g`inli so`zlar juda kam.
2. Bir bo`g`inli so`zlar qadimgi turkiy tilga mansub bo`lib, hozirgi o`zbek tili nuqtai nazaridan tub deb qaraladi. Qadim turkiy so`zlar undosh- unli- undosh (sus) shaklida bo`lgan o`zaklarga asoslangan.
3. Turkiy tillarga, jumladan o`zbek tiliga bir bo`g`in tarkibida ikki undoshning ketma-ket kelishi xos emas. O`zbek tilida uchraydigan berk, bo`rk, art burch, bo`rt so`zlari oxiridagi undosh aslida qo`shimcha sifatida keyin qo`shilgan: ber-ik-berk, bo`ru-k-bo`rk; ari-t-art, bur-uch-burch, bo`r-ut-bo`rt.
4. Qadimgi turkiy tilda (o`zbek tilining dastlabki taraqqiyot bosqichida) so`z yasovchi qo`shimchalar hozirdagiga nisbatan ko`p va xilma-xil ko`rinishlarda mavjud bo`lgan. Bugungi kunda ma`noli qismlarga ajratiladigan so`zlarning ko`pi qadimgi turkiy til davrida yasalgan.

Ayrim so`zlar etimologiyasiga e`tibor bering. Qo`sinq- “ashula”. *Ko`cha tomonda childirma va qo`sinq eshitildi* (Parda Tursun). *Qo`sinq*<sup>1</sup> so`zi qadimgi turkiy tilda “*birlashtirish*” ma`nosidagi *qo`sh fe`liga-(u-g`* ot yasovchisini qo`sish bilan yasalgan (bu haqda “*Devonu lug`atit turk*”da-1 jild, (357-bet); “*Drevnetyurkskiy slovar*”da(460-bet), ma`lumot berilgan). Bu so`z dastlab “*she`r*”, “*qasida*” ma`nosini anglatgan; ma`no taraqqiyoti natijasida “*ashula*” tushunchasi shakllangan. So`zning qadimiy ko`rinishi

<sup>1</sup> Mazkur so`z etimologiyasi haqida Sh. Rahmatullayev, M. Qodirovlarning «O`zbek tilining qisqa etimologik lug`ati» (-T.”Universitet”, 1997-1998)da fikr bildirilgan.

keyingi davrlarda fonetik o`zgarishga uchragan: *qo`sh-ug`-qo`shug`-qo`shuq-qo`shiq*.

Burungi “*ilgari*”, “*oldin*”, “*avval*”. Ko`chatlarning holati burun qanday bo`lsa, hozir ham shunday. Bu so`z “hid bilish a`zosi” ma`nosidagi burun otining “*oldin*”, “*ilgari*” ma`nosi asosida yuzaga kelgan (burun ham yuz sathidan oldin, ilgari turgani uchun shunday nomlangan).

«O`zbek tilining izohli etnografik lug‘ati», «Qo‘shma so‘zlar lug‘ati» hali yaratilmagan.

### Savol va topshiriqlar

- 1.Leksikografiya bo‘limi haqida ma'lumot bering.
- 2.Qomusiy lug‘atlarning turlari
- 3.Izohli lug‘atning xususiyatlarini bayon eting.
- 4.Etimologik lug‘at va uning ko‘rinishlari haqida ma'lumot bering.
- 5.Imlo lug‘atining adabiy til me'yorlarini o‘zlashtirishdagi ahamiyati.

### Testlar

1. Qaysi qatordagi polisemantik so‘z *saxiy* so‘zi bilan antonim bo‘ladi?  
A) baxil      B) yumshoq      S) qattiq      D) ochiq
2. *Baland* va *chiroyli tog‘lar...* Ushbu gapdagagi *baland* so‘zining grammatic ma’nosi qaysi qatorda berilgan?  
A) belgi      B) sifat      S) oddiy darajada      D) B va S
3. *Quyoshning oltin qalami nur taratar edi.* Ushbu gapda ko‘chimning qaysi turi qo‘llangan?  
A) metonimiya B) metafora S) sinekdoxa D) vazifadoshlik
- 4.Qaysi qatorda shaxs-predmet unga bog‘liq bo‘lgan boshqa bir nom bilan atalgan?  
A) O‘n qo‘li hunar B) Bizni «homiyalar»dan himoya qilg‘il  
S) Osmon fonarini ham yoqdi shu onda  
D) G‘oz singari qo‘nar qo‘llarga
5. Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar qatorini belgilang.  
A) astoydil, sarf, nahv, peshin, namoz, diqqat  
B) ruh, moyak, tuxum, g‘isht, go‘sht, mard  
S) mashq, azim, ajoyib, nafas, ayol, doim, mehr  
D) hukm, hikmat, rahm, dono, ijod, ijro
6. Qaysi qatordagi tarixiy so‘zlar «tirilgan», ya’ni hozirda ishlatalmoqda?  
A) mingboshi, dodhoh, ellikboshi, jevak, cho‘ri  
B) yasovul, bakovul, hudaychi, takyagoh, jallod  
S) hokim, madrasa, mufti, dorilfunun, ro‘za fitr  
D) vazir, hakam, nozir, mirshab, yasovul, dodxoh
7. Omonim so‘zlar qatorini belgilang.  
A) yon, til, bor      B) yoz, o‘t, qo‘l  
S) tut, tik, yoqa      D) yuz,soch, qulqoq

8. Metafora qaysi qatordagi gapda uchraydi?

A) Ariq bo'yida gullar ochilgan. B) Tirnoqqa zor o'tdi.

S) Butun Samarqand g'azabga keldi. D) Navoiyni o'qib chiqdim.

9. Qaysi qatorda lug'aviy birliklar ko'rsatilgan?

A) oshqozon B) ko'ngil olmoq S) keng paxtazor D) A va B

10. Qizil olma birikmasidagi *qizil* so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) sifat B) oddiy daraja S) A va B D) belgi

### **Asosiy tushunchalar glossariysi**

**Izohli lug'at** - lug`aviy birliklarning (so'z yoki iboralarning) ma'nosi izohlanadigan lug`at.

**Imlo lug'ati** - so'zlarning imlo qoidalariga binoan qanday yozilishi qayd etiladigan lug`at.

**Orfoepik lug'at** - so'zlarning adabiy talaffuzi qayd etiladigan lug`at.

**Morfem lug'at** - so'zlarning morfem tuzilishi, ma'noli qismlari beriladigan lug`at.

**Chastotali lug'at** - so'zlarning qo'llanish miqdori va foizi haqida ma'lumot beradigan lug`at.

**Ters** (chappa, teskari) lug'at - so'zlar qaysi harf bilan tugashiga qarab joylashtiriladigan lug`at.

**O'zlashma so'zlar lug'ati** - boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar lug`ati.

**O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati** - frazeologik birliklar (iboralar) izohlanadigan.

**Sinonimlar** – sinonimlar izohlanadigan lug`at.

**Omonimlar** – omonimlar izohlanadigan lug`at.

**Antonimlar** – antonimlar (qarama-qarshi ma'noli so'zlar) beriladigan lug`at.

**Paronimlar** – paronimlarning ma'nolari keltirilgan lug`at.

**Dialektal lug'at** – o'zbek tilining dialekt va shevalariga xos bo'lgan so'zlar qayd etiladigan lug`at.

**Terminologik lug'at** - terminlar izohlanadigan lug`at.

**Etimologik lug`at** – so'zlarning kelib chiqishi, shakllanish tarixi yoritiladigan lug`at.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.-157-161 б.

2. Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68.

3. Ирисқұлов И.Тилшуносликка кириш.- Тошкент, 2009.-Б.220-226 б.

4. Rasulov R.Umumiyl tilshunoslik. -Toshkent, 2013. -Б.-196-204; 205-210.

5. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007. -Б.86-89

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-Т .2006-2008

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

- 1.Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкоzнание.- Тошкент, 2004.-Б.4-9
- 2.Ирискулов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.241-246
- 3.Щитка Н.Н., Юсупова К.Н.Введение в языкоzнание. -Тошкент, 2006.-Б.21-27.
- 4.Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати.-Тошкент, 2002.-Б.14-32.
- 5.Қ. Махмудов. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси.-Тошкент, 1992.
- 6.www. literature.uz
- 7.www. genhis philol.ru.

## 12-§. GRAMMATIKA VA UNING BO`LIMLARI. MORFOLOGIYA

**Reja:**

1. Grammatika bo`limi haqida ma'lumot.
2. Tilning grammatik vositalari.
3. Morfologiyada oqrganiladigan masalalar.

**Asosiy tushunchalar:** *grammatika, morfologiya, grammatic ma'no, affiksatsiya, ohang, melodika, takror, ichki fleksiya, suppletivizm, fleksiya*

**Grammatika** ( yunoncha o‘qish va yozish haqidagi bilim ) tilshunoslikning bir bo`limi bo‘lib , nutqda so‘zlarning o‘zgarishi, o‘zaro birikib gap hosil qilishi haqidagi bilimdir.

**Tilning grammatik vositalari:**

**1.Affiksatsiya** olimlar fikricha tillarda eng ko‘p tarqalgan vositadir. Ma’no anglatuvchi affaikslarni ikki turga ajratamiz. Shakl yasovchi affiksal morfemalarning keyingi turi **fleksiya** deyiladi.

**2.Ohang** o‘z ichiga tilda grammatik ma’noni ifodalash uchun xizmat qiladigan melodika bilan urg‘uni qamrab oladi, lekin melodika va urg‘uning roli hamma tillarda bir xil emas.

**3.Melodika** deganda ton balandligining o‘zgarishi tushuniladi. U, asosan, hitoy-tibet tillarida katta ahamiyatga egadir. Hitoy tilida to‘rtta ton mavjud bo‘lib so‘zning ma’nosini shu tonlardan qaysi biri ishlatilayotganligiga ko‘ra o‘zgaradi. Masalan, **да** so‘zi nutqda talaffuz qilinishiga ko‘ra ot, sifat, fe’l va ravish bo‘lib kelishi mumkin.

**4.Takror** (reduplikatsiya) deganda grammatik ma’noni ifodalash maqsadida so‘z yoki uning biror qismini ikki marta qaytarish tushuniladi. Takrorlar ko‘p tillarda uchraydi, lekin u bir xil maqsadga xizmat qilmaydi. Masalan, u malay tilida grammatik vosita sifatida ishlatiladi va ko‘plik ma’nosini ifodalashda foydalaniladi: **orang-odam, orang-orang - odamlar**

**5.Ichki fleksiya** deganda turli grammatik ma’nolarni ifodalash uchun so‘z tarkibidagi tovushlarni o‘zgartirish tushunilib bu vosita hind-ovro‘pa va semit tillarida ko‘p qo’llaniladi.

Arab tilida undosh tovushlar leksik ma’noni anglatsa, unlilar grammatik ma’noni ifodalaydi.

**6.Suppletivizm** deganda bir so‘zning grammatik shakllarini har xil so‘z o‘zaklaridan yasalishi tushuniladi. So‘zlarning suppletiv shakli hind-ovropa

tillarida ko'plab uchraydi. Grammatik ma'noni bu yo'l bilan ifodalash, asosan, kishilik olmoshlari hamda sifatlarga xosdir. Masalan,

**я – меня; men –meni-menga;**

**мы - нас; biz – bizni – bizga;**

Grammatika tilning ichki qurilishi haqidagi bo'lim hisoblanib, ikki qismdan iborat: morfologiya va sintaksis.

## MORFOLOGIYA

**Morfologiya** grammatikaning bir qismi bo'lib, so'z turkumlari, so'zning grammatik shakli, grammatik ma'no, morfologik kategoriya (tushunchalarini o'rGANUVchi bo'lim. Morfologiya so'zni grammatik birlik sifatida tekshiradi. So'z grammatik birlik sifatida grammatik ma'nosi va grammatik shakliga ega bo'ladi.

### Grammatik ma'no

So'zning u yoki bu turkumga mansubligini ko'rsatuvchi, so'zning ma'lum bir grammatik shakl orqali ifodalanadigan ma'nosi grammatik ma'no hisoblanadi; *qalam, suv, tosh, olma, bog'*, *uy* so'zlari bir grammatik ma'noga mansub so'zlar hisoblanadi.

### Grammatik forma (shakl) yoki so'z formasi

So'zning ma'lum bir grammatik ma'no ifodalovchi shakli so'zning *grammatik formasi (shakli)* deyiladi. Grammatik ma'noni ifodalovchi morfema *grammatik (morfologik) ko'rsatkich* ham deyiladi. Masalan, ko'plikning grammatik ko'rsatkichi-lar; bosh kelishik va bo'lishlilik ko'rsatkichi yo'q (nol ko'rsatkichli). Grammatik shakl (so'z formasi) ning uch xil turi mavjud:

**1. Affikslar (qo'shimchalar):** *uyni, uydan, uyga; o'qiyapman, o'qiyapsan, o'qiyapti.* Affikslar yordamida yasaluvchi forma sintetik forma deyiladi.

**2. Yordamchi so'zlar** orqali hosil bo'luvchi forma; *ukam uchun, park tomon, o'qib ko'r, o'qib chiq.* Yordamchi so'z vositasida yasaluvchi forma analitik forma deyiladi.

**3. Juft va takroriy shakl:** *qozon-tovoq, yaxshi-yomon* juft formalari umumlashtirish ma'nosini; *baland-balad, qator-qator*, kula-kula kabilar ko'plik, takror, ta'kid ma'nosini ifodalaydi.

**Leksikologiya** so'z (leksema)larni, ularning atash ma'nolarini o'rgansa, **morfologiya** so'zning grammatik ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllarni, ya'ni so'zning morfologik shakllarini o'rGANADI. Morfologiya so'z turkumlari va ularning grammatik shakllari, grammatik ma'no yuzasidan bahs yuritadi.

**So'z turkumlari.** So'zlarni turkumga ajratish tilshunoslik fan sifatida shakllangan dastlabki davrlardanoq boshlangan. Dastavval, hindlar so'zlarni *otlar, fe'llar, yordamchilarga* ajratgan. Keyinchalik, arablar *ismlar, fe'llar, yordamchi so'zlar* tarzida guruhlagan. Bir qator xalqlar ismlar ichidan *ot, sifat, son, olmosh, fe'lni* ajratishgan. Hozirgi turkiy tillarda ismlar nomi ostida bir necha so'z turkumi mujassamlangan. Jumladan, o'zbek tilshunosligida ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, harakat nomi, taqlid so'z ismlar guruhi ostida birlashtirilgan. Ismlarni birlashtiruvchi asosiy omil ularning ko'plik, kelishik, egalik shakllarini olish xususiyatiga ega ekanlidir.

**Ismlarning lug‘aviy shakllari.** Ismlarning ko‘plik, kichraytirish-erkalash, qiyoslash ma’nolarini bildiruvchi qo’shimchalarga ega bo‘lgan shakli lug‘aviy shakl sanaladi.

**Ismlarning munosabat shakllari.** Egalik, kelishik, *-man*, *-san*, *-dir* qo’shimchalarga ega bo‘lgan shakli munosabat shakli hisoblanadi. Ism asoslariga qo’shilib, ularni boshqa so‘zlarga bog‘lab kelish va gap bo‘laklarini shakllantirishga xizmat qilganligi uchun egalik, kelishik, *-man*, *-san*, *-dir* qo’shimchalari munosabat shakllari deyiladi. Demak, ismlarning munosabat shakllariga quyidagilar kiradi: 1) egalik shakllari; 2) kelishik shakllari; 3) ismlarni kesim sifatida shakllantiruvchi va ega bilan munosabatini ifodalovchi *-man*, *-san*, *-dir* qo’shimchalari, *bo‘lmoq*, *sanalmoq*, *hisoblanmoq* so‘zlari. Uchinchi turdagi so‘zlar va qo’shimchalar bog‘lamalar deb ham yuritiladi.

**Sifatdosh va harakat nomlaridagi egalik qo’shimchalari.** Sifatdosh va harakat nomlari tarkibidagi egalik qo’shimchalari harakat bajaruvchisining shaxsi, sonini bildiradi. Shuning uchun qaratqich kelishigini olgan shaxs bildiruvchi so‘zning qo’llanishiga ko‘pincha ehtiyoj bo‘lmaydi.

**Ismlarni kesimga xoslovchi shakllar.** Kesim ega bilan shaxs va sonda moslashadi. Ism orqali ifodalangan kesimlar shaxs-sonni bildiruvchi maxsus *-man*, *-san*, *-dir* qo’shimchalari, shuningdek, *bo‘lmoq*, *sanalmoq*, *ekan*, *emish*, *emas* so‘zlari vositasida ega bilan moslashadi. Ot kesimlarni ega bilan moslashtiruvchi bunday vositalar bog‘lamalar hisoblanadi.

**To‘plam va tasniflar.** O‘rganish uchun olingan turli narsa, voqeа-hodisalar yig‘indisi *to‘plam* deyiladi. To‘plamni o‘xhash va farqli belgilari asosida ichki guruhlarga bo‘lish *tasnif* hisoblanadi.

**Mustaqil va yordamchi so‘zlar.** So‘zlarning so‘rog‘i va qanday umumlashgan ma’no ifodalashiga ko‘ra guruhlarga bo‘linishi so‘z *turkumlari* hisoblanadi. So‘z turkumlari ma’no va vazifasiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi: 1. *Mustaqil so‘zlar*. 2. *Yordamchi so‘zlar*. 3. *Undov so‘zlar*. 4. *Taqlid so‘zlar*. 5. *Modal so‘zlar*.

Ma’lum bir so‘roqqa javob bo‘lib, biror gap bo‘lagi yoki undalma vazifasida keladigan, atash va umumiylar grammatic ma’noga (masalan, *predmet*, *belgi*, *miqdor*, *harakat-holat* kabi) ega bo‘lgan so‘zlar **mustaqil so‘zlar** sanaladi: *gul* (*nima?*), *inson* (*kim?*), *chiroyli* (*qanday?*), *yuztacha* (*nechta?*), *keldi* (*nima qildi?*). *Fe‘l*, *ot*, *sifat*, *son*, *olmosh* va *ravishlar* mustaqil so‘zlardir.

So‘roqqa javob bo‘lmaydigan, atash ma’nosini bildirmaydigan so‘zlar yordamchi so‘zlar deyiladi.

**Morfemalarning agglutinativ tabiat.** Affiksal morfemalar o‘zak morfemaga birikish xususiyatiga ko‘ra muayyan tilning o‘ziga xos jihatlarini namoyon qiladi. O‘zak morfemalarning tabiatiga ko‘ra tillar asosan *agglutinativ* va *flektiv* tillarga bo‘linadi<sup>30</sup>.

Turkiy tillar, jumladan o‘zbek tili affiksal morfemalari tabiatiga ko‘ra agglyutinativ hisoblanadi. Agglutinatsiya «ketma-ketlik», «yopishtirish» ma’nosidagi so‘z bo‘lib, qo’shimchalarning o‘zakka ma’lum tartib va ketma-

<sup>30</sup> Agglyutinatsiya-lotincha «yopishtirish» ma’nosini; fleksiya «bukilish» ma’nosini anglatadi.

ketlikda qo'shilishidan dalolat beradi. Bunday hollarda o'zak va qo'shimchalar chegarasi sezilib turadi. Agglutinativ tillarda so'z shakllari o'zgarmas holda qo'shiladigan affikslar yordamida yasaladi. Bunday tillarda affikslar asosan bir grammatik ma'noni ifodalaydi. Masalan, *-lar* faqat ko'plik qo'shimchasi sifatida qaraladi. Mazkur qo'shimchaning boshqa hollarda ifodalagan hurmat, kesatiq, kinoyani bildiruvchi grammatik ma'nolari uslubiy jihatlari hisoblanadi.

Ta'kidlanganidek, turkiy tillarda (o'zbek tilida) o'zakka dastavval, so'z yasovchi qo'shimchalar (morfemalar), keyin lug'aviy shakl yasovchi va oxirida sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar birikadi: *tila-k-lar-imiz-ni*. Bu qat'iy qoida morfem tahlilda, ya'ni so'zlarni ma'noli qismlarga ajratishda ham muhim. Masalan, *o'rtoqlarcha*, *mardlarcha* so'zlari *o'rtoq-lar-cha*, *mard-lar-cha* ko'rinishida emas, *balki o'rtoq-larcha*, *mard-larcha* tarzida ma'noli qismlarga ajratiladi.

O'zbek tilidagi affiksal morfemalar o'zak morfemadan keyin qo'shilish xususiyatiga ega. Shu jihatdan, old qo'shimchalar o'zbek tili tabiatiga xos emas. Tilimizdagi *ser-(sersuv)*, *no-(nomard)*, *be-(begunoh)*, *ba-(badavlat)*... kabi old qo'shimchalar fors-tojik tiliga xos bo'lib, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy omillar ta'sirida o'zbek tiliga o'zlashib ketgan. Old qo'shimchalar rus-baynalmilal so'zlarida ham uchraydi.

Flektiv tillarda o'zak morfema va affiksal morfema chegaralari sezilmaydi. Rus tili, arab tili flektiv tillarga mansubdir: *будем-вижу*; *ходум-хожу*; *хукм-mahkama-hokim-hakam-mahkum*; *fikr-tafakkur-mutafakkir*; *зулм-zolim-mazlum*; *hol-ahvol*; *xulq-axlog*; *she'r-ash'or*.

**Asosdosh so'zlar.** Bir umumiylasosga ega bo'lgan so'zlar asosdosh so'zlar hisoblanadi. 1.Bog', bog'bon, bog'cha. 2. O'r, o'roq, o'rim.3. O't, o'tloq, o'toq, o'tla. 4.Gul, gulchi, gulzor, guldor, guldon. 5. Chiz, chizg'ich, chiziq, chizma. 6.Paxta, paxtakor, paxtazor. 7. Ter, terim, terimchi.8. Bil, bilim, bilimli, bilag'on, bilimdon. 9.Tug, tugun, tuguncha.Ish, ishchi, ishchan, ishli, ishla. 10. Tuz, tuzdon, tuzli, tuzsiz, tuzla. 11. Oq, oqlik, oqardi.12. O'qi, o'quvchi, o'qituvchi. 13. Kitob, kitobxon. 14. Kasal, kasallik, kasalxona. 15.Kasb, kasbdosh. 16. Ot, otboqar, otlanmoq. 17.Och, ochlik, ocharchilik, ochko'z. 18. To'lqin, to'lqinli. 19.To'g'ri, to'g'rilik, to'g'rildi. 20.Uzun, uzunlik, uzunchoq. 21.Xat, dastxat.22.Don, donxo'rak, donlamoq. 23.Dori, dorixona, dorilangan. 24.Joy, joyladi, joylandi. 25.Zo'r, zo'ravon, zo'rlik, zo'rg'a. 26.Iz, izladi, iztopar.

### Savol va topshiriqlar

- 1.Morfologiyaning o'rganish ob'ektini izohlang.
- 2.So'z turkumlari va turkumlarga ajaratish tarixi haqida ma'lumot bering.
- 3.Grammatik ma'no va uning xususiyatlarini bayon eting.
- 4.Lug'aviy shakllar haqidagi tushunchalarining bayon etingyu
5. Affikslarni ajratish mezonlariga munosabat bildiring.

### Testlar

1. Aytib berib tura qol shaklidagi birikuv qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

- A) aytib berib-ko‘makchi fe’l, tura qol-mustaqil fe’l.  
 B) aytib berib tura-mustaqil fe’l, qol-ko‘makchi fe’l.  
 S) aytib berib-mustaqil fe’l, tura qol-ko‘makchi fe’l.  
 D) aytib-mustaqil fe’l, berib tura qol-ko‘makchi fe’l.

2. Turlanish hodisasi qaysi so‘zlarga xos?

- 1) sifatdosh; 2) son; 3) ot; 4) ravishdosh; 5) harakat nomi; 6) olmosh.

- A) 3      B) 1, 3, 4, 5, 6      S) 3, 6      D) 3, 5, 6

3. Quyidagi grammatik ko‘rsatkichlardan qaysi biri otning grammatik shakllanishida har doim ham qatnashavermaydi?

- A) egalik B) son S) kelishik D) egalik

4. *Shu mustaqillik sharofati bilan bizning o‘z tilimiz, urf-odatlarimiz, tariximiz, jamiki merosimiz - hammasi o‘z qadrini topdi.* Ushbu gapda qo‘llangan olmoshlar miqdorini aniqlang.

- A) 4ta B) 3ta S) 2ta D) 5ta

5.Qaysi gapdagি kelishik qo‘shimchasini ko`makchi bilan almashtirib bo‘lmaydi?

- A) Sizga atagan qo‘shiqlarim bor.

- B) Shu yo‘ldan yurib, murodga etdik.

- S) Saharlab shaharga yo‘l oldi. D) Zavq bilan kului.

6. Quyidagi yasama sifat va otlarning qaysi biri fe’lning bo‘lishsizlik shakli bilan omonimik munosabatda bo‘ladi?

- A) qo‘llanma B) qazilma S) qotishma D) moslama

7.Tilshunoslikning morfologiya bo‘limiga oid atama (termin)lar qaysi qatorda berilgan?

- A) grammatik ma’no, modal so‘z, buyruq mayli

- B) ot- kesim, fe’l, undalma

- S) bosh so‘z, ergash so‘z, morfologik yozuv qoidasi

- D) modal so‘z, undov so‘z, kirish so‘z

### **Asosiy tushunchalar glossariysi:**

**Affikslar** - qo‘shimchalar

**Yordamchi so‘zlar** – mustaqil ma’no anglatmaydigan so‘zlar

**Morfologiya** - so‘zning grammatik ma’nolari va bu ma’nolarni ifodalovchi shakllarni, ya’ni so‘zning morfologik shakllarini o‘rganadigan bo`lim.

**So‘z turkumlari** - so‘zlarning ma’no va grammatik xususiyatiga ko`ra guruhlari

**Ismlarning lug‘aviy shakllari** - ismlarning ko‘plik, kichraytirish-erkalash, qiyoslash ma’nolarini bildiruvchi qo‘shimchalarga ega bo‘lgan shakli lug‘aviy shakl sanaladi.

**Ismlarning munosabat shakllari** - egalik, kelishik, *-man*, *-san*, *-dir* qo‘shimchalarga ega bo‘lgan shakli munosabat shakli hisoblanadi.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Abduazizov A.Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010.-157-161 б.

2. Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68.
3. Ирисқулов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.220-226 б.
4. Rasulov R.Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 2013. -Б.-196-204; 205-210.
5. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007. -Б.86-89

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

- 1.Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкоznание.- Тошкент, 2004.-Б.4-9
- 2.Ирисқулов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.241-246
- 3.Щитка Н.Н., Юсупова К.Н.Введение в языкоznание. -Тошкент, 2006.-Б.21-27.
- 4.Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.-Тошкент, 2002.-Б.14-32.
- 5.Қ. Махмудов. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси.-Тошкент,1992.
- 6.www. literature.uz
- 7.www. genhis philol.ru.

### **13-§. SINTAKSIS HAQIDA MA'LUMOT. SINTAKSIS QISMLARI**

#### **Reja:**

- 1.So`z birikmasining turlari.
2. Tobe so‘zning bosh so‘zga birikish usullari
3. Gap turlari.

**Asosiy tushunchalar:** *sintaksis, so‘z birikmasi, teng bog‘lanish, tobe bog‘lanish, bitishuv, boshqaruv, moslashuv, gap, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, gapning emotisionallikka ko‘ra turlari*

**Sintaksis haqida umumiy tushuncha.** Biz foydalanayotgan til turli birliklardan, vositalardan iborat. Ularning har biri tilda o‘zining muhim vazifasini bajaradi. Tahlil qilganda til birliklari ajratiladi, aniqlanadi va izohlanadi. *Sintaksis* yunoncha *syntaxis* so‘zidan olingan bo‘lib, «yopishtirish», «bog‘lash» demakdir. Demak, so‘zlarning va gaplarning (qo‘shma gap doirasida) o‘zaro bog‘lanish qonun-qoidalarini, ularning turlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi *sintaksis* sanaladi. Bu bo‘lim gapda so‘zlarning bog‘lanishini –so‘z birikmalarini, gap va uning tuzilishi hamda mazmuniy turlarini o‘rganadi. Boshqacha aytganda, sinlaksis so‘z birikmasi va gap haqidagi ta’limotdir. Har qanday til o‘zining nutq tovushlari, so‘zleri (iboralari) va qo‘sishchalaridagi imkoniyatlarini sintaksisda, ya’ni gap qurilishida namoyon qiladi.

So‘zning tildagi muayyan qonun-qoidalar asosida o‘zaro birikuvidan so‘z birikmasi va gaplar hosil bo‘ladi. So‘z birikmali va gaplar o‘z qurilishi va ifoda mazmuniga ko‘ra farqlanadi.

Sintaksis so‘z birikmasi sintaksisi, gap sintaksisi bo‘limlaridan iborat.

**Teng bog‘lanish va tobe bog‘lanish.** Bir so‘zning boshqa so‘zga ma'lum grammatik vositalar (grammatik qo‘sishchalar, yordamchi so‘zlar) orqali bog‘lanishi **grammatik bog‘lanish** hisoblanadi. So‘zlarning o‘zaro grammatik bog‘lanishi ikki xil:

1.Teng bog‘lanish – ikki so‘zning teng huquqli, biri ikkinchisiga bo‘ysunmay bog‘lanishi: *opam va kitob, uy va tom* kabi. Bir xil gap bo‘lagi vazifasida kelib, ko‘pincha bir xil so‘roqqa javob bo‘luvchi bo‘laklarning o‘zaro teng bog‘lovchilar yoki sanash ohangi yordamida bog‘lanishi *teng bog‘lanish* sanaladi: *Ular Hofiz, Navoiy, Bedil va Fuzuliy baytlarini tahlil qilib... o‘tirishardi.*

So‘zlarning teng bog‘lanishi so‘z qo‘shilmalarini hosil qiladi. So‘z qo‘shilmalarida har bir so‘z ma’no mustaqilligini, alohida-alohida narsalarni nomlab kelish xususiyatini saqlab qoladi: *opam va kitob, siz bilan biz* kabi.

So‘z qo‘shilmalarida so‘zlar sanash ohangi (yozuvda vergul) yoki teng bog‘lovchilar vositasida birikadi.

2. Tobe bog‘lanish – bir so‘zning (tobe so‘zning) boshqa bir so‘zga (hokim so‘zga) bo‘ysunishi orqali bog‘lanishi: *opamning kitobi, uyning tomi* kabi. Bir bo‘lakning boshqa bo‘lakka kelishik, shaxs-son, zamon qo‘shimchalari, ko‘makchilar va so‘z tartibi va ohang yordamida bog‘lanishiga *tobe bog‘lanish* deyiladi. Tobe bog‘lanish doimo ikki qismdan iborat bo‘ladi: tobe qism va hokim qism. So‘roq bog‘lanib kelgan qism hokim, so‘roqqa javob bo‘lib keluvchi qism tobe qismadir: *chiroyli (qanday?) ko‘ylak, go‘zal (qanday?) mamlakat; dalaga (qayerga?) bormoq.*

So‘zlarning tobelanish asosida bog‘lanishi so‘z birikmalarini hosil qiladi va so‘z birikmasi ikki va undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lishiga qaramay, bitta tushunchani ifodalaydi: *opamning kitobi, qizil gul, uyga kirmoq.*

### **So‘z birikmasi**

Tobe qismning hokim qismga kelishik, egalik qo‘shimchalari, ko‘makchilar va tobelashtiruvchi ohang yordamida bog‘lanishi so‘z birikmasi deyiladi. Tobe bo‘lakni hokim bo‘lakka bog‘lovchi vositaning qo‘shilish o‘rni ikki xil bo‘ladi: kelishik, ko‘makchi va ohang tobe qismga, egalik qo‘shimchasi esa hokim qismga qo‘shiladi.

Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka ko‘makchilar yordamida bog‘langanda, ko‘p hollarda kelishik bilan birgalikda yoki kelishik bilan almashinib qo‘llanishi mumkin. Natijada kelishik qo‘shimchalari va ko‘makchilar sinonimiyasi vujudga keladi. Kelishik qo‘shimchalari bilan ko‘makchilar o‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lsa ham, ular o‘rtasida ma’lum ma’no farqlanishi mavjud. Kelishik qo‘shimchasi yordamida bog‘langanda hokim bo‘lak ifodalagan harakatning chiqish yoki yo‘nalish nuqtasi aniq, ko‘makchi yordamida bog‘langanda esa noaniq bo‘ladi.

Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka qaratqich kelishigi va egalik qo‘shimchasi yordamida bog‘langanda ikki tomonlama bog‘lanish ro‘y beradi. Tobe bo‘lak qaratqich kelishigi qo‘shimchasini, hokim bo‘lak esa egalik qo‘shimchasini oladi. Bunday bog‘lanishda tobe qism **qaratqich**, hokim qism **qaralmish** deb ham nomlanadi: *uzumning (qaratqich) sharbati* (qaralmish).

Agar hokim bo‘lak sof fe’l bilan ifodalansa va fe’l *kimni? nimani? qayerni?* so‘roqlariga javob bo‘hivchi so‘zni talab qilsa, tobe bo‘lak tushum kelishigida qo‘llanadi, hokim bo‘lak egalik qo‘shimchasini olgan ot, ba’zan harakat nomi va sifatdosh bilan ifodalansa, lobe bo‘lak qaratqich kelishigida qo‘llanadi.

Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka boglanib, hokim bo‘lak talab etgan sintaktik vazifada keladi. Ana shu vazifa gap bo‘lagi nomi bilan yuritiladi.

So‘z birikmasi hokim so‘zning qaysi turkumga oid so‘z bilan ifodalanishiga qarab, ikki guruuhga bo‘linadi: otli so‘z birikmasi, fe’lli so‘z birikmasi.

**Otli so‘z birikmasida** hokim so‘z ot va otlashgan so‘zlar (sifat, son, ravish, taqlid so‘z) bilan ifodalanadi: *shaharning ko‘chalari, hammasidan katta, chumchuqning chug‘ur-chug‘uri, o‘quvchilarning beshtasi, beqiyos o‘lka, katta qishloq*.

**Fe’lli so‘z birikmasida** hokim so‘z fe‘l, uning sifatdosh, ravishdosh shakllari bilan ifodalanadi: *kitobni o‘qimoq, daftarga yozmoq, tez yugurgan, ohista gapirmoq, ta’sirli so‘zlab, zavq bilan o‘qimoq*.

O‘zbek tilida so‘z birikmalarining tobe so‘zi, asosan, hokim so‘zdan oldin keladi.

**So‘z birikmasida so‘zlarning o‘zaro birikish usullari.** Kelishik va egalik qo‘shimchalari hamda ko‘makchilar so‘z birikmalari, so‘zlarni bir-biriga bog‘lashga xizmat qiladi.

So‘z birikmalari tarkibidagi tobe va hokim so‘zning hech qanday qo‘shimchasiz, faqat ohang va ma’nosiga ko‘ra bog‘lanishi **bitishuv** deyiladi: *tez termoq, chiroyli gapirmoq, ishchan o‘quvchi, mehribon murabbiy*.

Tobe so‘zning hokim so‘zga *tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigi* qo‘shimchalari yoki ko‘makchilar yordamida bog‘lanishi **boshqaruv** deyiladi: *do‘stlarni hurmat qilmoq, g‘alaba uchun kurashmoq, yoshlarga g‘amxo‘rlik qilmoq, sharoitga ko‘ra yondashmoq*.

Tobe so‘zning hokim so‘zga qaratqich kelishigi qo‘shimchasi yordamida, hokim so‘zning esa tobe so‘zga egalik qoshimchalari yordamida bog‘lanishi **moslashuv** deyiladi: *kitobning muqovasi, xonalarning kattarog‘i, bizning sinfimiz, sizning ukangiz, universitet hovlisi*.

Bitishuv, moslashuv, boshqaruv usullarini tobe so‘zga qo‘shilgan kelishik shakllariga asoslanib ajratish mumkin:

- 1.Bosh kelishik: - ( bitishuv)
- 2.Qaratqich kelishik: **-ning** ( moslashuv)
- 3.Tushum kelishigi: **-ni** (boshqaruv )
- 4.Jo‘nalish kelishigi: **-ga** ( boshqaruv)
- 5.O‘rin-payt kelishigi: **-da** (boshqaruv)
- 6.Ciqish kelishigi: **-dan** (boshqaruv)

Boshqaruv: *olmani terish, ko‘chaga chiqmoq, maktabda o‘qimoq, ishdan qaytmoq, sayr haqida suhbat*.

**So‘z birikmasi va so‘z.** So‘z birikmalari ham so‘zlar kabi narsa, belgi, harakatni atashga xizmat qiladi. Lekin so‘z-leksik hodisa, so‘z birikmasi-sintaktik hodisadir. So‘z birikmasi narsa, belgi yoki harakatni yakka holda emas, balki ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro aloqaga kirishuvi orqali ifodalaydi. Masalan, *kitob* so‘zi bir narsaning umumlashgan oti bo‘lib, yolg‘iz tushunchani ifodalaydi, *o‘rtog‘imning kitobi* birikmasida esa faqat «*kitob*» ma’nosining o‘zi emas, balki «*o‘rtog‘imga tegishli kitob*» tushunchasi ifodalanadi.

**So‘z birikmasi va qo‘shma so‘z.** So‘z birikmasida ham, so‘zda ham qismlar bir xildagi so‘z turkumlariga oid bo‘lishi, har ikkalasi ham bir xil grammatik shaklga ega bo‘lishi mumkin. Bu ularning shakliy o‘xshashligidir. Lekin so‘z birikmasidagi qismlar ma’no mustaqilligini saqlagan bo‘ladi. Qo‘shma so‘z ma’nosи tarkibidagi qismlarning ma’nosи orqali anglashiladi. So‘z birikmasidagi qismlar orasida grammatik aloqa sezilib turadi, qo‘shma so‘z qismlari orasidagi grammatik aloqa esa yo‘qolgan bo‘ladi. So‘z birikmasini tashkil qilgan qismlarning har biriga alohida-alohida so‘roq berish mumkin: *kitobni* (nimani?) *o‘qimoq, uydan* (qayerdan?) *chiqmoq* kabi. Qo‘shma so‘zlarga esa yaxlit bir savol beriladi: *kungaboqar* (*nima?*), *kamquvvat* (*qanday?*).

So‘z birikmasining qismlari o‘z mustaqil so‘z urg‘usini saqlagan bo‘ladi (*uyning eshigi, xatni o‘qidim, tez yugurdi*), qo‘shma so‘z esa umumiy bir urg‘uga ega bo‘ladi (*oq ko‘ngil, bilakuzuk, Yangiqo‘rg‘on*).

Qo‘shma so‘zlarning ko‘pi tarixan so‘z birikmalari asosida yuzaga kelgan.

**So‘z birikmasi va turg‘un bog‘lama.** So‘z birikmasida so‘zlar o‘zaro erkin bog‘langan bo‘ladi: tushuncha anglatadi, turg‘un bog‘lanma (ibora)lar esa ma’noviy butunlik uchun birlashgan-yaxlitlangan bo‘ladi va bir leksik ma’noni anglatadi.

Turg‘un bog‘lanma (ibora)ga bir so‘z sifatida qaraladi, lug‘atlarda so‘zlar qatorida beriladi, chunki ular ham so‘zlar kabi ma’no ifodalaydi. Masalan, *ko‘zini yog‘ bosgan iborasi* – «mag‘rurlangan», *yog‘ tushsa yalagudek iborasi* – «toza», *to‘nini teskari kiyib olmoq iborasi* – «qaysarlik qilmoq» ma’nosini beradi, ammo bu ma’nolarni oddiy emas, obrazli tarzda ifodalaydi.

**So‘z birikmalari zanjiri.** Gap tarkibida bir so‘z birikmasidagi hokim so‘z boshqa bir so‘zga tobelangan, bir hokim so‘z bir necha tobe so‘z yoki bitta tobe so‘z bir nechta hokim so‘zga aloqador bo‘lgan hollarda so‘z birikmalari zanjiri hosil bo‘ladi. So‘z birikmasidagi tobe va hokim so‘zlar orasida bir necha boshqa so‘zlar va so‘z birikmalari kelishi mumkin.

**So‘z birikmasi va gap.** So‘z birikmasi ham, gap ham so‘zlarning grammatik aloqaga kirishuvidan yuzaga keladi. So‘z birikmasi biror narsa, belgi, harakat yoki holatni aniqlashtirgan holda anglatadi. Gap esa ma’lum bir fikrni, tasdiq yoki inkor hukmni ifodalab keladi. Gapning markazi kesimdir. U kesimlik qo‘sishimchalari bilan shakllanadi.

### Gap haqida umumiy ma’lumot

Ohang va fikr tugaligiga ega bo‘lib, kesimlik shakllari orqali ifodalanuvchi so‘z va so‘zlar qo‘shilmasiga gap deyiladi. Masalan: *Vohid o‘rnidan turdi*. (O. Yoqubov). *Yurtimiz qanday chiroyli!* Yozuvda gap oxiriga nuqta, so‘roq yoki undov belgilaridan biri qo‘yiladi va har bir gap bosh harf bilan boshlanadi.

Muomala vositasining eng kichik birligi gap hisoblanadi. Gap nisbiy tugallangan fikrni bildiradi. Gap quyidagi xususiyatlarga ega:

1.Gap muomala vositasining eng kichik, asosiy birligidir.

2.Nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi.

3.Grammatik shakllangan bo‘ladi (bosh va ikkinchi darajali bo‘laklardan iborat).

#### 4.Tugallangan ohang bilan aytildi.

Gap voqeа-hodisa haqidagi xabarni, so‘roq yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik butunlikdir. Gap so‘z birikmasidan kesim va ega yoki faqat kesim bo‘laklariga aloqador grammatik asosi borligi bilan farq qiladi, so‘z birikmasi tushuncha, gap fikr ifodalaydi. Grammatik asosda gapning fikriy mundarijasi ifodalanadi. Bu fikriy mundarija fe‘l kesimning mayl va zamon ma`nolari bilan bog‘liq bo`ladi. Masalan, *Bolalar ishlayaptilar*. *Ozoda rasm chizmoqda* gaplari ish-harakatning hozirgi zamonda bo`layotganidan darak bersa, *Bolalar ishladi*. *Ozoda rasm chizdi* gaplari esa ish-harakatning o‘tgan zamonda bo‘lganidan darak beradi. *Siz dalaga borasizmi? Sen hikoyani o`qidingmi?* gaplari o‘tgan zamonda bo‘lgan ish-harakat haqida so‘roqni bildiradi. *Siz she’rni o‘qing. Siz shu ishni bajarib qo‘ysangiz* gaplari istak-buyruq ma’nolariga ega.

Gap tarkibidagi so‘zlar ham ma`no tomondan, ham grammatik tomondan o‘zaro bog‘lanadi.

Morfologiya bo`limida o‘rganilgan *kelishik, egalik, son, zamon, shaxs-son* qo‘srimchalari, shuningdek, *ko‘makchi va bog‘lovchilar* sintaksisda so‘zlarni o‘zaro bog‘lash uchun xizmat qiladi. Ayrim hollarda gapdagi so‘zlar tartib va ohang yordamida ham o‘zaro bog`lanadi: *Oq paxtalar ochildi, Teraylik quvnab-quvnab*. (Qo‘sish). Bu gapda *oq* va *paxtalar* so‘zlari bir-biri bilan so‘z tartibi orqali bog‘langan. Har bir gap biror maqsadni-mazmunni ifodalaydi. Og‘zaki nutqda ana shu mazmunga mos keladigan tugal ohang bo`ladi. Ohang ayni bir vaqtda gaplarni bir-biridan ajratib ham turadi. Ohang gap uchun eng muhim belgidir. Ayrim so‘z (*Kuz. Tong*) yoki so‘z birikmalarini tugallik ohangi bilan aytsak, gap yuzaga keladi va biror fikr-maqsad anglashiladi: *Ko‘m-ko‘k dala. G‘arbiy chegaralardan biri*. Ayni bir sodda gapning ohangini o‘zgartirish orqali ba’zan uch xil mazmun ifodalash mumkin: *Buvijonim keldilar. –Buvijonim keldilar! –Buvijonim keldilar?* Yozma nutqda ana shu ohangga qarab har bir gap oxiriga yo nuqta (.) yo so‘roq (?) yoki (!) belgisi qo‘yiladi.

#### Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari

Har bir gapda ma’lum bir maqsad, niyat yoki his-hayajon ifodalanadi. So‘zlovchi biror narsa, voqeа-hodisalar to‘g‘risida ma’lumot olishni istaydi, tinglovchiga biror ishni bajarish bo`yicha buyruq-xitobini bildiradi. Gaplar ana shu maqsadlarga ko‘ra turlicha quriladi: o‘ziga xos grammatik xususiyatlarga ega bo‘lib, alohida ohang bilan talaffuz etiladi.

Gap quyidagicha tasniflanadi.

I. Ifoda maqsadiga ko‘ra gaplar: 1) *darak gap*; 2) *so‘roq gap*, 3) *buyruq gap*, 4) *istak gapga* bo‘linadi. Darak, so‘roq, buyruq va istak gaplar egali va egasiz, yug‘iq va yoyiq, sodda va qo‘shma gap shaklida bo‘lishi mumkin.

**Darak gap.** Darak, xabar ma’nosini bildiruvchi gaplarga ***darak gaplar*** deyiladi. Darak gaplar oxiriga yozuvda doimo nuqta qo‘yiladi.

***So‘roq gap.*** So‘roq ma`nosini bildirgan gaplar ***so‘roq gaplar*** deyiladi.

So‘roq gap so‘zlovchi o‘zi bayon qilgan fikriga suhbattoshining munosabatini bilishga qaratilgan bo‘ladi. So‘roq gaplar quyidagicha shakllanadi:

a) -mi, -chi, -a, -ya (so‘roq yuklamalari) ishtirokida: *Manzura kelmadimi?*

b) so‘roq olmoshlari (*kim?*, *nima?*, *qayer?*, *qancha?*) yordamida: *O‘sha vaqtida necha yoshda eding?*

d) so‘roq ohangi yordami bilan; -*Uyga mehmon keldi*. -*Mehmon keldi?*

-*Tunda yo‘lga chiqamiz*. – *Tunda?*.

Yozuvda so‘roq gap oxiriga «?» belgisi qo‘yiladi.

So‘roq yuklamalari orqali ifodalangan so‘roq gaplar **ha** yoki **yo‘q** javoblarini talab qiladi.

So‘roq olmoshlari yordamida ifodalangan so‘roq gaplar so‘roqqa javob bo‘lувчи so‘zni talab qiladi: -*Ko‘chatlarga kim suv qo‘ydi?* –*Salim*.

Yozuvda -*mi* yuklamasi kesimga qo‘shib yoziladi. -*chi*, -*a*, -*ya* yuklamalari esa o‘zi qo‘shilayotgan so‘zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

Ritorik so‘roq gaplar javob talab qilmaydi, javobi shu gapning o‘zida bo‘ladi. So‘roq gap kesimi bo‘lishsiz fe’llar bilan ifodalangan bo‘Isa, darak gap tasdiq ma’nosini bildiradi: *Onani kim sevmaydi?* (*Onani hamma sevadi*); aksincha, bo‘lishli fe’llar bilan ifodalangan bo‘Isa, inkor gap ma’nosini bildiradi. Masalan, *Bu daraxtni kesishga kim jur‘at qiladi*. («Bu daraxtni kesishga hech kim jur‘at qilolmaydi» ma’nosini bildiradi). *Tinch uyda janjal bo‘lishini kim istaydi?* (Tinch uyda janjal bo‘lishini hech kim istamaydi).

So‘roq gap orqali ifodalangan darak ma’nosi darak gap orqali ifodalangan darak ma’nosidan kuchliroq bo‘ladi.

Shuningdek, so‘roq gap shakli orqali buyruq ma’nosi ham ifodalanishi mumkin. Masalan, - *Yurmaysizmi?* («yuring» ma’nosida). So‘roq gap orqali ifodalangan buyruq ma’nosi buyruq gap orqali ifodalangan buyruq ma’nosidan kuchliroq bo‘ladi.

Darak ma`nosini ifodalagan so‘roq gaplarga *so‘roq-darak* gaplar, buyruq ma`nosini bildirgan so‘roq gaplarga esa *so‘roq-buyruq* gaplar deyiladi.

**Buyruq gap.** Buyurish, da`vat qilish ma`nolarini bildirgan gaplar buyruq gap deyiladi: *chiroyli yoz*.

Buyruq gaplarning kesimi buyruq shaklidagi fe’llar orqali ifodalanadi. Buyruq gap oxiriga nuqta qo‘yiladi.

Ayrim hollarda uchinchi shaxs buyruq maylidagi fe’llar bilan ifodalangan gapning kesimi II shaxs ma’nosida qo‘llaniladi. Masalan, *Chekmanг o‘rnida Chekilmасин*. *Uyga kiring* o‘rnida *Uyga kirilsin*. Bunday vaqtida iltifot, mulozamat bildirish, kesatiq kabi ma’nolar ifodalanadi.

Buyruq gapning kesimi odatda gap oxirida keladi. Ba’zan buyruqni kuchaytirish, do‘q-po`pisa ma’nosi ifodalanganda kesim gap boshida keladi. Masalan, *Qo‘ligizni оling* o‘rniga *Oling qo‘lingizni*.

**Istak gap.** Kesimi – *sa* shaklidagi fe’llar orqali ifodalangan gaplar istak gap hisoblanadi. Yozuvda istak gaplar oxiriga nuqta qo‘yiladi: *Xorijiy tillarni yaxshi o‘rganib, chet ellarga o‘qishga borsam*.

**II.Gap his-hayajon ishtirokiga ko‘ra** ikki turga bo‘linadi: 1) his-hayajonsiz gaplar; 2) his-hayajon (undov) gaplar. Darak, so‘roq va buyruq gaplar his-hayajonsiz gaplardir. Bular nutqda kuchli his-hayajonga ega bo‘lishi bilan his-hayajon gaplarga aylanishi mumkin. His-hayajon gaplar *undov gap* deb ham

nomlanadi. Undov gap fikrni kuchli his-hayajon bilan ifodalaydigan, kuchli ohang bilan aytildigan gapdir. Ular *shodlik*, *quvonch*, *suyunish*, *qo'rquv*, *tantana*, *taajjub*, *qayg'u*, *afsuslanish* kabi turli hissiyotlarni ifodalaydi va baland ohangda aytilishi bilan boshqa gap turlaridan farq qiladi. Yozuvda undov gapning oxiriga undov belgisi *qo'yiladi*: *Voy, qomattingdan onang o'rgilsin!* (A.Q.) *O'z qilmishlaringizdan uyalmaysizmi?* (A.Q.) *Qadamlaringizga hasanot!* (A.Q.) Salomlashish - so`rashish, xayrlashish singari holatlar bilan bog`langan gaplar ham yuqori ohang bilan aytildi (*To'y muborak! Xayr do'stim!*) va undov gaplar hisoblanadi.

Agar so`roq gap his-hayajon bilan aytilda oldin so`roq belgisi undan so`ng undov belgisi ishlatiladi: *Chiqmaysizmi?! Aytsangiz-chi, nima dedi?! Qo'shiqdan kim bahra olmaydi??*

His hayajon gaplarda ko`pincha *qancha*, *naqadar*, *shunchalar*, *qanday* so`zлari hamda undov so`zлar ishtirok etadi yoki kesim gapning oldida keladi: *Oh, naqadar go'zal ona tabiat!* Yozuvda his-hayajon gaplar oxiriga undov (!) belgisi *qo'yiladi*. His-hayajon (undov) gaplarda kesim ko`pincha gapning oldida keladi, tarkibida ko pincha *eh*, *oh* singari undov so`zлari ishtirok etadi va kuchli hayajon bilan talaffuz qilinadi. Shuning uchun yozuvda undov gapdan so`ng undov belgisi *qo'yiladi*.

**III. Gap modallikka ko`ra yoki voqelikka munosabatiga ko`ra tasdiq** va inkor mazmunida bo`ladi. Tasdiq va inkor tilda turli vositalar yordami bilan ifodalanadi (leksik, morfologik, sintaktik, intonasion vositalar). Gapning barcha turi tasdiq yoki inkor xarakteriga ega bo`ladi; *Bodom gulladi. Yomg 'ir yog 'madi.*

*-Qo'shiq aytasizmi? -Qo'shiq aytmaysizmi?*

**IV. Gap tuzilishiga ko`ra ikkiga bo`linadi:** sodda gaplar va qo`shma gaplar.

Grammatik asosi bitta bo`lib, ma'lum bir fikrni (ba`zan unga qo`shimcha ravishda his-hayajonni) ifodalovchi gaplar sodda gap deyiladi: *Shahnoza o'qidi. Shahnoza kitobni o'qidi. Shahnoza shu kitobni o'qidi. Shahnoza shu kitobni hayajon bilan o'qidi* kabi. Ikki va undan ortiq grammatik asosdan tashkil topib, murakkabroq fikr anglatuvchi gap qo`shma gap deyiladi: *Shu payt eshik ochildi va hovliga harbiycha kiyingan bir yigit kirib keldi.* (I.R.) *Bilimli o'zar, bilimsiz to'zar.* (Maqol) *Odam borki, odamlarning naqshidir.* (Navoiy).

Gap uchun muhim belgi kesimlikdir. Kesimlik belgisining miqdori gaplarni sodda va qo`shma gaplarga ajratishga asos bo`ladi.

### Savol va toshiriqlar

1. Sintaksisning o`rganish obyekti haqida ma'lumot bering.
2. Sintaktik bog`lanish ko`rinishlari haqida ma'lumot bering.
3. Tobe bog`lanish turlarini misollar asosida tushuntiring.
4. So`z birikmasi va qo`shma so`z munosabatini yoriting.
5. So`z birikmasi asosida shakllangan qo`shma so`zlarni tahlil qiling.

### Testlar

1. Ravish ishtirok etgan qatorni belgilang.
- A) Olimjon jo`rttaga qattiq ovoz bilan gapirdi.  
B) Zalga shoshib Zunnunov kirib keldi.

- S) Moviy osmonda kul rang bulutlar sayr qilmoqda.  
 D) Ernazar aka uning ko‘zlariga tikilib qaradi.
- 2.Gapda ravishga xos sintaktik vazifani aniqlang.
- A) aniqlovchi B) kesim S) hol D) ega  
 3.Tarz (holat) ravishi qaysi gap tarkibida qo‘llangan?  
 A) G‘ulomjon otasi yonida turib atrofga qaradi.  
 B) Kechagi topshiriq o‘z vaqtida bajarildi.  
 S) Oyqiz uning qo‘qqisdan g‘oyib bo‘lgani to‘g‘risida o‘ylab, vahimaga tushdi.  
 D) Sayohatchilar yuqoriga ko‘tarilib, qarag‘ayzor va archazorga etdilar.
- 4.Yordamchi so‘zlar ishtirok etgan gapni aniqlang.
- A) Inson go`zallik uchun intiladi, yorqin ufqlar sari oshiqadi.  
 B) Zokir ota, shubhasiz, tajribali paxtakor, qo‘li gul odam.  
 S) Eh, bugun toqqa ketamiz  
 D) Xotin yaktakni olib yoniga qo‘ydi, aftidan, hozir tikmoqchi edi.
- 5.Vosita ma’nosini ifodalaydigan ko‘makchi qaysi qatorda qo‘llangan?  
 A) Muhayyo bu sodda, beg‘ubor bolaga havas bilan qaradi.  
 B) Haligacha majlis uchun xonamiz yo‘q.  
 S) Ismat bobo hassasi bilan eshikni ochib kirib keldi.  
 D) Avtobus shahar markaziga kirib borgan sari yo‘lovchi ko‘payar edi.
- 6.Kelishik qo‘shimchasi o‘rnida ko‘makchi qo‘llanishi mumkin bo‘lgan qatorni toping.
- A) Saida kulib yubormaslik uchun labini tishladi.  
 B) Radiodan sening quvnoq ovozingni hamma eshitdi.  
 S) Mehnat, kitob, do‘slik haqida suhbat qizg‘in davom etdi.  
 D) Do‘sining holatini diqqat bilan kuzatib turgan Xotam sekin kului.
- 7.*Dam yomg‘ir yog‘adi, dam havo ochiladi.* Ushbu gap tarkibida bog‘lovchining qaysi turi qo‘llangan?  
 A) biriktiruv bog‘lovchisi B) zidlov bog‘lovchisi S) ayiruv bog‘lovchisi D) ergashtiruvchi bog‘lovchi
- 8.Ergashtiruvchi bog‘lovchi qo‘llangan qatorni toping.
- A) Olim Sharq xalqlarining madaniyati to‘g‘risida hurmat va iftixor bilan gapirdi.  
 B) Hozir yo shamol bo‘ladi, yo yomg‘ir yog‘adi.  
 S) Qishloq obod bo‘ldi, shuning uchun ko‘nglim shod.  
 D) Quyosh dam yalt etib bir ko‘rinib qoladi, dam bulutlar ichiga bekinib oladi
- 9.*Tog‘larda hatto yoz oylarida ham yomg‘ir yog‘adi.* Ushbu gapda yuklamaning qaysi turi qo‘llangan?  
 A) so‘roq yuklamasi B) ta’kid yuklamasi  
 S) ayiruv yuklamasi D) kuchaytiruv-ta’kid yuklamasi
- 10.Qanday hollarda jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi **-qa** shaklini oladi?  
 A) jo‘nalish kelishigi q bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilsa  
 B) **g‘** bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda  
 S)-**k**,-**q** bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda  
 D) A va B

## **Asosiy tushunchalar glossariysi**

**Sintaksis** -so‘zlarningva gaplarning (qo‘shma gap doirasida) o‘zaro bog‘lanish qonun-qoidalarini, ularning turlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi

**Grammatik bog‘lanish-** bir so‘zning boshqa so‘zga ma’lum grammatik vositalar (grammatik qo‘shimchalar, yordamchiso‘zlar) orqali bog‘lanishi

**Teng bog‘lanish** – ikki so‘zning teng huquqli, biri ikkinchisiga tobelanmay bog‘lanishi

**Tobe bog‘lanish** – bir so‘zning (tobe so‘zning) boshqa bir so‘zga (hokim so‘zga) bo‘ysunishi orqali bog‘lanishi

**So‘z birikmasi**—tobe qismning hokim qismga kelishik, egalik qo‘shimchalari, ko‘makchilar va tobelashtiruvchi ohang yordamida bog‘lanishi

**So‘z birikmalari zanjiri**—gap tarkibida bir so‘z birikmasidagi hokim so‘z boshqa bir so‘zga tobelaqan, bir hokim so‘z bir necha tobe so‘z yoki bitta tobe so‘z bir nechta hokim so‘zga aloqador bo‘lgan so‘z birikmalari

**So‘z birikmasi**—so‘zlarning grammatik aloqaga kirishuvidan yuzaga keladigan birikma

## **Asosiy adabiyotlar**

1. Abduazizov A.Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010.-157-161 б.
2. Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68.
3. Ирисқулов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.220-226 б.
4. Rasulov R.Umumiyl tilshunoslik. -Toshkent, 2013. -Б.-196-204; 205-210.
5. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007. -Б.86-89
- 6.Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-Т .2006-2008

## **Qo‘shimcha adabiyotlar**

- 1.Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкоznание.- Тошкент, 2004.-Б.4-9
- 2.Ирисқулов И.Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.241-246
- 3.Щитка Н.Н., Юсупова К.Н.Введение в языкоznание. -Тошкент, 2006.-Б.21-27.
- 4.Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.-Тошкент, 2002.-Б.14-32.
- 5.Қ. Махмудов. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси.-Тошкент,1992.
- 6.[www. literature.uz](http://www.literature.uz)
- 7.[www. genhis philol.ru](http://www.genhis.philol.ru).

## 14-§. DUNYO TILLARINING TIPOLOGIK TASNIFI

### Reja:

- 1.Tillarni tasniflash mezonlari.
2. Tillarning morfologik tasnifi.
3. Tillarning geneologik tasnifi.

**Asosiy tushunchalar:** *nostratik nazariya, morfologik tasnif, agglyutinatsiya, agglyutinativ tillar, flektiv tillar, qardosh tillar, til oilasi, turkiy tillar oilasi, hind-yevropa tillari oilasi, xom-som tillari oilasi, ugor-fin tillari oilasi, kavkaz tillari oilasi, xitoy-tibet tillari oilasi, dravid tillari oilasi, indonez tillari oilasi.*

Yer yuzida tillar ko‘p. Olimlarning hisob-kitobiga ko‘ra ularning miqdori **3000** dan ortiq (yangi manbalarga ko‘ra 5000ga yaqin). 200ta tilda – 1mlndan ortiq, 70ta tilning har birida – 5 mlndan ortiq, 13ta tilning har birida – 50 mlndan ortiq, qolgan tillarning har birida 1 mlndan ortiq aholi so‘zlashadi. Tillarning barchasi insonlar o‘rtasidagi aloqa aralashuvni ta’minlash vazifasini bajaradi. Har bir til asrlar davomida rivojlanib, boyib boradi. Jamiyatdan uzilgan, insonlarning o‘zaro aloqasiga xizmat qilmaydigan til o‘lik tildir. Demak, til jamiyatga, ya’ni odamlarning o‘zaro munosabatga kirishuviga xizmat qiladi, shuning uchun ijtimoiy hodisa sanaladi.

Dunyo tillari turli tamoyillar asosida tasnif qilinadi. Tasniflashda morfologik, tipologik, geneologik tamoyillar asosida yondashiladi.

Dunyo tillari morfolik tamoyilga asosan to‘rt guruhga ajratiladi: agglyutinativ, flektiv, amorf, polisintetik tillar. Turkiy tillar, yapon tili agglyutinativ hisoblansa, rus, arab tillari flektiv tillar guruhiga kiradi.

*Tillarni guruhlarga ajratishda bir qancha mezonlar mavjud: so‘zlar tartibi yoki tarixi asos qilib olinishi mumkin. Biz ikki narsani oldindan belgilab olishimiz kerak. Avvalo, tillar qiyosida ikki til elementlari o‘zaro zidlanadi, ikkinchidan, vengr tilidagi bir so‘z ingliz tilidagi bir necha tillarga o‘xshab ketishining sababi. Ingliz tilidagi so‘zlar o‘zaro morfemalarsiz bog‘lanadi. Vengr tili agglyutinativ til bo‘lganligi uchun uzun so‘z bir necha morfemalardan iborat bo‘ladi, ular o‘zaro ajraladi va ularning hammasida sezilarli ma’no bo‘ladi: el+allat+i+as+od+ott+sag+a+ban va ingliz tilida har bir morfema yangi so‘zga o‘xshab ketadi. Biz buni ingliz tilidagi ko‘pgina so‘zlarning morfemalardan tashkil topganidan ham ko‘rishimiz mumkin; egiink, evett, enni kabi so‘zlardagi e nimani bildiradi? Bu kabi so‘zlar flektiv tillarga xosdir. Ya’ni e morfemasi moslashuvchan. Flektiv tillarda so‘zlarning qaysi morfema bilan boshlanishi yoki tugashi aniq emas.* <sup>31</sup>

Affiksal morfemalar o‘zak morfemaga birikish xususiyatiga ko‘ra muayyan tilning o‘ziga xos jihatlarini namoyon qiladi. O‘zak morfemalarning tabiatiga ko‘ra tillar asosan agglutinativ va flektiv tillarga bo‘linadi <sup>32</sup>.

<sup>31</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-P.42

<sup>32</sup> Agglyutinatsiya-lotinchha «yopishtirish» ma’nosini; fleksiya «bukilish» ma’nosini anglatadi.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili affiksal morfemalari tabiatiga ko'ra agglyutinativ hisoblanadi. Agglutinatsiya «ketma-ketlik», «yopishtirish» ma'nosidagi so'z bo'lib, qo'shimchalarining o'zakka ma'lum tartib va ketma-ketlikda qo'shilishidan dalolat beradi. Bunday hollarda o'zak va qo'shimchalar chegarasi sezilib turadi. Agglutinativ tillarda so'z shakllari o'zgarmas holda qo'shiladigan affikslar yordamida yasaladi. Bunday tillarda affikslar asosan bir grammatik ma'noni ifodalaydi. Masalan, *-lar* faqat ko'plik qo'shimchasi sifatida qaraladi. Mazkur qo'shimchaning boshqa hollarda ifodalagan hurmat, kesatiq, kinoyani bildiruvchi grammatik ma'nolari uslubiy jihatlari hisoblanadi.

Ta'kidlanganidek, turkiy tillarda (o'zbek tilida) o'zakka dastavval, so'z yasovchi qo'shimchalar (morfemalar), keyin lug'aviy shakl yasovchi va oxirida sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar birikadi: *tila-k-lar-imiz-ni*. Bu qat'iy qoida morfem tahlilda, ya'ni so'zlarni ma'noli qismlarga ajratishda ham muhim. Masalan, *o'rtoqlarcha, mardlarcha* so'zlari *o'rtoq-lar-cha, mard-lar-cha* ko'rinishida emas, *balki o'rtoq-larcha, mard-larcha* tarzida ma'noli qismlarga ajratiladi.

Flektiv tillarda o'zak morfema va affiksal morfema chegaralari sezilmaydi. Rus tili, arab tili flektiv tillarga mansubdir: *судем-вижу; ходим-хожу; hukm-mahkama-hokim-hakam-mahkum; fikr-tafakkur-mutafakkir; zulm-zolim-mazlum; hol-ahvol; xulq-axloq; she'r-ash'or*.

Geneologik tasnif tillarni kelib chiqishiga ko'ra muayyan guruhlarga ajratadi.

Dunyoda yigirmadan ortiq til oilasi bor. Hozirgi vaqtida tarixi o'rganilib, qardoshligiga, yaqinligiga ko'ra ajratilgan til oilalari quyidagilardan iborat.

Hozirgi tilshunoslik fanida tillar o'rtasida genetik aloqadorlikning yangi qirralarini ochilmoqda. Taxminan 200 til oilasidan 22tasi Yevrosiyoga, 20ga yaqini Afrikaga, qolganlari Amerika, Avstraliya, Yangi Gvineyaga to'g'ri keladi. XIX asr oxirida, asosan, 4 ta til oilasi ajratilgan: turkiy, mo'g'ul, tungus-manchjur, koreys tillari. XX asrda mazkur tillarning qardosh ekanligi ta'kidlandi va umumlashtirilib *oltoy tillar oilasi* deb nomlandi. Bu kabi an'anaviy til oilalaridan kengroq bo'lgan, bir-biriga qardoshligi to'la asoslanmagan til oilalarini "makro ti loilalari" deb nomlash taklif qilingan. V.M.Ilyich-Svitich tadqiqotlarida aks etgan nostratik gipoteza (lotin tilida *noster* "bizniki" ma'nosini beradi) til oilalarini yanada kengroq doiradagi genetik asosga birlashtirishni nazarda tutadi. Nostratik makrotiloиласига hind-yevropa, ural, oltoy, kartvel, dravid tillari kiritilgan. Bu tillar o'rtasidagi o'xshashlik, asosan, olmoshlarda kuzatiladi:

tatap. мин, mord. мон, "men"; zansk. *munens*, rus. *мне*;

mar. тый, mo'g'. *ci (>x ti)*, rus. *ты*;

udm. ми, teleut *memu*, xaysa *mu*, rus. *мы*;

komi *maiо*, mo'g'. *tere*, rus. *mom*;

o'zb. ким, fin. *ken*, somali *kuma* "kim".

O'zaro o'xshashlik bir qator leksik asoslarda ham kuzatiladi:

turkiy *qulaq*, gruz. *quri* "quloq", fin. *kuule*, yun. *klyo* "eshitmoq";

turkiy *qaryn* "qorin", arab. *qurb*, tamil *karuppai*, lat. *corpus* "tana";

mo‘g‘. *moren* “daryo”, tamil *marai* “yomg‘ir”, rus *mope* ;  
 turkiy *tuman*, rus. *темный*;  
 turkiy *kelin*, lat.*glos*, rus *золовка*, fin. *kaly* “ukaning xotini”;  
 turkiy *qara*, teleut *kari*.

Nostratik gipoteza muayyan faktik materiallarga ega bo‘lsa-da, hali ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan emas.

Oltoy tillari o‘rtasida ko‘plab o‘xshashliklar kuzatiladi. Masalan:  
 turkiy – *qol*, xalxa – *гол* (geografik nom), manchj. *dolo*, kor. *кол*  
 “vodiy”;

turkiy *baj*, mo‘g‘. *bajan*, tung.-manchj. *bajan* “boy”;  
 turkiy *bek*, *beki*, tung.-manchj. *beki* “berk”;  
 turkiy *san* “sana”, mo‘g‘. *sana-* “*bilmoq*”, tung.-manchj. *sa-* “*bilmoq*”;  
 mo‘g‘. *moren* “daryo”, evenk. *my*, kor. *мул* “suv”;  
 mo‘g‘. *modun*, tung-manchj. *mo* “daraxt”, kor. *мой* “o‘rmon, tog”.

O‘zbek tilidagi *мен* mo‘g‘ul tilidagi *minu* “menga”, evenk tilidagi *минду* “menga” so‘zlariga mos keladi. O‘rin-payt kelishigi turkiy tillarda *-da*, mo‘g‘ul tilida *-da*, tungus-manchjur tilida *-de*.<sup>33</sup>

Turk, mo‘g‘ul, tungus-manchjur, koreys tillarida aksariyat o‘rinlarda fonetik moslik kuzatiladi.

Oltoy oilasidagi tillarning o‘xshashligi, ayniqsa, so‘z yasalishi tizimida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Til oilalarini o‘rganish tilshunoslarning dastlabki e’tiborida bo‘lgan. Jumladan, oltoy tillari oilasiga kiruvchi tillar xususida tadqiqotlar olib borilgan. Xusan, N.A. Baskakovning “Алтайская семья языков и ее изучение”; V.Kotvichning “Исследование алтайских языков”, N.P. Direnkovaning “Грамматика алтайского языка” kabi izlanishlari shular jumlasidandir.

Tillarni bir-biriga muqoyasa qilib, taqqoslab o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ba’zi tillardagi so‘zlarning ma’nolari, shakllari, grammatic xususiyatlari bir-biridan juda katta farq qiladi. Albatta, bunday tillar bir-biriga yaqin, qardosh tillar bo‘la olmaydi. Ammo ba’zi tillarning tuzilishi, grammatic xususiyatlari, shu tillardagi so‘zlarning paydo bo‘lish manbai, so‘z shakllari va ma’nolari bir-biriga ancha yaqin bo‘ladi. Bunday tillar bir umumiyl o‘zakli tildan kelib chiqqan bo‘lib, **qardosh tillar** deyiladi. Grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo‘lgan tillar guruhi **til oilasi** deb ataladi. Chunonchi, o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, tatar, boshqird, ozorbayjon, yoqut, turkman, qoraqalpoq, turk, chuvash tillari kabilar turkiy tillar oilasiga kiradi. Bu qardosh tillardagi o‘xshashlik, yaqinlik ularning so‘z boyligi, grammatic qurilishi va nutq tovushlarida ifodalananadi.

Shuni ham ko‘rsatib o‘tish kerakki, qardosh bo‘limgan ba’zi tillarning so‘z boyligida alohida so‘zlarning ma’no jihatidan o‘xshashlik hodisalari uchrashi mumkin. Bunday hodisa bir tilga qarindosh bo‘limgan boshqa bir tildan kirgan so‘zlarda uchraydi. **Masalan**, o‘zbek tiliga arab tilidan: *oila*, *maktab*, *lug‘at*, *kitob* singari, rus tilidan *samovar*, *mashina*, *stol*, *stul*, *choynak* kabi anchagina so‘zlar

<sup>33</sup> Шайкевич А.Я., Абдуазизов А.А., Гурджиева Е.А. Введение в языкознание.-Т.:Ўқитувчи, 1989.-С.228.

o‘zlashgan. Lekin bunday so‘zlar o‘zbek tilining arab tili yoki rus tili bilan qardosh til ekanligiga asos bo‘lmaydi, chunki birinchidan, bunday tillarning qarindosh ekanligini isbot qilish uchun faqat so‘zning o‘zi asos bo‘la olmaydi. Ikkinchidan, har bir tilning so‘z boyligida boshqa tildan kirgan so‘zlar juda ozchilikni tashkil etadi va ularning grammatic xususiyatlari butunlay boshqacha bo‘ladi. Uchinchidan, tarixiy taraqqiyot jarayonida turli munosabatlar tufayli boshqa tillardan kirib qolgan bunday tasodifiy so‘zlar tillarning tarixini solishtirib, taqqoslab o‘rganishda material bo‘la olmaydi, chunki bunday tillarning tuzilishi bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi.

Rus, bulg‘or, chex, polyak tillari ham bir oiladagi qardosh tillarga qarashli bo‘lganligi uchun bu tillarda so‘z ma’nolari, grammatic tuzilishlari jihatidan birmuncha o‘xshashlik, yaqinlik bor.

Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, qardosh tillarda so‘z o‘zaklari grammatic vositalar jihatidan farq qilsa ham, ularning manbai bir bo‘lib, ular bir o‘zak tildan kelib chiqqan. Biror so‘z yoki grammatic vositalardagi tovush o‘zgarishlari ma’lum bir fonetik qonuniyat asosida yuz bergan. Bir qardosh tilga, bir tovushga ikkinchi bir qardosh tildagi shunga muvofiq tovush to‘g‘ri keladi. Masalan, o‘zbek tilidagi g tovushiga qozoq tilidagi v (w) tovushi muvofiq keladi: **bog - bav (baw), tog - tau (taw)** : o‘zbek tilidagi t tovushiga ozarbayjon tilidagi d tovushi muvofiq keladi: **temir-demir, til-dil**; Qardosh tillardagi tovushlarning bir-biriga muvofiq kelishi fonetik qonunga asoslangandir hamda qardosh tillardagi so‘zlarning ma’nolari va grammatic qurilishi bilan bog‘liq.

Demak, qardosh tillar oilasiga kiramagan tillarda ba’zi tovushlar bir-biridan ozmi-ko‘pmi farq qilsa ham, grammatic vositalar, so‘zlarning ma’nolari o‘zaro yaqin bo‘ladi.

Tilning boyligi irqning oq yoki sariq ekanligiga bog‘liq emas. Shunday qilib, geneologik tasnif qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir o‘zak tilidan tarqalganligini va ularning o‘zaro munosabatini, so‘z ma’nolari va grammatic shakllarini, nutq tovushlarining bir-biriga yaqinligini, o‘xshashligini nazarda tutib, tillarni guruhlarga ajratadi.

*Bir tilning turli ko‘rinishlarga ega bo‘lgan dilalektlari yoki ularning alohida tillarga aylanishiga nima sabab bo‘lishi haqida savol paydo bo‘lishi mumkin. Dialektal farqlarni ajratishdagi chegara chizig‘i xuddi alohida tillar o‘rtasidagi farqlarni ajratish kabi oson emas. Dialektal farqlar o‘xshashliklarning chegaralanishini, yangi, mustaqil tillarning paydo bo‘lishini boshqaradi. Bu tillar ular o‘rtasida o‘zaro farq bo‘lishiga qaramasdan, o‘zaro o‘xshash xarakterga ega ekanligi ham ma’lum. Ular “ajdod” yoki proto-tildan ajralib chiqqandan buyon genetik bog‘langan tillar deb ataladi, xuddi bitta onaning (proto-til) singlisi, qizi bo‘lgani kabi. Bu kabi “singillar”, masalan, Skandinaviya tillari tarkibiga kiruvchi shved, norveg, daniya tillari o‘rta asrlarda ajralib chiqqan va hozir ham o‘xshashliklar aniq ko‘rinib turadi. Skandinaviya tillari German guruhining shimoliy tarmog‘idir. Boshqa german tillari ingliz, fransuz, nemis, flemish, afrikan, yeddish va gotik kabi bir necha o‘lik tillardir. German tillari til oilasining Hind-Yevropa guruhiga kiruvchi juda*

*ko‘p tillar bilan o‘zaro aloqador. Hind-Yevropa tillar oilasi quyidagi asosiy tarmoqlarni o‘z ichiga oladi:*

*Alban*

*Grek*

*Anatoliya*

*Toxar*

*Hind-eron*

*a) eron*

*b) hind-aryan*

*Arman*

*Boltiq-Slavyan*

*a) boltiq*

*b) slavyan*

*German*

*a) shimol (island, norveg, danya, shved)*

*b) sharq (got)*

*c) g‘arb (ingliz, flemish, afrikan, nemis)*

*Kelt (vels, breton, shotland gal, irland gal)*

*Italian*

*Roman tillari (fransuz, ispan, italyan).<sup>34</sup>*

Hozirgi vaqtida tarixi o‘rganilib, bir-biri bilan qardosh ekanligi aniqlangan tillar oilasi quyidagilardan iborat.

1. *Hind-yevropa tillari oilasi.*
2. *Xom-som tillari oilasi.*
3. *Turk tillari oilasi.*
4. *Ugor-fin tillari oilasi.*
5. *Kavkaz tillari oilasi.*
6. *Xitoy-tibet tillari oilasi.*
7. *Dravid tillari oilasi.*
8. *Indonez tillari oilasi kabilar.*

I.**Hind-evropa tillari oilasiga** *hindiston, eron, slavyan, boltiq, german, roman, kelt, grek (yunon), alban, arman tillari* kabi til guruhlari kiradi.

**1.1.Hindiston tillari guruhi**ga quyidagi tillar kiradi: *hind tili, urdu tili, bengal tili, maratxi tili, panjob tili, rajastoni tili, gujarati tili*. Hind tillari guruhi *lo‘li, sindxi tillari, shuningdek, o‘lik* tillardan *sanskrit, pali, prokrit* tillari ham kiradi. Sanskrit tili qadimgi hind mumtoz adabiy tili bo‘lib, bu tilda «*Mahabxarata*» («Bxaratlarning buyuk jangi haqida doston») hamda «*Xito padesha*» («Yaxshi nasihat») kabi bir qancha ajoyib epik asarlar yaratilgan. Eramizdan oldingi IV asrda hind olimi Panini o‘zining mashhur «*Sanskrit grammatikasi*» asarini yaratgan.

**I.2. Eron tillari guruhi**ga quyidagi tillar kiradi: *fors tili, pushtu-dari tillari, kurd tili, tojik tili, osetin tili, baluchi tili*.

---

<sup>34</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-P.85-86

I.3.*Slavyan tillari guruhiga* quyidagi tillar kiradi: *rus tili, ukrain tili, belorus tili, bulg'or tili, serb-xorvat tillari, chex tili, slovak tili, polyak tili*. Bundan tashqari, kashub, serboluj tillari, o'lik tillardan qadimgi *slavyan, polab, pomor* tillari ham slavyan tillari guruhiga kiradi.

I.4.*Boltiq tillari guruhiga* quyidagi tillar kiradi: *litva tili, latish tili*.

O'lik tillardan prus tili ham boltiq tillari guruhiga kiradi.

I.5.*German tillari guruhiga* quyidagi tillar kiradi: *ingliz tili, nemis tili, daniya tili, shved tili, norveg tili, golland tili, island tili*. O'lik tillardan vesgot va ostgot tillari ham german tillari guruhiga kiradi.

I.6.*Roman tillari guruhiga* quyidagi tillar kiradi: *fransuz tili, italyan, ispan tili, portugal tili, rumin tili, moldova tili, provansal tili, sardin tili, reto-roman tili*.

O'lik tillardan latin, osk, umbr tillari ham roman tillari guruhiga kiradi.

I.7.*Kelt tillari guruhiga* quyidagilar kiradi: *irland tili, shotland tili, breton tili, uels (valli) tili*. O'lik tillardan gal va kornoul tillari ham kelt tillari guruhiga kiradi.

I.8.*Grek (yunon) tili*. O'lik tillardan qadimgi yunon, o'rta yunon yoki Vizantiya tillari ham grek tili guruhiga kiradi.

I.9. *Alban tili guruhi*.

I.10. *Arman tili guruhi*.

Hind-Evropa tillari oilasiga, yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan tashqari, *xett, toxar* singari o'lik tillar ham kiradi.

II. **Xom-som tillari oilasi**. Bu tillar oilasi ikki katta guruhga: som tillari va xom tillari guruhiga bo'linadi.

1. *Som tillari guruhiga* quyidagi tillar kiradi: *arab tili*. Shuningdek, janubiy arab tili, amxar tili, aysar tili hamda o'lik tillardan assuriya, vavilon, xonaney, qadimgi yahudiy va oromiy tillari ham som tillari guruhiga kiradi.

2. *Xom tillari guruhiga*: *shilx, tuareg, kabil, amazirt tillari*, o'lik tillardan esa liviya, numid, shtul, qadimgi misr tillari kiradi.

III. **Kavkaz tillari oilasi**. Kavkaz tillari yana bir qancha guruhlarga, chunonchi, g'arbiy guruhga, veynax guruhiga, Dog'iston guruhiga bo'linadi.

1. *G'arbiy guruhga* quyidagi tillar kiradi: *abxaz tili, abazin tili, adigey tili, kabardin-cherkes tili*.

2. *Veynax guruhiga* quyidagi tillar kiradi: *chechen tili, ingush tili, basbi tili*.

3. *Dog'iston guruhiga* Dog'iston respublikasida yashovchi xalqlarning tillari kiradi: *avar tili, dargin tili, lazgin tili, lak tili, tabassaran tili*.

4. *Janubiy guruhga* gruzin tili kiradi. Shuningdek, 110 ming kishi so'zlashadigan chan tili, 290 ming kishi so'zlashadigan migrel tili va 15 ming kishi so'zlashadigan svan tili ham janubiy guruhga mabsub.

IV. **Ugor-fin tillari oilasi** ikki guruhga: 1) ugor tillari; 2) fin tillari guruhiga bo'linadi.

1. *Ugor tillariga* quyidagilar kiradi: *venger (major) tili, mansi tili, xanti tili*.

2. *Fin tillariga* quyidagilar kiradi: *fin tili, eston tili, komi-permyak tili, komi-ziryan tili, udmurd tili, mari tili*. Bulardan tashqari, erzya va moksha-ijor tillari ham fin tillari guruhiga kiradi.

V. **Turkiy tillar oilasiga** quyidagi tillar kiradi: *ozarbayjon tili, turk (usmonli tili, turkman tili, o'zbek tili, qozoq tili, qirg'iz tili, tatar (Qozon tatarlari) tili, uyg'ur tili, chuvash tili, boshqird tili, yoqut tili, qoraqalpoq tili, tuva tili,*

Shuningdek, qumiq tili (310 ming kishi so'zlashadi), qorachoy tili (100 mingcha kishi so'zlashadi), balqar tili (50 ming kishi so'zlashadi), xakas tili (60 ming kishi so'zlashdi) va yana bir qancha boshqa tillar hamda o'lik tillardan urxun, pechena, qipchoq, qadimgi uyg'ur, bulg'or va xazar tillari ham turkiy tillar oilasiga kiradi.

VI. **Mo'g'ul tillariga** quyidagilar kiradi: *xalxa-mo'g'ul tili, buryat tili, qalmiq tili.*

## VII. **Tungus-manjur tillari**

*Tungus guruhi*ga quyidagi tillar kiradi: *evenk tili, even tili.*

*Manjur guruhi*ga quyidagi tillar kiradi: *manjur tili, nanay tili, udey, ulq, oroch tillari.*

VIII. **Xitoy -tibet tillari oilasiga** tay-xitoy va tibet tillari guruhlari kiradi.

1. *Tay-xitoy guruhi*ga quyidagi tillar kiradi: *xitoy tili, dungan tili, vietnam tili, tay (siam) tili.*

2. *Tibet tillari: birma tili, assam tillari.*

IX. **Dravid tillariga** quyidagi tillar kiradi: *tamil tili, malayalam tili, kannara tili, teleut tili, braxun tili.*

X. **Malay-polineziya tillari.** Bu tillarga malay yoki indoneziya tili kiradi.

XI. **Avstraliya guruhi tillari.** Bu tillar oilasiga juda ko'p tillar kiradi, lekin ular yaxshi o'rganilmagan.

XII. **Papua tillari.** Bu tillarda so'zlashuvchilar Yangi Gvineya orolida yashaydi.

XIII. **Sudan tillari.** Sudan tillarida so'zlashuvchilar Afrikada yashaydi. Bu tillar bir necha guruhlarga bo'linadi: chunonchi: nil-chad, nil-abissan, nil-ekvator, kardofan, nil-kongo, ubang, shor niger-chad, niger-kamerun, quyi-niger, dagomey, niger-latgal, liberi va senegal- gviney guruhlari kabi.

XIV. **Bantu tillari.** Bu tillarda so'zlashuvchilar markaziy va Janubiy Afrikada yashaydi. Bu tillar: teke, songo, suaxeln, konde, makua va sotko kabi bir necha guruhlarga bo'linadi.

XV. **Paleoafrika tillari.** Bu tillarda so'zlashuvchilar ham Afrikada yashaydi. Ular ikki guruhga, ya'ni bushmen va gottentog tillari guruhi bo'linadi.

XVI. **Paleoosyo tillari.** Paleoosyo tillari ikki guruhga: *chukot guruhi va sibir guruhi* bo'linadi.

XVII. **Eskimos tillari guruhi.** Bu tillar guruhi: eskimos va aleut tili kiradi.

XVIII. **Amerika hindularining tillari.** Amerika hindularining tillari 200 dan oshiq bo'lib, ular uch guruhga: 1) *Shimoliy Amerika; 2) Markaziy Amerika; 3) Janubiy Amerika* guruhlari bo'linadi.

XIX. **Austr-Osiyo tillari.** Bu tillarga: mon-kxmer, bunda, malakk, markaziy va janubi-sharqiy tillar guruhi kiradi.

**XX. Burjaski tili.** Bu til ham hech qanday guruhga kirmaydi. Bu tilda so'zlashuvchilar 30 mingga yaqin kishi bo'lib, ular Hindistonning shimalida yashaydi.

Quyidagi tillar hech qaysi guruhga kirmaydi. Bular Uzoq Sharq tillaridir: *yapon tili, ryukyu tili, quriya (koreya) tili, ayn tili*.

Til oilalarining har qaysisi o'z ichida kichik guruhlarga bo'linadi. Xususan, turkiy tillar oilasi *qipchoq tillari guruhi, og'uz tillari guruhi, qarluq tillari guruhiga* bo'linadi. *O'zbek* va *uyg'ur* tillari qarluq guruhiga; *qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, tatar, boshqird, xakas, yoqut, chuvash* kabi tillar qipchoq guruhiga; *ozarbayjon, turkman, usmonli turk* tillari esa o'g'uz guruhiga kiradi. Turkiy tillar *qipchoq tarmog'i, o'g'uz tarmog'i, qarluq tarmog'i* singari til tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Turkiy tillarning eng qadimgi davrlaridan hech qanday yozma yodgorliklar saqlanib qolmagan, lekin qadimgi turk tili davriga oid bir qator yozma manbalarga egamiz. Ular turkiy run yoki urxun-enasoy, uyg'ur va qisman moniy, sug'd yozuvlarida bitilgan manbalaridir. Bu davrga doir obidalar tili hozirgi barcha turkiy tillar uchun umumiyyidir.

Mahmud Koshg'ariy tilshunoslik tarixida ilk bor barcha turkiy tillarning bir necha guruhlarini tasniflab, ular o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlagan holda "qiyosiy-tarixiy tilshunoslik" deb nomlanuvchi yo'nalishga asos soldi.

Qoraxoniylar davri adabiy tili hozirgi Markaziy Osiyodagi barcha turkiy tillarning shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'lgan til sanaladi va shuning uchun bu davr tili ko'pchilik turkiyshunoslar tomonidan *eski turkiy til* deb yuritaladi.

«Devonu lug'otit-turk»dagi ma'lumotlarga qaraganda, o'sha davrda *bajanak, qipchoq, o'g'uz, boshqird, basmil, yabaqu, tatar, qirg'iz, chigil, tuxsi, yag'mo, ig'rak, uyg'ur* kabi turkiy qabilalar tili umumturkiy adabiy tilni tashkil qilgan. Ulardan «*eng yengili -o'g'uz, eng to'g'risi, yaxshisi -yag'mo, tuxsi, eng ochiq, ravon til -xoqoniy o'lkasida yashovchilarining tili*» ekanligi ta'kidlangan.

### Savol va topshiriqlar

- 1.Tillarni tasniflash mezonlari haqida bilganlaringizni ayting.
- 2.Tillarning morfologik tasnifini yoriting.
- 3.Nostratik nazariyaning mohiyatini tushuntiring.
- 4.Tillarning geneologik tasnifi haqida ma'lumot bering.
- 5.Til oilalari haqida ma'lumot bering.
- 6.Qardosh tillarning xususiyatlarini ayting.
- 7.Qardosh tillarning farqli jihatlarini misollar orqali tushuntiring.
- 8.Turkiy tillar oilasiga xos morfologik xususiyatlar haqida fikrlaringizni bayon eting.
- 9.Turkiy til oilasiga kiruvchi tillar haqida ma'lumot bering.
- 10.Hozirda mavjud til oilalari haqidagi fikrlaringizni misollar bilan tushuntiring.

## **Testlar**

1. Turkiy tillar oilasiga qaysi tillar kiradi?  
A) chuvash, boshqird, o'zbek  
B) yoqut, xazar, rus  
S) ozarbayjon, qirg'iz, tojik  
D) tatar, rus, boshqird
2. Quyida keltirilgan qaysi tillar bir oilaga mansub?  
A) rus, bulg'or, chex, polyak  
B) tojik, turkman, qirg'iz  
S) o'zbek, ozarbayjon, tojik  
D) chex, polyak, tatar
3. Agglyutinativ tillarga qaysi tillar kiradi ?  
A) turkiy, fin-ugor , yapon , dravid , bantu  
B) fors, yapon , sanskrit  
S) nemis, rus , azarbajon  
D) tojik , turk, forscha
4. Qardosh bo'limgan til oilasini belgilang?  
A) hind-yevropa tillar oilasi  
B) dravid tillari oilasi  
S) turkiy tillar oilasi  
D) rus tillari oilasi
5. Qaysi tasnifda qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir o'zak tilidan tarqalganligini va ularning o'xshashligini nazarda tutib, tillarni guruhlarga ajratadi?  
A) geneologik tasnif  
B) tipologik tasnif  
S) differensial tasnif  
D) notipologik tasnif
6. Grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo'lgan tillar guruhiiga nima deyiladi?  
A) til oilasi  
B) tillar  
S) tillar guruhi  
D) bir xil tillar
7. Dunyoda necha xil til mavjud va ular qanday tavsiflanadi?  
A) 6000, sof tillar  
B) 5000, me'yorlashtitillar  
S) 9000, aralash tillar  
D) 3000, me'yorlashtirilgan
8. Dunyo tillari necha til oilasiga bo'linadi ?  
A) 20 ga yaqin  
B) 35 atrofida  
S) 50 ga yaqin  
D) 38 ga yaqin

9. Morfologik tasnifga ko'ra dunyo tillari nechta guruhgaga ajratiladi va ular qaysilar?

- A) ikki xil: polisintetik, morfologik
- B) ikki xil: agglyutinativ, amorf
- C) uch xil: agglyutinativ, amorf, fonetik
- D) to'rt xil: agglyutinativ, flektiv, amorf, polisintetik

10. Tillar qarindoshligini qaysi tasnif o'rganadi?

- A) tipologik
- B) morfologik
- C) geneologik
- D) tipologik- morfologik

### **Asosiy tushunchalar glossariysi**

**Agglyutinatsiya** – (lotincha «yopishtirish» ma'nosini; fleksiya «bukilish» ma'nosini anglatadi) o'zak va qo'shimchalarning muayyan ketma-ketlikda, ma'lum tartib asosida joylashuvi.

**Agglyutinativ tillar** – o'zak va qo'shimchalarning muayyan ketma-ketlikda, ma'lum tartib asosida joylashuviga asoslangan tillar.

**Geneologik tasnif** – tillarni qarindoshlik munosabatiga, kelib chiqish asoslariga ko'ra guruhlaydigan tasnif.

**Morfologik tasnif** – tillarni morfologik xususiyatlari ko'ra guruhlashga qaratilgan tasnif.

**Nostratik gipoteza yoki nostratik nazariya** – (lotin tilida *noster* "bizniki" ma'nosini beradi) til oilalarini yanada kengroq doiradagi genetik asosga birlashtirishni nazarda tutadigan qarash.

**Qardosh tillar** – tuzilishi, grammatic xususiyatlari, shu tillardagi so'zlarning paydo bo'lish manbai, so'z shakllari va ma'nolari bir-biriga ancha yaqin tillardir. Bunday tillar bir umumiyo o'zakli tildan kelib chiqqan.

**Til oilasi** – grammatic tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo'lgan tillar guruh.

**Turkiy tillar oilasi** – qardosh tillardagi o'xshashlik, yaqinlik ularning so'z boyligi, grammatic qurilishi va nutq tovushlarida ifodalanadi. O'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, ozorbayjon, yoqut, turkman, qoraqalpoq, turk, chuvash tillari turkiy tillar oilasiga kiradi.

**Flektiv tillar** – o'zak morfema va affiksal morfema chegaralari sezilmaydigan, yangi so'zlar o'zak o'zgarishi asosida yuzaga keladigan tillar.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010.-133-147 б.
2. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.42, 85-86
3. Ирисқұлов И. Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.178-190 б.
4. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007. -Б.44-59

## Qo'shimcha adabiyotlar

1. Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание.- Ташкент, 2004.-Б.26-34
2. Щитка Н.Н., Юсупова К.Н. Введение в языкознание. -Ташкент, 2006.-Б.56-79
3. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.-Ташкент, 2002.
- 4 . www. literature.uz
5. www. genhis philol.ru.

## 15-§. XALQARO VA SUN'iy TILLAR

- 1.Xalqaro tillarning jamiyatdagi o'rni.
- 2.Tillarning taraqqiyot darajasi.
3. Sun'iy tillar.

**Asosiy tushunchalar:** integratsiya, differensiatsiya, tarixiylik, hayotiylik, me'yoriylik, hududiylik, qadimiy tillar, me'yorlashtirilgan tillar, kreol tillari, pijn tillari, sun'iy tillar, "Esperanto" tili, tilning ijtimoiy vazifalari, kommunikativ funksiya, emotsional-ekspressiv funksiya.

**Tillarni bir-biriga muqoyosa** qilib, taqqoslab o'rganish shuni ko'rsatadiki, ba'zi tillardagi so'zlarning ma'nolari, shakllari, grammatik xususiyatlari bir-biridan juda katta farq qiladi. Albatta, bunday tillar bir-biriga yaqin, qardosh tillar bo'la olmaydi. Ammo ba'zi tillarning tuzilishi, grammatik xususiyatlari, shu tillardagi so'zlarning paydo bo'lish manbai, so'z shakllari va ma'nolari bir-biriga ancha yaqin bo'ladi. Bunday tillar bir umumiy o'zakli tildan kelib chiqqan bo'lib, **qardosh tillar** deyiladi. Grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo'lgan tillar guruhi **til oilasi** deb ataladi. Chunonchi, o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, ozorbayjon, yoqut, turkman, qoraqalpoq, turk, chuvash tillari kabilar turkiy tillar oilasiga kiradi. Bu qardosh tillardagi o'xshashlik, yaqinlik ularning So'z boyligi, grammatik qurilishi va nutq tovushlarida ifodalanadi.

Shuni ham ko'rsatib o'tish kerakki, qardosh bo'lмаган ба'zi tillarning so'z boyligida alohida so'zlarning ma'no jihatidan o'xshashlik hodisalari uchrashi mumkin. Bunday hodisa bir tilga qarindosh bo'lмаган boshqa bir tildan kirgan so'zlarda uchraydi. **Masalan**, o'zbek tiliga arab tilidan: *oila, maktab, lug'at, kitob* singari, rus tilidan *samovar, mashina, stol, stul, choynak* kabi anchagini so'zlar o'zlashgan. Lekin bunday so'zlar o'zbek tilining arab tili yoki rus tili bilan qardosh til ekanligiga asos bo'lолmaydi, chunki birinchidan, bunday tillarning qarindosh ekanligini isbot qilish uchun faqat so'zning o'zi asos bo'la olmaydi. Ikkinchidan, har bir tilning so'z boyligida boshqa tildan kirgan so'zlar juda ozchilikni tashkil etadi va ularning grammatik xususiyatlari butunlay boshqacha bo'ladi. Uchinchidan, tarixiy taraqqiyot jarayonida turli munosabatlar tufayli boshqa tillardan kirib qolgan bunday tasodifiy so'zlar tillarning tarixini solishtirib, taqqoslab o'rganishda material bo'la olmaydi, chunki bunday tillarning tuzilishi bir-biriga to'g'ri kelmaydi.

Rus, bulg'or, chex, polyak tillari ham bir oiladagi qardosh tillarga qarashli bo'lganligi uchun bu tillarda so'z ma'nolari, grammatik tuzilishlari jihatidan birmuncha o'xshashlik, yaqinlik bor.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, qardosh tillarda so'z o'zaklari grammatik vositalar jihatidan farq qilsa ham, ularning manbai bir bo'lib, ular bir o'zak tildan kelib chiqqan. Biror so'z yoki grammatik vositalardagi tovush o'zgarishlari ma'lum bir fonetik qonuniyat asosida yuz bergan. Bir qardosh tilga, bir tovushga ikkinchi bir qardosh tildagi shunga muvofiq tovush to'g'ri keladi. Masalan, o'zbek tilidagi **g** tovushiga qozoq tilidagi **v (w)** tovushi muvofiq keladi: **bog - bav (baw)**, **tog - tau (taw)** : o'zbek tilidagi **t** tovushiga ozarbayjon tilidagi **d** tovushi muvofiq keladi: **temir-demir, til-dil**; Qardosh tillardagi tovushlarning bir-biriga muvofiq kelishi fonetik qonunga asoslangandir hamda qardosh tillardagi so'zlarning ma'nolari va grammatik qurilishi bilan bog'liq.

Demak, qardosh tillar oilasiga kiradigan tillarda ba'zi tovushlar bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qilsa ham, grammatik vositalar, so'zlarning ma'nolari o'zaro yaqin bo'ladi.

Tilning boyligi irqning oq yoki sariq ekanligiga bog'liq emas. Shunday qilib, geneologik tasnif qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir o'zak tilidan tarqalganligini va ularning o'zaro munosabatini, so'z ma'nolari va grammatik shakllarini, nutq tovushlarining bir-biriga yaqinligini, o'xshashligini nazarda tutib, tillarni guruhlarga ajratadi.

**Sun`iy tillar** maxsus yaratilgan xalqaro tillardir. Polyak olimi L. Zamengof tomonidan yaratilgan *esperanto tili* sun`iy til hisoblanadi. Bu tilning lug`aviy asosi Yevropa tillaridan olingan, grammatikasi agglyutinativ xarakterda, grafikasi lotin yozuvi asosida. Bu tilda mashhur asarlar tarjima qilingan. Radio eshittirishlar ham tashkil qilingan. Bu tilning keyingi taqdiri muayyan davr bilan bog'liq.

Sotsiolingvistika til va jamiyat munosabatlarini tahlil qilar ekan, umumiyligi va xususiy qonuniyatlarga tayanadi.

XIX asrning o`rtalarida tabiiy fanlarning rivojlanishi, Charlz Darvin ta`limotining vujudga kelishi bilan tilni tirik organizm deb tushunish kuchayadi.

Chunonchi, nemis tilshunoslari M. Myuller va A. Shleyxerlar shu nazariya tarafdoi edilar. To`g`ri, fiziologik jihatdan til umurtqali hayvonlarning, shu jumladan, kishilarning og`iz bo`shlig`ida joylashgan harakatchan bir qismi. Lekin hayvonlar tili faqat ovqat yeyish, uning ta`mini aniqlash kabi ishlar uchun xizmat qiladi. Kishilar tili esa hayvonlarga xos xususiyatlardan tashqari, nihoyatda muhim vazifalarni, ya`ni kishilik jamiyatining aloqa vositasi - kommunikativ ijtimoiy vazifani bajaradi.

Shuni uqtirib o'tish kerakki, insonning tabiiy-biologik xususiyatlari kishilik jamiyatidan tashqari, jamiyatga bog`liq bo`lmagan holda, masalan, yangi tug`ilgan go`dak hayotining takomili (nafas olishi, korishi, ovqat yeyishi, asta-sekin yurib ketishi va hokazolar) tabiat qonunlariga muvofiq

holda taraqqiy etaveradi, o`saveradi. Ammo til bunday tabiiy hodisa emas. So`zlashish, fikrlash uchun kishilik jamiyatining bo`lishi shart.

Demak, aytilgan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: *birinchidan*, til tabiiy biologik hodisa emas; *ikkinchidan*, tilning mavjud bo`lishi va uning taraqqiy qilishi tabiat qonunlariga bog`liq emas; *uchinchidan*, til kishilarning tabiiy belgilariga (oq-qoraligi va boshqa irqiy belgilariga) bog`liq emas; *to`rtinchidan*, faqat jamiyat bo`lib uyushgan insonlarga aloqa vositasi bo`lgan tilga ega. Binobarin, til tabiiy-biologik hodisa bo`lmay, kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi sifatida jamiyatga xizmat qiladigan, subyektga bog`liq bo`lmagan ijtimoiy hodisadir.

Dastlabki davrlarda, jamiyatning qarama-qarshi guruhlarga bo`linishiga qaramay, til birgina guruh ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilmadi, u jamiyat a`zolarining hammasiga bab- baravar xizmat qildi. Ishlab chiqarish jarayoni jamiyatdagi turli guruh odamlari bir-biri bilan aloqada bo`ladilar, til esa ishlab chiqarishni uyuştirishda jamiyatning hamma sohalari rivojlanishida muhim aloqa vositasi bo`lib xizmat qiladi.

### Savol va topshiriqlar

1. Tilning ijtimoiy-funksiyalari yoriting.
2. Meyorlashtirilgan til haqida fikrlaringizni bayon eting.
3. Til taraqqiyoti haqida tushunchangizni bayon eting.
4. Tilning jamiyatdagи ko`rinishlari haqida so`zlang.
5. Til va nutq hodisalarini farqlovchi misollar keltiring.

### Testlar

1. Adabiy talaffuz qoidalari tilshunoslikning qaysi bo`limida o`rganiladi?  
A) orfografiya B) orfoepiya S) fonetika D) grafika
2. Qaysi qatorda orfoepiya me`yori buzilgan?  
A) ijod, kitop, foyiz, qoyida  
B) muhokima, mulohiza, ayrodrom, madat  
S) gappi, kelyappan, oshshi, ketovuz  
D) go`sh, g`ish, yuris, dasyor
3. Orfoepik me`yorning buzilishi natijasida qanday so`zlar yuzaga keladi?  
A) omonimlar B) antonimlar S) paronimlar D) sinonimlar
4. Qaysi qatorda orfoepiya me`yori buzilgan?  
A) bahor, sovol, sovob, ovval, shomol, go`sh, direktir  
B) mumkun, muhum, oftob, g`ish, aqqa, baqqa  
S) yengi (daftar), aqqa, o`tta, toshshi, bala  
D) A va B
5. Qaysi so`z talaffuzda o`zgacha ma`no ifodalaydi?  
A) mehr      B) qahr      S) bast      D) qasd
6. Orfoepiya me`yorining buzilishi natijasida yuzaga kelgan so`zlarni aniqlang?

- A) gado-gadoy              B) podsho-podshoh  
 S) ajdaho-ajdarho        D) naq-naqd  
 7.Urg‘u ma’no farqlaydigan so‘zlarni belgilang?  
 A) mexanik, bog‘lar      B) qo‘llar, dalalar  
 S) mashq, oshiq            D) tanga, gulzor  
 8. Nutqiy xatolarga yo‘l qo‘yilgan qatorni belgilang?  
 A) kelaver, ros, qast     B) nondi, zalal, zarul  
 S) dastaxon, sunnay, duvol D) B va S  
 9.Orfoepik xatolarga yo‘l qo‘yilgan qatorni belgilang?  
 A) qoshiqqa, issiq, mamba  
 B) xechtima, pas, avlod  
 S) qarib (qariiyb), parason, alma  
 D) B va S  
 10.Ikkita bir xil undoshning talaffuzda har xil undoshga o‘tishi qaysi qatorda berilgan?  
 A) usso‘m, tussiz B) bironta, zaril S) ketti, uchchala D) B va S

#### **Asosiy tushunchalar glossariysi**

- Qardosh tillar**- bir umumiy o‘zakli tildan kelib chiqqan tillar  
**Til oilasi** -grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo‘lgan tillar guruhi  
**Millatlararo tillar** –bir necha millatlarning umumiy muloqot tillari  
**Xalqaro tillar** – dunyo tillari

#### **Asosiy adabiyotlar**

- 1.Abduaazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010.-133-147 б.
- 2.Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.42, 85-86
- 3.Ирисқұлов И. Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.178-190 б.
- 4.Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007. -Б.44-59

#### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

- 1.Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание.- Тошкент, 2004.- Б.26-34
- 2.Щитка Н.Н., Юсупова К.Н. Введение в языкознание. -Тошкент, 2006.- Б.56-79
- 3.Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати.-Тошкент, 2002.
4. [www. literature.uz](http://www.literature.uz)
5. [www. genhis philol.ru.](http://www.genhis.philol.ru)

## **16-§. LINGVISTIKA TURLARI VA LINGVISTIK METODLAR HAQIDA BOSHLANG‘ICH MA’LUMOTLAR**

### **Reja:**

- 1.Metodlar haqida umumiy ma’lumot.

2.Umumiy va xususiy metodlar.

3.Tilshunoslikka oid metodlar.

**Asosiy tushunchalar:** *metod, umumiy metodlar, lingvistik tahlil metodlari, gapbo'laklari metodi, tarixiy – qiyosiy metod, substitusiya (almashtirish) metodi, distributiv metod, tarkibiy qismlarga ajratish metodi, transformatsion metod, statistik tahlil metodi, ma'no ko'lamini tahlil qilish metodi.*

Tilshunoslik fanining o'rghanish sohasi bo'lgan tilni har tomonlama tahlil qilish fan taraqqiyotiga mos metodlarni taqozo etadi.

Har bir sohani tahlil etuvchi har qanday metod quyidagi talablarga javob berishi lozim.

1. Metod obyektiv bo'lmog'i kerak. Metodning qo'llanish vaqtি va o'rnidan qat'iy nazar, natija bir xil bo'lishi lozim. Subyektiv yondashuvlar metod qiymatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Metod izchil bo'lishi, aniq tushunchalarga asoslanishi lozim.

3. Metod universal bo'lishi, ya'ni sohaning asosiy bo'limlanishi (kamida to'rtta) tahlil qila olishi kerak.

4. Metod foydalanish mumkin bo'lgan darajada sodda bo'lishi lozim.

Tilshunoslikda talab darajasida bo'lgan bir necha metod qo'llanadi. Bu metodlar xarakteriga ko'ra ikki xil:

a) umumiy metodlar;

b) lingvistik tahlil metodlari .

Ushbu metodlar bir – biriga bog'liq holda ish ko'radi va muayyan xulosalarni bayon etadi.

Umumiy metodlar ijtimoiy sohaning barcha ko'rinishlari uchun amal qiladigan metodlardir. Jumladan, umumiyyadan xususiyga, xususiydan umumiyyga, analiz – sintez , oddiyidan murakkabga tomon tahlil qilish metodlari deyarli barcha sohalarda amal qiladi.

Lingvistik tahlil metodlari tilshunoslikning o'zi uchungina xos bo'lib, shu fanga doir ilmiy xulosalar berishga xizmat qiladi.

Hozirgi zamon tilshunosligida lingvistik tahlil uchun quyidagi metodlar qo'llanadi:

- gap bo'laklari metodi;
- tarixiy – qiyosiy metod;
- substitusiya (almashtirish) metodi;
- distributiv metod;
- tarkibiy qismlarga ajratish metodi;
- tranformatsion metod;
- statistik tahlil metodi;
- ma'no ko'lamini tahlil qilish metodi.

Gap bo'laklari metodi tilshunoslik taraqqiyotining dastlabki davrlaridanoq amalda bo'lgan. Bu metodga ko'ra gaplar bo'laklarga ajratiladi.

Bunda so‘zning gapdagi vazifasiga asoslaniladi. Gap bo‘laklari tahlili quyidagicha amalga oshiriladi.

1. Gapning bosh bo‘laklari (ega va kesim ), ikkinchi darajali bo‘laklari (to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol ) ajratiladi.

2. Gap bo‘laklari vazifasida qaysi so‘z turkumi keltirilayotganligi aniqlanadi.

3. Gap bo‘lagi vazifasida kelayotgan so‘zlarning grammatik shakllari (morfologik kategoriyalar ) izohlanadi.

Ushbu metod faqat sintaksis bo‘limda amal qiladi. Bu metodni qo‘llashdagi murakkabliklar deyarli barcha tillarda kuzatiladi.

Tarixiy – qiyosiy metod qiyosiy – tarixiy tilshunoslik asoslanadigan birlamchi metod hisoblanadi. Bu metod dunyo tillarining rang – barangligi, ular o‘rtasidagi o‘xhash va farqli jihatlarni qiyoslash asnosida shakllandi. Ushbu metod quyidagi masalalarni hal etadi:

1. Tillarning o‘ziga xos xususiyatlarini va boshqa tillar bilan o‘xhash jihatlarini qiyoslash natijasida ularni qarindosh yoki qarindosh emasligini aniqlash.

2. Qarindosh deb topilgan tillarni o‘zaro qiyoslab o‘rganib, ular uchun umumiyligi bo‘lgan genetik asosni aniqlash; bu taxlit o‘rganishda retrospektiv qiyoslash usulidan foydalanish. Bunda tillarning hozirgi holatini qiyoslashdan tarixiy ko‘rinishlariga qarab boriladi.

3. Tillarning tadrijiy taraqqiyoti o‘rganiladi, ya’ni tilning hozirgi holatigacha bo‘lgan taraqqiyot yo‘lini qiyosan tahlil qilish mumkin. Bunday qiyoslash prospektiv qiyoslash deyiladi. Bunda tarixiy yozma yodgorliklar boshlang‘ich manba sifatida xizmat qiladi.

Bu usul yordamida tillar oilasi aniqlanadi. Masalan, hind – yevropa tillari oilasi, turkiy tillar oilasi, mo‘g‘ul tillar oilasi va hokazo. Til oilalari ma’lum xususiyatlariga ko‘ra ya’na guruhlarga ajratiladi . Jumladan , turkiy tillar o‘ttizga yaqin guruhga bo‘linadi .

Substitutsiya metodi, almashtirish usuliga asoslanadi. Nutqdagi ma’lum bir o‘rinda turgan til birliklari va boshqa muqobili bilan almashtirilib, hosil bo‘lgan uslubiy o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Bu metod yordamida sinonim , antonim, omonim so‘z larning lug‘aviy ma’no tizimida tutgan o‘rni belgilanadi . Distributiv metod til birliklarining nutq jarayonida boshqa bir birliklar bilan birika olish imkoniyatini tahlil etadi. Distributivsiyani “sintaktik imkoniyat” sifatida izohlash mumkin. Masalan, biror so‘z, morfema, fonemaning boshqa so‘z, morfema, fonema bilan munosabatga kirish imkoniyati shu birliklarning distributsyasi deyiladi.

Distributsiyaning morfologik, sintaktik va leksik – semantik turlari mavjud.

Morfologik distributsiya bir turkumdagisi so‘zning boshqa turkumdagisi so‘z bilan munosabatga kira olishidir : sifat bilan ot , ravish bilan fe’l.

Tarkibiy qismlarga ajratish metodi har qanday butunlikni, xususan gapni hokim va tobelik munosabatida bo‘lgan qismlardan iborat sifatida

tahlil etadi. Bu metod grammatik sathda : morfologiya va sintaksisda amal qiladi.

Transformatsion metod zamonaviy usullar ichida eng mukammali hisoblanadi.

Ushbu metod tildagi sintaktik jarayonni tushuntirish imkoniga egaligi bilan xarakterlidir.

Statistik tahlil tilning barcha sathlarida qo'llanadi, shuning uchun universal hisoblanadi . Bu metod til birliklari va til hodisalarining nutqda ishlatalish darajasini aniq ko'rsatib beradi.

Ma'no ko'lamenti tahlil qilish metodi so'zning lug'aviy ma'no ko'lamenti alohida ma'no qirralariga ajratib tahlil etadi . Bu metod ko'p ma'noli so'zlarning ma'no ko'lamenti yoritishda ahamiyatlidir.

Umuman, tilshunoslik sohasiga xos eng umumiy va xususiy qonuniyatlarni aniqlashda lingvistik metodlarning o'rni beqiyosdir.

### Savol va topshiriqlar

1. Metod qanday talablarga javob berishi haqida fikr-mulohazalaringizni bildiring.
2. Umumiy metodlar xususiyati haqida ayting.
3. Xususiy metodlarning o'ziga xos xususiyatlarni ayting.
4. Hozirgi zamon tilshunosligidagi metodlarni sanang.
5. Gap bo'laklariga ajratish metodi haqida ma'lumot bering.
6. Transformatsion metod funksiyasini tavsiflang.
7. Distributsiya metodini misollar orqali tushuntiring.
8. Umumiy va xususiy qonuniyatlarni aniqlashda lingvistik metodlarning o'mi haqida o'z fikrlaringizni bayon eting.

### Testlar

1. Metodlar xarakteriga ko'ra necha turli bo'ladi?  
A) 2 xil  
B) 3 xil  
C) 4 xil  
D) 5xil
2. Qaysi metodlar ijtimoiy sohaning barcha ko'rinishlari uchun amal qiladigan metodlar hisoblanadi?  
A) lingvistik tahlil metodlari  
B) umumiy metodlar  
C) xususiy metodlar  
D) ijtimoiy metodlar
3. Qaysi metodlar tilshunoslikka doir ilmiy xulosalar berishga xizmat qiladi?  
A) umumiy metodlar  
B) xususiy metodlar  
C) lingvistik tahlil metodlari

D) ijtimoiy metodlar

4. Qaysi lingvistik tahlil metodida gap bo‘lagi vazifasida kelayotgan so‘zlarning grammatik shakllari (morphologik kategoriyalar ) izohlanadi?
- A) gap bo‘laklari metodi  
B) transformatsion metod  
S) substitutsiya metodi  
D) qiyosiy-tarixiy metod
5. Qaysi metodda tillarning o‘ziga xos xususiyatlarini va boshqa tillar bilan o‘xshash jihatlarini qiyoslash natijasida ularni qarindosh yoki qarindosh emasligi aniqlanadi?
- A) gap bo‘laklari metodi  
B) transformatsion metod  
S) substitutsiya metodi  
D) qiyosiy-tarixiy metod
6. Tillarning tadrijiy taraqqiyoti o‘rganiladi, ya’ni tilning hozirgi holatigacha bo‘lgan taraqqiyot yo‘lini qiyosan tahlil qilish mumkin. Bunday qiyoslashga nima deyiladi?
- A) prospektiv qiyoslash  
B) retrospektiv qiyoslash  
S) perspektiv qiyoslash  
D) analogik qiyoslash
7. Turkiy tillar nechta guruhga bo‘linadi?
- A) 30 ga yaqin  
B) 30 dan ortiq  
S) 20 ga yaqin  
D) 20 dan ortiq
8. Qaysi metod almashtirish usuliga asoslanadi?
- A) gap bo‘laklari metodi  
B) transformatsion metod  
S) substitutsiya metodi  
D) qiyosiy-tarixiy metod
9. Qaysi metodni “sintaktik imkoniyat” sifatida izohlash mumkin?
- A) gap bo‘laklari metodi  
B) distributiv metod  
S) substitutsiya metodi  
D) qiyosiy-tarixiy metod
10. Qaysi metod metod zamonaviy usullar ichida eng mukammali hisoblanadi?
- A) gap bo‘laklari metodi  
B) transformatsion metod  
S) substitutsiya metodi  
D) qiyosiy-tarixiy metod

## **Asosiy tushunchalar glossariysi**

**Metod** – obyektiv, qo‘llanish vaqtি va o‘rnidan qat’iy nazar , natijasi bir xil bo‘ladigan, izchil, aniq tushunchalarga asoslanadigan, fan uchun zarur bo‘lgan bilimlarni egallash vositasi.

**Umumiyl metodlar** – ijtimoiy sohaning barcha ko‘rinishlari uchun amal qiladigan metodlardir. Umumiyyadan xususiyga , xususiydan umumiyyga, analiz – sintez, oddiyidan murakkabga tomon tahlil qilish metodlari deyarli barcha sohalarda amal qiladi .

**Lingvistik tahlil metodlari** – tilshunoslikning o‘zi uchungina xos bo‘lib, shu fanga doir ilmiy xulosalar berishga xizmat qiladi.

## **Asosiy adabiyotlar**

- 1.Abduaizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.-Toshkent, 2010.-133-147 б.
- 2.Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.42, 85-86
- 3.Ирисқұлов И. Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 2009.-Б.178-190 б.
- 4.Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent, 2007. -Б.44-59

## **Qo‘shimcha adabiyotlar**

- 1.Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание.- Тошкент, 2004.- Б.26-34
- 2.Щитка Н.Н., Юсупова К.Н. Введение в языкознание. -Тошкент, 2006.- Б.56-79
- 3.Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати.-Тошкент, 2002.
4. [www. literature.uz](http://www.literature.uz)
5. [www. genhis philol.ru](http://www.genhis philol.ru).

**AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**  
**«Mutaxassislikka kirish» FANIDAN AMALIY**  
**MASHG‘ULOTLARINI O‘QITISHNING**  
**TA’LIM TEXNOLOGIYALARI**

**1-mavzu.** “Mutaxassislikka kirish” fanining o‘rganish obyekti, maqsad va vazifasi. Til murakkab mohiyat sifatida.

*Amaliy mashg‘ulot ning o‘qitish texnologiyasi*

<b>Mashg‘ulot vaqtisi – 2 soat</b>	Talabalar soni: 20– 26gacha
<b>Mashg‘ulot shakli</b>	Savol-javob
<b>Mavzu mashg‘ulot ning rejasi</b>	1.“Mutaxassislikka kirish” fanining mundarijasi, maqsadi, vazifasi. 2.Tilning ijtimoiy funksiyasi. 3. “Mutaxassislikka kirish” fanining asosiy masalalari. 4. “Mutaxassislikka kirish” fanining o‘rganilish darajasi.
<b>O‘quv mashg‘ulot ning maqsadi:</b>	Kadrlar tayyorlash milliy modeli va mutaxassislar tayyorlash tizimiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarni, “Mutaxassislikka kirish” fanining maqsad va vazifalarini va fanning boshqa fanlar bilan integratsiyasini yoritib berish.
<b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Kadrlar tayyorlash milliy modeli va mutaxassislar tayyorlash tizimiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablар bilan tanishtirish;</li> <li>➤ “Mutaxassislikka kirish” fanining maqsad va vazifalari haqida tasavvur hosil qilish va ma’lumot berish;</li> <li>➤ .“Mutaxassislikka kirish” fanining boshqa fanlar bilan integratsiyasini yoritib berish.</li> </ul>	<b>O‘quv faoliyat natijalari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Talaba kadrlar tayyorlash milliy modeli asosida bilimlarini tizimlashtiradi;</li> <li>➤ “Mutaxassislikka kirish” fanining maqsad va vazifalari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladi;</li> <li>➤ “Mutaxassislikka kirish” fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligini asoslash imkoniga ega bo‘ladi.</li> </ul>
<b>Ta’lim berish usullari</b>	og‘zaki bayon, «Tushunchalar tahlili», «Venn Diagrammasi», «Klaster» metodlari.
<b>Ta’lim berish shakllari</b>	axborotli kirish mavzusi; jamoaviy, kichik guruhlar va individual shakldagi audi-vizual ish, 80 daqiqa davomida
<b>Ta’lim berish vositalari</b>	interfaol doska, mavzu matni, vizual materiallar, elektron ishlanmalar
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	O‘TV bilan ishlashga moslashtirilgan xona
<b>Monitoring va baholash</b>	kuzatish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, savol-javob va «Blits - so‘rov», rag‘batlantirish, «Tushunchalar tahlili» metodi orqali o‘z-o‘zini baholash.

*Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi*

Faoliyat bosqichlari, vaqtisi	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchining didaktik harakatlari	Talaba faoliyati
<b>1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)</b>	1.1. O‘quv kursi nomini aytadi. Ekranga kurs bo‘yicha mavzular ro‘yxatini beradi va ularga qisqacha ta’rif beradi 1.2. Birinchi mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va	1.1. Tinglaydilar Tinglaydilar, yozadilar. 1.3. Tinglaydilar, yozadilar. 1.4. Talabalar berilgan

	<p>o‘quv faoliyati natijalari hamda adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi</p> <p>1.3. Talabalar o‘quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi</p> <p>1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi</p>	savollarga javob beradilar.
<b>2-bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa)</b>	<p>2.1. Mavzu, o‘quv mashg‘ulotining maqsadi, undan kutilayotgan natijalarni e’lon qiladi.</p> <p>2.2. «Tushunchalar tahlili» metodidan foydalanib, talabalarinng fan yuzasidan mavjud bilimlar darajasini tashxis qiladi</p> <p>2.3. Talabalar bildirgan fikr-mulohazalarni navbatil bilan tinglaydi va asosiylarini ajratadi.</p> <p>2.4. “Mutaxassislikka kirish” fanining maqsadi, vazifalari, fanning boshqa fanlar bilan integratsiyasi haqidagi ma’lumotlarni tushuntiradi, ularga oid vizual materiallarni navbatil bilan namoyish etadi, mavzuning zaruriy joylarini yozdiradi</p> <p>2.5. “Venn diagramasi” metodi orqali “Mutaxassislikka kirish” fanining informatika, matematika, tilshunoslik fanlari bilan aloqadorligini talabalar yordamida qiyosiy tahlil qiladi, mavzudagi asosiy tayanch tushunchalar mazmunini tekshirish uchun savollar orqali shakllantiradi</p>	<p>2.1. Tinglaydi, yozib oladi.</p> <p>2.2. Eshitadi, yozib oladi, fikrlaydi, o‘z munosabatini yozma tarzda bildiradi.</p> <p>2.3. Fikrlarini tahlil qiladi, baholaydi, qo‘srimcha mulohazalarni yozib boradi, muhokamada ishtiroy etadi.</p> <p>2.4. Vizual materiallarni ko‘radi, tushunadi, tasavvurlarini aniqlashtiradi, eslab qoladi, zaruriy axborotlari yozib boradi</p> <p>2.5 Fikr bildiradi, taqqoslaydi, umumiyy xulosaga keladi, qo‘sricha ma’lumotlarni yozib oladi.</p>
<b>3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)</b>	<p>3.1. Mavzuni mustahkamlash maqsadida talabalar bilan «Blits-so‘rov» o‘tkazadi, talabalar tomonidan mavzuning o‘zlashtirilganlik darajasini baholaydi, faol talabalarni rag‘batlantiradi</p> <p>3.2. Mavzu yuzasidan mustaqil ta’lim uchun “Mutaxassislikka kirish” tushunchasiga «Klaster» tuzib kelishni topshiradi va zaruriy ko‘rsatmalarni beradi.</p>	<p>3.1. Tezkor so‘rovlarga javob beradi, rag‘bat oladi.</p> <p>3.2. Eshitadi, topshiriqni va zaruriy ko‘rsatmalarni yozib oladi.</p>

## “Mutaxassislikka kirish” fani mazmuni, maqsadi va vazifalari



**2-mavzu.** Tilning paydo bo'lishi.


*Amaliy mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi*

<b>Mashg‘ulot vaqtisi – 2 soat</b>	Talabalar soni: 20– 26 gacha	
<b>Mashg‘ulot shakli</b>	Kirish-axborotli mavzu	
<b>Mavzu mashg‘ulot ning rejasisi</b>	1. Til va jamiyatning o‘zaro uzviy munosabati 2. Til taraqqiyotining differensiatsiya jarayoni 3. Sotsiolingvistikating asosiy masalalari.	
<b>O‘quv mashg‘ulot ning maqsadi:</b> til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatni tushuntirish, sotsiolingvistik jarayonlarni o‘rgatish, Sotsiolingvistikating asosiy masalalarini yoritish		
<b>Pedagogik vazifalar:</b> ➤ Til va jamiyatning o‘zaro uzviy munosabatini tushuntirish; ➤ Sotsiolingvistikating til ijtimoiy tabiatini yoritishda amal qiladigan mezonlari haqida ma’lumot berish; ➤ Tilning ijtimoiy tabiatini va o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra guruhanishini yoritib berish.	<b>O‘quv faoliyati natijalari:</b> ➤ Talaba til va jamiyatning o‘zaro uzviy munosabati haqidagi bilimlarini tizimlashtiradi; ➤ Sotsiolingvistik mezonlar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladi; ➤ Tilning ijtimoiy tabiatini va o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra guruhanishini farqlash imkoniga ega bo‘ladi.	
<b>Ta’lim berish usullari</b>	«Venn Diagrammasi», og‘zaki bayon, «klaster » metodlari.	
<b>Ta’lim berish shakllari</b>	axborotli kirish mavzusi; jamoaviy, kichik guruhlar va individual shakldagi audi-vizual ish, 80 daqiqa davomida	
<b>Ta’lim berish vositalari</b>	interfaol doska, mavzu matni, vizual materiallar, elektron ishlanmalar	
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	O‘TV bilan ishlashga moslashtirilgan xona	
<b>Monitoring va baholash</b>	kuzatish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, savol-javob va «Blits - so‘rov», rag‘batlantirish, «Tushunchalar tahlili» metodi orqali o‘z-o‘zini baholash.	

### *Amaliy mashg‘ulot ning texnologik xaritasi*


<b>Faoliyat bosqichlari, vaqtisi</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O‘qituvchining didaktik harakatlari</b>	<b>Talaba faoliyati</b>
<b>1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)</b>	1.1. O‘quv kursi nomini aytadi. Ekranga kurs bo‘yicha mavzular ro‘yxatini beradi va ularga qisqacha ta’rif beradi 1.2. Birinchi mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va o‘quv faoliyati natijalari hamda adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi 1.3. Talabalar o‘quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi	1.1. Tinglaydilar Tinglaydilar, yozadilar. 1.3. Tinglaydilar, yozadilar. 1.4. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.

<b>2-bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa)</b>	<p>2.1. Mavzu, o‘quv mashg‘ulot ning maqsadi, undan kutilayotgan natijalarini e’lon qiladi.</p> <p>2.2. «Tushunchalar tahlili» metodidan foydalanib, talabalarinng fan yuzasidan mavjud bilimlar darajasini tashxis qiladi</p> <p>2.3. Talabalar bildirgan fikr-mulohazalarni navbat bilan tinglaydi va asosiylarini ajratadi.</p> <p>2.4. Tilning paydo bo‘lishi, ularga oid vizual materiallarni navbat bilan namoyish etadi, mavzuning zaruriy joylarini yozdiradi</p> <p>2.5. “Venn diagramasi” metodi orqali “Matematik lingvistika” fanining informatika, matematika, tilshunoslik fanlari bilan aloqadorligini talabalar yordamida qiyosiy tahlil qiladi, mavzudagi asosiy tayanch tushunchalar mazmunini tekshirish uchun savollar orqali shakllantiradi</p>	<p>2.1. Tinglaydi, yozib oladi.</p> <p>2.2. Eshitadi, yozib oladi, fikrlaydi, o‘z munosabatini yozma tarzda bildiradi.</p> <p>2.3. Fikrlarini tahlil qiladi, baholaydi, qo‘sishimcha mulohazalarni yozib boradi, muhokamada ishtiroy etadi.</p> <p>2.4. Vizual materiallarni ko‘radi, tushunadi, tasavvurlarini aniqlashtiradi, eslab qoladi, zaruriy axborotlari yozib boradi</p> <p>2.5. Fikr bildiradi, taqqoslaydi, umumiyl xulosaga keladi, qo‘sicha ma’lumotlarni yozib oladi.</p>
<b>3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)</b>	<p>3.1. Mavzuni mustahkamlash maqsadida talabalar bilan «Blits-so‘rov» o‘tkazadi, talabalar tomonidan mavzuning o‘zlashtirilganlik darajasini baholaydi, faol talabalarni rag‘batlantiradi</p> <p>3.2. Mavzu yuzasidan mustaqil ta’lim uchun til oilalariga «Klaster» tuzib kelishni topshiradi va zaruriy ko‘rsatmalarni beradi.</p>	<p>3.1. Tezkor so‘rovlarga javob beradi, rag‘bat oladi.</p> <p>3.2. Eshitadi, topshiriqni va zaruriy ko‘rsatmalarni yozib oladi.</p>



## Tillarning shakllanishi va rivojlanishi

- Ovozga *taqlid nazariyasi* kishilarning o`z atrofidagi predmetlarning chiqargan ovoziga taqlid qilishi natijasida dastlabki so`zlar , predmetlarning nomlari paydo bo`lgan, deb hisoblaydi .
- *Undovlar nazariyasi* ham tilning paydo bo`lishi masalasini talqin qiluvchi nazariyalardan biri bo`lib , bu nazariya tarafdorlari tildagi barcha so`zlar kishilarning ichki tuyg`ulari, qahr-g`azablari, his-hayajonlari, ixtiyorsiz baqirishlari natijasida paydo bo`lgan , deb da`vo qiladilar . Bu nazariya ham qadimiy bo`lib, uning asosida ham hayvonlarning baqiriq-chaqiriqlari yotadi. Mazkur nazariya asoschilarining fikricha, ibtidoiy odamlar hayvonlarning baqiriq-chaqiriqlarini o`rganib , ular orqali o`zlarining ichki kechinmalari , g`am-alamlarini ifodalashgan: *oh , uh , joy, ing* kabi so`zlar bunga misol qilibko`rsatiladi.
- *Mehnat hayqiriqlari nazariyasi* tarafдорлари tildagi barcha so`zlar ibtidoiy kishilarning birgalashib mehnat qilish jarayonida mehnat qilishga undaydigan ixtiyorsiz qiyqirishlar natijasida paydo bo`lgan, deb da`voqiladilar .
- *Ijtimoiy kelishuv nazariyasi*. Bu nazariya XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo`lib, uniilgari suruvchi olimlar ba`zida bir-biriga zid xulosalarga kelishgan, ularning tilning kelib chiqishi to`g`risidagi asosiy fikrlari bir xil.
- 



## Qabila va urug` tillari

## Farqlanish va mujassamlashuv

### Tilshunoslikning shakllanishi va riovjlanishi

### Substrat va superstrat hodisasi

### Milliy tillar taraqqiyoti

**3-mavzu.** Til va tafakkur munosabati.

*Amaliy mashg`ulotning o`qitish texnologiyasi*

Mashg`ulot vaqtি – 2 soat	Talabalar soni: 20– 26 gacha
Mashg`ulot shakli	Kirish-axborotli mavzu
Mavzu mashg`ulot ning rejasi	1.Til va tafakkur munosabati 2. Til va mantiqiy tafakkur 3. Til birliklari va mantiqiy birliklar 4. Til va so`zlovchining ruhiy faoliyatni yoritib berish
<b>O`quv mashg`ulot ning maqsadi:</b> til va tafakkur munosabatini yoritib berish. Til birliklari haqida to`liq ma`lumot berish	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Til va tafakkur munosabati bilan tanishtirish;</li> <li>➤ Til birliklari va mantiqiy birliklar ma`lumot berish;</li> <li>➤ Til va so`zlovchining ruhiy faoliyatini yoritib berish.</li> </ul>	<b>O`quv faoliyati natijalari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Talaba til va tafakkur munosabatihaqidagi bilimlarini tizimlashtiradi;</li> <li>➤ Til birliklari va mantiqiy birliklarhaqida to`liq ma`lumotga ega bo`лади;</li> <li>➤ Til va so`zlovchining ruhiy faoliyati bog`liqligini asoslash imkoniga ega bo`лади.</li> </ul>
<b>Ta`lim berish usullari</b>	og`zaki bayon, «Tushunchalar tahlili», «Venn Diagrammasi», «Klaster» metodlari.
<b>Ta`lim berish shakllari</b>	axborotli kirish mavzusi; jamoaviy, kichik guruuhlar va individual shakldagi audi-vizual ish, 80 daqiqa davomida
<b>Ta`lim berish vositalari</b>	interfaol doska, mavzu matni, vizual materiallar, elektron ishlasmalar
<b>Ta`lim berish sharoiti</b>	O`TV bilan ishslashga moslashtirilgan xona
<b>Monitoring va baholash</b>	kuzatish, o`z-o`zini nazorat qilish, savol-javob va «Blits - so`rov», rag`batlantirish, «Tushunchalar tahlili» metodi orqali o`z-o`zini baholash.

*Amaliy mashg‘ulot ning texnologik xaritasi*

<b>Faoliyat bosqichlari, vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O‘qituvchining didaktik harakatlari</b>	<b>Talaba faoliyati</b>
<b>1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)</b>	<p>1.1. O‘quv kursi nomini aytadi. Ekranga kurs bo‘yicha mavzular ro‘yxatini beradi va ularga qisqacha ta’rif beradi</p> <p>1.2. Birinchi mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va o‘quv faoliyati natijalari hamda adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi</p> <p>1.3. Talabalar o‘quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi</p> <p>1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi</p>	<p>1.1. Tinglaydilar Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>1.3. Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>1.4. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
<b>2-bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa)</b>	<p>2.1. Mavzu, o‘quv mashg‘ulot ning maqsadi, undan kutilayotgan natijalarni e’lon qiladi.</p> <p>2.2. «Tushunchalar tahlili» metodidan foydalanib, talabalarinng fan yuzasidan mavjud bilimlar darajasini tashxis qiladi</p> <p>2.3. Talabalar bildirgan fikr-mulohazalarni navbatil bilan tinglaydi va asosiyalarini ajratadi.</p> <p>2.4. “Mutaxassislikka kirish” fanining maqsadi, vazifalari, fanning boshqa fanlar bilan integratsiyasi haqidagi ma’lumotlarni tushuntiradi, ularga oid vizual materiallarni navbatil bilan namoyish etadi, mavzuning zaruriy joylarini yozdiradi</p> <p>2.5. “Venn diagramasi” metodi orqali “til va tafakkur yordamida qiyosiy tahlil qiladi, mavzudagi asosiy tayanch tushunchalar mazmunini tekshirish uchun savollar orqali shakllantiradi</p>	<p>2.1. Tinglaydi, yozib oladi.</p> <p>2.2. Eshitadi, yozib oladi, fikrlaydi, o‘z munosabatini yozma tarzda bildiradi.</p> <p>2.3. Fikrlarini tahlil qiladi, baholaydi, qo’shimcha mulohazalarni yozib boradi, muhokamada ishtirot etadi.</p> <p>2.4. Vizual materiallarni ko‘radi, tushunadi, tasavvurlarini aniqlashtiradi, eslab qoladi, zaruriy axborotlari yozib boradi</p> <p>2.5. Fikr bildiradi, taqqoslaydi, umumiyl xulosaga keladi, qo’shicha ma’lumotlarni yozib oladi.</p>
<b>3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)</b>	<p>3.1. Mavzuni mustahkamlash maqsadida talabalar bilan «Blits-so‘rov» o‘tkazadi, talabalar tomonidan mavzuning o‘zlashtirilganlik darajasini baholaydi, faol talabalarni rag‘batlantiradi</p> <p>3.2. Mavzu yuzasidan mustaqil ta’lim uchun “til va tafakkurni “T sxemasi”ga joylashtiradi.</p>	<p>3.1. Tezkor so‘rovlarga javob beradi, rag‘bat oladi.</p> <p>3.2. Eshitadi, topshiriqni va zaruriy ko‘rsatmalarni yozib oladi.</p>

## Til va tafakkur. Til birlikalari va mantiqiy birliklar

• Til insonlar o`rtasida aloqa vositasi bo`lishi, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar to`g`risida xabar berishdan tashqari suhbatdosh yoki tinglovchiga ma`lum ta`sir o`tkazish, hissiyotini qo`zg`atish kuchiga ham ega. Agar bu holatni shartli ravishda beshinch bosqich deb ataydigan bo`lsak, ta`kidlaganimizdek, tilning bosqichma-bosqich takomillashib, mukammalashib va imkoniyatlari ham asta-sekinlik bilan kengayib borishini kuzatamiz.

Shu o`rinda tilning hech bir imkoniyati nutqsiz, nutqiylar jarayonsiz amalga oshmasligi, yuzaga kelmasligiga ham amin bo`lamiz. «Til va tafakkurning birligi nutqda o`zi fodasini topadi. Nutq og`zaki va yozma holda mayjud bo`lib, unda fikri miz moddiy shaklga, ya`ni hissiy idrok etiladigan shaklga kiradi va shu tariqa u endi bir shaxsga emas, balki jamiyatga tegishli bo`lib qoladi»

•

### TIL BIRLIKLARI


FONEMA

MORFEMA

LEKSEMA

KONSTRUKSIYA (MODEL)

Til va jamiyat. Sotsiolingvistika



## Sotsiolingvistika quyidagi Masalalarni o'rzanadi:

Jamiyatvatiло`zarob  
og`liq,  
mutanosibtarix  
iyjarayon,  
hodisadir.

Jamiyat taraqqiy  
eta borgan  
sari tilning  
ijtimoiy  
vazifalari ham  
takomillashи  
borad!

Madabiy tilning,  
shevalarni  
ng lug`at  
boyligi  
kengayadi,  
ortib

**Yashash muhiyaqin, turmush  
tarsi o`xshash xalqlarning  
tillari bir-biriga ta`sir  
ko`satadi. Tillar leksik  
jihatdangina emas, balki  
grammatik jihatlariga ko`ra  
ham ta`sirlashadi**

**4-mavzu.** Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan munosabati.

*Amaliy mashg`ulot ning o`qitish texnologiyasi*

Mashg`ulot vaqtি – 2 soat	Talabalar soni: 20– 26 gacha
Mashg`ulot shakli	Kirish-axborotli mavzu

<b>Mavzu mashg‘ulot ning rejasি</b>	<p>4. <b>Til va jamiyat.</b> 5. <b>Til va jamiyat o`rtasidagi munosabatlar.</b> 6. <b>Tilning ijtimoiy tabiatiga ko`ra turlari.</b></p>
<b>O`quvmashg‘ulot ularning munosabatmohiyatinio`rganish,</b> <b>tilvanutqhodisalari va ularga xos birliklarni tushuntirish</b>	ningmaqsadi: Tilvanutqhodisalarinio`zarofarqlash, tilvanutqhodisalari va ularga xos birliklarni tushuntirish
<b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Nutqiy faoliyat bilan tanishtirish;</li> <li>➤ Til va nutq tushunchasi haqida ma'lumot berish;</li> <li>➤ Til va nutq dixatomiyasini yoritib berish.</li> </ul>	<b>O`quv faoliyati natijalari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Talaba til va nutq hodisalari haqidagi biliminitizimlashtiradi;</li> <li>➤ Hamma sohada ham til va nutq bir-biridan farqlanavermasligi haqida to`liq ma'lumotga ega bo`ladi;</li> <li>➤ <b>Til va nutq tushunchalarining tarixiy taraqqiyotdagi madaniy xizmatini asoslash imkoniga ega bo`ladi.</b></li> </ul>
<b>Ta`lim berish usullari</b>	og`zaki bayon, «Tushunchalar tahlili», «Venn Diagrammasi», «Klaster» metodlari.
<b>Ta`lim berish shakllari</b>	axborotli kirish mavzusi; jamoaviy, kichik guruhlar va individual shakldagi audi-vizual ish, 80 daqiqa davomida
<b>Ta`lim berish vositalari</b>	interfaol doska, mavzu matni, vizual materiallar, elektron ishlanmalar
<b>Ta`lim berish sharoiti</b>	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan xona
<b>Monitoring va baholash</b>	kuzatish, o`z-o`zini nazorat qilish, savol-javob va «Blits - so`rov», rag`batlantirish, «Tushunchalar tahlili» metodi orqali o`z-o`zini baholash.

### *Amaliy mashg‘ulot ning texnologik xaritasi*

<b>Faoliyat bosqichlari, vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O`qituvchining didaktik harakatlari</b>	<b>Talaba faoliyati</b>
<b>1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)</b>	<p>1.1. O`quv kursi nomini aytadi. Ekranga kurs bo`yicha mavzular ro`yxatini beradi va ularga qisqacha ta`rif beradi</p> <p>1.2. Birinchi mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va o`quv faoliyati natijalari hamda adabiyotlar ro`yxati bilan tanishtiradi</p> <p>1.3. Talabalar o`quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi</p> <p>1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi</p>	<p>1.1. Tinglaydilar Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>1.3. Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>1.4. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.</p>

<b>2-bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa)</b>	<p>2.1. Mavzu, o‘quv mashg‘ulot ning maqsadi, undan kutilayotgan natijalarni e’lon qiladi.</p> <p>2.2. «Tushunchalar tahlili» metodidan foydalaniib, talabalarinng fan yuzasidan mavjud bilimlar darajasini tashxis qiladi</p> <p>2.3. Talabalar bildirgan fikr-mulohazalarni navbatib ilan tinglaydi va asosiylarini ajratadi.</p> <p>2.4. Yozuv turlari, ularga oid vizual materiallarni navbatib ilan namoyish etadi, mavzuning zaruriy joylarini yozdiradi</p> <p>2.5. “Venn diagramasi” metodi orqali “Matematik lingvistika” fanining informatika, matematika, tilshunoslik fanlari bilan aloqadorligini talabalar yordamida qiyoziy tahlil qiladi, mavzudagi asosiy tayanch tushunchalar mazmunini tekshirish uchun savollar orqali shakllantiradi</p>	<p>2.1. Tinglaydi, yozib oladi.</p> <p>2.2. Eshitadi, yozib oladi, fikrlaydi, o‘z munosabatini yozma tarzda bildiradi.</p> <p>2.3. Fikrlarini tahlil qiladi, baholaydi, qo‘srimcha mulohazalarni yozib boradi, muhokamada ishtirok etadi.</p> <p>2.4. Vizual materiallarni ko‘radi, tushunadi, tasavvurlarini aniqlashtiradi, eslab qoladi, zaruriy axborotlari yozib boradi</p> <p>2.5. Fikr bildiradi, taqqoslaydi, umumiy xulosaga keladi.</p>
<b>3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)</b>	<p>3.1. Mavzuni mustahkamlash maqsadida talabalar bilan «Blits-so‘rov» o‘tkazadi, talabalar tomonidan mavzuning o‘zlashtirilganlik darajasini baholaydi, faol talabalarni rag‘batlantiradi</p> <p>3.2. Mavzu yuzasidan mustaqil ta’lim uchun yozuv turlariga «Klaster» tuzib kelishni topshiradi va zaruriy ko‘rsatmalarni beradi.</p>	<p>3.1. Tezkor so‘rovlarga javob beradi, rag‘bat oladi.</p> <p>3.2. Eshitadi, topshiriqni va zaruriy ko‘rsatmalarni yozib oladi.</p>

### **Me’yorlashtirilagantillar. Adabiytilvashevalar. Kreoltillar. Pijintillari**

<b>Adabiy tilda</b>	<b>Andijonda</b>
mana bu	manov
ana u	anov
mana shu	mashi
ana shu	ashi

Toshkentda	Samarqandda
qanaqasiz	qandaysiz
poylamoq	kutmoq
xo'p	xay
shag'am	sham
choch	soch
qillaring	qilinglar
o'rtoq	jo'ra, dugona

Adabiy tilda	Xorazmda
sabzi	gashr
g'isht	karvuch
aka	og'a
opa	apka
tuxum	yumurta
eshik	qopi

**5-mavzu.** Yozuv haqida ma'lumot. Til va yozuv munosabati.

*Amaliy mashg'ulot ning o'qitish texnologiyasi*

Mashg'ulot vaqtি – 2 soat	Talabalar soni: 20– 26 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli mavzu
Mavzu mashg'ulot ning rejasи	1. Yozuvning tarixiy ahamiyati 2. Yozuv turlari 3. Qadimgi yozuv namunalari

**O‘quv mashg‘ulot ning maqsadi:** tilningrivojlanishi, murakkabtizimekanligi, ichkiqurilishi, tilningsemiotictabiatiyoritib berish.

<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O‘quv faoliyati natijalari:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Tilning ramzlar tizimi bilan tanishtirish;</li> <li>➤ Til tizimini tashkil etgan asosiy sathlar haqida ma’lumot berish;</li> <li>➤ Murakkab sintaktik butunlikni yoritib berish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Talaba tilning ramzlar tizimi haqidagi bilimlarini tizimlashtiradi;</li> <li>➤ Til tizimini tashkil etgan asosiy sathlar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladi;</li> <li>➤ Murakkab sintaktik butunlikni yoritib berish. asoslash imkoniga ega bo‘ladi.</li> </ul>
<b>Ta’lim berish usullari</b>	og‘zaki bayon, «Tushunchalar tahlili», «Venn Diagrammasi», «Klaster» metodlari.
<b>Ta’lim berish shakllari</b>	axborotli kirish mavzusi; jamoaviy, kichik guruhlar va individual shakldagi audi-vizual ish, 80 daqiqa davomida
<b>Ta’lim berish vositalari</b>	interfaol doska, mavzu matni, vizual materiallar, elektron ishlanmalar
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	O‘TV bilan ishlashga moslashtirilgan xona
<b>Monitoring va baholash</b>	kuzatish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, savol-javob va «Blits - so‘rov», rag‘batlantirish, «Tushunchalar tahlili» metodi orqali o‘z-o‘zini baholash.

### *Amaliy mashg‘ulot ning texnologik xaritasi*

Faoliyat bosqichlari, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchining didaktik harakatlari	Talaba faoliyati
<b>1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)</b>	1.1. O‘quv kursi nomini aytadi. Ekranga kurs bo‘yicha mavzular ro‘yxatini beradi va ularga qisqacha ta’rif beradi 1.2. Birinchi mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va o‘quv faoliyati natijalari hamda adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi 1.3. Talabalar o‘quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi	1.1. Tinglaydilar Tinglaydilar, yozadilar. 1.3. Tinglaydilar, yozadilar. 1.4. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.

